

TIBBIYOT O'QUV ADABIYOTI



# FAVQULODDA VAZIYATLARDA TIBBIY KIZMAT



O. Hasanov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI  
SAQLASH VAZIRLIGI

O'. HASANOV

**FAVQULODDA  
VAZIYATLARDA TIBBIY  
XIZMAT KO'RSATISH  
TARTIBI**

*O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
tomonidan tibbiyot oliv o'quv yurtlari talabalari va  
tibbiyot kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etiladi*

Toshkent  
«Yangi asr avlodix»  
2006

*Mazkur o'quv qo'llannan suqaro muhofazasi xizmati, favqulodda vaziyatlarda himoyalanishning yagona tizimi haqida keng, mufassal ma'lumot beradi.*

*O'quv qo'llannadan tibbiyat oliy o'quv yuritlari talabalari, tibbiyat kollejlari o'quvchilari hamda boshqa shu sohaga qiziqqan kitobxonlar foydalanishlari mumkin.*

**Taqrizchilar:**

**I.R. Rahmonov,**

**O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar instituti katta o'qituvchisi, podpolkovnik**

**R.M. Ahmedov,**

**Buxoro Davlat tibbiyat instituti «Fakultet va gospital xirurgiya» kafedrasi mudiri, tibbiyat fanlari doktori, professor**

**T.Z. Qodirov,**

**Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i, polkovnik**

269935

**NAMANGAN DAVLAT  
UNIVERSITETI  
Ahborot-resurs markazi**

ISBN 978-9943-08-001-0

© Hasanov O. «Favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi». «Yangi asr avlodii» NMM, 2006-yil

## **SO‘ZBOSHI**

*Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar odamlar hayotiga xavf tug‘dirishi, qurban bo‘lishlar, ularning sog‘lig‘iga yoki atrof-muhitga zarar yetkazishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda hayot tarzini izmidan chiqarishi mumkin. Aholini bunday ofatlardan himoya etishga yagona va ishonchli kuch, bu – fuqaro muhofazasi xizmati hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni respublikamizning barcha hududlarida, viloyatlarida, shaharlarida, tumanlarda, hokimliklar va ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlardan himoyalanishning yagona tizimini asoslab beradi. Ushbu o‘quv qo‘llanma respublika Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida O‘zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining fuqaro muhofazasiga oid qarorlari hamda barcha ta‘lim muassasalarida qayta ishlab chiqilgan 50 saatlik dastur asosida tayyorlangan. Qo‘llanmaning qulaylik taraflari shundaki, hozirgi kunda fuqaro muhofazasida tibbiy xizmat tuzilmalarining tuzilishi, vazifalari, ishlash tartiblari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘zbek tilida chop etilmagan.*

*Ushbu o‘quv qo‘llanma favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish dasturiga mos keladi va o‘quv qo‘llanma shaklida tibbiyot oliygohlari, o‘quv yurtlari talabalariga dars berish mezonlariga to‘liq javob beradi.*

*Iskandar RAHMON,  
O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro  
muhofazasi instituti katta  
o‘qituvchisi*

## KIRISH

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq eng muhim vazifalar qatorida mamlakat aholisi va hududini turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizligini ta'minlash masalasiga katta e'tibor berib keldi. Yurtboshimiz Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ta'kidlaganidek, ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiyligi muammosiga aylangan.

O'zbekiston fuqaro muhofazasini tashkil etishdagi asosiy konsepsiya I.A.Karimovning bevosita rahbarligi va takliflari asosida o'z shakli va mohiyatini topgan.

Fuqaro muhofazasi, birinchidan, faqat xabardor qilish bilan shug'ullanib qolmay, balki ilmiy ma'lumotlardan, tarixiy tajribalardan, gidrometeorologiya markazi axborotlарidan, hududlarning geologik o'ziga xos tomonlaridan foydalangan holda favqulodda vaziyatlarni bashorat qila olish, odamlar xavfsizligini ta'minlash va obyektlar barqarorligini oshirish borasida tavsiyalar berishlari darkor.

Ikkinchidan, fuqaro muhofazasi organlarining ko'rsatmalari, barcha vazirliklar, boshqarmalar, mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolar tomonidan bekam-u ko'st bajarilishi zarur.

Uchinchidan, fuqaro muhofazasi organlari ko'rsatmalar berish bilan chegaralanib qolmay, balki harbiy holatdagi vaziyat singari barcha korxonalar rahbarlarini, fuqarolarni, muhandis, texnik mutaxassislarni muhofaza ishlariga, profilaktik tadbirlarni bajarishga jalb qilib, aholini o'z vaqtida ogoh etishlari lozim. Fuqaro mihofazasining maqomi va rolini o'z o'rniga to'g'ri qo'yish zarur. Bu bo'limlarda o'z kasbining ustalari ishlashlari kerak.

Xalqimiz tinchligi va sog'lig'ini, kerak bo'lsa, O'zbekiston kelajagini muhofaza qilish bugungi kunda har bir rahbar xodimdan,

har bir fuqarodan fidoyilik, jonkuyarlik va halol-u pokizalikni talab etadi. Chunki Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mustaqilligimizning iqtisodiy rivoji va fuqarolarimizning tinch-osoyishta hayotiga XXI asrda tahdid solishi mumkin bo'lgan muammolar, diniy ekstremizm, terrorizm xavfi bilan bir qatorda tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarni bartaraf etish majmuyi eng ustuvor vazifadir. Insonlar hayotini saqlash, ularga bunday vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordamning bekam-u ko'st kechikmay ko'rsatilishi fuqaro muhofazasi davlat tizimining asosini tashkil qilishi kerak.

Kritik vaziyatlarda hayot va o'lim muammosi tug'ilgan paytda ko'rsatilishi shart bo'lgan dastlabki yordamning sifati va darajasi hal qiluvchi bo'lishi mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanmaning maqsadi tibbiyot instituti va tibbiyot kolleji talabalariga favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibini o'rgatish, fuqaro muhofazasi davlat tizimi tuzilishi vazifalari, favqulodda tabiiy, texnogen xususiyatli holatlarning oldini olish, bashorat qilish va oqibatlarini bartaraf etish, vazifalar ko'lamini imkon qadar yoritishga va tibbiy xizmat tuzilmalarini bosqichma-bosqich tashkiliy tuzilishini, ishslash tartibini, ularni tibbiy, texnik va xo'jalik ta'minoti bilan tanishtirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quv qo'llanmada favqulodda vaziyatlarda kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni aniq va kechikmasdan bajarish kerak bo'lganda tabiiy, texnogen hamda harbiy holat sharoitlarida qutqarish tartiblarini yoritishga yondashilgan. O'quv qo'llanmada yoritilgan mavzular O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligi tibbiyot institutlari, kollejlari talabalarini favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha o'qitish dasturiga amal qilgan holda yozilgan. Qo'llanmada keltirilgan mavzular ketma-ketligi o'quv dasturiga mos holda yoritilgan bo'lib, tala balarga favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish kursi doirasida mustaqil ravishda bilimlarni egallashga imkon beradi.

O'quv qo'llanmada favqulodda vaziyatlar turlarining ta'rif, fuqaro muhofazasi tuzilmalari, ularning vazifalari, ishslash tartiblari ketma-ketlik bilan keltirilgan bo'lib, bular aholini va hududlarni favqulodda holatlarda himoyalash ishlarini tashkil etish borasidagi qonun va hujjatlarga tayanilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda qoidalar to'la yoritilgan.

## **FUQAROLAR MUHOFAZASINING HOZIRGI DAVRDAGI O'RNI VA MOHIYATI**

Biror bir inson o'zini turli noxush voqealardan, tabiiy yoki texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan kafolatlangan, deb ayta olmaydi. Shunday ekan, taraqqiyot yo'lidan sobitqadam tashlab borayotgan har bir davlatning o'z hududi va fuqarolari muhofazasiga qaratilgan barcha chora-tadbirlarni ko'rishi tabiiy holdir. Ilmiy texnika rivojining avj olgan hozirgi davrida insoniyat ko'plab hodisalarining guvohi bo'lib, ayrim sohalarda tabiatning favqulodda hodisalarini oldindan bilib, ehtiyyotkorlik choralarini ko'rishni, ularga qarshi kurashish yo'llarini o'rganib bormoqda. Ammo tabiatning ko'pgina hodisalari hamon misli ko'rilmagan zarar keltirmoqda. Masalan: yer qimirlashi, suv toshqini, katta-katta yong'inlar, bo'ronlar, qor ko'chishi, sunami va boshqalar. Bundan tashqari tabiiy gaz, tabiiy metan aralashmasining ko'pgina inshootlarda yig'ilib portlashini Chelyabinsk, Ufa temir yo'l magistrali misolida ko'rish mumkin. Shunday hodisa Chernobil AESida ham qayd qilindi. Bunday hollarda qutqaruvchi kuchlarni oldindan tayyorlab borilishi va bu kuchlarning doimo shay bo'lishini, barcha fuqarolarning ogoh bo'lishini talab etadi. Xalqimizda o't balosi, suv balosi va tuhmat balosidan o'zi asrasin degan naql bezijz aytilmagan. Agar mazkur maqolning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, har birimizdan har qanday ofatlarga tayyor turish talab etiladi. Zero, muqaddas kitoblarda «Sen o'zingni asrasang, men seni asrayman», degan so'zlar bekorga aytilmagan.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, barcha aholini ogohlikka da'vat etish. Fuqaro muhofazasining hozirgi davrdagi asl mazmun va maqsadi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, undan barcha aholini himoyalash, o'rgatishga alohida e'tibor berishdir.

Tabiiy ofatlardan yer qimirlashi, ayniqsa, o'ta xavfli hisoblanadi. 1948-yilning 6-oktabrda Ashxabodda, 1966-yilning 26-aprelida Toshkentda, 1987-yilda Armanistonda katta kuchga ega bo'lgan yer qimirlashlar minglab kishilarning yostig'ini quritdi, necha minglab odamlar uy-joysiz qoldilar, shikastlandilar. Yer kurrasidagi bir necha kuchli suv toshqinlari: 1953-yil 1-fevralida Angliyada, 1973-yilning avgust oyida Pokiston va Hindistonda, 1974-yilda Belorussiyada, Shimoliy Italiyada va boshqa gavlatlarda o'n minglab kishilarni halok qildi. 1990-yilda Tojikistonda yer ko'chkisi natijasida butun qishloq tog' botqog'i ostida qoldi. 1991-yilda Toshkent viloyatining To'ytepa tumanida ham shu hodisa yuz berdi. 2004-yil 26-dekabr kunidagi Hind okeani qirg'og'ida joylashgan qator davlatlarda sodir bo'lgan sunami minglab qurbanliklarga olib kelgan. Tabiatning kutilmagan hodisalarining oqibati misli ko'rilmagan vayronaga olib keldi va hozir ham o'ta xavfli hisoblanadi.

Ammo tabiatninggina injiqligi emas, hattoki odamlarning o'zları ham turmushda ko'plab talafotlarga, tabiiy ofatlarga sabab bo'la oladilar. Asrlar tutash kelgan bugungi pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelmoqda. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib turish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'pchilik aholi ushbu muammoga beparvo va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar. Masalan: Chernobil atom elektr stansiyasining 1987-yildagi hodisasi, Hindistondagi va Italiyadagi kimyo zavodining portlashi, Ekaterinburgdagi temir yo'l talafotlari keltirgan zararlar misolida yoki 2003-yilda Hindistonda sodir bo'lgan gidrometeorologik jarayon – suv toshqini sunamida 650 kishi qurban bo'lgani, 2004-yil 26-dekabrdagi Hind okeani qirg'og'ida joylashgan qator mamlakatlarda yer qimirlashi va sunamidan 170 ming kishi qurban bo'lishi, millionlab odamlarning boshpanasiz qolishi tabiatning kutilmaganda falokat keltirishi naqadar xavfli ekanligi, yana bir karra favqulodda vaziyatlarda doimo tayyor bo'lishimizni talab etadi. Insoniyat yashar ekan, o'z-o'zini har qanday ofatlardan asray olishi, uni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi zarurdir.

Hozirgi davrda mamlakatlararo vaziyat ham mustahkam emas. Ya’ni urush xavfiyo‘qemas debaytolmaymiz. I.A. Karimovning «O’zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida hozirgi siyosiy, harbiy muvozanat quyidagicha tahlil qilingan. Beto‘xtov davom etayotgan qurollanish poygasi, atom, kimyoviy qurollar va ommaviy qirg‘in qurollarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, saqlash va sinash insoniyat yashaydigan muhit uchun juda katta xavfdir. Modomiki shunday ekan, qo‘qqisidan vaziyat o‘zgarib, urush boshlanguday bo‘lsa, unda taraflar o‘zları ega bo‘lgan barcha qurol-yarog‘larni ishlatalilar, ayniqsa, yadro quroli, kimyoviy, biologik, yoppasiga qiruvchi qurollar ishlatilish xavfidan jamiyatimiz xoli emas. Bunday sharoitda qisqa vaqt mobaynida minglab kishilar halok bo‘lishi, necha minglab yaradorlar, shikastlanishlar, zaharlanishlar va o‘ta xavfli yuqumli xastaliklarning ko‘payishi, ularga tegishli tez yordam berishni, vaziyat vujudga kelgan joydan olib chiqish, tegishli tibbiy yordam ko‘rsatish hamda sodir bo‘lgan oqibatlarning tugatilishi uchun ham ma’lum darajadagi kishilar, mutaxassislarni jalb qilish zarur bo‘ladi. Bu borada O’zbekiston Respublikasining 1999-yilda «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida» qabul qilgan qonuni O’zbekiston aholisini va hududlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan (bundan keyin matnda favqulodda vaziyatlar FV deb yuritiladi) muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda ro‘y berishi va rivojlanishi mumkin bo‘lgan vaziyatni oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda oqibatlarni bartaraf etishni kafolatlaydigan imkoniyat yaratadi. O’zbekiston fuqarolarini har qanday ofatlardan himoyasini ta’min etadigan qonuniy hujjatning qabul qilinishi ushbu muammoning yechimida assosiy vazifalar ko‘lamini jamlaydi. Hozirgi paytda respublikamizda fuqaro muhofazasi tashkiliy ishlarini O’zbekiston Respublikasi sharoitiga moslab, uning tuzilishi, vazifalari, ishlash uslublari to‘la shakllantirildi. Qo‘llanmada fuqarolar muhofazasining tuzilish tartibi yoritilgan.

## Fuqaro muhofazasi haqida tushuncha

Fuqarolar muhofazasining asosini korxonalarda, muassasa-larda maxsus tuzilgan guruhlar va ularning ta'minotidagi vositalar hisoblanadi. Bu guruh mutaxassislari tinchlik davrida transport vositalari, maxsus texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat, dori-darmonlar bilan hisob qilingan me'yor asosida ta'minlanadilar va maxsus reja asosida o'qitiladilar. Fuqarolar muhofazasi guruhlarini tuzish, o'qitish va doimo favqulodda hodisalarda tayyor turish Vazirlar Mahkamasining 7-oktabr 1998-yildagi "Favqulodda vaziyatlarda himoyalanishga o'qitish to'g'risida"gi qaroriga asosan barcha tashkilotlar, o'quv yurtlarida o'tkazilishi nihoyatda muhim va shu bilan birga o'ta murakkab hisoblanadi. Chunki bu ishga barcha fuqarolar, mavjud texnik vositalar, xalq xo'jaligi transportlarini jalb qilishga to'g'ri keladi.

Fuqarolar muhofazasi guruhlarini tuzishda va ularni har tomonlama ta'minlash, o'rgatish, mashq ishlari, avvalambor, ularning yo'naliishiga qarab, ya'ni xalq xo'jaligining qaysi sohasida ishlashi bilan aniqlanadi. Chunki har bir soha mutaxassislari o'z yo'naliishlari bo'yicha ishlarni bajarishga jalb etiladilar. Fuqarolar muhofazasining ishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda hodisalarning oqibatini bartaraf etishda, qutqarish ishlarida vayron bo'lgan tarmoqlarni qayta tiklash uchun har bir mutaxassis o'z kasbi bo'yicha ishlatilmog'i lozim. Qutqaruvchi guruhlarni tuzish davrida har bir shahar yoki qishloqning geografik joylashishini e'tiborga olib, shu regionda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan kelib chiqib FV tuzilmalari belgilanadi. Bunda fuqaro muhofazasining shtab boshlig'i o'z xizmat joyining doirasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vayronagarchiliklarning hajmini aniqlashi shart. Shu asosda guruhlarning tarkibini, sonini, texnik vositalar bilan ta'minlanishini joriy etmog'i lozim. Masalan: kuchli yong'in xavfli joylarda qutqaruvchilar o'tga chidamli maxsus kiyim, buldozerlar, mo'ri qazuvchi texnik vositalar bilan, suv toshqini xavfli joylarda esa, suzuvchi va qutqaruvchi xalqalar, dambalar quruvchi texnik vositalar bilan, seismologik xavfli zonalarda esa, ko'milib qolgan inshootlarni tozalovchi va kommunal

xo'jaliklarda uy-joy xo'jaligini qayta tiklovchi texnik vositalar, yuk tashuvchi, qutqaruvchi hamda o't o'chiruvchi xodimlar, ularning asbob-uskunalarini ko'zda tutilishi kerak.

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari, tashkil qilinishi kerak bo'lgan guruahlari har bir korxona xodimlaridan tuzilib, bunda korxonaning ritmik ish jarayoniga salbiy ta'sir etmasligi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga, tashkil etilgan guruhlarning kerak bo'lgan paytda nihoyatda tez, chaqqon yig'ilishi ko'zda tutilishi lozim. Favqulodda hodisalarini tugatishda tashkilot rahbar xodimlarining kechikib qaror qabul qilishi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tashkilotchilar, avvalambor, o'z kasb sohasining ma'lum tajribasiga ega bo'lmog'i kerak. Tashkiliy guruhlar bir-biriga itoatkorlik tarzida tuziladi: Har bir guruhning boshliqlari fuqaro muhofazasining tuman, shahar, viloyat, respublika tizimida pog'onama-pog'ona yo'llanma olishlari, dastavval, tinchlik davrida tuzilmalarda ishlash uslublarini o'rgatishlari, zarur bo'lganda shoshilinch chaqiruv eshittirish vositalari orqali qachon va qayerga yig'ilishlari, qachon va kimdan transport vositalarini olishlari, asbob-uskunalar, kiyim-bosh, oziq-ovqat, dori-darmon, suv va hokazolarni kimdan, qay miqdorda, qay tartibda olishlari, qaysi joyga olib borishlari, uning marshruti va vaqtinani aniq belgilanmog'i lozim. Vazirlar Mahkamasining 7-oktabr 1998-yilgi «O'zbekiston Respublikasi aholisining favqulodda vaziyatlardan himoyalashga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi qaroriga asosan, viloyatlar, tumanlarda tashkil etilgan doimiy faoliyat olib boruvchi favqulodda vaziyatlar komissiyasidan aholini, ishchi-xizmatchilarni FVda himoyalash, qidiruv-qutqaruv ishlarini aniq reja asosida boshqarishlarga o'qitish ishlarini tashkil qilishlari talab qilinadi. Barcha fuqarolar, ya'ni ishchilar, xizmatchilar, maktab o'quvchilari, kollej-litsey va oliy o'quv yurtlari talabalari hamda uy bekalari, qariyalar favqulodda hodisalar to'g'risidagi ma'lumot (signallar)ni eshitish bilan qanday ishlarni bajarishlarini aniq bilmoqlari zarur. Shu bilan birga yuqori pog'ona fuqaro muhofazasi shtabi o'z qaramog'idagi tashkilotlarning doimiy tayyorlik holatini tekshirib turishi lozim.

Fuqarolar muhofazasining eng muhim tuzilmasi – TQQTI (Tez qutqaruv va qayta tiklash ishlari guruhi) hisoblanadi.. Bu muhim vazifani amaliyatda amaliy mashqlarda namoyish etish, tushuntirish, guruhlash mashg‘uloti, seminarlar kabi darslarda o‘rgatiladi. Bunda fuqaro muhofazasi tuzilmalarining nazariy va amaliy bilimlari chuqurlashtiriladi. Qo‘mondon-shtab mashq o‘yinlarida ularning bilim darajalari sinaladi va baholanadi. Fuqarolarni muhofazaga o‘rgatish va ularni doimo shay bo‘lishlarini fuqaro muhofazasi boshlig‘i zimmasiga yuklanadi. Bunda har bir obyekt, korxona, tashkilotning boshliqlari javobgarligini to‘la ma’jburiyat bilan yo‘lga qo‘yishlari lozim. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini joy-joyiga qo‘yish, ularni fuqaro muhofazasi ishiga jalb qilib, bir necha korxonalarining favqulodda hodisalarda hamjihatlikda ish olib borishlariga erishish zarur. Qutqarish, qayta tiklash ishlарini oldindan rejalashtirish asosida tez va sifatli bajarishga erishmoq asosiy maqsad deb topilmog‘i lozim. Amaliy hamda nazariy bilimlarni bajarish, aholini hamda fuqaro muhofazasi guruhlarini o‘qitish, o‘rgatish umumxalq vazifasi qilib belgilanishi talab qilinishi kerak.

### **Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy omillari**

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning omillari quyidagilardan iborat:

- insonparvarlik, odamlar hayoti va sog‘lig‘ining ustuvorligi;
- oshkoraliq – tabiiy yoki texnogen xususiyatli hodisalar to‘g‘risida aholini ogohlantirish;
- axborotni o‘z vaqtida berilishi va ishonchli bo‘lishligi;
- favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarini oldindin ko‘rilishi;
- davlat, hokimiyat va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, tashkilotlar o‘quv yurti rahbarlari aholini va hududlarning favqulodda xavfsizligini ta’minlash yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro‘y bergen favqulodda vaziyatlar

to‘g‘risida, ulardan barcha aholini, ishchi-xizmatchilarni, o‘quvchi, talabalarni, hattoki nafaqaxo‘rlar, uy bekalari, barcha-barcha aholini muhofaza qilishning uslub va yo‘llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali mamlakat fuqarolarini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot bilan ta‘minlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Mansabdor shaxslar tomonidan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarning yashirilishi, o‘z vaqtida ogohlantirilmasligi yoki bila turib yolg‘on axborot berilishi ularning qonun oldida javobgarligiga sabab bo‘ladi.

### **Favqulodda tabiiy hodisalar paytida fuqaro muhofazasining vazifalari**

Hozirgi zamonda fuqarolar muhofazasining vazifaлari murakkab va ko‘p qirrali. Avvalambor, dunyoda notinchlik, ekoterrorizm xavfi tamoman yo‘qotilmaganligi tinchlik vaziyati qiyinlashgudek bo‘lsa, har bir mamlakat o‘zini xavf-xatardan saqlay olishini taqozo etadi. Ayni paytda yer yuzida har xil tabiiy favqulodda xavfli hodisalar – yer qimirlashi, suv toshqini, bo‘ronlar, sunamilar, yong‘inlar, har xil talafotlar bilan bir qatorda ko‘plab avariya talafotlari natijasida ommaviy zararlanishlar ro‘y berishi mumkin. Bunda ommaviy shikastlanishlarga yordam berish, talafot natijalarini yo‘qotish ishlari ko‘p qirrali vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun ham fuqaro muhofazasi umum davlat vazifasi deb hisoblanadi.

Bu vazifalar tinchlik davrida urush xavfi tugilgan paytda aholini himoyalash, xalq xo‘jaligini yoppasiga qiruvchi quroldan va boshqa xavfli hodisalardan ehtiyyot qilish, qutqarish, halokatlar oqibatini shoshilinch yo‘qotish, ishlab chiqarish, xalq xo‘jaligining ishlash faoliyatini qayta tiklash ishlarini sodir bo‘lgan o‘choqda olib borilishi kerak. Bunday nihoyatda murakkab vaziyatda bajarilishi shart bo‘lgan vazifalarning ijrosini fuqarolar muhofazasining tashkilotlari, guruhlari, harbiy

xizmat xodimlari bilan hamkorlikda olib boradilar. Buning uchun ularga tegishli shart-sharoit yaratilishi umum davlat vazifasiga kiradi.

Fuqaro muhofazasining vazifalariga quyidagilar kirdi:

- mamlakat aholisini yoppasiga ommaviy qiruvchi qurollardan himoya qilish;

- ishlab chiqarish korxonalarining ritmik ishlashini ta'minlash va yoppasiga qiruvchi qurol ishlatalganda ularni himoyalash;

- vayronagarchilik sodir bo'lgan o'choqda qutqarish ishlarini tez va shoshilinch bajarish;

- aholiga tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;

- xalq xo'jaligi, jonivorlar, ekinzorlarni radioaktiv moddalardan zaharlanishdan va bakteriologik yuqumli xastalikdan himoya qilish;

- sodir bo'lgan favqulodda hodisaning oqibatini bartaraf etish kabi vazifalar yuklatiladi.

Shu vazifalar ichida aholini yoppasiga qiruvchi quroldan himoya etish eng muhim hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda eng muhimrog'i – aholini yashirinishi uchun moslangan yerto'lalar, radiatsiyaga qarshi uskunalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga egadir:

- aholini yakka himoyalovchi kiyim bilan ta'minlash, o'pka, havo yo'llari, teri, badanni himoyalovchi va tabiiy himoya vositalari bilan ta'minlash;

- aholini katta shaharlardan – talafot o'choqlaridan olib chiqib ketish;

- epidemiologik, sanitariya-gigiyenik chora-tadbirlarni o'tkazish;

- maxsus profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish;

- dozimetrik nazorat o'tkazish, kimyoiviy zaharli moddalarga qarshi ziddi-zaharlarni qo'llash, biologik quroqga qarshi profilaktik choralarini qo'llash;

- aholini va fuqaro muhofazasi bo'limlarini o'z vaqtida chaqirish, ayniqsa, ekoterrorizm, agressiya, tajovuzlar xavfi tug'ilganda bu ishni kuchaytirish;

- ishlab chiqarish korxonalarining ritmik ishlashini ta'minlash;

- xomashyo, oziq-ovqat boyliklarini olib chiqish va asrash;
- oldindan ehtiyyotkorlik inshootlarini qurish, ularni jihozlash;
- ishlab chiqarishdagi asbob-uskunalarining himoya choralarini ko'rish;
- yong'inga qarshi ehtiyyot choralarini ko'rish, tayyorlash;
- mustahkam va ishonarli aloqa vositalarini tayyorlash, o'z vaqtida aholini ogohlantira olish choralarini tayyorlash kabi vazifalar kiradi.

### **Fuqarolar muhofazasining kuchi, vositalari va tuzilmalari**

Hozirgi davrda fuqarolar muhofazasining ma'lum darajada tashkil topgan tizimi mavjud, ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish korxonalari, jamoa xo'jaliklari tashkil etilishi shart bo'lgan fuqarolar muhofazasining shtabi va uning tarkibi;
- tuman, shahar fuqaro muhofazasining tashkiliy shtabi;
- viloyatlar va avtonom jumhuriyat fuqaro muhofazasining shtabi va tarkibi;
- respublika, jumhuriyat fuqaro muhofazasining markaziy shtabi va tashkiliy tarkibi.

Fuqarolar muhofazasining aholi himoyasi vazifalarini o'z vaqtida oqilona bajarishi, avvalambor, xalq xo'jaligida, korxonalarda tashkil etilgan fuqaro muhofazasi shtabining O'zbekiston Respublikasi fuqarolar muhofazasi to'g'risidagi qonun va hujjatlarda nazarda tutilgan barcha qoidalarga asoslanib tashkil etilishi, ta'minlanishi va fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoyalanishga o'qitilib, tayyorgarlik ko'rilganligi hamda hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan texnik vositalar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Tashkiliy tomondan uning tuzilishida quyidagi prinsipga amal qilinadi:

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari (otryadlar, komandalar, kolonnalar, brigadalar, stansiyalar, postlar va har xil vazifalarni bajaruvchi zvenolar) tinchlik davrida hududiy va ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha tashkil etiladilar.

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari barcha korxonalarda, tashkilotlarda, o'quv yurtlarida favqulodda vaziyatlar o'choqlarida qutqarish va boshqa shoshilinch, qayta tiklash ishlarini boshqarish uchun qaysi vazirlik va shaxsiy korxona qaramog'i dan qat'iy nazar tashkil etilishlari shart.

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari viloyat, tuman, shahar favqulodda vaziyatlar qaramog'ida va har bir korxonaga tegishli obyekt tuzilmalariga bo'linib tuziladilar. Bajaradigan vazifalariga qarab esa, umumiy vazifalarni bajaruvchi, bular – o'choqlarda qutqaruv ishlarini bajarish uchun tuziladi hamda maxsus tuzilmalar bilan razvedka qidiruv, qutqaruv, tibbiy yordam ko'rsatish, yong'lnarni chegaralab o'chirish, jamoa tartibini qo'riqlash va boshqa vazifalardir.

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari hududiy ishlab chiqarish obyektidagi va fuqarolar muhofazasi tizimining tuzilmalari tarzida tashkil etiladi.

Hududiy tuzilmalar jumhuriyat, viloyatlar, shaharlar tumanlarda tuzilib, shu hududning favqulodda vaziyatlar boshqarmalari boshliqlariga bo'ysunadilar. Bular obyekt tuzilmalari bilan hamjihatlikda o'ta muhim ahamiyatga xos bo'lgan favqulodda holatlarda umumiy boshqarish, rejalash-tirish, nazorat etish vazifalarini bajaradilar.

Obyekt tuzilmalari barcha korxonalarda tashkil qilinib, shu korxona fuqaro muhofazasi boshlig'iga bo'ysunadilar. Obyekt tuzilmalari favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi xizmati va boshqa vazifalarni bajarishga mo'ljallanadi, ammo ayrim vaziyatlarda ular fuqaro muhofazasi boshlig'ining ko'rsatmasi bilan boshqa obyektlarda ham tuzilishi mumkin.

### **Fuqarolar muhofazasining umumiy bo'limlari**

Umumiy bo'limlar har bir korxonaning ishlash prinsiplariga qarab tuziladi. Katta-katta korxonalarda barcha otryadlarni tashkil qilinishi mumkin. Korxonaning boshlig'i fuqaro muhofazasining boshlig'i hisoblanadi va u o'z shtabini hamda guruhlarini tuzishi kerak. Fuqarolar muhofazasining ishlab chiqarish korxonalari shtabi tarkibiga – aloqa va tez chaqirish,

tibbiy xizmat, radiatsiya va kimyo himoyalash, jamoat tartibini qo'riqlash, yong'inga qarshi, energetik, yorug'likni berkitish (svetomarkirovka), texnik-avarialarini tuzatish, umumtexnik va kiyim-kechak ta'minoti, qishloq xo'jaligi ekinzorlarini himoyalash bo'limi kabilar kiradi.

Fuqaro muhofazasining tashkiliy bo'limlari o'z shahri, tumanida qanaqa tabiiy ofatlar yoki katta-katta falokat bo'lishi mumkinligini o'rganishlari, bilmoqlari va ularning oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etilishini ta'minlay olishlari lozim.

Favqulodda hodisa sodir bo'lib qolganda fuqaro muhofazasining boshlig'i tezlik bilan hodisaning hajmini aniqlay olishi, bajarilishi shart bo'lgan qutqaruv ishlarining hajmini belgilashi hamda qutqarishda, qayta tiklash ishlarini tezlik bilan (TQQT) tashkil etmog'i zarur. Shu maqsadda sodir bo'lgan sharoitni e'tiborga olgan holda qutqaruvchi guruhlarning tarkibi va soni aniqlanadi. Ularning ishslash tartiblari belgilanadi. Bajarilishi shart bo'lgan ishning hajmiga, xususiyatiga qarab bo'limlar mutaxassislarining himoya ishlari belgilanadi. Masalan: katta o't o'chirish ishini bajaruvchi o't o'chiruvchilar yong'inga qarshi chidamli, issiqlikni o'tkazmaydigan kiyim bilan ta'minlanishlari lozim. Fuqarolar muhofazasining barcha soha bo'yicha asosiy faoliyati mahalliy hokimiyat boshliqlari boshchiligidagi olib boriladi. Shu bilan birga fuqarolar muhofazasi territorial ishlab chiqarish prinsipi asosida tuziladi. Bunda ishlab chiqarish korxonalari qay sohada tobe bo'lishidan qat'iy nazar uning fuqaro muhofazasi shahar, tuman, viloyat yoki jumhuriyat fuqaro muhofazasi tarkibiga kiradi va shu joyning fuqaro muhofazasi shtabi buyrug'ini bajarishi shart. Fuqaro muhofazasi o'z sohasi vazirligi nazaratida ham turadi. Fuqaro muhofazasi favqulodda vaziyatlarda mamlakat aholisini xomashyo, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon bilan ta'minlanishi zarur. Tashkiliy tomondan fuqaro muhofazasi markazlashgan boshqaruv yo'llari bilan idora etiladi. Har bir fuqaro muhofaza ishiga qatnashmog'i shart.

Har bir korxonaning fuqaro muhofazasi bo'limi boshlig'i shu korxonaning rahbari hisoblanadi. U shu korxonadagi fuqaro muhofazasining tuzilishi va vositalarining shay bo'lib turishiga

javobgar hisoblanadi. Fuqaro muhofazasi bo'limining boshlig'i o'z yuqori bosqichidagi boshlig'iga va shahar, tuman yoki viloyat fuqaro muhofazasi bo'limining boshlig'iga itoat etmog'i zarur.

Ko'pincha, fuqaro muhofazasining boshlig'I, uning yordamchisi tayinlanadi, u tinchlik, osoyishtalik davrida shu korxonaning fuqaro muhofazasining tashkilotchisi va boshqa tayyorgarlik ishlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlay olishi shart. Har bir korxonada fuqaro muhofazasi boshlig'i, uning o'rinnbosaridan tashqari yana yordamchilari tayinlanadi. Bularga fuqarolarni joy-joyiga tez tarqatish bo'yicha, fuqarolarni tez olib chiqish bo'yicha, injener-texnik bo'yicha yordamchi hamda ta'minot yordamchisi tayinlanadi. Bu yordamchilar shtatdan tashqari bo'lib, o'z sohasining boshliqlari va o'z sohalari bo'yicha doimo tashkiliy ishlarni bajarishlari zarur.

Favqulodda vaziyatlarda ishchi-xizmatchilarni o'z vaqtida olib chiqish va tarqatish ishini evakuatsiya komissiyasi bajaradi. U ishchilarni fuqaro muhofazasining ma'lumotini olishi bilan shahar tashqarisida mo'ljallangan maxsus joyga olib chiqilishini hamda ularning oila a'zolarini ham xavf-xatarsiz joylashishini ta'minlashi zarur, buning uchun uning ixtiyorida yetarlicha texnika-sozlash va transport vositalari bo'lishi shart.

Injener-texnik yordamchisi etib shu korxonaning bosh injeneri tayinlanadi. U shu korxonaning injener-texnik xavfsizligini ta'minlashi zarur, ya'ni yong'inga qarshi choralarini tayinlashi, bekinish yerto'lalarini tayyorlashi, ularning ta'minotini hamda qutqarish, yordam berish ishlarini tashkil etib, ularning doimiy shay holatini ta'minlashi zarur. Ta'minot bo'yicha vazifalar korxonaning umumiyligi ta'minoti yordamchisi zimmasiga yuklatiladi. U o'z sohasi bo'yicha ishchi-xizmatchilarni barcha himoya vositalari, oziq-ovqat, suv, kiyim-bosh bilan to'la ta'minlanishini xal etmog'i lozim. Yuqorida keltirilgan vazifalarini bajaruvchilar korxona muhofazasining shtabi tarkibiga kiradilar.

Bulardan tashqari, aloqa va tez ma'lumot berish, jamoat tartibini himoyalash, o't o'chirish, tibbiy xizmat ko'rsatish, energetik xizmat ko'rsatish, yerto'lalar qurish, injener-texnik

ta'minlash, yorug'likni o'chirish (svetomaskirovka), radiatsiya – kimyo himoyasi xizmati, transport ta'minoti guruhi va boshqa bo'limlar tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi tuzilmalariga quyidagilar kirdi:

1. Razvedka-qidiruv xizmati – guruh, zveno va postlar shaklida tuziladilar. Ular favqulodda vaziyat holatlarida zararlangan joylarni aniqlaydi hamda aholini ko'chirish marshrutlarida kimyoviy radiatsion nazorat ishlarini bajaradilar.

2. Aloqa xizmati tuzilmalari – komanda, guruh va zveno shaklida tuzilib, korxona fuqaro muhofazasi boshliqlarini viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda hokimlik va mahallalar boshqaruv tuzilmalari bilan doimiy aloqa o'rnatalishini ta'minlaydilar.

3. Tibbiy xizmat tuzilmalari – sanitar postlari, sanitar drujinachilar, sanitar drujinachilar otryadi shaklida tuziladi. Ular jarohatlanganlarga va bemorlarga o'choqda tibbiy yordam ko'rsatish, evakuatsiyalash, sanitar-gigiyenik hamda epidemiyaga qarshi vazifalarni bajarish uchun tuziladilar.

4. Yong'inga qarshi tuzilmalar – komanda, bo'lim va zveno shaklida tuzilib, favqulodda vaziyat holatlarida yong'in holatlarini chegaralash, o't o'chirish, qutqarish ishlarini bajarish maqsadida tuziladilar.

5. Injener-texnik xizmati – komanda, guruh va zvenolar shaklida tuzilib, bu xizmat xodimlari injener razvedka qidiruv ishlari, boshqa shoshilinch xizmatlar, qayta tiklash, yo'l qurilmalarini qayta tiklash, himoyalanish inshootlarini tiklash ayrim holatlarda zarurat tug'ilganda qutqarish va qo'porish ishlarini bajarish uchun tuziladilar.

6. Avariya-texnik xizmati – komanda shaklida tuzilib, avariya-texnik xizmatini bajarish, kommunal-energetik, transport, kommunikatsiya, yo'l holatlarini tiklash uchun tuziladi.

7. Radiatsion va kimyo himoysi xizmatlari – otryad, komanda, guruh va punktlar shaklida tuzilib, bu xizmat mutaxassislari radioaktiv va kimyoviy zararlanish o'choqlarida, harakat qilish yo'llarida tashkil etiladilar. Shu maqsadda ushbu

xizmat tuzilmalari sanitар tozalash, dezinfeksiyalash, degazatsiyalash hamda dezaktivatsiyalash ishlarini fuqarolar muhofazasi xizmati tuzilmalarida va aholi orasida, joylarda bajaradilar. Bu tuzilmalar zimmasiga shuningdek, radioaktiv va kimyoviy holatni nazorat qilish hamda o'ta kuchli zaharlovchi kimyoviy o'choqni chegaralash, oqibatlarini bartaraf etish vazifalari yuklatiladi.

8. Avtomobil xizmati – otryad, avtosaf shaklida tuziladilar. Bu tuzilmalar shahar aholisini xavfsiz joylarga ko'chirish, moddiy-texnik jihozlarni olib chiqish, avariya qutqaruv guruhlarini o'choqqa tashish, jarohatlanganlar va bemorlarni kasalxonalar bazalariga evakuatsiya qilish, ishchi-xizmatchilarni ish joylariga yetkazish, himoyalash qurilmalarini o'choqqa olib kelish xizmatlarini bajaradilar.

9. Jamoa tartibini qo'riqlash xizmati tuzilmalari – guruh va zveno shaklida tuzilib, ular jamoa tartibini saqlash va komendantlik xizmatini, aholini shaharlardan ko'chirish jarayonlarida, ko'chib o'tgan hududlarda, yo'l harakati jarayonlarida, radiatsiya va kimyoviy zaharlanish o'choqlarida bajaradilar.

10. Umumiy ovqatlanish xizmati tuzilmalari – harakatchan ovqatlanish punktlari shaklida tuziladilar. Ular favqulodda holatlarda fuqarolar muhofazasi tuzilmalari joylashgan joylarda qutqaruv ishlarini bajarishga jalb etilgan tarkibni issiq ovqat bilan ta'minlaydilar.

11. Harakatdagи oziq-ovqat va kiyim-kechak savdo tarmoqlari otryad shaklida tuziladilar. Ular fuqaro muhofazasi xizmati tuzilmalarini quruq oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak bilan, zarurat tug'ilganda issiq ovqat bilan ta'min etadilar.

12. Sanoat xomashyolari savdo xizmati tuzilmalari sanitар – tozalash, yuvish punktlarini hamda birinchi tibbiy yordam otryadlarini kiyim-kechak hamda sanitар-xo'jalik mollari bilan ta'minlaydilar.

13. Harakatli avtoyonilg'i quyish stansiyalari avtotransport va boshqa texnik vositalarni hamda o'choqda favqulodda hodisalar oqibatlarini bartaraf etishga safarbar etilgan transport

vositalarini, fuqarolar muhofazasi avtotransportlarini yoqilg'i, yog' mahsulotlari bilan ta'minlash uchun tuziladilar.

14. Suv tashuvchi zvenolar fuqarolar muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkibini va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun tuziladilar.

15. Texnik xizmatni ta'minlash – harakatchan, avariya texnik sozlash, ko'chirish ishlari uchun favqulodda holatlarda texnik vositalarni dala sharoitida, o'choqda, yo'lda va joylarda sozlash, qayta ta'mirlash xizmatlarini bajarish uchun tuziladilar.

16. Qishloq xo'jaligi, fermerlik qaramog'idagi jonivorlarni himoyalash – komanda, brigada, guruh va zvenolar shaklida tuziladi. Bu tuzilmalar veterinariya xizmati, qidiruv-vetrazvedka ishlarini hamda qishloq xo'jaligi jonivorlarini, suv manbalarini, oziq-ovqat mahsulotlarini himoyalash, sanitар tozalash hamda karantin-chevara xizmatlarini bajaradilar.

17. Qishloq xo'jaligida o'simliklarni himoyalash – komanda, brigada, guruh va zeno shaklida tuziladilar. Ular fitopatologik, entomologik, razvedka-qidiruvi, o'simliklar, oziq-ovqat mahsulotlarini himoyalash vazifalarini bajarish uchun tuziladilar.

Fuqarolar muhofazasi xizmati va favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmalari sodir bo'lishi xavfi bo'lgan boshqa holatlarda sharoitdan kelib chiqib qo'shimcha boshqa xizmatlar tuzilmalarini tuzishlari mumkin.

Barcha viloyatlarda favqulodda vaziyatlarning hududiy tuzilmalari quyidagi tartibda tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bular umumiy vazifalarini bajaruvchi tashkiliy otryadlar, komandalar, mexanizatsiyalashtirilgan otryadlar va quyidagi xizmatlar yo'nalishi bo'yicha tuzilmalar bo'lishi shart:

- razvedka-qidiruv guruhlari, suvda, temir yo'l transportida, havo transporti (vertolyotlar), havodan razvedka-qidiruv xizmatlari;

- aloqa xizmati (komandalar, guruhlar);

- tibbiy xizmat (epidemiologik tekshiruvi, birinchi tibbiy yordam otryadlari, maxsus tibbiy yordam brigadalari, jumladan, maxsus epidemiologik brigadalar, harakatchan dala sharoitida

xizmat qila oladigan epidemiyaga qarshi otryadlar, yuqumli kasalliklar va epidemiyaga qarshi otryad);

- injenerlik xizmati (injener razvedka-qidiruv guruhlari, yo'l va ko'priklarni ta'mirlash komandalari, yo'l ochishda, qidiruv ishlarida zarur bo'lgan qo'riqlovchilar komandalari hamda maxsus pistirmalar, himoyalanish inshootlari xizmati, zvenolari);

- avariya-texnik sozlash xizmati, avariya texnik komandalari, elektr tarmog'ini sozlash komandalari, gaz tarmog'ini sozlash komandalari, suv quvurlari tarmog'ini hamda chiqaruv quvurlari (kommunikatsiya), issiqlik tarmoqlarini sozlash komandalari;

- radiatsiya va kimyoviy himoyalanish xizmati guruhlari, zvenolari, radiatsiya va kimyoviy razvedka-qidiruv bo'linmalari, zararsizlantirish hamda sanitat yuvish punkti, dezinfeksiylash stansiyalari;

- avtomobil transporti xizmati (avtosaf va avto otryadlar) shaklidagi tuzilmalari;

- jamoa tartibini saqlash (komanda, guruh);

- moddiy va ma'naviy ta'minot xizmati, harakatchan ovqatlantirish punktlari, oziq-ovqat va kiyim-kechak ta'minoti, harakatchan turdag'i transport vositalarini yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlovchi AYOQSH (AËKШ) punktlari hamda suv tashish ta'minoti xizmati guruhlari;

- texnik xizmat ko'rsatish (harakatlanuvchi texnik sozlash va evakuatsiyalash guruhlari);

- xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, o'simliklar, jonivorlarni himoya qilish xizmati (veterinariya xizmati zvenolari, fitopatologik-qidiruv guruhlari hamda veterinariya va o'simliklarni himoyalash maxsus guruhlari);

- har bir hududning o'z sharoitlaridan kelib chiqib boshqa xizmatlar tuzilmalari ham tashkil etilishi mumkin.

Yuqorida qayd qilingan tuzilmalar mahalliy hokimiyat tomonidan o'sha hudud qaramog'ida tashkilotlar vositalari hamda mutaxassislarni jalb qiladilar. Qishloq joylarida ushbu tuzulmalar har bir tuman ixtiyorida yoki tumanda joylashgan tashkilotlar, jamoa xo'jaliklari, fermer xo'jaliklarini jalb

qiladilar. Avvalambor, har bir tashkilotning kasbiy yo'nalishlaridan kelib chiqib fuqarolar muhofazasi xizmati tuzilmalari belgilanadi.

### **Fuqarolar muhofazasining korxonalar va obyektlardagi tashkiliy tuzilmalari**

Fuqaro muhofazasining korxonalardagi fuqaro muhofazasining tuzilmalari har bir korxonaning xizmat sohasi yo'nalishiga qarab tuziladi. Bular:

- korxona yoki obyektlarda tashkil etish shart bo'lgan tuzilmalar umumiy xizmatlar va fuqarolar muhofazasi xizmati tuzilmalariga asoslanib va bu tuzilmalar har bir korxona, tashkilot, uyushma, o'quv yurti va boshqa xizmatlar avvalambor, korxonalarning kasbiy yo'nalishiga mos holda tashkil etiladi;

- tashkilotning ishchi-xizmatchilari 500 kishi va undan yuqori bo'lgan taqdirda umumiy xizmatlar tuzilmalari umumiy xizmat yo'nalishi va qutqaruvchilar, 500 kishidan kam bo'lganlarida esa faqat qutqaruvchilar tuzilmalari tashkil etilishi kerak;

- xalq xo'jaligi korxonalarida umumiy xizmatlar tuzilmalaridan tashqari fuqarolar muhofazasi tuzilmalarini tuzib, ular bilan favqulodda vaziyatlarda o'z vazifalarini o'qitib, mashq qildirib, doimiy tayyorgarligini ta'min etilishi har bir korxona boshlig'i va fuqarolar muhofazasi xizmati boshliqlariga yuklatiladi.

Bu xizmat tuzulmalari quyidagicha:

- razvedka-qidiruv (guruh, zveno radiatsion va kimyoviy nazorat postlari);

- aloqa xizmati(guruh va zvenosi);
- tibbiy xizmat (tibbiy yordam guruhi va otryadi, sanitarnojnachilar va sanitarni postlar);

- avariya- texnik xizmati (komandalar);
- yong'inga qarshi (komanda, bo'lim, zvenolar);
- jamoa tartibini saqlash (komanda, guruh);
- yerto'lalar va umumiy himoyalanish inshootlari xizmati guruhlari.

## **Fuqaro muhofazasining o‘quv yurtlaridagi tashkiliy tuzilishi**

Fuqaro muhofazasini oliv va o‘rtta maxsus o‘quv yurtlarida tashkil etish tartibi quyidagicha:

- maxsus xizmatlar otryadi, komandalari va guruhlari;
- aloqa tizimi xizmati guruhi va zvenolari;
- razvedka-qidiruv guruhlari;
- sanitar drujinachilar va sanitar postlari;
- avariya-texnik sozlash komandalari va zvenolari;
- yerto'lalar va himoyalanish pistirmalari xizmatini bajaruvchilar zvenosi;
- o‘quv yurti yo‘nalishidan kelib chiqib, boshqa xizmatlar tuzilmalarini ham tashkil etish mumkin.

Ushbu tuzilma o‘qituvchilar va talabalar tarkibidan tuziladi. Umumta’lim muassasalarida qutqaruvchilar guruhi, razvedka-qidiruv guruhlari, radiatsiya va kimyoviy-qidiruv nazoratchilar, sanitar drujinachilar, sanitar postlari, jamoa tartibini saqlash va yerto'lalar xizmatiga yuqori kurs talabalari, o‘qituvchilar va o‘quv yurti xizmatchilari ja‘lb qilinadi. Bunda ular, sanitar postlari, kichik tibbiy xodimlar vazifasiga, kasalxonalar va kasalxona bazalariga jalb qilinishlari mumkin.

Bu tuzilmalar tibbiy ta’midot bilan ta’min etilmaydi. Harbiylashmagan guruhlar ham tashkil qilinadi. Bu guruhlar maxsuslashgan bo‘lib, kuzatuvchilar, texnik avariya kuzatuvchilar, santexniklar, suv tarmoqlarini tiklovchi guruhlar va komandalar kiradi. Bu guruhlarni toplash guruhlari deb yuritiladi. Bu guruhlarning ixtiyorida mutaxassislar, buldozerlar, avtokranlar, kompresslovchi texnikalar, elektr-stansiya, payvandlash apparati bo‘ladi.

Bu otryadlar shikastlanganlarni izlab topish, tez yordam berish, jarohat maydonidan olib chiqish, transport vositalariga yuklash, evakuatsiyalash, vayron bo‘lgan inshootlarni tozalash, qayta tiklash va boshqa ishlarni bajaradilar. Bular har bir obyektning tashkiliy guruhlari hisoblanib, o‘ta kuchli ta’minlanadilar. Bu guruhlar maxsus himoya vositalari, radiatsiya o‘lchov asboblari hamda kimyoviy tekshiruv

laboratoriya asboblari bilan to'la ta'minlanadilar. Bu guruhlarning safiga 16 dan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, ayollar esa 55 yoshgacha kiritiladi.

Favqulodda hodisalar oqibatini tugatish maqsadida bir necha turdag'i maxsus guruhlar tashkil etiladi. Bularda: fuqaro muhofazasi laboratoriyasi, ayniqsa, radiometrik, kimyo laboratoriyalari bo'lishi shart, yana statsionar hammomlar punkti to'la yuvinib, tozalanishi uchun STP (sanitar tozalash punkti)lar tuziladi. Ita STP 10 soat mobaynida 800 odamni degazatsiya, dezaktivatsiyadan o'tkaza oladi. Bundan tashqari STP da kiyim-bosh, texnika transportlarini ham maxsus tozalash uchun dezaktivatsiya etuvchi kimyoviy moddalar bilan ta'minlanadilar (xlor ohagi, gipoxlorid kalsiy, DTS fenol, lizol va boshqalar bilan).

Yuqorida keltirilgan komandalarni doimo ko'rikdan o'tkazish, shay holatga keltirish fuqaro muhofazasi boshlig'ining asosiy vazifasi hisoblanadi.

O'quv muassasalarida – muktab, litsey, kollejlardan va oliy o'quv yurtlarida fuqaro muhofazasi tuzilmalari tashkil etiladi. Bunda o'quv muassasalarining kasbiy yo'naliishi e'tiborga olinishi shart. Fuqaro muhofazasining boshlig'i – muktab, litsey, kollejlarda direktorlar, oliy o'quv yurtlarida rektorlar hisoblanadi. Bunda fuqaro muhofazasining shtabi tashkil etilib, uning tarkibida har xil xizmat sohasi bo'yicha guruhlar aniqlanib, guruhlardan otryadlar, komandalar, zvenolar tuziladi. Har bir guruhning boshlig'i etib o'quv muassasasining doimiy xodimlari belgilanadi. Bilimgoh talabalarining barchasi fuqaro muhofazasi ishiga jalb etiladi. O'quv yurtlarining fuqaro muhofazasi tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin.

O'quv yurtlarining ixtisoslashganligiga qarab, fuqaro muhofazasi va tashkiliy guruhlari aniqlanadi. Bularga asosan aloqa va tez ogohlantirish, umumiylar tartib intizomini saqlash, yong'inga qarshi xizmat, tibbiyot xizmati yordamini ko'rsatish, radiatsion va kimyoviy himoyalash kabi guruhlarning tashkil etilishi shart hisoblanadi.

Aloqa va tez ogohlantirish zvenosi – bu guruhga boshliq etib doimiy mutaxassislardan biri tayinlanadi va unga telefon, rabiø, markaziy televizion stansiyalari doimiy nazoratga topshiriladi. Bu zvenoning vazifasi favqulodda sodir bo‘lgan hodisani o‘quv yurtining boshlig‘iga o‘z vaqtida yetkazish, talabalarni, o‘qituvchilarni, o‘quv yurtining xodimlarini zudlik bilan ogohlantirish, shahar fuqaro muhofazasining shtabi bilan uzbek aloqada bo‘lishi shart. Bu zvenodagi guruhning soni, tarkibini fuqaro muhofazasining shtab boshlig‘i aniqlaydi.

Jamoa tartibini saqlash komandasi – bu komandaga o‘quv yurtini qo‘riqlash, jamoa tartibini saqlash ayniqsa, favqulodda yong‘in, yer qimirlashi, suv toshqini, bo‘ron va to‘fonlar paytida hamda favqulodda xavfli vaziyat tug‘ilganda tezda elektr manbalarini o‘chirish, yorug‘lik, manbalarini qora to‘sinq bilan berkitish va evakuatsiya ishlariga yordam berish topshiriladi.

Yong‘inga qarshi komanda – bu guruhga o‘quv yurtining javobgar o‘qituvchilari tayinlanadi. Komanda a‘zolari yong‘inga qarshi kurashishda amaliy bilimga ega bo‘lishlari zarur, ular yong‘inga qarshi asbob – uskunalar, kiyim-bosh bilan ta’milanmoqlari zarur. Komanda yong‘inga qarshi chora-tadbirlarni oldindan ishlab chiqishlari, shay bo‘lishini ta’milanmoqlari lozim.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish drujinasi – bu guruh o‘quv yurtining tibbiy xizmat ko‘rsatish markazida tashkil etiladi. Tibbiy xizmat punktining boshlig‘i bu guruhga boshliq etib tayinlanadi. Guruhning tarkibi fuqaro muhofazasining boshlig‘i tomonidan aniqlanadi. Guruhga sanitariya gigiyenik hamda epidemiyaga qarshi ishlarni bajarishi, shikastlanganlarga va bemorlarga tez tibbiy yordam berib, ularni shahar tashqarisidagi tibbiyot markazlariga, fuqaro muhofazasining tibbiyot etapi bosqichlariga evakuatsiya etish hamda to‘la va to‘liqsiz sanitariya tozalash ishlarini bajarish yuklatiladi.

Radiatsion va kimyoiviy zaharlanishlarga qarshi razvedka bo‘limiga ko‘pincha kimyo-fizika fanlari mutaxassislari jalb etiladi. Zveno radioaktiv moddalarini tez o‘lchaydigan, zaharlovchi moddalarini tez aniqlaydigan komplektlar bilan jihozlanmog‘i kerak. Bu zveno talabalarni o‘pka-nafas yo‘llarini

himoyalovchi gazqoplari, himoyalovchi kiyimlar bilan ta'minlay olishi va ularni bu sohaga o'qitmog'i zarur. Favqulodda sodir bo'lgan yadro yoki kimyo o'choqlaridagi oqibatlarni tugatish, degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfeksiya ishlarini o'z vaqtida o'tkazish zarur. O'quv yurtidagi fuqaro muhofazasining boshlig'i shahar fuqaro muhofazasi va yaqin atrofdagi fuqaro muhofazasi shtablari bilan uzviy aloqada bo'lmoqlari hamda viloyat, jumhuriyat fuqaro muhofazasidagi texnik vositalarga o'z vaqtida talabnama yuborishi, ular bilan guruhlarni to'la ta'minlashi shart, ayniqsa, gaz qoplari, radiatsiya va kimyoviy himoyalash vositalarining to'la-to'kisligini ta'minlashi hamda bu vositalarni to'g'ri ishlata olishlari uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etmog'i lozim. Fuqarolarni favqulodda hodisalardan, tibbiy ofatlardan yoki to'satdan urush bo'lgudek bo'lsa, himoyalash ishlarini uyushqoqlik bilan olib borish chora-tadbirlarini talabalarga o'rgatish, doimiy tayyorgarlikni saqlash fuqaro muhofazasining vazifasi hisoblanadi. Har bir talaba, har bir o'qituvchi-professorlar, ishchi xodimlar favqulodda hodisa davrida yoki urush xavfi sodir bo'lganda o'z o'rnini, vazifasini aniq bilmog'i lozim. O'z-o'rnida himoyalovchi vositalardan to'g'ri foydalana olishlari, shaxsiy himoya vositalari, umumiyligi himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishlari shart.

Har kim oddiy himoya vositalarini nafas olish, hatto ust-boshlarini himoyalash qobiliyatiga moslashtirishlari shart. Radioaktiv, zaharli va biologik moddalardan o'zini, bolalarini, qariyalarni, oziq-ovqat mahsulotlarini, suvni asrashlari lozim. Kerak bo'lganda qisman yoki to'la tozalash ishlarini bajarishlari, radiatsion va kimyo tekshiruv asboblaridan to'g'ri foydalanishlari, radiatsiya – toksik nazoratini tashkil qila olishlari, fuqaro muhofazasining amaliy normativlarini bajara olishlari shart. Favqulodda hodisalarda shikastlanganlarga, yaradorlarga, bemorlarga tez tibbiy yordam bera olishlari, ularning hayotini saqlab qolish, evakuatsiya etish, shaxsiy dori qutisidan to'g'ri foydalana olishlari shart. Fuqarolar muhofazasining amaliy ishlarini, tashkiliy tuzilishini, o'z o'rnini va vazifalarini aniq bilish va bajara olishlari muhim.

## **Fuqarolar muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkiblarini fuqaro muhofazasi xizmatiga jalb qilish**

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari favqulodda vaziyatlarda qutqarish, turmush tarzini qayta tiklashga xos bo‘lgan ko‘p qirrali ishlarni bajarish uchun tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari – erkaklar 18 dan 60 yoshgacha, ayollar 18 dan 55 yoshgacha jalb qilinishlari qonun asosida belgilangan. Fuqarolar muhofazasi tuzilmalariga harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatni o‘tash davridagilar, harbiy xizmatga chaqiruv yoshidagilar bundan mustasno, shuningdek, 1-2-3-guruh nogironlari, homilador, yosh bolali ayollar fuqarolar muhofazasi tuzilmalariga kiritilmaydilar.

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari yuqori darajali tayyorgarlikda turishini ta’minlash uchun tinchlik davrida doimiy o‘quv mashqlari o‘tkazilishi, o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rib borishlari zarur.

Har bir mamlakatning asosiy boyligi uning fuqarolaridir. Ularning sog‘-salomatligi, turli tabiiy ofatlardan muhofaza-langanligi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov fuqarolar muhofazasini ta’minlash ishlariga katta e’tibor bilan qaramoqda.

«Bizni qurshab turgan olam g‘oyat murakkab va muammoli bo‘lib keldi, shunday bo‘lib qolmoqda hamda shunday bo‘lib qolajak!»<sup>1</sup>

Binobarin, sayyoramizning tiriklik olami tabiat ne’matlari bo‘lgan havo, suv, tuproq va olovsiz yashay olmaydi. Ammo ularning mutanosibligi o‘zgarganda turli noxush hodisalar ro‘y berishi – insonlar, moddiy boyliklar, qishloq xo‘jaligi ekinlariga katta zarar yetishi mumkin.

Fuqaro muhofazasi umum davlat himoyalash vazifasi bo‘lib, barcha aholini, ishlab chiqarish korxonalari, jamoa xo‘jaliklari, muassasalar, xalq boyligini, o‘simgiliklar, oziq-ovqat mah-

<sup>1</sup> I.A.Karimov. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». — T.: 2003.

sulotlarini, muhimi fuqarolarning hayotini har qanaqa xavf-xatardan asrash, hayot tizimini eng og‘ir vaziyatda ham ushslash kabi olajanob vazifalarni bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Tabiiy ofatlarda, urushning og‘ir oqibatlarida vujudga kelgan vaziyatlarni yo‘qotish, eng muhimi, tez sanitariya yordami, qutqarish ishlarini ommaviy bajarishni tinchlik davrida aniq rejalshtirib, yuzaga kelgan oqibatni tugatish shart.

Yuqorida keltirilgan ishlarni to‘la va to‘kis, o‘z vaqtida, kechikmasdan bajarish uchun fuqarolarni o‘qitish, o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Tibbiyat xodimlari fuqaro muhofazasi tarkibida ko‘rilmagan muhim vazifalarni bajaradi.

## **II BOB**

### **TINCHLIK VA HARBIY HOLATLARDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARNI TAKTIK BAHOLASH**

Favqulodda vaziyatlarni baholashda O'zbekiston sharoitini nazarda tutib o'rganish, ularni oldini olish chora-tadbirlarini davlat miqyosida bajarish, bu sohada chiqarilgan qonunlar, qoidalar bilan aholini tanishtirish, favqulodda hodisalar oqibatlarini kamaytirishda ishlab chiqarish korxonalari, o'quv yurtlari va barcha zavod-fabrikalarda bajarilishi shart bo'lgan vazifalar fuqaro muxofazasi xizmatiga yuklatiladi. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini yo'qotishda korxonalar, tashkilotlarning asosiy vazifalarini bir-biri bilan uzviy bog'liqligini, hamjihatlikda bajarish zarur bo'lgan vazifalarni aniqlash, favqulodda vaziyatlarda aholini shoshilinch ogohlantirish tartibi bilan tanishtirish, ogohlikka da'vat etish, o'rgatish hozirgi kunning dolzarb mavzusidir.

Aholi favqulodda vaziyatlar haqidagi ma'lumotni eshitishi bilan harakatlar tartibini aniqlashi lozim. Talabalar ishlab chiqarish, ilm-fan sohalarida biologik xavfli, ekologik vaziyatlar bilan tanishishlari, ularni ishlatish jarayonlarida texnik xavfsizlik tadbirlarining qonun asosida bajarilishi bilan tanishishlari kerak.

Sanitar yo'qotishlar, yoppasiga qiruvchi qurollar qo'llanishdagi oqibatlarni baholash fuqarolar muhofazasining shtablaridan talab etiladi. Favqulodda vaziyatlar tarixida misli ko'rilmagan fojialarga, yo'qotishlarga ko'pincha hodisalarining kutilmaganda, qo'qqisdan sodir bo'lishi, aholining himoyalash chora-tadbirlariga tayyor emasligi, ularni o'z vaqtida shoshilinch ogoh eta olmaslik, joylarda himoyalanish, muhofaza etishga o'rgatilmasligi va avariya, katastrofalarning o'z vaqtida oldi olinmasligi kabilar sabab bo'lgan.

Shu maqsadda Chernobil atom elektr stansiyadagi avariya yoki Armanistonda 1988-yilda yer qimirlashi oqibatida ko'plab yo'qotishlarni misol keltirish mumkin. 1987-yili Chernobil atom elektr stansiyasi – AESdagi halokat 4 reaktorning buzilishi

natijasida sodir bo'lib, 30 km lik radiusdagi aholi yer maydoni, hayvonot dunyosi radioaktiv zararlanishga duchor bo'ldi, keyinchalik ko'plab qo'shni davlatlarda – Belorussiya, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Germaniya kabi davlatlarda radioaktiv ifloslanish kuzatildi. Bu turdag'i avariylar bir qancha kimyoviy zavodlarda sodir bo'lgan. Masalan: 2004-yil dekabr oyida bir qator Osiyo mamlakatlari, jumladan, Hind okeani qirg'og'i bo'ylab yer qimirlashi – sunami, 1985-yil 18-sentabrda Mexiko shahridagi 8,1 ballik yer qimirlashda 5526 kishi halok bo'ldi, 40 ming kishi jarohatlandi. 1995-yil 18-yanvarda Yaponianing Kobe, Kioko, Osanna, Nara, Okayama, Xonsko shaharlarida 7,5 ballik yer qimirlashi sunami – suv toshqinini keltirib chiqardi, oqibatda 3160 ta odam halok bo'ldi, 800 kishi noma'lum yo'qoldi. Hindiston harbiy zavodining portlashi, Armanistondagi kuchli yer qimirlashi, Tojikistondagi tog' ko'chishi kabilarni misol keltirish mumkin. Bularning barchasi tinchlik davrida ham favqulodda hodisalarga aholini doimo tayyor bo'lishi, ishlab chiqarish tizimlarini uzliksiz ishlashini, mamlakatni har qanday xavf-xatardan himoyaga tayyorligini ta'min etishga da'vat etadi.

Fuqarolar muhofazasi tizimiga yuklatilgan vazifalar favqulodda vaziyatlarda uning oqibatlarini yo'qotish masalalarini tinchlik davrida tayyorligini oldindan ta'min etishdan iborat.

### **Favqulodda holatlar turlari**

Favqulodda holatlarning turlariga quyidagilar kiradi:

1. Tabiiy ofatlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarga: yer qimirlashlari, xavfli suv toshqinlari, kuchli shamol, bo'ron, qor ko'chishi, xavfli yomg'ir, sel bosishlari, yer, tog', loyqa botqoqlarning siljishlari, kuchli yomg'irlar, sunami, xavfli epidemik holatlar va boshqa kutilmagan xavflar kiradi.

2. Tashqi muhitga o'ta xavfli zararli chiqindilarning chiqishi bilan bog'liq bo'lgan xavfli holatlar: AESning avariysi, yadroviy fizik markazlardagi avariya holatlari bilan bog'liq bo'lgan tashqi muhitga radioaktiv chiqindilarning tarqalishi,

kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi (KTEZM); bakteriologik xavfli chiqindilar korxonalarining shikastlanishida tashqi muhitga o'ta xavfli biologik manbalarning tarqalishi.

3. Kutilmagan yong'inlar, portlashlar oqibatida sodir bo'luvchi ofatlar, imoratlarning vayronagarchiligi, texnologik inshootlarning portlashi, aholi turarjoyidagi kuchli yong'inlar, gaz-neft magistrallarining portlashlari, transport kommunikatsiyasidagi avariylar va hokazolar.

4. O'zaro kelishmovchiliklar oqibatida sodir bo'luvchi favqulodda vaziyatlar: harbiy agressiyalar, ekstremistik kuchlarning mamlakat boshqaruv tizimiga, harbiy obyektlarga yoki aholiga tajovuzi, qo'poruvchilarning chiqishlari.

Ushbu holatlar faqat shu turlar bilan cheklanmay, ularning turlari nihoyatda xilma-xil bo'lishi va ayni paytda favqulodda hodisalar keltirib chiqarishi mumkin, ya'ni yer qimirlashi oqibatida kuchli yong'inlar, gaz, neft tizimining uzelishi natijasida tashqi muhitga gaz-neft va hokazolarning chiqishi, shu bilan bog'liq ko'plab xavfli holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Favqulodda sodir bo'lishi ehtimoliy holatlarning oqibatini oqilona baholash, tabiiy yoki sun'iy, to'qnashuvlar vaziyatlarini o'rganish, har bir xavfli o'choqlar xususiyatini bilish orqali aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin. Bu vazifalar fuqarolar muhofazasi tizimiga yuklatilgan asosiy vazifalardir.

### **Tabiiy ofatlar, avariya (katastrofalar) tafsiloti va ularning oqibatlari**

Tabiiy ofatlarga yer,tog' siljishlari, qor bosishlari, jala toshqinlari, kuchli shamol to'zonlari, siklonlar, tayfunlar, vulqonlarning otilishi va boshqa hodisalar kiradi. Bu holatlar favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaradi, ya'ni kundalik ritmik hayot faoliyatini tizimdan chiqarishi, ko'plab insoniy qurbonlar, vayronagarchiliklar hamda moddiy boyliklarning qirilishiga sabab bo'ladi.

Tabiiy ofatlar ko'pincha bir-biridan xoli bo'lib, ayni paytda boshqa bir xavflarni keltirib chiqarishi mumkin, ya'ni, ayrim

tabiiy holatlar ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, yer ishlovlari, tog' metallurgiya qazilma ishlari, suv dambalarini qurish, shaxta ishlari, gaz-neft qazib olish ishlari, yer siljishlari, tog' cho'kishlari, qor va yaxlarning erishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tabiiy ofatlar qaysi faoliyat natijasi yoki turiga qaramasdan ular keng doirali, ko'p qirrali, har xil muddatda davomiyligi, qisqa muddat mobaynida, daqiqalarda sodir bo'lishi mumkin. Masalan: yer qimirlashi qisqa daqiqalar davomida butun bir shaharlarni yo'q qilishi mumkin va bir necha hattoki yil davomida qaytalashi mumkin. 1966-yilgi Toshkent yer qimirlashi 1967-yilgacha davom etgan, Armanistondagi 1987-yilgi yer qimirlashi esa, 5-10 daqiqa mobaynida butun o'lka, shahar va qishloqlarni xarobaga aylantirgan, yer ko'chishi yoki suv toshqinlari esa bir necha kun yoki oylab davom etishi mumkin.

Yer qimirlashi – zilzila sabablari bilan odamlar juda qadim zamonalardan buyon qiziqib kelishgan. Grek olimi Demokritning (mil. av. 460-370-yillar) fikricha, zilzilalarni keltirib chiqarishga asosiy sabab suvlarning ta'siri bo'lgan. Ya'ni zilzila qor, yomg'ir, dengiz va ko'llardagi suvlarning yer ostiga shimalishi natijasida ro'y beradi, deb hisoblangan. Grek olimi Aristotel (mil.av.384-322-yillar) ma'lumotlariga ko'ra, g'or va boshqa bo'shliqlarda yig'ilib qolgan havoning katta bosim ta'sirida yer ostiga kirishi, oy tutilishi yer qimirlashiga sabab deb ko'rsatiladi. O'rta asrning mashhur qomusiy bilim sohiblari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va keyinroq Zahiriddin Muhammad Boburlar o'z asarlarida zilzilaning sabab va oqibatlari haqida qimmatli fikr bildirishgan. Ular zilzila hamma joyda emas, ayrim joylarda namoyon bo'lishi hamda vaqt, yil fasllariga, quyosh va oy fazalariga bog'liqligi haqida yozishgan. Ayniqsa, «Boburnoma»da zilzila kuchi yer ustiga qanday tarqalishi haqida qimmatli fikrlar keltirilgan. Bu asarlar zilzila tabiatini haqida birinchi va to'g'ri qadamlar edi. So'nggi o'n yilliklarda yerning koinotda va quyosh sistemasida tutgan o'rni, uning o'lchamlari, fizik va kimyoviy hodisalari, tuzilishi, undagi turli jarayonlar to'g'risida geologiya, geofizika, geokimyo,

astronomiya va bir nechta fanlar yordamida aniq ma'lumot olishga muvaffaq bo'lindi.

Endi zilzila sabablariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, hozirgi kunda asosan ikki xil fikr bor. Birinchisi – yerning chuqur qatlamlarida doimo murakkab kimyoviy, fizik jarayonlar to'xtovsiz davom etadi. Bulardan birinchisi – solishtirma og'irliklar, og'ir jinslarning doim pastga, yengil jinslarning yuqoriga bo'lgan harakati. Ikkinchisi – radioaktivlik hodisasi asosida bir jinsdan ikkinchisi hosil bo'lishi yoki jinslarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi natijasida energiya ajraladi. Bunday reaksiyalarning sodir bo'lishi yerning chuqur qatlamlarida juda katta bosim va issiqlik mavjudligidir. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, u yo'qolib ketmaydi. Demak, hosil bo'lgan energiya sarf bo'lishi kerak. Ushbu energiya yerning ostida juda katta hajmdagi jinslarni harakatga keltiradi. Energiyaning qanchalik kattaligini ko'z oldimizga keltirish uchun Tyan-Shan, Pomir, Kavkaz yoki Himolay tog'larini tasavvur qilib ko'raylik. Masalan, birgina Tyan-Shanning o'zi bo'yvi va eni ming km bo'lgan maydonni egallagan ulkan «tog' mamlakati»ni tashkil qiladi. Balandligi esa 4-5 km dan ortadi. Ana shu ulkan tog'larni hosil qiluvchi kuch zilzilaga ham sabab bo'lishi mumkin. Markaziy Osiyo hududida hozir tog' hosil bo'lish jarayoni davom etmoqda. Ana shu tog' hosil qiluvchi tektonik jarayonlar zilzila sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Eng asosiy sabab tog' hosil qiluvchi yer osti kuchlarining maydon bo'ylab bir tekisda tarqalmasligidir. Tyan-Shan o'z navbatida Farg'ona, Chotqol, Turkiston, Oloy, Zarafshon, Xisor kabi unga yaqin tog' tizmalaridan tashkil topgan.

Tog' tizmalari silsilasi Chu vodiysi, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi va boshqalarda joylashgan. Odatda tog' tizmalari kattaroq tezlik bilan, ular o'rtasidagi vohalar kamroq tezlikda harakat qiladi. Tezligi har xil bo'lgan qatlamlardan asta-sekin burilishlar, egilishlar paydo bo'la boshlaydi va oxir-oqibat ularning sinishi – parchalanishiga olib keladi. Ana shu jarayon zilzila oqibatlarini keltirib chiqaradi, desak ham bo'ladi. Yig'ilgan mexanik energiya elastik seysmik to'lqinlar energiyasiga aylanadi va yer silkinishiga olib keladi.

Ikkinchisi – yer shari o‘ndan ortiq yirik plitalarga bo‘lingan. Ular turli yo‘nalishdagi gorizontal harakatga ega. Plitalarning o‘zaro to‘qnashuvi ulkan tog‘lar hosil bo‘lishiga, jumladan, zilzilalar ro‘y berishiga olib keladi. Masalan: Markaziy Osiyodagi Tyan-Shan, Pomir, Hindiqush tog‘larining paydo bo‘lishi va zilzilaning kelib chiqishiga sabab Xind va Yevroosiyoplitalarining «to‘qnashuvi»dir.

Xulosalarga tayanadigan bo‘lsak, tog‘ hosil qiluvchi, zilzilalarga olib keluvchi jarayonlar vertikal va gorizontal qo‘srimcha kuchlar ta’sirida ro‘y bergan ekan. Geologiya fanida birinchi tarafdorlar – «fiksist»lar, ikkinchisi – «mobilistlar» deyiladi. Bu yer qobig‘ining kuchli tebranishi bo‘lib, tektonik yoki vulqon otılıshi natijasida ro‘y berishi mumkin. Ushbu holat kuchli vayronagarchiliklar, yong‘inlarga sabab bo‘lib, ko‘plab kishilarni qurban qilishi mumkin. Yer qimirlashida asosiy kuch – bu tektonik energiyaning chuqurligi, magnitud energiyaning jami kuchi yer qobig‘i yuzasiga chiqishi bilan bog‘liq.

Tektonik magnitudaning chuqurligi odatda 10-30 km va ayrim holatlarda bundan ham chuqurroqda joylashgan bo‘lishi mumkin. Magnituda yer qimirlashining jami energiyasini bildiradi. U yer qobig‘ining siljish amplitudasini seysogrammada, mikromollarda magnituda bilan Rixter o‘lchamida ifoda etiladi. Bu o‘lcham 0 dan 9 ballgacha (eng kuchlisi) o‘lchanadi. Ushbu o‘lchamda har bir ball oldingi kattalikka nisbatan o‘n karra kuchli amplitudada yer siljishiga olib keladi. Ayni paytda yer qimirlashi energiyasi 30 karra ortadi.

Masalan: yer ustki qatlaming siljishi, yer qimirlashida M-7 M-5 dan 100 barobar ko‘p. Ayni paytda yer qimirlatuvchi energiya 900 barobar ortadi.

Yer qimirlashining kuchi ballar bilan o‘lchanadi. Bu kuchning quvvati energiya manbayining joylashish chuqurligiga, magnitudaga, qimirlatuv epidmarkaz orasidagi masofaga, yer qatlaming geologik tuzilishiga va boshqa omillarga bog‘liq.

O‘zbekistonda yer qimirlashi quvvatining o‘lcham birligi qilib 12 ballik Rixter shkalasi kattaligi qabul qilingan. Ushbu o‘lchamda asosiy kuch bu magnituda quvvati hisoblanadi.

Magnitudaning Rixter bo'yicha dunyoda har yili sodir bo'ladigan yer qimirlashi va ularning magnitudasiga bog'liqligi, quyidagi jadvalda namoyon bo'ladi.

Rixter o'lchami magnituda kuchi	O'rtacha 1 yilda sodir bo'luvchi yer qimirlashlar soni	Yer qimirlashining vaqt ko'satkichi	Yer qimirlashi radiusi km da
8,0-8,9	1	30-90	80-160
7,0-7,9	15	20-50	50-120
6,0-6,9	140	10-30	20-80
5,0-5,9	900	2-15	5-30
4,0-4,9	8000	0-5	0-15

Bundan ko'rinish turibdiki, yer qimirlashi quvvati magnituda kuchiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Yer qimirlashlar misli ko'rilmagan talafotlarga olib keladi, minglab odamlarni qurban qiladi. Faqatgina Eron mamlakatining shimolida Gilyan viloyatida 1990-yil iyun oyida Rixter shkalasi boyicha 8 ballik yer qimirlashida 50 mingdan ortiq aholi halok bo'lgan, 1 million aholi uy-joysiz qolib, tub-tubidan tekislanib ketgan Armanistondagi yer qimirlashida 1500 kishilik shahar to'la vayronagarchilikda qolib, 3 ta shahar tekislanib ketgan. Yer qimirlashi ko'pincha boshqa talafotlarga sabab bo'lgan: qum bosishi, sel kelishi, kuchli to'fonlar, suv toshqinlari, yer qimirlashi oqibatida sodir bo'lib, suv dambalarining ko'tarilishi kuchli yong'inlar, kuchli zaharli moddalarni atmosferaga tarqatib, zavod va fabrikalar, AESlarining portlashlarini keltirib, qurbanlar chegarasini ko'paytirgan.

Hozirgi zamonda yer qimirlashini oldindan aniqlash uslublari noma'lum, ammo ayrim ma'lumotlarga tayanib, uni farqlash mumkin. Bular: kuchsiz tebranishlarning tez-tez takrorlanishlari (forshaklar), yer qobig'ining deformatsiya lanishi, kosmik nazorat orqali aniqlanadigan uzunlik va ko'ndalang to'lqinlarning yer kurrasida namoyon bo'lishlarini

yer qimirlashi arafasida kuzatish mumkin. Lazer nurlari yordamida tog' jinslarining elektr qarshilik kuchini o'zgartirishlarini yer qimirlashi arafasida kuzatish mumkin.

Tekshirishlar natijasida aniqlanishicha, yer qimirlashi oldidan suv havzalarining sathi ko'tarilishi, suvda radon moddasining ko'payishi kuzatiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yer qimirlashi oldidan uy hayvonlari, jonivorlar, qushlar bezovtalananadilar. Mushuklar o'zлari turadigan joylarni tark etib, yosh bolalarini uylardan uzoqroq dashtlarga ko'chiradilar. 10-15 daqiqa oldin uy parrandalari bezovtalaniб, tez-tez har tomonga ucha boshlaydilar va vahimali harakatlar qiladilar. Ushbu holatni yer qimirlashi oldidan elektromagnit to'lqimlari-ning normal holatga kelishidan deb tushuntiriladi. Yer qimirlashidan himoyalanish chora-tadbirlari uchun mamlakat chegarasidagi tumanlar, viloyatlarni 7-8 ballik seysmik vohalarga rayonlashtiriladi. Ushbu yerdan imoratlar, inshootlar qurilishida seysmik talablarning bajarilishini qattiq nazorat ostiga olinadi.

Zilzila—tabiatda sodir bo'ladigan eng xavfli hodisalarining biri bo'lib, YUNESKO (IOHECKO) ma'lumotiga ko'ra, zilzila oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy zarar va insonlar halokati bo'yicha tabiiy ofatlar ichida birinchi o'rinni egallaydi. Haqiqatda zilzila davriyligi bir necha o'n yillarni qamrab olsa-da, u qisqa (10-15 soniya) muddat ichida bir necha minglab aholiga ega bo'lgan shaharlarni vayron qilish qudratiga ega. Shunga qaramasdan kishilar bunday xavf oldida esankirab qolmasdan, uning oqibatlarini bartaraf etishga kirishib, xarobalar o'rnida yanada go'zalroq maskanlar barpo etadilar. Aksariyat holatlarda zilzila bo'lib o'tgandan so'ng xavf to'g'risidagi tasavvurimiz keyingi zilzilagacha so'nib boradi. Vaholanki, O'zbekiston zamini yuqori seysmik faollashgan zonada joylashganligi e'tiborga olingan holda zilzila to'g'risida aholiga yetarli ma'lumot berishning o'zi xavfning oldini olish borasida bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlarga katta hissa qo'shishga olib keladi. Zilzila to'g'risidagi ilmiy adabiyotlarda batafsil yozilgan bo'lsa-da, uning ajralmas qismi bo'lgan amaliyotda aholi harakatining tartib-qoidalari nazarimizda to'liq yoritilmagan. Umuman, bu jarayonni uchta davrga, ya'ni zilziladan oldin, zilzila davrida va zilziladan

keyingi davrdagi ma'lum harakat, qoidalarni tavsiya etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

### Zilzila sodir bo'lgunga qadar nima qilmoq kerak?

Xalq tilida «O't balosi, suv balosi, bemahal falokat-kulfatdan asra» degan chuqur falsafiy ma'noga ega bo'Igan mulohaza mavjud. Bu albatta, yaxshi niyat, yaxshi istak. Lekin quruq niyat bilan ish bitmaydi, falokat arimaydi. Shunga yarasha harakat, tayyorgarlik bo'lishi zarur. Insoniyat paydo bo'libdiki, uning boshiga birorta kulfat tushmaguncha, aksariyat hollarda bu to'g'rida o'ylamaydi, hatto xayoliga ham keltirmaydi. Boz ustiga, atrof-muhitda, qo'shni xalq, davlatda shunday vaziyat bo'lsa, uni bir ma'lumot sifatida qabul qiladi, o'zi ham shu vaziyatga tushib qolishi, uning uchun ma'lum **chora-tadbirlarni** ko'rishi lozimligi to'g'risida ham mulohaza yuritmaydi. Barchamizga ma'lum, tabiiy sharoit, jinslarning fizik-kimyoviy xususiyati, binolarning loyiha chizmalarini chuqur o'rganib chiqilgandan so'nggina turarjoy maskanlari qurilishiga ruxsat beriladi. Afsuski, binolar aholiga topshirilgandan so'ng umumiy yashash qoidalari qo'pol ravishda buziladi. Hech kimga sir emaski, uyga ega bo'lishimiz bilanoq o'zimizning shaxsiy ehtiyojimizdan kelib chiqqan holda xonalarni o'zgartirishga berilib ketamiz, qo'shimcha ayvonlar solamiz, go'yo «ortiqcha» tuyulgan devorlar, burchaklar olib tashlanadi, ikkita xona bittaga aylantiriladi. Bunday holatga qat'ian chek qo'yish lozim. Aks holda bino zaif bo'lib qolishiga, uning turli ofatlarga, yer deformatsiyalanishiga bardoshliliqi kamayib ketishiga sababchi bo'lamiz. Oqibati nimalarga olib kelishi o'zingizga ayon. Buning uchun uy-joylardan foydalanish qoidalarni, uy taqsimotidan oldin har bir yashovchining yoshi ni **va ijtimoiy** saviyasini inobatga olgan holda tushuntirish ishlariga jalb qilib, o'zbilarmonchilik bilan ish yuritishga yo'l qo'ymaslik kerak. Ko'p qavatli binolarning o'ziga yarasha xususiyati, seysmik belbog'lari, xavfsiz burchaklari qayerda joylashganligi to'g'risidagi eslatmalarni har bir xonardon sohibiga yetkazish lozim.

Zilzila emas, bino va uning predmetlari kishilar o'limiga sababchi bo'ladi, deydi muhandis-seysmologlar. Yuqorida keltirilgan talablarga rioya qilgan holda quyidagilarni qo'shimcha bilish zarur. Uydagi gaz, suv, elektr tarmoqlarining xavfsizlanadiragan joylarini bilish, uy tibbiy xaltasi, unda birinchi tibbiy yordam uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar, noxush vaziyat yuz berganda birinchi xizmat ko'rsatish tashkilotlarining telefon raqamlarini bilish, uy jihozlaridan kitob javonlari, osma asboblarning mahkamligini nazorat qilish, maktab yoshidagi bolalarga zilzila vaqtida qanday harakat qilishlari tartiblarini o'qitish, ish joylarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va boshqa ko'rsatmalardan har bir kishi boxabar bo'lishi shart. Buning uchun imkoniyatdan to'liq foydalanish zarur. Ayniqsa, mahalla guzarlarida, ishxona, maktablarda, radio, televideniyada ommabop shaklda suhbatlar tashkilashtirilsa, qisqa metrajli filmlar, fojialar aks ettirilgan lavhalar berib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Zilzila yuz berganda harakatimiz qanday bo'ladi?**

Zilzila sodir bo'lganda biz turgan zamin xuddi «beshik» kabi tebrangandek bo'ladi. Tebranish bir necha soniyalar, kuchli zilzila bo'lsa bir necha daqiqalar davom etishi mumkin. Tebranishdan siz qo'rqib ketasiz, ammo kutib turishdan boshqa chorangiz yo'q. Siz osoyishta va aql-zakovat bilan ish ko'rsangiz, shikastlanmaslik darajangizni ancha yuqori ko'targan bo'lasiz. Ayniqsa, bu osoyishtalik orqali atrofingizdagilarga ijobiy ta'sir ko'rsatasiz va ularning ham siz kabi sarosimaga berilmasligiga zamin yaratasisiz.

Avvalo tinchaning, hech qanday qaltis harakat qilmang, baqirmang va atrofdagilarni koymang. Binoda bo'lsangiz xavfsiz joylardan – eshik oldilari, devor burchaklari, seysmik belbog' ostidan birortasini egallang, boshqalarni ham shunday qilishga chaqiring. Deraza va chayqaluvchi og'ir buyumlardan uzoqroqda turing. Hech vaqt yuqori qavatdagи binodan chiqib ketishni o'ylamang. Aksincha, tebranish o'tib ketguncha bino ichidan panoh qidiring. Kerak bo'lganda tebranish tugagandan

so'ng binoni tark eting. Ko'p qavatli uyda tursangiz liftdan foydalanmang. Zinapoyadan foydalanishda qo'pol harakat qilmang, boshqalarni ham tinchlantiring.

Seysmik bardoshi kam bo'lgan, g'ishtli va xavfli binolarda bo'lsangiz, albatta tashqariga zudlik bilan chiqing. Bunda elektr tarmoqlari, buyumlar harakatidan ogoh bo'ling. Ochiq joyda bo'lsangiz binolarga, elektr tarmoqlariga yaqin turmang. Transportda bo'lsangiz ochiq joyda to'xtating, tebranish o'tib ketguncha kuting. Tebranish qaytarilgudek bo'lsa hayron bo'lman. Odatda birinchi zarbadan so'ng qayta zarbalar bo'lishi muqarrar, ular hatto bir necha kungacha davom etadi. Ayrim holatda qayta tebranishlar ham bino va inshootlarga katta zarar yetkazadi.

### **Zilziladan so'ng nimalarga e'tibor berish lozim?**

Tebranish tugagandan so'ng bino va inshootlarda buzilish, shikastlanish yuzaga kelishi natijasida insonlar ham jiddiy zarar ko'radi. Eng muhim osoyishtalikni saqlagan holda, avvalo, shikastlanganlarga yordam berish lozim. So'ngra yong'in va boshqa noxushlik paydo bo'lgan bo'lsa, tegishli joylarga xabar berish lozim. Birinchi yordam zarur bo'lsa, tashkil eting. Tibbiy yordamga muhtojlarni aniqlang. Yong'in xavfi bor joylarni bartaraf eting. Suv, gaz, elektr tarmoqlarida shikastlanish boryo'qligini aniqlang. Zinhor sham va gugurtdan foydalanmang. Elektr tarmog'ini asosiy tayanch nuqtadan uzing. Elektr manbalariga yaqin yurmang, ularni ushlab ham tekshirmang. Sizning yordamingiz zarur bo'lmasan joylarga bormang. Kanalizatsiya tarmoqlarini ko'zdan kechirmaguningizgacha, undan foydalanmang. Shikastlangan binoda ehtiyoj choralarini ko'rgan holda harakat qiling.

### **Suv toshqini o'chog'i**

Suv toshqini misli ko'rilmagan qurbanlar, talafotlarga sabab bo'lishi mumkin. Suv toshqining sabablariga daryolar, ko'llar, suv omborlarida bir necha sabablarga ko'ra suv sathining qisqa

muddatda ko'tarilishi kuzatiladi. Bu holatga bahorgi qor erishlar, kuchli sel va yomg'irlar, daryolarda yax dambalarining hosil bo'lishi, suv omborlari dambalarining qulashi, kuchli to'zonlar ta'sirida suv kelishining kuchayishi kabi tabiiy hodisalar sabab bo'lishi mumkin. Suv toshqini turarjoylar, ishlab chiqarish korxonalari, temir yo'l, avtomobil yo'llari, elektr o'tkazgich tarmoqlari, aloqa yo'nalishi, suv melioratsiya inshootlari buzilib, xo'jalik ekinzorlarini, hayvonlarni talafotga uchratishi hamda yoqilg'i zaxiralari, oziq-ovqat ombor-xonalaridagi ozuqa, yemish mahsulotlarini nobud qiladi. 1990-yilning iyul oyida Chita viloyatida kuchli yomg'ir 400 dan ortiq ko'priklarni qo'porgan, viloyat favqulodda vaziyatlar komissiyasining ma'lumotiga ko'ra, minglab odamlar boshpanasiz qolgan, kutilmaganda qisqa muddatda sodir bo'lgan.

Qizig'i shundaki, ko'pincha suv toshqinlari yong'in larga ham olib kelgan, chunki bunda elektr tizimida qisqa tutashuvlar, yer osti elektr shoxobchalarida hamda suv toshqini tufayli tuproqning o'pirilishi natijasida aholi yashash joylarida, elektr uzatish tarmoqlari, yoqilg'i toplash, saqlash, tarqatish shoxobchalarida kuchli yong'inga olib kelishi mumkin.

Suv toshqini – suv bosishlarning oldini olishda daryolar, ariqlar, kanallarda suv oqish miqdorini imkoniyat qadar kamaytirish, buning uchun suv shoxobchalarini ko'paytirish, daryolar yoqasida o'rmonzorlar barpo etish, daryolarga ko'ndalang yo'nalishda qum tozalovchi maxsus dambalarni qurishni oldindan ko'zlab bajarish zarur.

Suv toshqinini oldini olish ishlarida daryolar, ariqlar, kanallar va zovurlarni tozalash, aylanma yo'llarni to'g'rilash, muz qatlamlarini maydalash, suv oqimlari tekisligini ta'minlab, nazorat qilib borish shart. Aholi turarjoylarini loyihalashda yer osti suvlari sathi va yerlarning balandligini e'tiborga olinishi kerak.

Yer osti suvi sathi yuqori bo'lgan joylarga imoratlar qurish qat'ian man etiladi.

Respublikamiz hududida sel oqimlari ko'proq Farg'ona vodiysi, Chirchiq, Angren, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sangzor daryo havzalarida uchrab turadi. Farg'ona vodiysidagi sel oqimlari,

ularning eng xatarlisi hisoblanadi. Farg'ona tog' havzasini o'rabi turgan tog' yon bag'irlarida 300ga yaqin sel irmoqlari hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, O'zbekiston sel kelishi ehtimoli bo'lgan eng xatarli hududlardan biridir. Undagi tik yonbag'irlar, qiyaliklar va irmoqlar tog' relefni, suv tog' jinslari harakatini, sel oqimlari sur'atini tezlashtiradi. Kuch bilan yoqqan yomg'ir yo'lida uchragan to'siq-q'ovlarni yuvib ketib, bo'shashib yotgan tog' jinslarini qo'porib tashlaydi va ularni oqizib ketish xavfini tug'diradi. Farg'ona relefidagi tog' jins havzalarining nisbiy balandligi 400 m. dan 3500 m. gacha, ba'zi joylarda ular bundan ham baland joylashgan. Tog'ning eng past yerlarida, Farg'ona vodiysining markaziy qismlarida tog'ning nisbiy balandlik qiyaligi 3,5 m. dan ortadi, bu esa kelajakda eroziyalar avj olib borish ehtimoli katta ekanligidan darak beradi.

O'zbekistonda sel toshqinlari mart oyidan avgust oyigacha bo'lgan davr ichida kuzatiladi. Aprel bilan may oylarida suv toshqinlari tez-tez qaytarilib turadi. Sel asosan kuchli yomg'irlardan shakllanib, shiddatli tus oladi. Ammo suv toshqinlari nafaqat yog'ingarchilikning jadallahuviga, balki tegishli tuproq tarkibi, o'simliklar, havo harorati kabi omillarga ham bog'liq.

Qishki yog'ingarchilik me'yordan ortiq bo'lgan yillarda sel toshqini ko'proq kuzatiladi. Aksincha, suv taqchil yillarda esa, toshqin kam yuz beradi. Tog'ga yaqin va tog'li hududlarda sel toshqinlari havo haroratiga hamda yog'ingarchilik miqdoriga qarab har xil bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning tog'lik yerlariga yaqin va adir zonalaridagi kichik-kichik soylarda jala va yomg'irdan hosil bo'lgan sel toshqinlari o'zi bilan ko'p miqdorda mayda tuproqlarni olib keladi, shiddat bilan o'tib, katta yemirish kuchiga ega bo'ladi.

O'zbekistonning tog' etagi, adir zonalari asosan osongina yuvilib ketadigan tuproqlardan tashkil topgan aylanma nishabliklarga ega. Mana shu nishabliklarda jala-yomg'irlar yig'ilib, o'zining yuqori zichligi va qovushqoqligi bilan suv oqimidan farqlanib turuvchi loy-suv suspenziyasidan (suvdagi jinslar aralashmasidan) iborat katta-kichik oqimlar hosil bo'ladi.

O'zbekistonda selga qarshi amalga oshirilayotgan tadbirlarni ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisi, faol usul bo'lib, bunda tog'

yon bag'irlarida daraxtzorlar bunyod etiladi, meliorativ ishlar amalga oshiriladi, ikkinchisi sust usul bo'lib, bunda sel oqimlari boshqarib turiladi, sel omborlari bilan toshqinlar to'xtatiladi, suv o'tkazish uchun sel o'zanlarini vaqt-vaqt bilan tozalab turiladi, qirg'oqlar mahkamlanadi, daryo chetlari manzara bilan ko'tariladi.

### Tog' jinslarining ko'chishi

Tog' daryolari o'zanlarida to'satdan yuzaga keluvchi suv, tog' jinslari bo'laklari aralashmasidan iborat loyqa yoki oqim sel deb ataladi. Sel baland tog'li joylarda ko'p miqdorda yog'in yog'ishi, qor va muzlarning jadal erishi, suv havzalaridan suvning urib ketishi natijasida hosil bo'ladi. U to'satdan boshlanib, yuqori tezlikda va qisqa muddatda davom etishi bilan ajralib turadi. Odatdagi oqimlardan farqli o'laroq, sel uzlusiz oqim sifatida emas, balki alohida to'lqinlar sifatida harakat qiladi. Shuningdek, o'zi bilan yuzlab tonna, ayrim hollarda millionlab kubometr yopishqoq massani olib keladi. Ayrim tosh bo'laklarining o'lchami ko'ndalanlgiga 3–5 metrgacha yetadi. Sel to'siqqa uchraganidan so'ng uni oshib o'tadi va kuchi yanada ortadi.

Sel 2–10 m/s va undan katta tezlikda harakat qiladi. 1 kub metr sel oqimining og'irligi 2 tonnagacha yetadi. Bitta joyning o'zida kuchli sel oqimlarining paydo bo'lishi ehtimoli katta emas. Chunki sel hosil bo'lishi uchun faqatgina yog'in-garchilikning ko'p bo'lishi yetarli emas. Buning uchun suv oqimi olib ketishi mumkin bo'lgan tog' massasi ham mavjud bo'lishi zarur. Tog' massasi esa o'z navbatida tog' jinslarining yemirilishidan hosil bo'ladi. Uning paydo bo'lishi uchun 5–6 yildan 20–25 yilgacha vaqt ketadi.

Yer yuzasi bo'lagining yon bag'ir bo'y lab gravitatsiya surilishi yer ko'chishi deyiladi. Yer ko'chishi – respublikamizning tog' va tog' oldi, daryo bo'yлari zonalarida yashaydigan aholi manzilgohlari va xalq xo'jaligi obyektlariga katta xavf tug'diradigan tabiiy ofatlardan hisoblanadi. Markaziy Osiyo hududlarida ro'y beradigan yer ko'chishi turli shakllari va ko'lami

bilan ajralib turadi. Sel suvi yerning o'tkazmas qatlamiga yetib borgach, yuza bo'ylab oqadi. Shuningdek, yer ko'chishi yon bag'ir qiyaligida tog' jinsi tarkibiga, atmosfera yog'inlari miqdoriga bog'liq holda rivojlanadi. Yon bag'ir qiyaligi qanchalik katta bo'lsa, ko'chkining tezligi ham shunchalik katta bo'ladi. Ko'p

holatlarda ko'chki ekzogen jaryon bo'lib, jami cho'kish hodisalari bilan uyg'unlashib ketadi.

Tarixiy manbalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 20-asrning 60-yillari oxirlarida tog' va tog' oldi vodiylarida yer ko'chishi keskin ko'payganligi kuzatilgan. Bunga asosan gidro-meterologik sharoitning murakkablashuvi, atmosfera yog'inlarining haddan ziyod oshishi oqibatida yon bag'irlar zaifligining kuchayib



1-rasm. Tog' ko'chishi

ketishi va tog' oldi zonalarida xo'jalik faoliyatining kengaytirilishi sabab bo'lgan. Jumladan, tog' oldi adirliklariga ko'ndalang texnik ishlov berish, gidrotexnika inshootlari barpo etish natijasida yon bag'irliklarning turg'unligi pasaygan. Pirovardida, avvalgi kichik-kichik, so'ng yirik ko'chkilar paydo bo'lishiga olib kelgan. Ayniqsa, bunday joylarning aholi yashaydigan manzilgohlarga yaqin bo'lishi juda katta xavf tug'diradi.

Respublikamizda kutilishi mumkin bo'lgan ko'chki jarayoni ko'proq Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Namangan viloyatlari hududlariga to'g'ri keladi.

Keyingi 40 yil ichida ko'chkilarning ommaviy tus olishi kuzatilgan. Xususan, raqamlar 1962-yilgacha 2000 dan ortiq, 1991-yildan 2000-yilgacha 3000 dan ortiq ko'chki hodisasi ro'y bergenligini ko'rsatmoqda. Bu davrlarda atmosfera yog'inlari juda ko'p bo'lganligi ham qayd etilgan. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligi ko'chki jarayonining juda faollashgan davri hisoblanadi. Hozirgi paytda ko'chkilarning halokatli xususiyati asosan:

- qisqa vaqt mobaynida ommaviy tus olishi;
- ko'chki sodir bo'lgan maydondagi aholi punkti va unumdon yerlarning yo'q bo'lishi ;
- yon bag'irlarda yo'llar, kanallar va boshqa inshootlar qurilishidagi texnogen ta'sirining ortib borishi bilan namoyon bo'ladi.

Quyida ayrim halokatli ko'chkilarga misol keltiramiz:

Maylisoy ko'chkisi — 1960-yil 30-aprel, 30 kishi nobud bo'lgan, umumiy massa 200 ming m<sup>3</sup>.

Xojikent ko'chkisi – 1961-yil, 12 kishi nobud bo'lgan, umumiy massa 1000 m<sup>3</sup>.

Jigariston ko'chkisi – 1991-yil 4-may, 56 kishi halok bo'lgan, umumiy massa 176 ming m<sup>3</sup>.

Oqtosh ko'chkisi – 1993-yil 11-mart, 5 kishi halok bo'lgan, umumiy massa 80 ming m<sup>3</sup>.

Qoraqishloq ko'chkisi – 1994-yil 29-mart, 3 kishi nobud bo'lgan, umumiy massa 400 ming m<sup>3</sup> ni tashkil etadi.

Bundan ko'rini turibdiki, ko'chkilar o'ta halokatli xususiyatga ega. Shu bois, 1958-yilda O'zbekistonda ularni maxsus kuzatadigan muhandis-geolog davlat xizmati tashkil etilgan. Hozirgi vaqtida Davlat ko'chkini kuzatish xizmati vatanimiz hududi bo'yicha 7 ta hududiy kuzatuv stansiyasiga, 21 ta postlarga ega. Ularning kuzatuv maydonlarida 8 mingdan ortiq tog'-kon sanoati va gidrotexnika inshootlari mavjud.

Ko'chkilarni o'rganishdagi birinchi muammo yuz berish vaqtining mavhumligidadir. Sababi ko'chki bexosdan rivojlanadigan xavfli geologik jarayonlarga kiradi.

Ikkinci asosiy muammo – xavfsiz joyni topish. Ya'ni, xavfli maydonda joylashgan aholi manzilgohlari va xo'jaliklarini nisbatan xavfsiz joyga ko'chirish uchun shu joyni kompleks tadqiq qilish lozim. Negaki, hozirgi vaqtida insonning tabiatga nisbatan xo'jalik faoliyati kengayib borishi natijasida xavfli zonalar ham ko'payib bormoqda.

Navbatdagi muammo muhofazalanishning muhandis-texnik tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat. Muhofazalanish tadbirlaridan xo'jaliklarni xavfsiz joyga ko'chirish hozirgi vaqtida keng tus olgan. Lekin ko'chkining mavsumiy xususiyatga

ega ekanligini e'tiborga olsak, aholini ko'chirish va ma'lum muddatdan so'ng yana qaytib kelishi juda mashaqqatli tadbirdir. Ayrim holatlarda yon bag'irlar maxsus temir beton sinchlar yordamida yoki sun'iy o'rmonlashtirish ishlari bilan mustahkamlanadi. Har bir tadbirni o'tkazish chog'ida tabiatdagi manbalarning buzilishiga olib kelmaslik yo'llari e'tiborga olinishi shart. Bunday jarayonlar ro'y berishi mumkin bo'lgan joylarda istiqomat qiladigan aholi o'rtasida ma'lum tushuntirish ishlarini olib borish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi siyosatini yurgizish mutlaqo yangi g'oya asosida bo'lishi shart.

Tog' jinslarining ko'chishi. Tog' vohalarida ko'pincha tog' jinslari bo'laklari quyi qiysiqlik yo'nalishida katta bosim va tezlikda og'ib, yaqin atrofdagi uy-joylarni bosib, ko'plab talafot keltirishi mumkin. Toshkent viloyatining To'ytepa qishlog'ini 1992-yil, aprel oyida tog' jinslari bosib, 50 dan ortiq uy-joylarni vayron qilgani, qurbonlar bo'lganini misol keltirish mumkin. Tog' og'ishi 200 metrdan ortiq balandlikdagi barcha tog'larda sodir bo'lishi mumkin. Bu siljish, ko'chishlar o'ta katta tezlikda, o'rtacha tezlikda yoki sekin-asta sodir bo'lishi, kutilmaganda yuz berishi mumkin. Bunda sekin, bir necha soatlar mobaynida ko'chki sodir bo'lishi mumkin. Tezligi katta bo'lgan tog' og'ishlarida tog' qiyalarining ag'anashi, sel oqimlari ta'sirida suv yoki qor qatlamlari aralash tosh bo'laklari kishilarning ko'plab qurbon bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Katastrofik vayronagarchiliklar hayvonlar, jonivorlarni tog' bo'laklari ostida qolib, halok bo'lishi yoki ko'plab murakkab jarohatlanishlarga olib kelishi mumkin.

Tog' ko'chuvchi jinslarining umumiy miqdori bir necha yuz tonnadan millionlab tonnalarga yetishi mumkin. Bu holatlар xalq xo'jaligi ekinzorlari, qazilma boyliklarini, shaxtalarini yer osti kommunikatsiyalarini, gaz, suv quvurlarini, elektr tarmoqlarini suv omborlari to'siqlarini vayron qilishi mumkin. Tog' ko'chishlari ko'pincha voha yo'llarini to'sib, suv havzalarini barpo etishi, suv toshqinlariga sabab bo'lishi va xalq xo'jaligiga beqiyos zarar keltirishi mumkin. 1911-yil iyulda Pomirda yer qimirlashi natijasida 2,5 milliard m<sup>3</sup> hajmdagi tog' qatlami og'ishi natijasida Usoy qishlog'ini bosgan, 54 nafar

qishloq aholisi nobud bo‘lgan. Murg‘ob vohasini tamoman o‘rab, katta ko‘l paydo qilgan suv toshib, Sazar qishlog‘ini bosgan sun’iy devorning balandligi 300 metrga yetib, 284 metr chuqurlikdagi 53 km masofadagi barcha joylar, inshootlar ko‘l suvi ostida qolib ketgan. Tog‘ ko‘chishini oldini olishda asosan maxsus texnik vositalar, qo‘porish ishlari yordamida xavfsiz sharoitlarda tekislash ishlarini bajarish, relyeflarni sozlash, yangi sun’iy suv omborlarini qurib, suv, qor, muz qatlamlarini maydalash ishlarini bajarish orqali erishish mumkin. Ayrim holatlarda tayanch devorlari qurilish ishlari, aholi turarjoylari xavfli joylardan uzoqlashtirilishi aholini o‘z vaqtida ogohlantirib, ularni ko‘chirish orqali talafotlar oldini olish mumkin.

Qor bosishi, ko‘chishi ham tog‘ ko‘chishi, bosishi kabi yer siljishlari guruhlariga kiradi. Odatda gravitatsion kuchlar katta-katta qor qatlamlarini qiyalik sari siljishiga sabab bo‘ladi. Qor siljishi qatlami tarkibi qor va aralash havo qorishmalaridan iborat bo‘lib, 25°–60° qiyalikda yotgan qor qatlamlarida sodir bo‘lishi mumkin. Qor siljishi, bosishi yo‘lida silliq va yashil o‘simliklarning bo‘lishi qor qatlaming siljishiga qulay hisoblanadi va o‘ta xavfli. Tog‘ qiyaliklaridagi o‘rmonzorlarda qor bosishi kuzatilmaydi. 1990-yil 13-iyul kuni Pomir tog‘ining yuqori cho‘qqisida yer qimirlab, katta qor qatlami alpinistlar qarorgohini bosgan, bunda 40 kishi halok bo‘lgan. Qor bosishlardan himoyalanish aktiv va passiv turlarga ajratiladi. Passiv himoyalanish qor siljishi xavfli joylarda inshootlar qurilishini mo‘ljallamaslik, aholi yashashi, faoliyat olib borishiga chegaralar belgilanishi, maxsus to‘siqlar barpo etishlar kiradi. Aktiv himoyalanishga esa, kuchli va qalin qor to‘fonlarini maxsus portlatish ishlarini bajarib, qor qatlamlarini kamaytira borish ishlari kiradi.

### **Bo‘ronlar va toshqinlar**

Bo‘ronlar va toshqinlar – bular o‘ta yuqori konsentratsiyali mineral bo‘laklar, maydalangan toshlar aralashmalari bosishi, aniqrog‘i, yog‘ishidir. Bular ko‘pincha tog‘dagi suv shoxob-

chalari, daryolarda paydo bo‘ladi. Ko‘pincha kuchli sel paytida yoki o‘ta tez qisqa muddatda qor erishi natijasida yoki ko‘llar, suv omborlarining toshishidan hosil bo‘ladi. Ko‘pincha bu holat suv toshqini va yer qimirlashi holatlarida sodir bo‘lishi mumkin. Biroq, sellarning xavfliligi ularni kutilmagan juda qisqa muddatda sodir bo‘lishidir.

O‘rta Osiyo respublikalarining qariyb 60 % yerlari kuchli bo‘ron va sel bosishi mumkin bo‘lgan mintaqalarga kiradi. Sellarning tarkibi – qum aralash  $S=1,5\text{--}2 \text{ t/m}^2$ , toshli aralash sellar  $S=1,5\text{--}2 \text{ t/m}^3$ , suv va tosh aralashmali katta-katta toshlar va suv qorishmasi  $S=1,1\text{--}1,5 \text{ t/m}^3$ , ga ajratiladilar. Bu turlar o‘sha tog‘ toshlari, tuprog‘i tarkibiga bog‘liq, masalan, suv va tosh qorishmalari seli Karpat tog‘larida tosh va aralash sellar, Kavkaz tog‘larida qum va loyqa suv sellari, O‘rta Osiyo yerlarida qum, tosh qorishmalari uchrashi mumkin.

Sellar ko‘pincha  $2,5\text{--}4 \text{ m/s}$  tezlikda bo‘lib, ayrim holatlarda  $8\text{--}10 \text{ m/s}$  gacha yetishi mumkin. 1921-yil 8-iyul kuni soat 21 da Olma-Ota shahriga tog‘dan o‘ta kuchli sel oqimi  $2\text{mln. m}^3$  suv aralash tog‘qorishmasi katta tezlikda oqib, butun shaharni to‘songa aylantirgan. Uylarni, odamlarni ag‘darib, shaharni sun’iy ko‘lga aylantirib, minglab qurbanlar keltirgan. Shunda 200 metr balandlikdagi suv to‘sig‘i paydo bo‘lib, shaharni to‘sib, kichik almatinka ko‘lini paydo qilgan. Sel va bo‘ron, to‘fonlardan himoyalanish asosan, sun’iy to‘siqlar (platina) qurish, sun’iy suv ko‘chirish shaxobchalar – ko‘llarni barpo etish hamda o‘z vaqtida aniqlay bilish, ogoh etish, aholini ko‘chirish kabilar hisoblanadi.

Bo‘ronlar – bu Boford o‘lchamida 12 ball, shamol-to‘zonlarning tezligi  $32,6 \text{ m/s}$  dan oshib,  $117.3 \text{ km/soat}$  ga yetishi mumkin. Kuchli shamol to‘fonlariga siklonlar, tropik siklonlar, afg‘on changlari, tayfunlar kiradi. Siklonda shamolning tezligi  $50 \text{ m/s}$  dan oshadi va kuchli sel yomg‘irlari bilan birgalikda sodir bo‘ladi. Kuchli shamol – to‘fonlar imoratlarni, elektr tarmoqlarini, transport kommunikatsiyalarini, ko‘priklarni, daraxtlarni tomiri bilan qo‘porib tashlashi mumkin. Dengizda shamol to‘foni  $10\text{--}12\text{m}$  balandlikdagi suv to‘zonlari hosil qilib, kemalarni falokatga olib kelishi mumkin.

1970-yil 13-noyabrda Pokistonda kuchli bo'rondan 500 kishi halok bo'lgan, 10 mln. aholi boshpanasiz qolgan. Bunday tabiiy ofatlar hozirgi zamonda ko'plab uchramoqda. Tabiiy ofatlarning oldini olish ishlari meteorologik xizmati tomonidan uzluksiz olib boriladi. Shuning uchun ham tinch aholi doimo ob-havo xataridan himoyalangan bo'lishi shart.

Bo'ronlar, to'fonlar, siklonlardan himoyalanish uchun metro, yerto'lalar, yer osti yo'laklari, imoratlarning yerto'lalaridan foydalaniadi.

### **Yong'inlar**

Yong'inlar idora chegaralaridan chiqqan xavfli holat hisoblanadi. Ko'pincha yong'inlar oqibati odamlarning moddiy boyliklarining kuyishiga olib keladi. Ko'p hollarda olov bilan ehtiyyotsiz munosabatda bo'lisdan yong'in kelib chiqadi. 90% yong'inlar odamlarning loqaydligidan, 7-8% momaqaldiroq yoki tabiiy ofat oqibatida ro'y beradi. Yong'inlar turiga qarab o'rmonlar yong'ini, yer osti inshootlari yong'ini, yer usti yong'inlariga ajratiladi. Shulardan yer usti yong'inlari korxonalar, inshootlar, zavod va fabrikalar, uy-joylar yonishi hisoblanadi. Eng og'ir yong'inlar neft va gaz qazib olish va qayta ishlash korxonalaridagi yong'inlar hisoblanadi, bularni o'chirish ko'pincha uzoq davom etadi hamda katta kuch talab qiladi. Yong'lnarning og'ir oqibatlaridan biri tananing kuyishi – o'ta og'ir jarohatlar guruhiga kirib, klinik kechishiga qarab 15% gacha teri kuyishini yengil, 15% dan ko'p kuyishga esa og'ir kuyish deb qabul qilingan. Kuyishlarning klinik kechinmalaridan teri qatlamlarining kuyishiga qarab yara hosil bo'lishi eritema – qizarish, bulloza – kuyish pufagi hosil bo'lishi, total kuyish, teri osti to'qimalarining kuyishiga ajratiladi. Odatda 15% dan ortiq kuyishlar kuyish bosqichidan qat'iy nazar og'ir asoratlarga olib keladi. Yong'inlarni oldini olish qoidalari har bir tashkilotda maxsus tashkil qilingan komandalar tomonidan amalga oshirilishi shartligi nazorat ostiga olinadi. Favqulodda vaziyat yong'inlarida ushbu komanda va barcha ishchilar, aholi hamjihatlikda shoshilinch qutqarish, yong'inni o'chirish va uning oqibatlarini yo'qotishga kirishishlari shart.

## Avariya va katastrofalar

Avariya – bu uskunalar, vositalar, ularning mexanizmlarining ishdan chiqishi, kommunikatsiya inshootlarning vayrona-garchiligidir. Ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi, loyihalashdagi xatoliklar, ish tartibining buzilishlari, transport tarmoqlarida loqaydlik oqibatida yuz beruvchi yoki tabiiy ofatlar oqibatida sodir bo‘ladigan holatlardir.

Avariya va katastrofalarning eng og‘ir turi – bu ishlab chiqarishdagi portlashlar, buning oqibatida tashqi atmosferaga radioaktiv moddalar va kuchli zaharlarning tarqalishi hisoblanadi.



**2-rasm.** Portlashlar, yong‘inlar

Ko‘pincha portlagichlar ishlab chiqarish inshootlarida kimyoviy zavod va fabrikalarda, kuchli bosim ta’sirida ishlaydigan korxonalarda sodir bo‘lishi va shu sabab atmosfera havosiga zaharli chiqindilarning tarqalishi, inshootlarning vayronagarchiligi, ishchixizmatchilarning halokati va jarohatlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kimyoviy va neftni qayta ishlash zavodlaridagi avariylarda asosan metan, propan, butan, etilen, propilen, butilen hamda uglevodorod chiqindilari havoga tarqaladi. Xuddi shu singari holatlar qog‘oz ishlab chiqarish zavodi, go‘sht, sut, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, suv quvurlari shaxoblari avariyasida sodir bo‘lishi mumkin. Avariya va katastrofalarning deyarli asosiy sababi ishlab chiqarish texnologiyasiga qat’iy rioya qilmaslik, texnik xavfsizlik

qidalarining buzilishi, texnik asboblarning nosozligi kabilar bo'lishi kuzatiladi. Ishlab chiqarish korxona-laridagi avariyalarga ko'pincha uglevodorod chiqindilari sabab bo'ladi.

Ammiak: rangsiz, nashtar hidli, gaz ta'sir etish chegara dozasi - 0,037 mg/l. Asosan muzlatkichlar ishlab chiqarish korxona-larida ishlataladi. Quruq holatda 4 dan 3 havo aralashmasida portlash xususiyatiga ega, suvda yaxshi eruvchan, organizimga tez so'ruluvchan hisoblanadi. Yuqori dozalarida markaziy nerv hujayralarini uyg'otish, qo'zg'atish xususiyatiga ega. Hattoki o'pka shishini chaqirib, qisqa muddatda o'limga olib kelishi mumkin. Tananing qaysi yeriga tushsa ximik kuyishlarga olib keladi.

Ximoya gazqopi K-M K-D – o'ta yuqori konsentratsiyasida izolatsiyalovchi gazqopi. Ximoya kiyimlari: sanoat korxonalarida qo'llaniladigan gazqopi «K» va «M», amiakdan esa «KD», o'ta yuqori darajada gaz parlari bo'lsa izolatsiya gazqopi qo'llaniladi.

Xlor – 2,5 marta havodan og'ir, nafas olish yo'llari va o'pka shishini keltirib chiqaradi. O'ta yuqori qonsentratsiyada 8,6 mg/s izolatsiyalovchi gazqopidan foydalaniladi.

Oltengugurt angidridi – rangsiz, o'tkir hidli, o'rtacha shirin ta'mli gазsimon zahar. Metall eritish zavodlarida, qazib olish konlaridagi ishlarda, oltengugurt kislotasini tayyorlashda ajratiladigan zahar, asosan, nafas olish yo'llari, ko'z pardasi, ko'z yoshi shaxobchalariga ta'sir etadi. Kuchli ko'z yoshi keltirib, quşish, nafas olishda hansirash, o'pka shishi va nihoyat qo'qqisdan yurak faoliyati to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Yuqori darajali zaharlangan nafas bo'g'ilib, o'limga olib kelishi mumkin.

Oltengugurt oksidi – rangsiz, kuchli hidli, shirin ta'mli gaz, yonmaydi va yong'in jarayonida qo'shilmaydi, yong'inni kuchaytirmaydi, oltengugurt qazib olish jarayonida qazilma xom ashyolarini eritish paytlarida, oltengugurt kislotasi olishda hosil bo'lishi mumkin.

Oltengugurt oksidi – nafas yo'llarini jarohatlaydi, ko'z qorachig'ini xiralashtiradi, tomoq va ko'krakda kuchli og'riq paydo qiladi. Kuchli darajada nafas tigilishi, hansirash, quşish, hush dàrjasining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Birinchi yordam: toza havoga chiqarish, tanani qisib turuvchi kiyimlardan bo'shatish, nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash, toza kislorod berish, suv bilan yuvish, 2% li ishqor suvi bilan og'izni chayish, sutga mineral suv, sariyog', asal qo'shib ichish. Himoyalanishda: filtrlovchi gazqopi va izolatsiya etuvchi gazqoplari, sanoatda qo'llaniladigan «V» va «T» gazqoplari, bo'lalar gazqoplardan foydalaniadi.

Fosgen va sinil kislotasi zaharlanishlari tasnifi kimyoviy qurollar bilan zaharlanishlar bo'limida beriladi.

### **Radioaktiv zaharlanishlar**

Atom energetikasi 20-asrning olamshumul voqeasi hisoblanadi, chunki 1895-yilda Rentgen tomonidan topilgan. O'sha paytgacha noma'lum bo'lgan nur tez orada Bekkerel tomonidan, uran Rezerford tomonidan, Julio Kyuri va M.Kyurilar tomonidan neytron nurlarining atom energetikasini boshqarib, xalq xo'jaligida, insonlar faoliyatida qo'llash mumkinligini ko'rsatdi. 1939-yilda nemis radioximiklari Gan va Shtrassmanlar o'sha yili L. Meytner, O. Fridts va Julio Kyuri atom nurlanishidagi elektron va protonlarni, uran yadrosini bombardimon etib, yangi kimyoviy element paydo etish mumkinligini isbotlab bergandan so'ng Julio-Kyuri, Koverskiylar uran atomini neytronlar yordamida parchalashda yangi nur neytronlar ajralib, u boshqa atomni parchalash qobiliyatiga egaligini isbotlab berdi. Ya'ni yadroviy fizikada zanjir reaksiyasi isbotlab berildi. Shuning oqibatida akademik V.I.Vernadskiy bu voqeadan 20 yil oldin, ya'ni 1920-yildayoq odamzot yangi atom erasiga kirib keldi, endi energetika, kimyo, texnika va tibbiyot atom energetikasi rivojlana olmasligini aytib o'tganligi isbotlandi. Bugungi kunda insonlar atom energiyasini o'z qo'li bilan boshqara olish imkoniga ega bo'ldi. Bu hol atom energetikasini xalq xo'jaligining barcha sohasiga kiritgan desak, xato bo'lmaydi. Harbiy sohada atom, vodorod bombalari hamda neytron termoyadro qurollari ishlanib, atrosga radioaktiv xavf paydo qilishi yoki oziq-ovqat sanoatida sun'iy nurlatish orqali urug'chilikda ishlatishda, xomashyo ishlab chiqarishda,

sun'iy tolalarni nurlatish orqali chidamli qilib chiqarishda, metallurgiya sohasida gamma-defektoskoplarni qo'llashda, suvning ichimlik sifatini qayta tiklashda, gamma nurlarini ishlatishda qishloq xo'jaligi ekinzorlari zararkunandalarini nur yordamida yo'qotishda, kartoshka urug'i gullamasligi uchun uni uzoq muddatda chirimasligini ta'min etishda nurlatish yoki atom elektr energiyasida foydalanishda, tibbiyotda diagnostika, radio davolash kabi sohalar inson hayotini atom energiyasi bilan chambarchas bog'lagan.

Shu sohalarda keyingi paytlarda favqulodda vaziyatlar ham paydo bo'ldi. Shuning uchun yadroviy fizika, radiobiologiya, fizika, radiokimyo kabi fanlar sanitariya – gigiyenik tadbirlar bilan birgalikda radioaktiv zararlanishdan himoya etishga qaratilmog'i zarur. Radioaktiv nurlanishning og'ir turi, AESdagi avariya hisoblanadi. Bunda atmosferaga, tuproqqa, suvg'a, radionukleidlardan qo'shilib, AES atrofidagi tuproq va suvni uzoq muddatda katta-katta maydonlarda zaharlaydi. AESdagi avariyyada radioaktiv ifloslanish yadroviy qurollar ishlatilgandagi radioaktiv ifloslanishdan tubdan farq qiladi.

Birinchidan, radiatsiya tarqalishi izi kattaligi, RV zararlash darajali, RV parchalash AESdan otilib chiqqan bo'laklar parchalarini radioaktiv bo'linishdan va ob-havo meteriologik sharoitdan AES joylashgan joydagi o'simlik dunyosi, suv havzalari, tuproq, ekinzorlar barchasi nurlatish qobiliyati bilan ta'sir doirasida farq qiladi.

Ikkinchidan, yadroviy qurol portlaganda radioaktiv izining yo'nalishi chegaralari shamol tezligi va yo'nalishi bilan bog'liq bo'lganligi aniq bo'lsa, Chernobil AESdagi radioaktiv ifloslanish chegara noaniqligi ancha o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Aniqlanishicha, Chernobil AESdagi radionukleidlardan avariya chegarasidan chiqib, uzoq vaqt mobaynida shamol yo'nalishi o'zgarishi bilan radioaktiv ifloslanish tarqalishi kuchaygan. Avariya joyida esa radioaktiv parchalanish yong'inlar 5-7 sutkalarda davom etgan. Yadro portlashda radioaktiv ifloslanish joyi elips shaklida bo'lsa, AES avariyasida esa noto'g'risimon bo'lib, shamolning o'zgarishiga bog'liqligi aniqlangan.

Uchinchidan, AES avariyasida radioaktiv zararlanish maydoni chegaralangan Chernobil AES da radioaktiv nurlanish maydoni 10,3 m/s (1r/s) 10 kv<sup>2</sup> ni tashkil qilgan bo'lsa, yadro quroli portlashida bu maydon yuzlab kv km larga borishi mumkin, ammo radiatsion zararlanish ko'rsatkichlari AES maydonida va atrofga yaqin joylarda besh karra yuqori r/s ni tashkil etgan. Bu holat avariya paytida energoblokdan ajralib chiqqan parchalarni, nukleidlarni parchalovchi xususiyatlarga bog'liq, AES uchun yod-131, tellur-132, seziy-134 va 137 va ksenon-133, kripton-85 lar xos hisoblanadi. AES avariyasida radioaktiv pasayish o'ta sekinlik bilan boradi, agar yadro portlashida radioaktiv pasayish 7 karra bo'lsa, AES da esa radioaktiv pasayish 2 karragina bo'ladi. AES avariyasida radioaktiv ifloslanish AES atrofida qum tuproq, dolomit, bor qo'rg'oshin va boshqa jismlar ishlatilishiga ham bog'liq. Chernobil AESda avariyanidan keyin 2 hafta mobaynida 500 tonnadan ortiq qum, tuproq, loy, dolomit, bo'r va qo'rg'oshin tashlangan, bu issiqlik ta'sirida 0,5 mk hajmli radioaktiv par tarqatib, daraxtlar, imoratlar devoriga g'isht, beton orqali yutingan, bu holat dezaktivatsiyalashni ancha qiyinlashtirgan. AES avariyasida odamlarda radioaktiv zararlanish nafas yo'llarida, o'pkada suv va oziq-ovqat bilan oshqozon ichak tizimida nurlanish sodir bo'lishi mumkin.

Tashqi nurlanish esa avariya maydoni va radioaktiv zararlangan chegara ichida ishlash, uchish holatlariida par-gaz radioaktiv bulutdan bo'lishi mumkin. AES avariyasining 30 km li chegarasida 2 mln. ga yer ifloslangan, bunda shu hududdagi barcha qishloq xo'jaligi jonivorlari va uy hayvonlarining nurlanishi qayd qilingan, shu sababli 30 km<sup>2</sup> maydondagi barcha oziq moddalarni, jonivorlar go'shti, sutini iste'mol qilinishi taqiqlangan.

Radioaktiv nurlanishda o'simlik dunyosi, mevali va mevasiz daraxtlar, suv manbalari barcha oziq-ovqat mahsulotlari ifloslanadilar. Bu holat avariya joyidan ancha uzoq bo'lgan yerlarga suv oqimi orqali radioaktiv qorishmalarni tarqatib, suv oqimi irmog'ida yashovchi aholi uchun katta xavf soladi. Chernobil AES avariysidan keyin Kiyev shahridagi suv

omborida Dnepr daryosi quyi oqimlarida 1986-yilning iyul oyidan boshlab, 1987-yil may oyigacha sezni va stransiy izotoplari taqiqlangan radioaktiv qoldiqlarni ushlab qolish, dezantivatsiya qilish uchun to'siqlar qurilgan, natijada Dnepr yoqasi quyi oqimlarida nurlanish darajasi pasayishiga erishilgan. Fuqarolar muhofazasi bu sohada katta natijalarga erishdi. Bu, avvalambor, radio izotoplarni tashqi muhitga tarqalganligini aniqlash asboblari. Har bir shaxsni nurlanish darajasini aniqlash, ayni paytda radioaktiv zararlanishda ularning aktivligini pasaytirish, ya'ni dezaktivatsiyalash ishlarini sanitar yo'qotishlar o'chog'ida olib borishda fuqarolar muhofazasi bolimlari katta natijalarga erishdi. Evakuatsiyalashtirish manzilgohlariga o'tkazish ishlarini aniq reja asosida bajarish kabilar, bundan tashqari nurlanish o'chog'ida va tibbiy yordam bosqichlarida, nurlanishda davolash ishlarini o'tkazish fuqaro muhofazasining xizmat ko'rsatish bo'limlari orqali joriy etiladi.

### **Harbiy holat o'choqlariga taktik baho berish**

«Ogoh bo'ling, odamlar!» degan da'vat hamisha bong urayotgandek yangrab turishi kerak». Bebaaho qadriyatlarimizni, o'z mamlakatimizni, tinchligimizni, jamiyatda millatlar va fuqarolar o'rtaсидagi totuvlikni asrashimiz lozim. O'z erkimizni qanday tasarruf etish, uni bugungi murakkab va ba'zan shafqatsiz dunyodagi haddan ziyod xavf-xatardan himoya qilish har birimizga bog'liqidir. Davlatni aql-idrok bilan boshqarish, mutafakkir Abu Nasr Forobiy X asrda saboq berib aytganidek, xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir. O'zbekiston o'zining jug'rofiy-siyosiy holati jihatidan Fors ko'rfasi, Kaspiy dengizi va Karib havzasining Rossiya, Xitoy va Hindistonning, sharq va g'arb mamlakatlarining bir-biriga mos kelmaydigan mintaqasida, Turkiya, Pokiston, Eron, Saudiya Arabiston, Afg'oniston, Tojikiston,

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». — T.: 2003.

Qирғизистон, Қозог'истон, Туркманистан каби мamlakatlar halqasida joylashgan.

O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buning ustiga yurtimiz mintaqasi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan, Afg'oniston bilan chegaradosh. Bunday terrorizm, zo'ravonlik, narkobiznes va qurolli to'qnashuvlar davlat chegaralarini tan olmaydi. O'zbekiston do'stlik va hamkorlik qo'lini hammaga cho'zadi, ammo sovuq urush xavfiga mamlakat xalqini doimo shay turishini, undan himoyalanishni unutmaydi. Shu sababli hozirgi vaziyatni o'rganib, unga to'g'ri baho berish, hushyorlik ramzi bo'lishi kerak. Hozirgi vaziyat murakkab, ko'p qirrali bo'lib, jarohatlanishlarning turi, shakli o'ta og'irligi bilan ajralib turadi. Bu avvalambor, tibbiyat xodimlari oldiga murakkab vazifalarni yuklaydi. Ayni paytda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish harbiy tibbiy yordam tarzida tashkil etilishi talab qilinadi, chunki:

- qisqa muddat mobaynida yoppasiga aholi orasida murakkab jarohatlanishlarning sodir bo'lishi, jarohatlarning o'ta o'girligi;

- urush sodir bo'lган joylarda tibbiy xizmat ko'rsatadigan muassasalarning urush oqibatida vayron bo'lishi, ishdan chiqishi, tibbiy yordam ko'rsata olmasligi, hattoki tibbiyat xodimlarining o'zları ham tibbiy yordamga muhtoj bo'lishlari;

- urush xavfi holatida shaharlardan aholini tez olib chiqib, xavfsiz yerkarda ko'chirib, evakuatsiyalash hamda evakuatsiya qilingan joylarda ko'plab aholining tekis joylashishi oqibatida og'ir, murakkab sanitariya epidemiologiya holatining yuzaga kelishi;

- urush oqibatida jarohatlangan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish mutaxassislarga talabing cheksiz ortishi va tibbiy mutaxassislarning yetishmasligi;

- dushman bosib olgan va urush davom etayotgan yerlarda aloqa kommunikatsiya tizimining ishdan chiqishi natijasida

tibbiy tashkilotlar bilan boshqaruv aloqaning uzulishi urush oqibatlarini yo'qotishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardir.

Shuning uchun ham bo'lajak vrachlar murakkab vaziyatlarda tibbiy yordamni yoppasiga jarohatlanishlar o'chog'ida to'g'ri tashkil eta olish qobiliyatini tinchlik davrida shakllantira olishlari shart.

Texnika taraqqiyoti rivojlangan hozirgi davrda urushlar to'satdan sodir bo'lishi va nihoyatda qisqa muddatda katta maydonda talafotlar keltirishi mumkin, chunki ilmiy- texnik rivojlanish qurol-aslaha, harbiy texnikani yoppasiga qiruvchi qurollar bilan o'ta xavfli qilib qo'ydi.

Hozirgi zamonda eng zaif davlatlar ham yoppasiga qirg'inlar keltirishga qodir. Shuning uchun ham hozirgi zamonda harbiy tibbiy holatlarni yadro quroli, kimyoviy qurollar va biologik qurollar qo'llashda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar o'chog'ini tibbiy taktik baholash orqali o'rganiladi.

Tabiiy ofatlarning sabablari, turlari, ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya va katastrofalar tartibi, xususiyatlari, ularning oqibatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sanitar yo'qotishlar o'chog'ini taktik baholash tartibini o'rganish, vrachlik kasbida muhim omildir. Tabiiy va stixiyali ofatlarda favqulodda vaziyatlarda fuqarolar muhofazasining kuchi va vositalarining shoshilinch bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar mutaxassislar harakat doirasini boshqarishni o'tkazish tibbiy yordam ko'rsatish tizimining asosini tashkil qiladi.

Tabiiy ofatlar, avariya va katastrofalarni oldini olish ishlarida tashkilotlarning bajarishi zarur bo'lgan vazifalarini aniqlash, ularni tinchlik davrida fuqarolar muhofazasining favqulodda vaziyatlar markazi tomonidan ko'rsatilgan qo'llanmalar rejasi asosida bajarish hozirgi zamон талаби ekanini har bir mutaxassis, har bir rahbar, xodim aniq bilishiga erishish, uni amalda qo'llay olishga amin bo'lish mamlakatning yakdil tayyorligini ta'min etishga imkon beradi.

Favqulodda vaziyat o'choqlarini tibbiy taktik baholash har bir bo'lajak vrach uchun kasbiy zarurat bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham favqulodda hodisalardan himoyalananishda

tibbiy himoyalanish yetakchi bo‘lmog‘i zarur. Hozirgi zamonda harbiy to‘qnashuvlar yoppasiga qirg‘in qurollar ishlatilishi yoki ishlatilmasligini kafolatlay olmaydi. Shuning uchun hozirgi davrda mavjud bo‘lgan yoppasiga qirg‘in qurollarini o‘rganish, ular natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni bartaraf etish tartib bilan barcha aholini, ayniqsa, rahbar xodimlarni, injenerlik xizmatini, tibbiyot xodimlarini o‘qitish zarur. Yoppasiga qiruvchi qurollarga yadroviy, kimyoviy va biologik qurollar kiradi. Yadrobiy qurolning ta’siri natijasida jarohatlanish yadroreaksiyasi parchalanish va sintezlanish orqali ajraladigan energiya hisobidan sodir bo‘ladi. Yadro quroli hozirgi zamonda mavjud bo‘lgan barcha qurollar orasida eng kuchli hisoblanadi. U yoppasiga qirg‘in qurollarning eng kuchli jarohatlovchi turi bo‘lib, ko‘plab o‘limlar hamda inshootlarni vayron qilishga qodir. Yadro qurolini jarohatlovchi omili – uning quvvatiga, portlash turiga, dasturiga, yadro portlash joyiga, vaqtiga va boshqa omillarga bog‘liq.

### **III BOB**

## **AHOLI VA HUDDUDLARNI FAVQULODDA HOLATLARDAN HIMOYALANISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlab o‘tganidek: «Shunday qilib, xavfsizlikni ta’minalash barqarorlik kafolatlari, davlatni progressiv rivojlanishini nima hisobidan ta’minalash mumkin? Bu oddiy samimiyo so‘zlar tagida xavfsizlik, barqarorlik, turg‘un tinch hayot kafolatlari yotishini barchamiz ongli tarzda tushunib yetishimiz darkor». Xavfsizlik masalasi, xalqning tinchligi, osoyishtaligi bilan barcha davlat tashkilotlari doimo shug‘ullanishlari zarur, aks holda rivojlanish haqida so‘z yuritish mumkin emas. Eng avvalo, xalq tinchligi, yurt osoyishtaligi, chegaramiz mustahkamligi barchamizga tinch, osoyishta yashashimizga imkon bera oladi. O‘zbekiston davlati bu masalaga alohida e’tibor qaratadi.

Himoyalanish uchun asosiy kafolat beruvchi hujjat – O‘zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni va O‘zbekiston Prezidentining Favqulodda vaziyatlar vazirligini, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar muhofazasi institutini tashkil etish hamda favqulodda vaziyatlarda aholi, korxonalar, hokimiyatlarning harakatlariga taalluqli qarorlari hisoblanadi.

Ushbu qonun va qarorlarni o‘rganishda talabalar quyida keltirilgan talablarni bilishlari kerak.

- asosiy hujjalarda keltirilgan talab va topshiriqlarni fuqarolar muhofazasi tizimiga qo‘llay olishlari;

- aholini, hududlarni tabiiy, texnogen hamda favqulodda terroristik, qo‘poruvchilik harakatlaridan himoya etish, amaliy ishlarni shoshilinch hamda ayni paytda ishonarli darajada

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov, «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». — T.: 2003.

oqibatlarini bartaraf etish ishlariga rahbarlik qila olishlari talab etiladi;

- favqulodda vaziyat holatlarida o'zlarining kasbi, egallab turgan lavozimiga mos holda qonun-qoidalarga amal qila olishlari zarur.

Eng asosiy direktiv hujjat – bu 1999-yil 20-avgustda Oliy Majlisning XV sessiyasida qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonundir.

Qonun 5 ta bo'lim va 27 ta moddadan iborat.

1-bo'lim. Umumiy qoidalar 5 ta moddani o'z ichiga oladi. Bu qonunning maqsadi, fuqarolar muhofazasi to'g'risidagi tushunchalar, qoidalar asosiy prinsiplari hamda fuqarolar muhofazasi to'g'risida asosiy ma'lumotlar yoritilgan.

2-bo'lim favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni ta'minlash tizimi haqida bo'lib, 9 ta moddani (6-14-moddalar) o'z ichiga oladi. Bo'limda favqulodda vaziyatlarda himoya-lanish tizimlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

3-bo'limda fuqarolarning huquq va majburiyatlari ifodalangan bo'lib, 5 ta moddani (15-19-moddalar) o'z ichiga oladi. Bunda fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda huquqlari, vazifalari yoritilgan.

4-bo'lim favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan. Bu bo'lim 6 ta moddani (20-26-moddalar) o'z ichiga oladi.

5-bo'limda yakuniy qoidalar yoritilgan bo'lib, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik hamda moliyaviy va moddiy resurslar rezervlari 26-27-moddalarda keltirilgan.

Fuqarolar muhofazasi tuzilmalarining tashkiliy, amaliy harakatlarini kafolatlaydigan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi 1996-yil 4-martdagি farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 11-apreldagi qarori hisoblanadi. Bundan tashqari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23-dekabr 1998-yilda qabul qilingan «Favqulodda holatlarni oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tizimlari to'g'risida»gi qarori va nihoyat 1998-yil 27-oktabrda qabul qilingan «Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagি favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida»gi qarorida vaziyatlarning turlari, favqulodda texnogen, tabiiy hamda ekologik xususiyatga ega bo'lgan holatlarning ta'riflari yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi farmonida O'zbekiston aholisini va hududlarini, ishlab chiqarish korxonalarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan ishonarli himoya qilish tizimlarini tuzish hamda favqulodda vaziyatlarni oldini olish ko'zda tutilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Fuqarolar mudofaasi o'rniga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tuzilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari aniqlansin:

- favqulodda vaziyatlarni oldini olish yo'nalishida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalda tatbiq etish;

- tinchlik davrida va harbiy holatlarda odamlar hayotini va sog'lig'ini saqlash, moddiy va madaniy boyliklarni asrash hamda favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish;

- favqulodda vaziyatlardan himoyalash, ogohlantirish hamda harakat qilish davlat boshqaruv tizimini tuzish;

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolar muhofazasi xizmatini boshqarish;

- O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, Qaraqaipog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи, viloyatlar hokimligi faoliyatlarini, aholini avariya va katastrofalar, tabiiy holatlardan himoyalash, ularni oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etish faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

- vazirlikning faoliyatini mamlakatlararo favqulodda vaziyatlar tuzilmalari bilan o'z yo'nalishlari bo'yicha mujassamlashtirish.

3. Aholini va xalq xo‘jaligi obyektlarini himoyalash tizimlari ustidan boshqarish:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchi o‘rribosari Favqulodda vaziyatlar vaziri etib tayinlansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda, shaharlarda, tumanlarda favqulodda vaziyatlardan himoyalash vazifasi Vazirlar Mahkamasi raisi zimmasiga yuklatilsin.

5. Favqulodda vaziyatlardan himoya qilish ishlari, vazifalari tashkilotlar, korxonalar rahbarlari zimmasiga yuklatilsin;

- favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, bo‘limlari – Favqulodda vaziyatlar vazirligining tarmoqlari hisoblanadilar. Viloyatlarda esa mahalliy davlat hokimiyatlarining favqulodda holat yo‘nalishi boshqaruv tashkiloti hisoblanadi;

- fuqarolar muhofazasi boshqarmasining boshlig‘i lavozimi bo‘yicha hokim o‘rribosarlari hisoblanadi.

6. Favqulodda vaziyatlar vazirligining qarorlarini bajarish barcha vazirliklar, hokimiyatlar, idoralar, tashkilotlar hamda barcha fuqarolar uchun majburiydir;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil avgust oyidagi buyrug‘i bilan O‘zbekiston aholisi va xalq xo‘jaligi obyektlarini favqulodda vaziyatlardan himoyalash Vazirlar Mahkamasi raisiga yuklatilsin.

Shunga asoslanib, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi, uning bo‘limlari hamda viloyatlar, tumanlar tuzilmalar iqtisodiy ta’minoti davlat budjeti tomonidan qoplanishi belgilangan.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi nizomida asosan quyidagilar tasdiqlangan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi aholisini himoyalash, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan avariya, katastrofa va tabiiy ofatlarning oldini olish, uning oqibatlarini bartaraf etish borasida olib boriladigan barcha ishlari, tadbirlarni ishlab chiquvchi hamda boshqaruvchisi hisoblanadi.

2. Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti farmonlariga Vazirlar Mahkamasining qarorlariga to'la amal qiladi, ayni paytda xalqaro shartnomalarda himoyalanish borasida kelishilgan tadbirda faoliyat yuritadi.

3. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifaları:

- davlat miqyosida aholini va xalq xo'jaligi korxonalarini favqulodda tabiiy, texnogen hamda harbiy holatlarda himoyalanishga tayyorlash;

- barcha korxonalar, tashkilotlar, vazirliklar faoliyatini himoyalanishga doir yo'naliш bo'yicha boshqarish, birlashtirish hamjihatligini ta'minlash;

- himoyalanishga sarf bo'ladigan davlat rezerv ta'minotini tashkil etish;

- favqulodda holatlar kelib chiqishi mumkin bo'lgan hududiy muammolarni o'rganish, oldindan aniqlash, ogohlantirish;

- favqulodda holatlar, avariya, katastrofa, tabiiy ofatlarni oldini olish borasida faoliyat yuritish;

- xalqaro tashkilotlar bilan hamjihatlikda favqulodda vaziyatlarni oldini olish, uning oqibatlarini bartaraf etishning eng zamonaviy uslublarini qo'llash;

- Aholining, rahbar xodimlarning himoyalash qonun-qoidalariga amaliy malakalarini orttirish, o'qitish, mashq qildirish ishlarini shakllantirish;

- O'zbekiston aholisini, hududlarini, inshootlarini har qanday holatlarda ham himoya etish uchun kuch vositalarini doimo shay holatda tutish, ularning safarbarligini ta'minlash;

- favqulodda holatlarda tinchlik davrida himoyalanish resurslarini jamg'arish uchun zaxiralar yaratish;

- aholini o'z vaqtida ogohlantirish, ularni favqulodda holatlarda harakatlanish tadbirlarini ishlab chiqish, o'qitish, mashq qildirish;

- tabiiy, texnogen va boshqa xavfli holatlarda qutqaruв va tiklash ishlariga bevosita rahbarlik qilish.

## **Favqulodda vaziyatlarda faoliyat yurituvchi davlat tizimi**

Favqulodda vaziyatlarda faoliyat yurituvchi davlat tizimi quyidagilardan iborat:

1. Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi barcha kuch va vositalarni birlashtiruvchi vazirliklar, viloyatlar hokimiyatlari mahalliy hokimiyatning rahbarlari faoliyatini favqulodda tabiiy, texnogen va boshqa ofatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga birlashtiruvchi boshqarma hisoblanadi.

2. Favqulodda vaziyatlarda himoyalash davlat tizimi hududiy va sohaviy tizimlardan tashkil topib, u respublikaviy, mahalliy hamda obyektdagi tuzilmalardan iborat.

3. Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy tizimi Qoraqalpog'iston Respublikasida, Toshkent shahrida, viloyatlarda ularning hududiy tuman va shaharlarida, qishloqlar, joyllarda tashkil etiladilar.

4. Davlat tizimi ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha vazirliklar, boshqarmalar, koorporatsiyalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalarda tuziladi, ularning faoliyatida atrof-muhit, tabiat ustidan doimiy kuzatuv o'tkazish, ayniqsa, potensial xavfli obyektlar ustidan, shuning bilan favqulodda holatlarni oldini olish, uni bartaraf etish ishlarni barcha ishlab chiqarish korxonalarida nazorat inspeksiyasi xizmatini tuzish, ularning kuchi va vositalari 22 turdan iborat.

5. Har bir davlat favqulodda vaziyat tizimi tarkibida:

- rahbariyat tizimlari;
- har kuni doimiy faoliyat yurituvchi tizimlar;
- favqulodda vaziyat oqibatini bartaraf etuvchi tizimlar, qutqaruvchilar, qayta tiklovchilar;

- iqtisodiy, ta'minot rezervlarini ta'minlash tizimi;
- axborot va informatsiya – ASU tizimi;

6. Davlat tizimlari – bu respublika viloyatlar mahalliy hokimiyati, korxona rahbarlari hisoblanib, ularning vazifalari fuqarolarni, ishchi-xizmatchilarni hududiy joylarni himoya-lashga asoslanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi darajasidagi vakolatlar:

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi, barcha soha vazirliklari atrof-muhit holatini nazorat qilish, ishlab chiqarish sohasida potensial xavfli obyektlar, korxonalar tarkibida kimyoviy, portlovchi, yong'inga qarshi xavfli yo'naliishlar faoliyati ustidan qattiq nazorat o'rnatish, xavfli holatni kamaytirish, oldini olish ishlarini tartibga soladi.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hokimligi, shahar va tuman rahbarlari hududlarning xavfsizligini ta'minlash, oldini olish, oqibatini bartaraf etish ishlariga rahbarlik qiladilar.

9. Korxonalar (obyektlar) rahbarlari o'z korxonalarida, o'quv yurtlarida favqulodda holatlarni oldini olishni bartaraf etish bo'yicha ishlarni mukammal bajarishlari shart.

Favqulodda vaziyatlarda aholini, hududlarni himoyalashda doimiy faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimlari quyidagicha:

- respublika miqyosida har kunlik doimiy rahbarlik qiluvchi tizimi, davlat xavfsizligi boshqarmalari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri favqulodda vaziyatlar boshqarmalari faoliyatini boshqarish, bo'limlar, maxsus tayinlangan rahbarlar, vazirliklar faoliyatini favqulodda vaziyatlar yo'naliishida boshqarish;

- davlat nazorat tizimlari, vazirliklar, tashkilotlar boshliqlari faoliyatini tuzish;

- krizis holatda boshqaruv markazlari (KHBM);

- zaxiraviy bazalar boshqarmalari (ZBB);

- tezkor-navbatchilik xizmatlari.

Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi uch holatda faoliyat yuritadi;

1. Har kunlik doimiy faoliyat.

2. Yuqori darajali xavfli holat.

3. Favqulodda holat.

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrdagi qaroriga asosan favqulodda holatlarning turlari – texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli vaziyatlar tahlil qilinadi.

Bunda favqulodda vaziyatlarga jabrlangan aholi sonidan kelib chiqib, vayron bo'lgan joyning hajmi, iqtisodiy yo'qotishlar

miqdoriga qarab belgilanadi, hududiy, respublikaviy va davlatlararo chegaradan o‘tuvchi keng darajali holatlarga ajratiladi.

Bunday taqsimlash favqulodda sodir bo‘lgan holatni darajalash, oqibatini yo‘qotish, ishlarni qay miqdordaligini baholaydi, ammo har bir holat bo‘yicha ular alohida baholanadi:

I. Texnogen xususiyatlari favqulodda holatlar:

1. Transport tarmog‘idagi avariya va katastrofalar:

2. Kimyoviy xavfli obyektlardagi avariylar.

3. Yong‘in xavfli obyektlar avariysi.

4. Energetik-kommunikatsiya tizimi avariysi.

5. Imoratlarning birdaniga qulashi.

6. Radioaktiv xavfli ekologik moddalarni saqlash bilan bog‘liq avariylar.

II. Tabiiy favqulodda vaziyatlar:

1. Xavfli geologik holatlar.

2. Gidrometereologik xavfli holatlar.

3. Xavfli epidemiologik, epizootik vaziyatlar.

III. Ekologik xavfli vaziyatlar:

1. Tuproq, yer qoplami holatining buzilishi.

2. Atmosfera qoplaming xavfli buzilishi.

3. Suv sathi (gidrosfera) holati xavfi.

4. Chegaralangan, mahalliy, respublika miqyosida va chegara tashqarisi bilan bog‘liq holatlar.

Bunda favqulodda vaziyat O‘zbekiston hududidan tashqarida ro‘y bergen, ammo O‘zbekiston territoriyasiga xavf solishi mumkin holat.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarorlari aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya etishning tashkiliy ishlarni amalda bajarish uchun huquqiy qo‘llanma hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining aholini va rahbar xodimlarni favqulodda vaziyat holatlardan himoyalanishga o‘qitish, tayyorlash borasidagi asosiy hujjatlari – O‘zbekiston aholisini, rahbarlar tarkibini, favqulodda vaziyatlar shaxsiy tarkibini hamda harbiylashtirilmagan tuzilmalarni favqulodda vaziyatda tabiiy, texnogen xususiyatlari holatlardan himoyalanishini

ta'minlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligining bir necha buyruqlari hamda Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 7-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan himoyalanishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi qarori qabul qilingan.

Aholini favqulodda vaziyatlardan himoyalash tizimlarini takomillashtirish, texnogen, tabiiy xususiyatli holatlarni oldini olish, bartaraf etish ishlarini muvosiflashtirish bo'yicha quyidagi qaror qabul qilingan:

1. O'zbekiston Respublikasi aholini favqulodda vaziyatdan himoyalash tartibi ilovaga muvosiq tasdiqlanishi.

2. O'zbekiston fuqarolarini favqulodda vaziyatdan himoyalanishga o'qitish, mashq qildirish, barcha aholini jalb qilish, ularning ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishi o'quv yurtlari hamda yashash joylarini e'tiborga olib, qaysi tarmoq yo'nalishiga qarashidan qat'iy nazar barcha tarmoqlarda o'tkazilishi shart.

3. O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi Favqulodda vaziyatlar vazirligi dasturi asosida davlat ta'lim standartiga favqulodda vaziyatlardan aholi hududlarini va milliy boyliklarni himoyalash o'quv dasturlarini kiritib, himoyalanish borasidagi bilim va amaliyot shartlarini o'rgatish majburiy qilib kiritilsin.

4. O'zbekiston Davlat matbuot qo'mitasi, teleradio-kompaniyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qizil yarim oy jamiyati, davlat tashkilotlari hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish hokimliklari va boshqa barcha vazirliklar, korxonalar, tashkilotlar zimmalariga aholini himoyalanishga bag'ishlangan oilaviy ta'lim-targ'ibot ishlarini jumladan, barcha informatik imkoniyatlarni qo'llashlari topshirilsin.

5. Favqulodda vaziyat holatlaridan himoyalanishda tayyorlanishga quyidagi tabaqalar majburdirlar:

- ishlab chiqarish tarmoqlari ishchi-xizmatchilar;
- umumta'lim yoshlar tizimi – o'quvchi yoshlar;
- o'rta va oliv ta'lim, kasb-hunar kolleji o'quvchilari kasbiy

yo‘nalishidan qat’iy nazar o‘qish, mashq qilish, malaka oshirishga majburlar;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, davlat hokimiyati mutaxassislari, vazirliklar boshqaruv tartibidan qat’iy nazar favqulodda vaziyatlardan himoyalanish tartiblarini o‘rganishlari, amal qilishlari majburiy etib tayinlansin;

- ishlab chiqarish tarmoqlariga qatnashmayotgan xizmat sohasi – kommunal maishiy xizmati, ishdan ozod etilgan shaxslar, yashash joylaridan qat’iy nazar favqulodda vaziyatlardan himoyalanishga o‘qitilishlari, tayyor turishlari shart.

6. Favqulodda vaziyatlardan himoyalanish tartibining asosiy vazifalari:

- barcha aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, himoyalanish qoidalariga, shoshilinch birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishga, jamoa va shaxsiy himoyalanish vositalaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘qitish.

7. Ishlab chiqarish korxonalari ishchi-xizmatchilari o‘z korxonalarida o‘quv mashqlariga jalb qilinishlari va olgan bilimlarini amaliy mashqlarda takomillashtirishlari va bu ishni doimiy o‘tkazishni rejalashtirish orqali amalga oshirishlari lozim.

8. Rahbar xodimlarni, boshqaruv tizimlari rahbarlarini o‘qitishga tayyorlash quyidagicha amalga oshiriladi:

- davlat tashkilotlari rahbariyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va Toshkent shahar hokimligi har yili o‘quv yig‘ilish, seminarlarida qatnashib, malaka oshirishlari shart.

- davlat rahbar xodimlariga seminar kengashlar Respublika Favqulodda vaziyatlar boshlig‘i – Vazirlar Mahkamasining raisi boshchiligidagi o‘tkaziladi:

- harbiylashmagan tuzilmalar boshliqlari, korxonalar favqulodda vaziyat muhandislari, avariya-qutqaruv guruhlari, doimiy jangovar holatdagi tuzilmalar rahbarlari viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi ixtiyoridagi o‘quv markazlarida hamda o‘quv mashq jarayonlarida o‘qilib, malaka oshiradilar;

- korxonalar ishchi-xizmatchilari, o'quv muassasalari tarkibidagi harbiyashmagan tuzilmalar o'z ish joylari, o'quv yurtlarida o'qitiladilar.

9. Favqulodda vaziyatlardan himoyalanishga aholining tayyorligini, o'qitilishini, malaka darajasini, bilimini baholash maqsadida doimiy ravishda o'quv mashqlari o'tkazilib turiladi.

Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi qaroriga asosan O'zbekistonda yagona davlat tasarrufidagi o'quv tayyorlov tizimi barpo etishdan asosiy maqsad:

- aholining bilimi, malakasi himoyalanish darajasini doim shay, jangovar turishi.

- aholining va rahbar xodimlarning, harbiyashmagan tuzilmalar rahbarlarining favqulodda vaziyatlarda, texnogen xususiyatli avariya-katastrofalarda mamlakat hududida har qanday sharoitda ham doimo xavfni oldini olishga, oqibatlarini bartaraf etishga tayyor turishlarini ta'minlash zarur.

Bu borada Vazirlar Mahkamasining «Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish to'g'risida»gi qarori ham qabul qilingan.

Bu hujjatlarda bosh vazifa etib – barcha vazirliklar, hokimiyat rahbarlarining asosiy vazifasi favqulodda tabiiy, texnogen, avariya-katastrofalarda aholini o'qitish, tayyorlash ishlarini hozirgi zamon texnikaviy ta'minoti bilan tayyorlash yuklatilgan:

- aholini favqulodda vaziyat holatlarida himoyalanish tartibini bilish, jarohat olgan aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsata olish, qidiruv-qutqaruv ishlarini malakali bajara olish shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan oqilona foydalana olishga o'qitish;

- rahbar xodimlarni tayyorlash va aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga o'rgatish;

- korxonalar rahbarlarini qidiruv-qutqaruv va boshqa qayta tiklash kuchlari vositalarini maqsadli ishlata olish, o'rgatish,

ularni malakaviy mahoratiga ishonchli darajada mavqelarini shakllantirish;

- favqulodda vaziyatlarda vazifaviy mahoratni barcha zvenolarda shakllantirish.

10. Umumta'lim o'quv yurtlarida «Hayot xavfsizligi asoslari» dasturida o'qitiladi. Kollejlar, akademik litseylarda esa «Fuqarolar muhofazasi va favqulodda vaziyatlar» dasturi 5 soat hajmida o'qitiladi.

11. Rahbar xodimlar, mutaxassislar va davlat rahbarlari, vazirliklar, boshqarmalar, tashkilotlar Favqulodda vaziyatlar institutida va Favqulodda vaziyatlar vazirligida ishlab chiqib tasdiqlangan maxsus dastur asosida o'qitiladilar.

12. Joriy o'qish rahbar xodimlar uchun mahalliy Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi o'quv markazida 150 soatlik dastur asosida o'qitiladi.

13. Ishchi-xizmatchilar ish joyida ishdan ajralmagan tartibda 15 soatlik o'quv mashg'ulotlarida o'qitilishi kerak.

14. Ishlamaydigan fuqarolarni o'qitish, o'rgatishda asosan, favqulodda holatlarda vahimaga tushmaslik, ekstremal holatlarda shu hududlarga xos bo'lgan holatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi shaxsiy javobgarlikka, fuqarolik burchiga, odamiylikka o'rgatish alohida mohiyatga ega.

Fuqarolar himoyasiga taalluqli qo'shimcha direktiv hujjatlarda Vazirlar Mahkamasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilgungacha bo'lgan davrda qabul qilgan qarorlari, buyruqlari, metodik normativlar hamda Favqulodda vaziyatlar institutida ishlab chiqilgan ko'rgazmalar, yo'riqnomalar kiradi. Ushbu hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi xavfli holatlarda ayrim xizmatlar vakillarining munosabatlari tahlil qilinib, har bir sohaga aloqador bo'lgan vazifalarga aniqlik kiritiladi. Masalan:

O'zbekistonning bir qancha hududlarida bo'ronlar, to'fonlar, suv bosishi, qor ko'chishi, yer ko'chishi, tog' toshlari ko'chishi kabi xalq xo'jaligiga katta talafot yetkazuvchi omillar mavjud. Shunga qaramay tegishli vazirliklar, idoralar faoliyatida aniq rejali vazifalar ishlab chiqilmagan, ayrim chora-tadbirlar vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lib, aholi xavfsizligini ta'minlay

olmaydi. Vazirlar Mahkamasi tomonida n qabul qilin<sup>jan</sup> qarorlarga amal qilinmaydi. Uy-joy, inshootlar qurilishida x<sup>vfli</sup> joylar holati hisobga olinmaydi. Hozirgi kunda respublik<sup>da</sup> 400 dan ortiq aholi yashaydigan qishloqlar, 300 dan ortiq alq xo'jaligi inshootlari xavfli darajasi yuqori bo'lgan joyl<sup>ga</sup> qurilgan.

Ushbu holatlarni chuqur tahlil etib, Vazirlar Mahkamasi yomg'ir, to'fon, suv toshqinini oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish borasida qaror qabul qilgan, unda quyidagilar belgilari di:

1. Favqulodda vaziyatlarda aholini qutqarish, bu holatlarni oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish borasida hokimliklar, idoralar, vazirliklar rahbariyatlarining faoliyati qoniqatsiz ekanligi.

2. Mahalliy hokimiyatlar, viloyat, tuman hokimliklari, vazirliklar, boshqarmalar, tashkilotlar rahbarlari zimmaiga favqulodda holatlarni oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish, aholining to'la xavfsizligini ta'minlash vazirligi yuklatiladi.

3. Vazirliklarda, ayniqsa, Suv xo'jaligi va Sog'liqni saqash vazirligida suv toshqini, tog' ko'chishi xavfini oldini olish uchun doimiy nazoratni ta'minlash.

4. Davlat qazilma boyliklari, gidrogeologiya, metereologiya, seysmologiya boshqarmalari faoliyatida hozirgi zamon texnologik vositalari yordamida tabiiy texnogen joylarni aniqlanib, favqulodda vaziyatlar oldini olish ishlari yuklatiladi.

5. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, qutqarish, oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tegishli vazirliklarni davlat budgeti hisobidan ta'minlanishi yuklatiladi.

6. Mudofaa vazirligi zimmasiga:

- mamlakat aholisini tashqi potensial xavfli ekzogen harakatlardan himoyalash, favqulodda vaziyat holatini oldini olishning huquqiy harbiy himoyasini tayinlash;

- favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli texnik vositulari

- aviatransport, vertolotlarini doimiy nazorat qilish, tog'lar,

sel ko'chishi xavfli joylarga geologik, gidrologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ajratish;

- ekologik, gidrogeologik xavfli joylarda doimiy nazorat postlarini ajratib, ularni barcha vositalar bilan ta'minlash;

- qisqa muddatda xavfli joylarda yashayotgan aholini xavfsiz joylarga ko'chirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- hokimiyatlar zimmasiga respublika shoshilinch harakat qilish otryadini barcha texnik vositalar bilan to'la ta'minlash, ularni favqulodda holatlarda qutqaruv, tez yordam, qayta tiklash ishlarini o'tkaza olishga sharoit yaratish yuklatiladi.

7. Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Vazirlar Mahkamasi, Favqulodda vaziyatlar komissiyasi zimmasiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining beg'araz yordam bo'limi bilan favqulodda vaziyatlar xavflarini kamaytirish, oqibatlarini yo'qotish borasida xalqaro kelishuv doirasida eng zamonaviy texnik vositalarni respublikaga keltirish, ulardan maqsadli foydalanish ishlari va bir qancha vazifalar aniq etib yuklatiladi.

*Favqulodda vaziyatlar turlari (klassifikatsiyasi) ta'rifi.* Favqulodda vaziyatlar kelib chiqishi jabrlangan aholi soni moddiy-maishiy boyliklarning yo'qotilishi va vayron bo'lgan joylarning hajmiga qarab guruhlanadi.

*Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar.* Transport avariysi va halokatlar, aviahalokatlar oqibatida samolyot ekipaji va yo'lovchilarining o'limiga olib keluvchi havo transportining to'la yoki qisman shikastlanishiga sabab bo'luvchi, qidiruv-qutqaruv ishlarini shoshilinch talab qiluvchi holatlar.

*Temir yo'l transportida avariya-halokatlar.* Kuchli yong'in, portlash, harakat qismlarining shikastlanishi oqibatida temir yo'lhilar, yo'lovchilar va atrofdagilarning o'limiga olib keluvchi hamda temir yo'l, bekatlari, imoratlari vayron bo'lishi bilan bog'liq holatlar. Temir yo'l transportida kuchli zaharli moddalarni tashishdagi avariya holati, temir yo'l atrofida sodir bo'lishi mumkin xavfli holatlar.

*Avtotransport halokati – yo'l harakati avariysi.* Portlash, yong'in, transport vositasi shikastlanishi, kuchli zaharli moddalarni tashishdagi avariylar oqibatida odamlarning o'limi, shikastlanishi.



**3-rasm. Avia va avtohalokatlar**

*Metropoliten yo'lidagi avariya katastrofalar.* Oqibatda odamlar o'limi, shikastlanishi, zaharlanishlari, metropoliten transportining shikastlanishi.

*Bosh gaztruba o'tkazgich tizimidagi avariya.* Qo'qqisdan katta hajmdagi gaz, neft, mahsulotlarining atrofga chiqishi, ochiq neft quvurlari, manbalarining yonishi oqibatida favqulodda yong'in paydo bo'lishi, odamlar o'limi, kuyishi inshootlarning vayron bo'lishi.

*Kimyo zavodi obyektdagi avariya.* Kimyoviy xavfli obyektdagi avariya, yong'in, portlashlar oqibatida atrof-

muhitga kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi. Ushbu holat sanitar himoya chegarasi doirasi va undan tashqarida tarqalib, yuqori darajada odamlar, hayvonlar oziq-ovqat, o'simliklarning zaharlanishlari.

*Yong'in xavfli obyektlar avariysi.* Texnologik jarayonda yong'ingan xavfli, portlovchi moddalar ishlataladigan obyektlardagi avariylar. Bu holatlar ushbu moddalarni saqlash, ko'chirish va boshqa faoliyatda ishlash jarayonida sodir bo'lishi mumkin. Oqibatda mexanik, termik travmalar, zaharlanishlar, odamlar o'limi, ishlab chiqarish binolarining vayron bo'lishi, favqulodda vaziyatlar sodir bo'ladi.

*Energetik kommunal tizimlar avariysi.* GES, GRES, TEK, tuman elektr tarqatish markazi, yoqilg'i qozoni, kompressor gaz taqsimlash tizimlarida avariylar sodir bo'lishi mumkin. Oqibatda elektr energiya tarmoqlaridan o'tib, xalq xo'jaligini communal tizimlarida avariiali holatlar ro'y berib, vodoprovod, kanalizatsiya va boshqa kommunikatsiya tizimlaridagi avariylar yashash sharoitlarini izdan chiqarib, odamlarning sog'lig'iga xavf solishi mumkin. Gaz tozalash, biologik va boshqa obyektlardagi avariylar natijasida atmosfera havosi ifloslanishi, tuproq, suv manbalarining zaharlanishi, odamlarning sog'lig'iga ta'sir etishi mumkin.

*Imoratlar, inshootlarning qulashi.* Maktab, kasalxona, kinoteatr, aholi turarjoylari, binolarning yong'in, portlash oqibatida qulashi odamlar o'limiga sabab bo'lib, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni talab qiladi.

*Radioaktiv va boshqa ekologik xavfli moddalarni saqlash oqibatida kelib chiquvchi avariiali holatlar.* Radioaktiv moddalarni ishlab chiqarish, saqlash transportirovka qilish jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariiali holatlar oqibatida radioinshootlar atrof-muhitga tarqalib, odamlar sog'lig'iga xavf tug'diradi:

- biologik xavfli shtamplarni saqlash, transportirovka qilish oqibatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariylar oqibatida epidemiologik xavfli holat sodir bo'lib, odamlar hayotiga xavf soladi.

- mahalliy favqulodda holat oqibatida 100 va undan ortiq odamlarning yashashiga xavf tug'ilsa, favqulodda vaziyat aholi turarjoyi chegarasidan chiqmasa.

- respublika miqyosidagi favqulodda vaziyat oqibatida 500 dan ortiq aholi jabr tortsa, favqulodda holat viloyat chegarasidan o'tib boshqa hududlarga xavf tug'dirsa.

- davlat chegarasidan o'tuvchi transchegaraviy favqulodda vaziyat davlat chegarasidan o'tib, holat O'zbekiston davlatchiligi chegarasi tashqarisida sodir bo'lsa.

Favqulodda vaziyatlar holatlarining boshqa turlarini vazirliklar, tashkilotlar rahbarlari sodir bo'lgan holat miqdori sonidan kelib chiqib, davlat tizimi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan tartibda baholashlari zarur.

## **FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINI HIMOYALASH**

Favqulodda vaziyatlar o'chog'ining xususiyatlaridan kelib chiqib, aholini qutqarishni shoshilinch tarzda amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Yer qimirlashlari, yong'inlar, avariya va halokatlar kutilmaganda sodir bo'lib, minglab odamlarning hayotiga xavf solib, vayronagarchilikka olib kelishi, ayniqsa, harbiy holatlarda yoppasiga qirg'in qurollari qo'llanilganda sodir bo'luvchi qirg'in o'choqlarida bu holatning o'ta murakkabligi aholini himoyalash, qutqarish ishlarini mukammal bajarish shartligini taqozo etadi.

Yoppasiga qirg'in o'choqlarining har xilligi, zararlanish o'chog'ining zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holatlar va yo'qotishlar, shu jumladan, tibbiy yordam ko'rsatish tizimlarining ham jarohatlanishlar ehtimolligiga, o'choqda qisqa muddat ichida zaharli moddalarning izmidan chiqishi, tabiiy ofatlarning ta'sir doirasini yanada oshirishi muqarrar. Natijada yoppasiga qirg'in o'choq aholisining, jonivorlarning, oziq-ovqat mahsulotlarining zaharlanishlari, imoratlar, inshootlarning vayron bo'lishi, ayni paytda yong'inlar, avariyalarning ustma-ust sodir bo'lishi ko'plab odamlarning o'limiga olib kelishi mumkin. Yuqoridaq holatlarni oldindan ko'ra bilish, har qanday vaziyatlarda ham aholini o'zini-o'zi qutqarish tartiblariga o'rgatish, jarohatlarning oldini olishga qaratilgan vazifalarni bajarishni talab qiladi.

Yoppasiga qirg'in o'choqlaridagi holatning asosiy sabablari shundaki:

- to'satdan, kutilmaganda sodir bo'lishi;
- qisqa muddatda ko'plab halokatlanishlar;
- zahar chiqarish omillarining xilma-xilligi;
- zararlanish o'chog'ida tibbiy yordam ko'rsatadigan muassasa va vositalarning izmidan chiqishi;

- aholining boshqaruv, aloqa tizimlarining buzilishi;
- aholining qo'qqisdan psixologik vahimaga tushishi kabilari.

Natijada yo'qotishlar bir paytning o'zida ham favqulodda holatdan, ham uning oqibatidan kelib chiqib, umumiy yo'qotish holatini oshiradi.

Favqulodda holatlarda aholini qutqarish ishlarining asosiy majmuasi ham shu holatlarning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan. Ushbu vazifalar oldindan aniqlanishi, rejalash-tirilgan tartib asosida bajarilishini ta'minlash favqulodda vaziyatlar xizmatining vazifalari hisoblanadi. Favqulodda holatlarda bajariladigan ishlarning tartiblari Favqulodda vaziyatlar vazirligining viloyat bo'limlari tomonidan hamda har bir korxona favqulodda muhofazalanish shtablari tomonidan ishlab chiqilib, himoya etish rejasiga kiritilishi shart. Mavzuda shu vazifalarning asosiyлари keltiriladi va bu tadbirlar majmualari asos qilib olinishi tavsiya etiladi.

### **Aholini favqulodda holatlarda himoyalash tartibi**

Aholini favqulodda vaziyatlarda himoyalash vazifalari majmuasida aholini o'z vaqtida ogohlantirish alohida ahamiyatga ega. Favqulodda holat to'g'risida aholini shoshilinch ogoh etish favqulodda vaziyatlar xizmati tomonidan joriy etiladi. Aholini ogoh etish radio, televideniya va barcha aloqa tizimlari orqali bajariladi. Aholi ushbu vositalardan tegishli ma'lumotlarni qabul qilishlari uchun shahar yoki aholi yashash joylari, aholi gavjum joylarda dastlab barcha transport vositalarining va korxonalarining signal vositalari ishlatiladi. Barcha tovush manbalari – sirenalar, signallar aholi uchun ogohlantiruvchi ma'lumot hisoblanadi. Radio, televizorlardan «Diqqat-diqqat», «hamma-hamma uchun» tovushlari eshitilishi bilan shoshilinch xabarlarni eshitish yoki ko'rish kerak. Mahalliy hokimiyat favqulodda vaziyat markazi tomonidan favqulodda holat to'g'risida ma'lumot berilishi kerak. Ayni xabar bilan aholining bajaradigan ishlariga ta'rif ham berib boriladi. Yer qimirlashi ehtimolida quyidagicha ma'lum qilinadi: «Diqqat-diqqat, favqulodda vaziyatlar shtabidan

gapiramiz. Hurmatli shahar aholisi, fuqarolat, yer qimirlashi xavfi paydo bo'ldi, shu munosabat bilan himoyalanish tadbirlariga tayyorlaning, gaz tarmog'ini o'chiring, suv jo'mraklarini berkiting, elektr chiroqlarini o'chiring. Qo'shnilaringizni ogohlantiring. Kerakli kiyimlaringizni, hujjatlaringizni, oziq-ovqat, suvni ehtiyoj darajasida olib, ko'chaga chiqing, bemorlarga, qariyalarga yordam bering, imoratlardan, elektr o'tkazgich tarmoqlaridan uzoqroq masofada bo'ling. Yer qimirlashini sezishingiz bilan eshik yoki oyna to'siqlari orasiga o'zingizni tuting, vahimaga tushmay o'zingizni himoyalang. Favqulodda vaziyat shtabining axborotiga e'tiborli bo'ling!»

Ishlab chiqarish korxonalarida avariya holatida quyidagicha xabar berilishi mumkin. «Diqqat-diqqat, favqulodda vaziyat kombinatida avariya yuz berdi. Natijada havoga o'tkir zaharli gaz – ammiak tarqaldi. Zaharlangan havo shamol orqali Chorminor, G'ijduvon, Qutisoz ko'chalariga qarab tarqalmoqda, shu sababdan ushbu yo'nalishda yashovchi aholini o'z uylarida qolib, xonalarni germetik berkitishlarini so'raymiz. Eski shahar aholisini o'z uylaridan chiqib, shahar avtobus stansiyasi tomon borishlarini, shu yerdan favqulodda vaziyat axborotini kutishlarini iltimos qilamiz, qariyalar va bemorlarga yordam berishni unutmang!»

Ayrim vaziyatlarda avariya turiga qarab maxsus ko'rsatmalar berilishi mumkin. Dushman tomonidan urush xavfi holatlarida mahalliy hokimiyat va favqulodda vaziyat shtabi tomonidan barcha tizimlar orqali hokimiyatning qarori yoki ko'rsatmasi e'lon qilinadi. Shu muddatdan boshlab radio-televizorlar o'chirilmasligi, doimo ishlab turishi va barcha aholi yangi axborotlarni kutishlari kerak. Barcha aholi qisqa muddat ichida shaxsiy va ommaviy himoyalanish ishlarini bajarishlari, favqulodda holat shtabining ko'rsatmasiga tayyor turishlari, ularni bekamu ko'st bajarishlari shart. Keyinchalik dushman tomonidan hujum sodir bo'lsa, havo hujumidan himoyalanish uchun «Diqqat-diqqat, havo trevogasi», xabari beriladi. Masalan: «Diqqat-diqqat, fuqarolar, havo trevogasi, chiroqlar o'chirilsin, gaz, suv, yonish manbalari o'chirilsin, shaxsiy

himoya vositalari, hujjatlaringizni, yetarlicha ozuqa mahsulotlarini va ichimlik suvini olib, iloji boricha tezroq yer osti pistirmalariga boringlar, qariyalar, nog'ironlar va bemorlarga yordam beringlar! Tinchlaninglar, osoyishtalikni saqlanglar, favqulodda holat shtabining axborotini eshitib boring!!

Keyinchalik ogohlik xabari aniqroq bo'lishi mumkin, masalan, radioaktiv zaharlanishlar yoki bakteriologik xavf tug'dirsa, bu holatlarda aholiga qisqacha tarzda ularning harakat tartiblari berib borilishi mumkin.

*Radioaktiv zaharlanish va kimyoviy zaharlanishdan himoyalanish tartibi.* Radioaktiv va kuchli zaharlanishlardan himoyalanish favqulodda vaziyat shtabining bajarishi muhim bo'lgan bir qancha ishlari majmuasi bo'lib, asosan, radioaktiv moddalar va kuchli zaharlovchi zaharlar ta'sirini pasaytirishga qaratilgan.

Bu vazifalar quyidagilar:

- radiatsion zararlanishga qarshi bajariladigan asosiy vazifalarni ishlab chiqish va unga aholini o'rgatish, hayotga tatbiq etish;
- dozimetrik nazoratni tashkil qilish;
- kimyoviy zaharlanish manbalarini aniqlash;
- radioaktiv va kimyoviy zaharlanishdan himoyalanish tartiblarini ishlab chiqish va joriy etish.

Aholini va favqulodda vaziyat bo'limlarini radioaktiv moddalar va kimyoviy himoya vositalari bilan ta'min etish (gazqoplari teri himoya vositalari va boshqalar), himoya vositalari zaxiralarini yaratish, ularni saqlash, aholiga tarqatish, radioaktiv zaharlanish va kimyoviy zaharlanishlar oqibatini yo'qotish, (maxsus sanitar tozalash, sanitar yuvishlar, ifloslangan joylarni, uskunalarni maxsus tozalash va hokazolar).

Radioaktiv zararlanishga qarshi bajariladigan ishlarga aholini radioaktiv nurlanishlariga qarshi bajariladigan ishlar kiradi. Bu vazifalarga aholining va favqulodda vaziyat bo'limlarining hamda ishlab chiqarish korxonalari ishchilarining zaharlangan joylarda ishlash tartiblarini belgilash va himoyalash tartiblari kirib, asosan odamlarni radioaktiv nurlanishlarining, gigiyenik ruxsat etish mumkin bo'lgan darajasidan yuqori bo'lgan

nurlanishlarni oldini olishga qaratiladi. Ayni holatlarda radioaktiv zararlangan o'choqda ishlashda vaqtleri davomiylikni aniqlab beradi. Ushbu tartib har bir inshootning imoratlari, radiatsiyaga qarshi himoyalash quvvatlarini ham belgilab beradi. Hozirgi paytda barcha aholi, ularning turarjoylari, ishslash sharoitini e'tiborga olib,<sup>8</sup> turga moslangan radioaktiv himoyalanish guruhlari ishlab chiqilgan.

Bu tartibga ko'ra: 1-3-tartibga uy bekalari, keksalar hamda qishloq aholisi kiritilgan; 4-7-guruhgaga xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan ishchilar va xizmatchilar guruhi kiritiladi; 8-guruh favqulodda vaziyat bo'limlarining harbiylashmagan guruhlari – shaxsiy tarkibi kiritilgan. Ishlab chiqilgan himoyalanish tartiblarining asosi aholini zararlangan o'choqdan olib chiqish, evakuatsiyalash va imkon darajasida tarqatish, bir-biridan uzoqroq joyga joylashtirish hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan radiatsiya himoyalash chegaraviy ishlari o'z o'rnida uch bosqichda bajarilishi belgilangan. Shunga ko'ra:

- himoya bosqichi – aholini radiatsion himoyalovchi moslamalar (yerto'lalar)da turish muddati;
- himoyalash moslamalarida va imoratlarda kutish vaqtini, almashinuv muddatini belgilash;
- imoratlarda, yashash joylarida va ochiq havoda qancha vaqt turishlari mumkinligini va o'rinni almashtirish tartibi kiradi.

Ushbu bosqichlarda qancha vaqt turishi va o'rinni almashish muddati avvalambor, radioaktiv zararlanish darajasiga, uning vaqt birligida pasayish darajasiga hamda imoratlarning nurlarni pasaytira olish quvvatiga bog'liq. Har bir guruh aholisi uchun imoratlarning nurlar quvvatini pasaytira olish koeffitsientiga qarab belgilanadi, masalan: radiatsiyaga qarshi himoyalash inshooti uchun koeffitsienti 1-guruhgaga 50 bo'lsa, 7-guruh uchun 1000 ga teng va hokazo. Bulardan tashqari qutqaruvchilar guruhi uchun zararlangan o'choqni A-kuchsiz, B-kuchli, D-qattiq kuchli, E-o'ta kuchli maydonlari e'tiborga olingan. Bularni maxsus jadvallar orqali hisoblab chiqiladi. Bu jadvallar bilan guruh rahbarlari, favqulodda vaziyat shtabi, korxona rahbarlari ishlaydi. Radiatsiya himoyalash tartibida har bir

**maydon uchun ishlash aniqlanadi.** Shu muddat me'yorida qutqaruv ishlari, sanitар tozalash, maxsus tozalash, radiatsion yuvishlar tartibi ishlab chiqiladi. Bu vazifalar radiatsiyadan himoyalanish tartibiga kiradi.

### **Dozimetrik nazorat tartibi**

Radiatsiya va kimyoviy himoyalanishining muhim yo'nalishi – bu dozimetrik nazorat hisoblanadi. Dozimetrik nazorat bilan zaharlanish nazorati ayni paytda bir mutaxassis tomonidan bajariladi. Dozimetrik va kimyoviy nazorat aholining, ishchi-xizmatchilarining, favqulodda vaziyat bo'limlarining, shaxsiy tarkibning nurlanish darajasini, zaharlanishlarini oldini olish maqsadida o'tkaziladi. Bu vazifa ayni paytda tibbiy yordam xodimini ham baholash uchun ishlatiladi. Dozimetrik va kimyoviy o'lchashlar natijasiga ko'ra sanitар tozalashlar me'yori ham aniqlanadi. Turarjoylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqat mahsulotlari, himoya vositalari va boshqalarni degazatsiyalash, dezaktivatsiyalash, dezinfeksiyalash tartiblari ham dozimetrik va kimyoviy nazorat natijalariga asoslanib o'tkaziladi. Dozimetrik va kimyoviy nazorat favqulodda vaziyat shtabi tomonidan tashkil etiladi va korxonalarda tashkil qilingan maxsus dozimetrik va kimyo himoyasi bo'limi mutaxassislari tomonidan bajariladi. Dozimetrik va kimyoviy nazorat odamlar, kiyim-kechaklar, texnik vositalar, oziq-ovqat mahsulotlari, suv va yer usti nazoratini o'z ichiga oladi. Dozimetrik va kimyoviy nazorat dozimetristlar, dozimetrik asboblar, kimyoviy tekshiruv apparatlari yordamida bajariladi. Bunda odamlarni, jonivorlarni, vositalarni zararlangan o'choqda bo'lish davridagi zararlanish dozalari va zaharlangan zaharning turi, og'irligi aniqlanadi.

Guruhda o'tkazilganda radioaktiv zararlanish darjasini bo'limda, sexda, brigadada o'tkaziladi. Shaxsiy dozimetrik tarqatilib, zararlangan joy ishlash vaqtida olgan dozasi o'lchanib, shu ko'rsatkich guruhning har bir a'zosining dozimetrik nazorat kitobchasiga yozib boriladi. Guruhda

o'tkaziladigan ommaviy dozimetrik nazorat bir xil sharoitda, bir xil vaqt davomiyligida qutqaruv yoki zararlanish oqibatlarini yo'qotishda qatnashadigan odamlarda o'tkaziladi. Shaxsiy dozimetr har bir odamda alohida o'lchanadi bunda shaxsiy dozimetrik o'lchagichlardan foydalaniladi.

Dozimetrik apparatlarga hozirgi kunda mavjud bo'lgan ID-1, DKP-50A, ID-11, DP-5, DP-5B, БПХР- ПХР-MB, МПХР, ПХЛ lar yordamida o'tkaziladi. Bu o'lcham asboblarining ishlash tartiblari, tuzilishlari bilan amaliy mashg'ulotlarida tanishtiriladi. Radioaktiv zararlangan o'choqda aholini nurlanishdan himoyalashga e'tibor qaratiladi. Eng avval, aholini radioaktiv zararlanishi haqida shoshilinch ogohlantirish, barcha aholini radiatsiyaga qarshi himoyalovchi yerto'lalarga, yopiq imoratlarga ko'chirish, deraza, yeshiklarni germetik berkitish; shaxsiy himoya vositalarini qo'llash (gazqoplari, respirator, doka, paxtali bog'lagichlar) zarur. AP-2 dagi profilaktik tabletkalar – sistamin, sistein, sistenallarni ichish, ifloslangan suv, ovqatlarni iste'mol qilmaslik, imkon darajasida zudlik bilan aholini o'choqdan tashqariga evakuatsiyalash lozim;

Fuqarolar shaxsiy himoya vositalari bilan yashash joylaridagi kommunal ta'minot, hokimiyat, fuqarolar muhofazasi tomonidan ta'minlanadilar, ishchilarga esa, ish joylari, favqulodda vaziyatlar shtabi tomonidan, o'quv muassasalarini talabalari, o'qituvchi xodimlar shu o'quv yurti fuqarolar muhofazasi shtabi tomonidan ta'minlanadilar.

Aholining radioaktiv zararlangan o'choqda bo'lishlari, faoliyatları, muddati radiatsion holatga qarab belgilanadi. Uncha kuchli bo'limgan nurlanishli o'choqda radiatsiyadan himoyalovchi inshootlarda 24 soatgacha bo'lishlari, so'ngra vaziyatga qarab ishlarni 24 soatgacha davom ettirishlariga ruxsat beriladi. Kuchli zararlangan o'choqda esa 3 sutkagacha himoya inshootlarda turishlari mumkin. Ishxonalar, muassasalar bu holatda maxsus holat rejasi asosida faoliyat ko'rsatadilar. O'ta xavfli zararlangan o'choqda aholining u yerda bo'lish vaqtı radiatsion vaziyatga qarab belgilanadi. Bunda ovqatlanish, suv ta'minoti, sanitarni-gigiyenik ehtiyojlar maxsus holat rejasi asosida bajariladi:

- kimyoviy zaharlanish o'chog'ida aholini himoyalash;
- o'z vaqtida ogohlantirish, xabardor qilish;
- himoyalovchi inshootlarga aholini joylashtirish;
- shaxsiy himoya vositalarini qo'llash;
- shaxsiy kimyoviy to'plamlar orqali kimyoviy tozalashlarni bajarish;
- zaharlangan maydonlarda harakatlanish tartiblariga og'ishmay amal qilish;
- zaharlangan o'choqda aholini evakuatsiyalash;
- sanitar yuvish, tozalash, dezaktivlashtirish ishlarini bajarish (transport, kiyim-kechak, oziq-ovqat va texnik vositalarni);
- kimyoviy aniqlash (razvedka) ishlarini bajarish;
- o'choqni kimyoviy himoyalash.

### **Favqulodda holat o'chog'idan aholini evakuatsiyalash tartibi**

*Aholini evakuatsiyalash tartibi* – shahardan olib chiqish, joylashtirishda bir-biridan uzoqroq masofaga guruuhlar to'plamini tarqatish. Evakuatsiyalash-tarqatish deganda favqulodda holatlarda xavfli hisoblanuvchi shaharlardan aholini olib chiqish, maxsus ajratilgan, zaxirada rejalashtirilgan joylarga ko'chirish tartibi tushuniladi.

Evakuatsiyalash-tarqatish favqulodda vaziyatlar shtabi tomonidan ishlab chiqilgan favqulodda holatlarda evakuatsiyalash rejasiga asoslanib bajariladi. Aholini tarqoq holatda ko'chirish – favqulodda holatda shaharlardan ishchilarni, aholini transport yoki piyoda holatida xavfli hisoblanuvchi joylardan shahar tashqarisiga – xavfsiz tumanlarga ko'chirish tartibi tushiniladi. Bunda ko'chiriladigan kishilar favqulodda holatda faoliyatlarini ish smenalarida bajarishlari shart bo'lgan guruhlarga taalluqli bo'lishi kerak.

Evakuatsiyalash – shahar aholisini, ishchilarni shahardan tashqarida joylashgan zaxiradagi joylarga ko'chirilishi tushuniladi. Shahardan tashqariga ko'chirishda favqulodda holatda shikastlanish ehtimoli bo'lgan vayronagarchilik, zararlanish va zaharlanish doirasidan tashqarida joylashgan va

kategoriyalashtirilgan davrda aholi uchun tinchlik davridagi ishlab chiqarish va yashash joylariga qarab bajariladi. Ya'ni shahardan tashqariga ko'chirish – barcha ishchilarni, xizmatchilarni, ularning oila a'zolarini, studentlar, o'quvchilarni, barcha aholini, tashkilotlar, o'quv yurtlari, kommunal xizmati tizilmalari tomonidan amalga oshiriladi. Aholini ko'chirish ishlarini tartibga solish maqsadida shahar, tuman va ishlab chiqarish obyektlarida evakuatsiyalash komissiyalari tuziladi, ularning vazifalariga ko'chirilishi shart bo'lgan aholini, ishchixizmatchilarni, ularning oila a'zolarini ro'yxati bo'lishi, piyoda yoki aralash tartibda evakuatsiya etiladigan transport ta'minoti tartibi, ko'chirish yo'nalishidagi oraliq evakuatsiya punktlari, evakuatsiyalanishi va joylashtirilishi, ko'zlangan joylarning xaritalari, transport yuklash joylari, harakat yo'llari, aloqa vositalari, tibbiy yordam tartiblari aniq bo'lishi kerak.

Ko'chirib keltirilgan aholini tumanlarga joylashtiriladi, ularga vaqtinchalik hayotiy talab va ehtiyojlarini qoniqtirish maqsadida evako qabul komissiyalari tuziladi. Evako qabul punktlari ko'chiriladigan qishloq yoki aholi yashaydigan joylarga yaqin tuziladi. Evakuatsiyalashning turlari har xil bo'lishi mumkin – ko'pincha transportda, piyoda, aralash tartibda. Bunda favqulodda holatlarda ham uzlusiz ishlovchilar korxonalar avtotransportida, qariyalar, 10 yoshgacha bo'lgan bolalar va kasalmand odamlar, nogironlar transport bilan ta'minlanadilar, qolgan sog'lom aholi piyoda harakat qiladilar. Evakuatsiya davomida har 500–1000 kishiga alohida kolonna tuzilib, ularga rahbar tayinlanadi, ular aloqa vositalari bilan ta'minlanadilar. Evakuatsiya yo'lining har 4–6 km masofada kichik dam olish (10–15 daqiqaga), 6–10 soatda 1–2 soatlik katta dam olish tartibi qo'llaniladi.

Ko'chirilgan aholi yangi joyga kelishi bilan ro'yxatdan o'tkaziladi. So'ng qishloqlarga taqsimlanadilar. Mahalliy hokimiyatning favqulodda vaziyatlar shtablari aholini qabul qilish, joylashtirish vazifalarini bajaradilar. Evakuatsiyalangan aholini vaqtinchalik joylashtirishda dam olish uylari, sanatoriya, turistik va sport bazalari, bolalar lageri va mahalliy aholining uy-joylari, muktablar, bog' hovlilari va boshqalardan

foydalaniadi. Evakuatsiyalash joylarida vaqtinchalik yashovchilar uchun savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, suv ta'minoti, oshxonalarining oldindan qurilishi rejasи bajarilishi zarur. Shaharda doimiy smenalarda ishlashi zarur ishchilarni ko'chirishda ish joylarigacha masofa shunday bo'lishi kerakki, transportda bosib o'tiladigan yo'l 4-5 soatdan oshmasligi kerak. Shahar aholisining evakuatsiyasi tugatilgandan so'ng, 10-15 foiz aholi shaharda qolib, qutqaruv, qayta tiklash ishlarini maxsus hisoblangan holda davom ettiradilar. Favqulodda holatlarda aholini himoyalash maqsadida tinchlik davrida turli xil moslamalar, qurilmalar, yer osti pistirmalari kabi himoyalanish vositalari, aholi zich yashash joylarida, avtostansiyalarda, aeroport, evakuatsiya punktlari yaqinlarida qurilib, jihozlanishi kerak. Aholini himoyalashda tabiiy uskuna va moslamalardan ham foydalaniadi. Turarjoylarni, ko'p qavatli imoratlarni, yerto'lalarni ham vaqtinchalik himoyalanishga moslashtirish zarur. Favqulodda vaziyatlar shtabi mutaxassislari tomonidan oddiy himoyalash uskunalari qurilib, ularga yerto'lalarga sig'magan aholi joylashtiriladi. Favqulodda vaziyat holatlarida aholiga transport xizmati ko'rsatish tartibi mahalliy hokimiyatning fuqaro muhofazasi shtabi boshchiligidagi joriy etiladi. Bu vazifalarga aholini doimiy yashash joylaridan, ish joylari va o'quv maskanlaridan tashkiliy evakuatsiyalash, xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlarini shahardan tashqariga olib chiqish, shahar korxonalarida uzlusiz smenalar rejasи bo'yicha ishlovchilarni shahar tashqarisidagi manziliga olib chiqish, ishga qaytarib keltirish kiradi. Moddiy maishiy ta'minot xizmatiga – transport, yoqilg'i va xizmat ko'rsatish anjomlar ta'minoti, oziq-ovqat, suv, kiyim-bosh, himoya vositalari bilan birlamchi zarur ehtiyoj vositalari ta'minoti mahalliy hokimiyat va korxonalardagi ta'minot xizmati bo'limlari tomonidan bajarilishi kerak. Bu vazifaga shahardagi savdo maishiy xizmat korxonalari ham safarbar etilib, evakuatsiya etiluvchi aholi zaruratlari me'yorida ta'min etiladilar.

Aholini evakuatsiyalash, tarqatish jarayonida tibbiy xizmat ko'rsatish, favqulodda vaziyatlar holatida aholini ofat o'chog'idan olib chiqish, shahar tashqarisiga tarqatish, ularning

vaqtinchalik yashash joylarida, evakuatsiya etilgan manzillarda, barcha bosqichlarda tibbiy xizmat ko'rsatish tashkil qilinadi va bu ishlar o'ta muhim vazifalar hisoblanadi.

Evakuatsiyalash va tarqatish jarayonida aholiga tibbiy xizmatni favqulodda vaziyatlar tibbiy xizmati bo'limlari tomonidan ko'rsatiiladi. Tibbiy xizmatlar majmuyi davolash, sanitariya gigiyenik va epidemiyaga qarshi ishlar bo'lib, bu vazifalar o'choqdan-o'choqqa evakuatsiya etish bosqichlarida hamda evakuatsiya qilingan manzillarda bajariladigan tibbiy xizmat mazmunini o'z ichiga oladi. Bu vazifalar evakuatsiya qilinuvchi aholining sog'lig'ini himoyalash, evakuatsiyalanish jarayonida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish ayniqsa, shikastlanganlar va o'tkir xastalarga sanitar-gigiyenik holatni barcha bosqichlarda to'la-to'kis bajarishdan iborat;

Aholi orasida yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish, evakuatsiyalash jarayonida ko'chirilayotgan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ishlab chiqarish korxonalari va yashash joylaridagi tibbiy maskanlar tomonidan bajariladi. Tibbiy xizmat tarmoqlarining tashkiliy faoliyati mahalliy favqulodda tibbiy xizmat bo'limi boshliqlari tomonidan yo'lga qo'yilib, ular tomonidan umumiy rahbarlik qilinadi.

Favqulodda vaziyat holati ta'min qilinishi bilan tibbiy yordam bosqichlari tashkil etiladi. Evakuatsiyalash manzilidan to evakuatsiyalash joylarigacha barcha bosqichlarda tez yordam xizmatining bosqichma-bosqich manzillari tashkil qilinib, ular mutaxassislar, transport, tibbiy xizmat anjomlari, dordarmonlar bilan ta'min etiladilar. Evakuatsiya etish yo'lida bosqichlarda va evakuatsiyalanish manzillarida sanitar-gigiyenik nazorat o'rnatiladi, ayniqsa, fuqarolarni transport vositalariga yuklash, qabul qilish manzillarida vaqtinchalik faoliyat yurituvchi tibbiy maskanlar tuzilib, ularning faoliyati favqulodda vaziyatlar shtabi tomonidan hamda mahalliy sog'liqni saqlash bosh-qarmalari tomonidan boshqariladi. Shahar, tuman favqulodda vaziyatlar tibbiy xizmati boshlig'i o'zining ish rejasida saralash, evakuatsiyalash, og'ir holatdagi bemorlarni ko'chirishga, tibbiy holati bo'yicha imkonni bo'lmagan bemorlarni, shikastlanganlarni vaqtinchalik yotqizib

davolash, tibbiy yordamga muhtoj bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish tartiblarini ishlab chiqishi kerak. Tibbiy davolash-profilaktika xizmati ko'rsatish muassasalarini shahardan ko'chirish, ularni transport va tibbiy asbob-anjomlar bilan ta'minlash zarur.

Evakuatsiya qilish, tibbiy davolash muolajalarini davom ettirishga, ko'rsatmasi bor bemorlarni evakuatsiyalash, yotqizish, davolash tartiblari bosqichma-bosqich rejalashtirilishi kerak. Davolash-profilaktika muassasalarining tibbiy sanitar xo'jalik, sanitar-gigiyenik ta'mnoti to'la mustaqil ishlash imkoniyatini berish doirasida ta'minlanishi FMTX boshlig'ining tibbiy ta'mnot rejasiga kiritiladi. Aholini shahardan ko'chirish jarayonida tibbiy yordam asosan o'ta maxsus tibbiy xodimlar tomonidan bajariladi. Ular aholiga odatda birinchi tibbiy yordam ko'rsatib, ehtiyoj tug'ilganda bemorlar, jarohatlanganlarni kasalxonalarga olib boradilar.

Avtobekat, temir yo'l, aeroportda evakuatsiyalanuvchi aholiga tibbiy xizmat shu tarmoqlarning tibbiy xizmat maskanlarining tibbiy mutaxassislari tomonidan bajariladi, bu maskanlarda vrachlar ambulator punktlari tashkil etiladi. Ular bog'lagich xonalari, izolator kamida ikkita yuqumli xastalikka mo'ljallab tashkil etilishi kerak. Tibbiy xizmat majmuyida bemorlarga, jarohat olganlarga shoshilinch vrachlik yordamini ko'rsatish, zarurati bor bemorlarni kasalxonalarga yotqizish, davolash maskanlariga jo'natish, bemorlardan statsionar davolanishga ko'rsatmasi bo'lganlarini shahardan tashqarida tashkil etilgan kasalxonalarga jo'natiladi.

Bemorlarni ko'chirish, kasalxonalarga yetkazish vazifalari tez yordam xizmati orqali bajariladi. Shaharlardan temir yo'l orqali evakuatsiya etiladigan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun har bir temir yo'l poyezdlari tizimiga 1-2 ta o'rta tibbiy xodim, 1 ta vrach ajratiladi. Ular shoshilinch tibbiy yordam vositalari bilan ta'minlanadilar.

Avtotransport tarmog'i orqali evakuatsiyalashda har bir avtoulovlar guruhi – avtosafga bir guruh sanitar drujinasi ajratiladi. Evakuatsiya etiladigan aholiga shahardan chiqqandan keyin tibbiy yordam shahardan tashqaridagi tuman tibbiy xizmati tomonidan ko'rsatiladi. Bular evakuatsiyalash yo'llarida

evako qabul punktlari, tibbiy shoxobchalarini tashkil qiladilar. Ularni tibbiy, texnikaviy, sanitar-xo'jalik, dori-darmon bilan tuman sog'liqni saqlash tizimlari hisobidan jihozlanib, taqdim etiladilar. Piyoda evakuatsiya qilinadigan aholiga yo'lda va evakuatsiyalanish bosqichlarida tibbiy yordam ko'rsatish uchun barcha imkoniyatlar shay qilinishi mahalliy tibbiy xizmat tizimlari tomonidan bajariladi. Odatda har bir evakuatsiya safi uchun vrach, 2–3 ta o'rta tibbiy xodim, zarur tibbiy vosita, dori-darmonlar bilan evakuatsiyalanuvchilar birgalikda harakat qiladilar. Evakuatsiyalash yo'llarida odatda vaqtinchalik vrachlik ambulatoriyasi yoki tibbiy bo'lim tashkil qilinib, yo'lda og'irlashib qolgan bemorlarga shoshilinch vrachlik yordamini ko'rsatadi. Yo'l yoqasida tuzilgan vrachlik maskanlarini qorong'ida ko'rinishi uchun Qizil yarim oy belgisi qo'yilib, kechasi yoritib turilishi kerak. Harakatdagi avto-sanitar transportida vrach, ikkita o'rta tibbiy mutaxassis kuzatuvchi bo'lib borishlari va zarurat tug'ilganda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishlari kerak. Ayrim joylarda piyoda yo'l bosuvchilar uchun vaqtinchalik tibbiy bosqich tuziladi, ayniqsa, transport yura olmaydigan yo'nalishda harakatlanuvchi tibbiy yordam brigadasi tuzilib, odatda u tez yordam mashinasi bilan ta'minlanadi. Bu brigada mahalliy tibbiy xizmatga bo'ysunib, ular radio-aloqa vositasi bilan ta'minlanadilar. Evakuatsiyalanuvchi aholiga sanitar-gigiyenik xizmati sanitariya epidemiologiya bo'limlari tomonidan ko'rsatiladi. Bu xizmat shaharda, shahardan tashqaridagi yo'lbekatlarida evakuatsiyalanadigan manzilgacha uzluksiz davom etishi kerak. Bu xizmatning vazifalari – epidemiologik nazorat va epid holatni o'rGANISH, nazoratda tutish, yuqumli xastaliklarni aniqlash, izolatsiya etish maqsadida statsionar yotqizish, aholiga transport vositalari, temiryo'l, aeroport va evakuatsiya punktlarida sanitargigiyenik epidemiyaga qarshi xizmat ko'rsatish, evakuatsiyalanuvchi aholini ijtimoiy, kommunal ta'minot, suv, oziq-ovqat bilan ta'minlashda gigiyenik qoidalarga rivoja qilishni nazorat qilish, vaqtinchalik dam olish bosqichlarida dezinfeksiyalash ishlarini bajarish, evakuatsiyalangan maskanlarda sanitariya gigiyena va epidemiologik holatni idora etishdan iborat.

Aholini qish paytida shahardan evakuatsiyalash holatlarida shamollahsh, sovuq qotishdan himoyalanish tadbirlari inobatga olinishi zarur, ayniqsa, tibbiy yordam ko'rsatish maskanlari isitgich asboblari bilan ta'minlanishi kerak. Bu bosqichlarda issiq to'shaklar, issiq suv, choy kabilar tayyor bo'lishi kerak. Issiq kunlarda esa qizish, kuyish holatlarini oldini olish choratadbirlariga amal qilish zarur. Issiqlik urishi og'ir kechinma, ko'proq suv iste'mol qilishni talab qiladi, shu sababli issiq va o'rta issiq kunlarda evakuatsiyalish yo'llarida, bosqichlarida va evako manzillarida ichimlik suvi ta'minoti alohida va aniq himoyalash tartibida bajarilishini ta'minlash kerak.

Favqulodda holatlarda aholini shahardan tashqariga ko'chirishning piyoda tartibida tibbiy yordam ko'chirish yo'nalishidagi yo'l yoqalarida joylashgan tibbiy maskanlarda ko'rsatilishi kerak. Ko'chirish yo'nalishida bunday tibbiy maskanlar bo'lмаган тақдирда evakuatsiyalash komissiyasi boshlig'ining topshirig'i bilan vrachlik brigadasi va sanitar transporti ajratilishi kerak. Shahardan tashqariga ko'chirilib, joylashtirilgan aholiga tibbiy xizmat mahalliy hokimiyat tizimidagi tibbiy maskanlar tomonidan tashkil etiladi. Ularga shahardan ko'chirib kelingan tibbiy qismlar hamkorlik ko'rsatadi. Evakuatsiya qilinganda injener-texnik, muhandislik xizmatlariga aholining yangi ko'chirilgan joylarini ta'mirlash, yo'llar, ko'priklar sozligini tekshirish, yo'llardagi vaqtincha dam olish joylarida kommunal xizmatlarning faoliyatini tuzilgan reja asosida olib borish muhim ahamiyatga ega. Aholini ko'chirish marshrutlarida shahardan tashqarida joylashishi, manzillarni radiatsiyadan himoyalash, kimyoviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida radiatsiya va himoya razvedka-qidiruv ishlari o'ta muhim, ayniqsa, aholi to'planishi kerak bo'lgan joylarda. Evakuatsiyalash yo'llarida va shahardan tashqaridagi joylashish maskanlarida radiologik va kimyoviy tekshirishlar, dozimetrik va toksikologik nazoratning o'rnatilishi hamda radiologik va kimyoviy himoya vositalari bilan aholini ta'minlash, fuqarolar muhofazasi xizmati rejasiga qat'iyan rioya etgan holda olib boriladi. Aholini shaharlardan xavfsiz maskanlarga ko'chirganda ularga transport hamda texnik xizmatlar ko'rsatish,

transport vositalarini sozlash, ularning ehtiyyot qismlari va yoqilg'i ta'minotini yo'lga qo'yish uchun fuqarolar muhofazasi xizmati tomonidan ushbu vazifalarni tinchlik davrida bajarishga jalb qilinadilar. Ular ta'mirlash, qayta sozlash kabi texnik xizmatlarni evakuatsiya qilingan aholiga ko'rsatadilar. Shu maqsadda texnik zaxiralar ham tashkil etiladi. Aholining tinchligini, osoyishtaligini va xavfsizligini ta'minlash evakuatsiya etish jarayonida va doimiy yashash maskanlarida o'ta muhim. Fuqarolar muhofazasi bu maqsadda harbiylashgan va harbiylashtirilmagan, jamoa tartibini saqlovchi ko'ngillilarni, komanda, guruh, postlar, xalq drujinachilarini tayinlaydi. Favqulodda vaziyatlarda aholini shoshilinch ko'chirishning bir necha xususiyatlari mavjud. Bunda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi dastlab radioaktiv zararlanish xavfi yuqori bo'lgan joylar aholisini shoshilinch ogoh etib, ularni evakuatsiyalaydilar. Keyingi navbatda qolgan aholini xabardor etib, ularni ham ko'chirish tartiblarini navbatma-navbat amalga oshirishlari zarur. Barcha aholi favqulodda vaziyatlar tomonidan beriladigan xabarlarni aniq va ikkilanmay bajarishlari shart. Bu borada radiatsiyadan himoyalanish chora-tadbirlarini to'la bajarib, evakuatsiya qilish uchun komissiya tomonidan beriladigan topshiriqlarni bekamu ko'st bajarishlari talab etiladi. Favqulodda radioaktiv xavfi paydo bo'lganda fuqarolar o'zlarini yashaydigan, ishlaydigan xonalarning eshik, derazalarini zich berkitishlari, yorug' joylarni mustahkamlashlari kerak.

Barcha aholi bunday vaziyatlarda tarkibi aniq bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlarini, suvni tekshirilmay qabul qilishlari xavflidir. Favqulodda aholini ko'chirish tartibi respublika, viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi buyrug'i bilan amalga oshiriladi, eng avvalo, radiatsiyadan yoki zaharlanishdan himoyalanishga moslashmagan aholi ko'chirilishi kerak. Evakuatsiya tartibi bilan aholi oldindan xabardor etilishi kerak. Aholini evakuatsiya etishda yashash joylari, uylarining yaqinida, hattoki, eshigigacha yopiq transportlar keltirib, odamlarni qisqa muddatda tezlik bilan transport vositalariga chiqishi va radiatsiya nurlanishi xavfsizligini imkon qadar ta'minlash uchun transport harakati radiatsiya zararlangan chegaraga yetgandan

keyin ular boshqa zararlanmagan transportda, doimiy yashash joylariga transportirovka etiladilar. Bu jarayon doimo dozimetrik nazorat, razvedka-qidiruv ishlari bilan birgalikda boshqarilishi kerak. Aholini shahardan tashqariga, xavfsiz joylarga ko'chirilgandan so'ng, radiatsiya nurlanish nazoratini o'tkazish zarur, shu jumladan, evakuatsiyaga qatnashgan transport vositalari ham dozimetrik tekshiruvdan o'tkaziladi. Dozimetrik tekshiruvdan o'tgandan keyin radioaktiv ifloslanish ko'rsatkichlariga qarab odamlarning kiyimlari, transportlar maxsus sanitar tozalash – degazatsiya etilishi zarur. Radioaktiv ifloslangan maskanlar, uylar, ko'chalar, chegaralar aniqlanib, maxsus ishlov berilishi kerak va bunda chang ko'tarilishini oldini olish hamda radioaktiv zararlangan joylarni himoyalash, qo'riqlash, chegaralash ishlarini Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari tomonidan amalga oshirish kerak.

Qishloq xo'jalik mollari, ozuqa zaxiralari nazorati harbiylashtirilgan tarzda qo'riqlanishi va ularni iste'mol etilishi faqat sanitariya tekshiruvidan keyin maxsus ruxsatnomasi, buyruqnomalar asosida joriy etiladi.

### **Ishlab chiqarish korxonalarida favqulodda vaziyatlarda ritmik ishlarni tashkil etish**

Fuqarolar muhofazasi xizmatining muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalariga xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish korxonalarining ritmik ishlashlari orqali aholini oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoqilg'i mahsulotlari, kundalik ehtiyoj xizmatlari bilan favqulodda vaziyatlarda ham bekam-u ko'st ta'min etilishini tashkil etish vazifalari kiradi. Bu vazifa nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarining har qanday sharoitda ham o'z ish rejasini bajara olish qobiliyatini yoki avariya-katastrofa holatlarida zudlik bilan qayta ta'mirlay olish imkoniyati korxonaning turg'unligi yoki shayligi deb tushuniladi. Korxonaning doimiy turg'un ishlay olish qobiliyatini har qanday sharoitda ham korxonaning maxsus ishlab chiqilgan rejaga amal qila olish qobiliyatini bilan baholanadi. Korxona va ishchilarning ish faoliyatida ularning himoyalanish darajasi, avariya yoki katastrofa oqibatlarini bartaraf eta olish ko'rsatkichlari,

favqulodda tabiiy yoki harbiy holatlarda radiatsiya va o'ta kuchli toksik zaharlanish hamda biologik qurol ta'siridan himoya-langanligi, korxona ishi davom etishi uchun xomashyo, energiya ta'minotlari, shu qatorda korxonaning favqulodda vaziyatlarda boshqaruv tizimining fuqarolar muhofazasi xizmatiga jalb etilgan qidiruv-qutqaruv va tez tibbiy yordam tizimi harakatlarini yo'lga qo'yilishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq sanab o'tilgan omillar korxonaning favqulodda vaziyatlarda turg'unligini bildiruvchi amaliy omil hisoblanadi. Korxonalarini har qanday jarayonda ham ishlay olish imkonini dastlab korxonaning injener-texnik loyihasiga kiritilishi kerak, bu loyihsada favqulodda vaziyatlarda injener-texnik normativlari yoritiladi, ayniqsa, atom elektr stansiyasi (AES) va gazni qayta ishlash zovurlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta tayyorlash, zavod va fabrikalar uchun bu o'ta dolzarb bo'lishi kerak.

Korxonalarning jarohatlanish omillariga chidamliligini baholash mezonlari har bir korxonaning favqulodda holatlar sharoitida ishlash tartiblari tinchlik davrida hamda harbiy holatlarda zavod va fabrikalarning xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Bunda iqtisodiy nuqtayi nazardan har tomonlama hisoblanib, fuqaro muhofazasi tomonidan tavsya etilgan chora-tadbirlarning qo'llanilishi asosida ishlab chiqilishi kerak. Korxonaning har qanday zararlovchi omillardan himoyasi maxsus uslublarni qo'llash orqali o'rnatiladi. Asosiy ko'rsatkich va xalq xo'jaligining bardoshlilik darajasini baholovchi omillar shu korxonaning ishlab chiqarish yo'nalishidan kelib chiqib baholanadi. Korxonalarning jarohatlanish turlari fuqarolar muhofazasi shtablari tomonidan ishlab chiqiladi, bunday yo'riqnomalar bo'limgan taqdirda korxonaning injener-texnik xizmati ishlab chiqarish turlarini e'tiborga olgan holda ishlash tartibi turg'unligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur. Korxona imoratlarining yer qimirlashi quvvatiga chidamliligi ballar bilan yoki oshiqcha bosim, yadro quroli portlashida qo'llaniladigan zarb to'lqini ta'sirida kuchsiz, o'rta va kuchli ta'sir etishidagi shikastlanishi e'tiborga olinib, hisoblab chiqiladi.

Korxonalarning asosiy joylarini, imoratlarini yer qimirlashi yoki yadro quroli portlashida seysmik chidamliligi aniqlanishi maxsus

hisoblab chiqilgan jadvallar yordamida imoratlar qurilishi loyihasida ko'rsatilgan chidam darajalarini qo'llash orqali hisoblab chiqiladi. Har bir bino, sex yoki qurilma inshootining seysmik chidamliligini aniqlash injener-texnik mutaxassislar tomonidan favqulodda vaziyatlar shtabi xodimlari bilan birlgilikda aniqlanib, binolardan topilgan kamchiliklarni bartaraf etib borish korxona rahbari vazifasiga kiradi. Korxonaning ishlab chiqarish sexlari imoratlarini zarb to'lqini yoki yer qimirlashdagi seysmik turg'unlik holatini baholab, vayron bo'lish darajasini aniqlab, qisqa muddatda qayta ta'mirlay olishni iqtisodiy kam xarajat bilan bajarilishi zarur. Imoratlarning yadro quroldidan himoya darajasi (1,2,3,4 va 5) yong'in darajasi bilan baholanishi kerak, bunda shu joylar imoratlardagi yong'in xavfiga chidamliligi va yorug'lik impulsiga, yong'in sodir bo'lishi mumkinligiga hamda ishlab chiqarish korxonalarining sinuvchi radiatsiyaga chidamliligi, eng yuqori dozaga chidamliligini hisoblab chiqish bilan baholanadi.

Zarb to'lqini ta'sir masofasi imoratlarining turg'un doirasida bo'lsa, unda (30-50 kPa) da radiatsiya zararlanish 5–20 radga teng, radiatsiya jarohatlanish doirasi esa 500–1000 kt, trotil ekvivalenti – 1–3 berilgan, 100-300 kt doirasida radiatsiya zararlanish pastroq bo'lib, asosan odamlarga, ishchilarga xavfsiz hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarining ishchi-xodimlarini radioaktiv zararlanishdan himoyalanishni korxona tomonidan tinchlik davrida ishlab chiqilishi kerak. Bunda ishchixizmatchilarining smenadagi hisoblari bo'yicha yashirinish joylari, yerto'lalar, radiatsiyaga qarshi pana joylar qurilib, maxsus jihozlanishlari kerak. Tinchlik davrida ishchilarni ko'chirish, evakuatsiya qilish, tarqatish, shahardan olib chiqish, ishchilar va ularning oila a'zolari uchun shaxsiy himoya vositalari ta'minoti favqulodda vaziyatlarda qidiruv-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni bajarishga o'qitib, mashq qildirilishi kerak. Korxonalar ixtiyoridagi omborxonalar, sexlarni yong'in xavfsizligini ta'minlagan holda ularni bir-biridan imkon qadar xavfsizroq masofada qurish, yong'in paytida imoratdan imoratga yong'in o'tishi imkonini kamaytirib, moddiy boyliklarni yoppasiga qirg'in qurollaridan,

### Mexanik sexning yorug'lik nuriqa chidamliligi

<b>Sexda gi jihoz- lar tas- nifi</b>  <b>(imorat)</b>	<b>Yong'in- ga chi- damli- lik dara- jasi</b>	<b>Yong'in ta'sirida xavflik darjası</b>	<b>Yong'in ta'sirida xavfli jihozlar</b>	<b>Yorug'- lik im- pulsi yong'in- ga olib kelishi</b>  <b>KDM/M2</b>	<b>Imorat- ni yorug'- lik im- pulsi chidam- liliği</b>  <b>KDJ/M2</b>	<b>Imoratni shamolga qarshi darjası</b>  <b>DR+MAX</b>	<b>Sexni yong'in bo'lgan- da yonish chegarasi</b>
<b>Imoratlar bir qavatl eshikdan qurilgan, cho'psiz, temir be- tonli, yo- pish usku- nali yon- g'inga chidamlili- lik tomi ls, devor- lari 2,5 s.</b>	<b>2</b>	<b>D</b>	<b>Eshiklar, oynalalar qora rangga bo'yal- gan tomi to'l va cho'p- dan yasal- gan</b>	<b>300 620</b>	<b>300</b>	<b>Yong'in doirasi to'la yong'in joyiga to'g'ri keladi</b>	<b>Yong'in doirasi to'la yong'in joyiga to'g'ri keladi</b>

favqulodda yer qimirlashi yoki avariya-katastrofalardan himoya etilishini ta'minlash har bir ishlab chiqarish korxonasining xususiyatlaridan kelib chiqib bajarilishi kerak. Gaz, suv, elektr energiya ta'minotini qurganda ikki tomonlama doimiy va avariya holatida qo'shimcha tarmoqlar o'rnatalishi kerak. Aloqa tizimi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishilgan bo'lib, favqulodda hodisalarda korxonani doimiy aloqa tizimi bilan ta'minlay olishi darkor. Har bir korxonada ishlab chiqarishning to'xtatmasligini ta'minlash imkon, xomashyo zaxiralari tinchlik davrida yaratilib, ularni xavfsiz asrashga erishish korxonani himoyalashning asosini tashkil etadi. Har bir obyektni favqulodda vaziyatlarda ishlash tartibi rejasи ikki nusxada tayyorlanib, bir nusxa ish rejasini korxonaning shahardan tashqarida tashkil etilgan qo'shimcha joyiga qo'yilishi kerak.

Favqulodda vaziyat holatlari o'ta serqirra, qisqa va kutilmaganda ro'y berib, shahar aholisining, talafot ko'rishiga, o'limlarga, minglab jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin. Shu holatning ta'sir doirasini kamaytirish, aholini xavf darajasi yuqori bo'lган shaharlardan shoshilinch olib chiqib, ularni shahar tashqarisiga favqulodda holat bartaraf etilgungacha ko'chirishni talab qiladi.

Favqulodda tabiiy ofatlar jarayonida favqulodda urush maydoni bo'lishi mumkin. Shaharlardan aholini ko'chirish, ularni evakuatsiyalash, shahardan yiroqda aholini bir-biridan uzoqroq joylarga tarqatib, ularni talafot markazidan uzoqroq joylashtirish murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan, qutqarish tadbirlarining yagona aniq va ishonarli tadbiri hisoblanadi.

Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib xizmatlar tarmoqlarining, jumladan, tibbiyot xizmati tizimlarining aniq, puxta ishslashlarini talab qiladi. Ushbu vazifa oldindan ishlab chiqilib, barcha xizmat sohalarini o'qitish, mashq qildirib, doimiy tayyorgarlikni ta'minlash zarur. Favqulodda holatlarda har bir fuqaroni o'zini o'zi himoyalashga o'rgatish ishlarini tadbirlar, rejalar asosida ta'min etilishiga erishish, aholini ofat zararlaridan imkon darajasida himoyalash lozim.

## **Favqulodda vaziyatlarda qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarni bajarishni tashkil etish**

Qutqarish va boshqa shoshilinch ishlar – favqulodda vaziyatlar o‘chog‘ida yoppasiga jarohatlanganlarni qutqarish, ularga har tomonlama yordam ko‘rsatish fuqarolar muhofazasi xizmatining tinchlik davrida va harbiy holatlarda bajarish shart bo‘lgan vazifalarining asosini tashkil etadi.

Qutqarish va boshqa shoshilinch yordamning asosiy maqsadi yoppasiga jarohatlanish o‘choqlarida aholini qutqarish, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish, avariya va katastrofalar doirasini chegaralab, qutqaruv ishlarini yo‘lga qo‘yish va qayta tiklash ishlarini o‘tkazishga imkoniyat yaratishdir.

Yoppasiga qirg‘in qurollari qo‘llanilganda bajariladigan qutqaruv ishlari quyidagilardir:

- fuqarolar muhofazasi tuzilmalari harakatlanish yo‘nalishi, yo‘llarni tekshirishi (razvedka-qidiruv);

- yong‘inlarni chegaralash va o‘chirishni harakat qilish yo‘nalishida, obyektlarda bajarish;

- jarohat olgan aholini yong‘in joylaridan, gazlangan xonalardan izlab topish, olib chiqish, qutqarish;

- vayron bo‘lgan imoratlar, bosib qolgan tomlar ostida qolib ketgan odamlarni izlab topib, ularning jarohatini aniqlab, yordam ko‘rsatish;

- imoratlar ostida, yerto‘lalarda siqilib qolgan odamlarga filtr ventilatsiya orqali havo berish;

- jarohat olgan odamlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatib, ularni davolash bosqichlariga evakuatsiya etish;

- barcha aholini xavfli joylardan xavfsiz joylarga evakuatsiya etish;

- zarar ko‘rganlar, toksik moddalar, radioaktiv moddalar bilan zararlangan va bakteriologik ifloslangan odamlarni sanitар tozalashdan o‘tkazish;

- qishloq xo‘jaligi jonivorlarini sanitар tozalash;

- dezaktivatsiyalash, degazatsiyalash, dezinfeksiyalash ishlarini, kiyim-kechaklar, himoya kiyimlarida va oziq-ovqat mahsulotlarida hamda texnik vositalarda o‘tkazish.

Shoshilinch bajariladigan ishlar:

- favqulodda hodisada imoratlarning va ko'priklarning buzilishi, yo'llarning ko'milib, texnik vositalar harakatiga xalal beruvchi to'siqlarni tozalash, yo'l ochish ishlarini zarar ko'rgan joylarda o'tkazish;

- buzilgan, portlagan avariya natijasida gaz, elektr, suv hamda tozalash quvurlarida, texnologik tizimlarda sodir bo'lgan buzilishlarni qayta sozlash va shu orqali qutqarish ishlarini o'tkazishga imkoniyat yaratish, transport harakatiga yoki odamlarga xavfli bo'lgan imoratlarni mustahkamlash, xavfsiz holatga keltirish, aloqa tizimlaridagi avariyalarni qayta tiklash, aloqa o'rnatish, energetika, kommunal tizimidagi buzilishlarni sozlash orqali jarohatlanganlarga yordam ko'rsatishga imkon yaratish;

- shikastlanish o'chog'ida portlamay qolgan harbiy snaryadlarni zararsizlantirish;

- qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarni har qanday sharoitda – kunduzi va kechasi to'xtamay uzlusiz davom ettirish zarur.

Qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarni favqulodda vaziyatlarda bajarish uchun favqulodda vaziyatlar xizmati tomonidan maxsus guruh, tuzilmalar tinchlik davrida tuziladilar. Bu ishlarga obyektlar, hududlar va shahar, qishloqlarda tashkil etilgan tuzilmalar va harbiy xizmatdagi kuch va vositalar jalb qilinadilar. Bular fuqarolar muhofazasi shtabi tomonidan birinchi va ikkinchi ish eshelon safi etib tayinlanadilar. Birinchi eshelon safiga odatda harbiy xizmat va fuqarolar muhofazasi tuzilmalari, obyektlarda ishlarini davom ettirib turgan tuzilmalar qutqarish va qayta tiklash ishlarni uzlusiz davom ettirish maqsadida kiritiladi. Fuqarolar muhofazasining kuchi va vositalari to'planish otryadi yoki bir-ikki to'plam komandasasi, qutqaruvchilar otryadi yoki qutqaruvchilar komandalari xizmati shaklida tuziladilar. Fuqarolar muhofazasining kuchlari va vositalari shay holatga o'tish paytida bu tuzilmalar to'planib, fuqarolar muhofazasi xizmatining shaharlardan tashqarida belgilab olingan maxsus

joylariga operativ yig'ilib, ular barcha asbob-anjomlar bilan ta'min etiladilar. Ularga maxsus topshiriq berishgunga qadar ish joyida joylashish, dam olish, kerak bo'lsa, ovqatlanishlari mumkin. Radiatsiya va boshqa yoppasiga qirg'in qurollaridan himoya etish uchun radiatsiya va kimyo nazorat postlari qo'yiladi.

Fuqarolar muhofazasining tuzilmalari favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan o'choqqa tez yetib kelishlari, qisqa vaqtida qutqarish va boshqa ishlarni o'tkazish imkoniga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun ular o'z xizmati yo'nalishi bo'yicha zarur bo'lgan texnik vositalar, anjomlar, asboblar bilan to'la ta'min etilishlari zarur. Jarohatlanganlarni imoratlar ostidan izlab topish, ularni qutqarish ishlarini malakali va tezlik bilan bajarishlari, kerak bo'lsa, ish yo'nalishlarini har doim o'zgartirib, kuchaytirib bora olishlari darkor. Qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarni bajarishda hozirgi zamон talabiga javob bera oladigan texnik vositalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu vazifalarni bajarish maqsadida xalq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha texnik vositalar jalb etiladilar. Bular quyidagilar:

a) ekskovatorlar, traktorlar, buldozerlar, kranlar, samosvallar, pritseplar, tross xalqalari, domkratlar – bu texnik vositalar ko'milib ketgan yerto'lalardan, imoratlar siniqlari ostidan odamlarni olib chiqish, yordam ko'rsatishga yo'l ochishi uchun foydalaniлади;

b) pnevmatik asboblar ta'mirlovchi, qazuvchi, devorlar, beton plitalar ostida qolgan ishchilarga havo berish yoki yo'l ochib, ularni chiqarib olish uchun ishlatiladi;

d) metall to'siqlarni kesish uchun benzinli, avtogenli, elektr payvandlash asboblari;

e) suvlarni so'rib oluvchi texnik vositalar – nasoslar, matopompalar, sug'orishga ishlatiladigan mashinalar, yong'in o'chiruvchi mashinalar va avtosuv tashuvchi moslamalar;

f) suv to'lqinlari hamda daryolardan texnik vositalarni o'tkazish moslamalari, paromlar, pantonlar, tegachlar, pritseplar;

h) ta'minlash tizimi asboblari – ustaxonalar, texnik-xizmat ustaxonalari, benzin va suv to'ldirish shoxobchalar, yorug'lik ta'min etish stansiyalari.

Yuqorida keltirilgan uskunalarni maqsadli ishlatalish o'z vaqtida qidiruv-qutqaruv va boshqa shoshilinch bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni yoppasiga jarohatlanishlar o'chog'ida amalga oshirishda imkon beradi. Qidiruv-qutqaruv ishlarni bajarishda texnik xavfsizlikni prioritet qo'yish zarur, aks holda qutqaruvchilar ham jarohat olib, ularning o'zlarini qutqarishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatlar o'chog'ida qidiruv-qutqaruv ishlarni yuqori darajada bajarilishi shu ishlarga jalb etiladigan tuzilmalarning tinchlik davrida o'quv mashqlarini fuqaro muhofazasi tuzilmalari bilan o'tkazib turishlari talab qilinadi. Qidiruv, qutqaruv ishlarida boshqa shoshilinch bajarilishi kerak bo'lgan ishlar fuqarolar muhofazasi shtabi tomonidan rejalashtiriladi va favqulodda vaziyat yuz berganda fuqaro muhofazasi xizmati tomonidan boshqarib boriladi.

### **Qidiruv-qutqaruv va boshqa shoshilinch bajariladigan ishlarni jarohatlanish o'chog'ida amalga oshirish tartibi**

Qidiruv-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarning ketma-ketlik bilan bajarilishi sodir bo'lgan o'choqning turiga, ahvoliga bog'liq. Bunda o'choq doirasida imoratlarning qulashi, elektr tarmog'i shikastaligi, yong'inlar, radioaktiv chiqindilarning atrof-muhitga tarqalish darajalari e'tiborga olinishi kerak. Chunki bu holatlar qidiruv-qutqaruv tuzilmalarining ishlash tartiblarini aniqlaydi. Birinchi navbatda qulab tushgan imoratlarda yo'l ochish kerak, chunki bu binolarda odamlar qolib ketgan bo'lishi mumkin, qutqaruv ishlariga xalaqit beradigan barcha yo'laklar tozalanib, ochilishi kerak, bu yo'laklar har xil kenglikda ochilishi shu joydagি inshootlarning hajmiga bog'liq. Yo'laklar bir tomonlama harakatlanishga mo'ljallanganda kamida 3–3,5 metr kenglikda, ikki taraflama harakatlanishda 6–6,6 metrdan kam bo'lmagligi kerak. Yo'laklarning har 150–200 metrida 15–20 metrli to'xtash uchun kengaytirilgan

maydonchalar ajratilishi kerak. Bu ishlarni bajarish uchun mexanizatsiyalashtirilgan tuzilmalar jalb qilinadilar. Shoshilinch bajarilishi shart bo'lgan vazifalarga yong'inni chegaralash, o't o'chirish va yong'in joylaridan jarohatlanganlarni qutqarish ishlari kiradi.

Hozirgi paytda imoratlar ostida bosilib, siqilib qolganlarni izlab topish, ularga yo'l ochish va qutqarish masalalari to'la yechimini topmagan muammolarga kiradi. Ammo ayrim vaziyatlarda faqat siqilib qolgan, jarohat olmagan odam ikki-uch xavflargacha tirik qolishi kuzatilgan. Masalan: Armanistonning Leninakan shahrida yer qimirlagandan besh sutka keyin ham 5398 ta tirik qolgan odamlar imoratlar bo'laklari ostidan topilib, qutqarilgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda yer qimirlashida ko'milib qolgan odamlarni har mingtasining 50 tasi har soatda nobud bo'ladilar, shuning uchun qidiruv va qutqaruv ishlarida har bir daqiqalar g'animat hisoblanadi. Yer qimirlagan joylarda jarohat olgan odamlarni qidirish-qutqarish ishlarida qancha ko'p kuch va texnik vositalalar jalb etilsa, natijasi ijobjiy bo'ladi. Armanistondagi yer qimirlashida qidiruv va qutqaruv ishlarida Fransiya, Angliya, Shvetsariya, AQSh va o'nlab qo'shni davlatlar ishtirok etganlar. Bu qutqaruvchilar oldin qutqarish ishlarini yer yuzining ko'plab joylarida bajarib, malaka oshirganlar, ular aloqa vositalari, temir betonlar kesuvchi asboblarni, kuchli qo'l chiroqlari va boshqa asboblarni bilan ta'min etilgan.

Armanistondagi yer qimirlashda o't o'chiruvchilar ham mardonavor kurashganlar, yer qimirlagandan keyin birinchi soatlaridanoq Leninakan, Spitak, Kirovokan shaharlariда sodir bo'lgan yong'inlar bartaraf etilgan. Armaniston favqulodda vaziyatlar shtabi boshlig'inining aytishicha, agarda zarur bo'lgan texnika mavjud bo'lganda edi, yer qimirlashda halok bo'lgan odamlarning yarmisini qutqarish mumkin bo'lar edi. Yer qimirlashi va boshqa texnogen xususiyatli avariyalarda elektr tarmog'i, neft-gaz tarmoqlari xavfli hisoblanib, shuning uchun undan oldin energiya ta'minoti markazi o'chirilib, keng qutqarish, yordam ko'rsatish ishlarini o'tkazish tavsiya etiladi.

**Yer qimirlash o‘chog‘ida inshootlarning jadvali yer qimirlatuvchi  
kuchga chidamlilik**

Imoratlar va inshootlar tasnifi	Vayron etuvchi ballar			
	Kuchsiz	o‘rta	kuchli	To‘la
Katta hajmdagi ishlab chiqarish inshootlari, metall tomli 25-50 t yuk ko‘tarish darajasidagi imoratlar.	7-8	8-9	9-10	10-12
Tomi yengil metall bilan berkitilgan.	6-7	7-8	8-9	9-12
Tutashitirilgan moslama imorat.	6-7	7-8	8-9	9-10
Umumiy maydoni 30% shisha oynali tom.	6-7	7-8	8-9	9-10
<b>Metall devorlar</b>	<b>6-7</b>	<b>7-8</b>	<b>8-9</b>	<b>8-11</b>
Betondan bo‘lgan inshoot imorati	6-7	7-8	8-9	9-11
Ishlab chiqarish binosi metall tom bilan	6-7	6-7	7-8	9-11
Biriktirilgan devorlari pishiq beton bilan to‘ldirilgan	6-7	6-7	7-8	8 dan yuqori
Yig‘ma temir betondan qurilgan imoratlar	7-8	8-9	9-10	
Bir qavatlari va ko‘p qavatli g‘ishtli imoratlar tomi	6-7	6-7	7-8	10-11
Temir beton qoplamali	6-7	6-7	7-8	8-9
Bir va ko‘p qavatlari g‘ishtli imoratlar tomi uchun cho‘p bilan yopilgan	5-6	6-8	8-9	8-9
Temir yoki temir betonli ishlab chiqarish boshqaruv imoratlari	7-8	8-9	9-10	-
Bir-ikki qavatlari g‘ishtli imoratlar	-	-	-	-
G‘ishtli uch va undan ortiq qavatlari imoratlar	-	-	-	-
G‘ishtdan qurilgan omborxonalar	7-8	8-9	9-10	8-12

## **Radioaktiv va kimyoviy o'choqlar**

Radioaktiv zararlanish joylari AES yoki boshqa yadroni qayta ishlash zavodlarida avariya holatlarida ro'y berishi mumkin. Radioaktiv zararlanish va vayronagarchiliklar, jarohatlanishlar yadro quroli portlashida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'choqqa o'xshab ketadi. Shuning uchun radioaktiv o'choqni baholash yadro quroli o'chog'ini baholash bo'limida keltirilgan.

Kimyoviy zararlanish toksik moddalarni ishlab chiqaruvchi zavodlarda, ayniqsa, kuchli ta'sir etuvchi zaharlarni qayta ishlovchi kimyoviy zavodlarda avariya halokatlarida sodir bo'lib, kimyoviy qurol ishlatil-ganda sodir bo'luvchi kimyoviy o'choqqa o'xshaydi.

*Portlash xavfli va yong'inga xavfli obyektlarda sodir bo'luvchi o'choqlar.* Portlovchi xususiyatga ega bo'lgan texnologik jarayonlarda portlatuvchi va yuqori bosim bilan ishlovchi vodorod mahsulotlari havo oqimi bilan aralashib, portlashga olib kelishi mumkin. Propilen, meton, propan, butan, etilen, butilen va boshqa shunga o'xhash gazlar portlaganida imoratlarni, inshootlarni, texnologik qurilmalarni, moslamalarni qo'porib, katta-katta jabrlanishlarga olib kelishi mumkin. Bunda zarb to'lqini yadro quroli portlashidek talafotlarga sabab bo'ladi.

Havo gaz qorishmasi portlashini imorat va inshootlarga ta'sirini aniqlash fuqaro muhofazasi xizmati tomonidan korxonalarda hisoblab chiqilishi kerak.

Texnologik jarayonda portlash xususiyatiga ega bo'lgan barcha korxonalarda portlashlardagi yuqori bosimga chidamlilik, himoyalanish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi, texnik xavfsizlik tadbirlari belgilanishi kerak.

Yadro o'chog'ida portlash natijasida turarjoylar, imoratlar, inshootlarning zarb to'lqini ta'sirida shikastlanish darajasi yadro portlashida sodir bo'luvchi kuchli bosim tufayli inshoot, imoratlarga uriluvchi old chiziq quvvatiga qarab yadro o'chog'i to'rtta maydonga ajratiladi.

To'la shikastlanish maydoni G chegarasida bosim  $0,5 \text{ kg/sm}^2$  ( $50 \text{ kPa}$ ) bo'lib, aholini yoppasiga qirilishi kuzatiladi. Bu maydonda uy-joylar, kommunal inshootlar batamom buziladi, hatto fuqaro muhofazasi yerto'lalari ham batamom ishdan chiqadi. Yadro jarohatlanish maydonining umumiyligi qiymati 15 gacha G maydoniga to'g'ri keladi.

Kuchli zaharlanish maydoni B. (R2-R1) zarb to'lqinining jismlar bilan urilish quvvati  $0,5$  dan  $0,3 \text{ kt/sm}^2$  ( $50$  dan to  $30 \text{ kPa}$ ) himoyalanmagan va ochiq joylarda bo'lgan aholining  $90\%$  o'lishi mumkin. Imoratlar, inshootlar, kommunal, energetik, texnologik uskunalar, katta talafot ko'rishi, bu maydonda radiatsiyadan himoyalanish maxsus yerto'lalarigina saqlanib, qisman buzilishi kuzatiladi, umumiyligi vayron maydonning  $10\%$  ini tashkil etadi, shikastlanish maylonining o'rtacha quvvati B(R3-R2) jismlarga urilish bosimi  $0,3$  dan  $0,2 \text{ kt/sm}^2$  ( $30$  dan  $20 \text{ kPa}$ ) gacha. Himoyalanmagan aholining  $20\%$  dan ortig'ida jarohat yoki o'lim holati kuzatiladi. Imoratlar, inshootlarning o'rtacha va kuchli shikastlanishi, transport, suv, gaz, energetik inshootlarning buzilishi, yong'inlar kuzatilishi mumkin. Yerto'lalar, maxsus radiatsiyadan himoya inshootlarida himoyalanish yuqori darajani tashkil etadi. B-maydonining umumiyligi maydonidagi miqdori  $15\%$  ni tashkil etadi.

Kuchsiz jarohatlanish maydoni. A (R4-R3) zarb to'lqinining ta'sir kuchi  $0,2$  dan  $0,1 \text{ kt/sm}^2$  ni ( $20$  dan to  $10 \text{ kPa}$ ) quvvatni tashkil etadi. Bu yadro quroli portlash epidsentridan eng uzoq masofa A maydoniga to'g'ri keladi, bu maydonda imoratlar va inshootlar o'rtacha yoki kuchsiz zarar ko'radi. Aholini oddiy himoya vositalarida ham zarb to'lqinidan asrash mumkin, masalan; ariqlar, qum to'plami ortida chuqurliklarda va hokazolarda.  $0,03 \text{ kt/sm}^2$  yoki  $0,01 \text{ kt/sm}^2$   $1 \text{ kPa}$ , kuch, xavfsiz.

Yadro quroli qo'llanilgan o'choqda yoppasiga yong'inlar paydo bo'ladi. Xirosima va Nagasaki shaharlarida  $75\%$  inshootlar, joylardagi yoppasiga yong'inlar ko'plab talafotlarga sabab bo'lgan. Yadro o'chog'ida yong'inlar mashtabiga qarab uch darajali yong'in turlariga ajratiladi:

1. Vayronagarchilik joylaridagi yorug'lik nuri ta'siri quvvati 2400–4000 kDj/m<sup>2</sup>, bu joylardagi yong'inlar uzoq vaqt davom etadi, kuchli tuman odamlarga xavf tug'dirib, ularga ikkilamchi jarohatlar taktik zaharlanishlarga sabab bo'lishi mumkin.

2. Kuchli yong'inlar to'la talafot olgan va kuchli hamda o'rtacha jarohatlangan G B V zonalarini egallashi mumkin. Bu yerlarda yorug'lik quvvati 400–600 kDj/m<sup>2</sup> ga yetadi, barcha maydonning 50% kuchli yong'inlar maydoniga teng, bu joylarda ham kuchli tutunlar ta'sirida toksik zaharlanish mumkin.

3. Har yerda uchraydigan chegaralangan yong'inlar o'rtacha jarohatlanish maydonining ayrim qismini va kuchsiz jarohatlanishlar maydonini o'z ichiga oladi (B-A larni). Bu yong'inlarni o'chirishda qiyinchilik talab etilmaydi, radioaktiv zararlanish kuzatilmasa, bu yong'inlar katta xavf tug'dirmaydi.

Yadro o'chog'ida radioaktiv zararlanish ko'pincha ikkilamchi jarohatlanishlar bilan kechadi, chunki singib kiruvchi radioaktiv nurlanishlar, yong'in ta'sirida kuyishlar, zarb to'lqini ta'sirida ko'plab lat yeishlar, suyaklar sinishi, miya chayqalishi, qon ketishlar jarohatlar to'plamini (kombinatsiya) hosil qilib, jarohatlanganlar ahvolini og'irlashtiradi. Shuning uchun jarohatlovchi omillar bir-birini kuchaytiruvchi hisoblanadi.

### **Kimyoviy jarohatlar o'chog'ida aholini himoyalash**

Kuchli ta'sir etuvchi zaharlarni ishlab chiqarish, tashish yoki saqlashlardagi avariya va katastrofalar bilan birga harbiy kimyoviy qurollar qo'llanilganda kimyoviy jarohatlanish o'chog'i sodir bo'ladi. Bunda zaharlovchi moddalar atrof-muhitga sochilib, joylarni zaharlashi, aholini, texnik vositalar, oziq-ovqat, suv manbalarini xavfli qilib qo'yishi mumkin. Ayni paytda kimyoviy zaharli moddalar qo'llanilgan joylarda zaharli moddalarning yuqori darajali tarqalishi bilan shu yer havosi tutunlari shamol orqali ancha uzoq masofalarga tarqalib, ikkilamchi zaharlanish maydonlarini

hosil qiladi. Ya’ni kimyoviy o‘choqda birlamchi va ikkilamchi maydonlar paydo bo‘ladi. Aynan odamlarni, texnik vositalar, oziq-ovqat mahsulotlarini birlamchi yoki ikkilamchi zaharlaydi. Shunday qilib, kimyoviy o‘choqda zaharli moddalar qo‘llanilgan birlamchi va zaharli chang-tutunlar tarqalgan ikkilamchi zaharlanish maydonlariga ajratiladi. Kimyoviy zaharlangan joylar uzunligi va kengligi B, zararlangan maydonlar S 3 raqamlari bilan belgilanadi. Kimyoviy o‘choqning murakkabligi zaharlovchi kimyoviy moddalarning xususiyatiga, tashqi muhitda turg‘un yoki turg‘un emasligiga, zaharlovchi dozasi LD 50, LD 100 ga bog‘liq. Kimyoviy o‘choqda zaharlar tarqalgan joylarning tabiati, o‘simlik qoplami, ob-havo sharoiti kabi ko‘rsatkichlar e’tiborga olinishi kerak. Shuning uchun kimyoviy o‘choq deb – ma’lum joylarda kimyoviy qurol yoki kuchli ta’sir etuvchi zaharlar ta’sirida odamlar, hayvonlar, xalq xo‘jaligi jonivorlarining zaharlanishiga aytildi. Kimyoviy o‘choqni baholashda birlamchi maydon – S<sub>I</sub> zaharli tutun tarqalgan ikkilamchi maydon – S<sub>II</sub> lar aniqlanishi orqali jarohatlanish darajalariga aniqlik kiritilishi kerak, chunki S<sub>I</sub> birlamchi maydonda yuqori darajali zaharlanish uchraydi. S<sub>II</sub> maydonda esa, meteorologik holatga qarab, ayrim joylarda quyuq zaharlanish, ayrim joylarda esa, zaharlanish past darajada yoki umuman uchramasligi mumkin. Shuni e’tiborga olib, favqulodda vaziyatlarda kimyoviy o‘choq maxsus kimyoviy qidiruv (razvedka) ma’lumotlariga asoslanib yoki tavakkal faktori (prognoz) orqali kimyoviy o‘choqni baholashda maxsus jadvallar yordamida aniqlanishi kerak, tibbiy xizmat boshqaruv ishlarida kimyoviy o‘choqni baholay olish har bir shifokor, vrach uchun zarurdir. Kimyoviy zaharlanish o‘chog‘ida imoratlar, inshootlarning qulashi, shikastlanishlari kuzatilmaydi. Ammo kimyoviy o‘choqda kuchli ta’sir etuvchi zaharlar oqibatida odamlar, jonivorlar oziq-ovqat mahsulotlarining zaharlanishi yuz beradi. Imoratlar va inshootlarni esa, vaqtinchalik xavfli qilib qo‘yishi kuzatiladi. Shuning uchun kimyoviy quollar yoki avariya oqibatida zararlangan korxonalarda ish tartibi har bir ishlab chiqarish tarmog‘ining faoliyatidan kelib chiqib, ishlash yoki ishning to‘xtatilishi to‘g‘risida korxona rahbari tomonidan mahalliy hokimiyat, fuqaro muhofazasi yo‘riqnomalari asosida faoliyat

tartibi belgilanadi. Korxonada ishlab chiqarish muhimligi, harbiy rejaga taalluqliligi bo‘lmasa, korxona vaqtincha yopiladi. To‘la dezinfeksiya, degazatsiya etilib, keyin ishni yo‘lga qo‘yish mumkin. Agar ishlab chiqarish yo‘nalishi muhim bo‘lib, har qanday sharoitda ham to‘xtatilishi mumkin bo‘lmasa, unda ishchi-xodimlar himoya vositalarida ishni davom ettiradilar, aks holda barcha ishchi-xodimlar fuqaro muhofazasining himoyalanish yerto‘lalariga vaqtinchalik joylashtiriladilar, ishlab chiqarish faoliyati to‘la sanitар tozalanish o‘tkazilmaguncha to‘xtatiladi.

Kimyoviy o‘choqning chegaralarini aniqlovchi, kuchli ta’sir etuvchi zaharni atrof-muhitga ta’sir darajasini nazorat qiluvchi kimyoviy dozimetrik postlar tashkil etiladi. Sanitar yuvish, texnik vositalar, kiyim-kechaklarni zaharli moddalardan to‘la tozalash degazatsiyalash punktlari ham tashkil etiladi.

### **Bakteriologik (biologik) o‘choqda aholini himoyalash**

Bakteriologik o‘choq – harbiy holatda yoki diversion terroristik oqimlar tomonidan yuqumli kasalliklar chaqiruvchi mikroorganizmlar qo‘llanganda yoki ilmiy tekshirish ishlari olib boruvchi markazda avariylar yoki epidemiologik xavf tug‘ilsa paydo bo‘ladi. Biologik qurol qo‘llanilganda biologik retsepturlar, mikroblar, hasharotlar, yuqumli kasallik tarqalishi hosil bo‘lgan joylarga biologik zararlangan maydonlar deyiladi.

Biologik o‘choqda odamlarning, xalq xo‘jaligi jonivolarining yoppasiga zararlanishi tushuniladi, chunki bunday o‘choqlarda yoppasiga yuqumli kasallikning odamlar orasida tarqalishi kuzatiladi. Biologik o‘choqning murakkabligi ko‘pgina odamlarga bog‘liq, avvalo, yuqumli xastalikning yashirin davri mavjudligi, o‘choqni aniqlashda kech qolib, epidemiologik holatni chuqurlashtirib, xastalikni keng tarqalishiga sabab bo‘lishi, ikkinchidan, biologik qurolning turiga qarab o‘ta xavfli yuqumli xastaliklarning atrofga tarqalishi, turg‘unligi yoki ko‘payib, boshqa yangi o‘choqlarga aylanishi va boshqa kasallikni aniqlash, davolash, profilaktik tadbirlarni o‘tkazishda yadroviy va kimyoviy o‘choqdan farq qiladi. Eng avvalo, biologik o‘choqning chegarasini aniqlash,

yuqumli kasallik chaqiruvchi manbani chegaralash, o'choqda karantin abservatsiya tadbirlarini joriy qilish, yuqumli xastalikka chalinganlarni izolatsiya etib, tibbiy yordam ko'rsatish, o'choqdan hech kimni evakuatsiya etmasdan shu o'choning ichida davolash maskanlarini tashkil qilish kabi murakkab masalalar mahalliy hokimiyat, fuqaro muhofazasi xizmatiga kiradi. Biologik qurol singari imoratlar, inshootlarni buzmaydi, ammo biologik xavf ishlab chiqarish jarayoniga odamlar hayotiga, sog'lig'iga kuchli ta'sir o'tkazadi. Vaqtinchalik ishlab chiqarish jarayoni va ishchi-xizmatchilar kasallangani tufayli ish to'xtaydi. Biologik o'choqda kasallikning keng tarqalishini oldini olish maqsadida katta hajmdagi ishlar ko'lami o'tkazilishi, karantin va observatsiya rejasি o'rnatiladi.

Karantin-epidemiyaga qarshi o'tkaziladigan qat'iy choratadbirlarda yuqumli kasalliklar tarqalishini o'choqda to'xtatish maqsadida komendantlik xizmati o'rnatilishi, biologik o'choqning chegarasini aniqlab, shu chegarada harbiylashtirilgan qo'riqlash ishlarini bajarish zarur. Biologik o'choqda karantin o'rnatilgandan so'ng, barcha korxonalar, ishlab chiqarish inshootlari, zavod, fabrikalar, o'quv muassasalari, kasalxonalar alohida epidemiologik xavfli vaziyat tartibiga o'tkaziladi. Korxonalar, tashkilotlar qattiq grafik rejasiga o'tkaziladi. Barcha profilaktik, sanitار-gigiyenik tadbirlar, dezinfeksiyalash, dezaktivatsiyalash ishlari, biologik o'choq doirasidagi barcha korxonalar uchun majburiy, aholini, ishchi-xizmatchilarni sanitар tozalash, sanitар yuvish maxsus punktlarini tashkil qilish, barcha joylarda qat'iy tibbiy nazorat o'rnatish zarur.

Karantin muddatini aniqlash fuqaro muhofazasi xizmati (viloyat, hudud yoki respublika) tomonidan belgilanadi. Har qaysi o'choqning biologik xususiyati, yuqumli kasallik qo'zg'atuvchi manbaning yashirin davri, yuqumli kasallikka qarshi kurash tadbirlari Vazirlar Mahkamasining qarori bilan eng so'nggi kasalning ro'yxatdan o'tgan muhlatidan hisoblanib, dezinfeksiyalash ishlari hajmi to'la o'tkazilishi nazoratiga qat'iy amal qilinishi talab etiladi. Observatsiya-chegaralashga epidemiologik tibbiy nazorat va epidemiologik tarqalish xususiyatli vazifalarning chegaraviy ishlari

kiradi. Bu chegaralashlar doirasida aholi o'rtasida yuqumli kasallik belgilari namoyon bo'lishi bilan ularni boshqalardan izolatsiya etish, har kuni o'choqda yashovchi, ishlovchi barcha aholini tibbiy nazoratdan o'tkazish, kerak bo'lsa, maxsus laborator tekshirish orqali yuqumli kasallikni organizmda erta davrida aniqlash, yuqumli kasallikni tarqalishi oldini olish maqsadida o'choqqa kirish-chiqish tartibini o'rnatish muhim. Aholining ovqatlanish, suv ta'minotini epidemiologik muddatini ham favqulodda vaziyatlar shtabi aniqlaydi.

### **Ko'p jarohatlanishlar yig'indisi o'chog'ida aholini himoyalash (kombinatsiya)**

Ko'p jarohatlovchi o'choq (KJO') tabiiy ofatlar, avariya va katastrofalar yoki yoppasiga qiruvchi qurol qo'llanilganda jarohatlovchi faktorlarni bir necha turi bilan aholining birin-ketin jarohatlanishlariga aytildi. Jarohatlar yig'indisi (kombinatsiyasi) yoki undan ortiq omillarning birgalikda ta'siri, masalan, radioaktiv ifloslanish, kimyoviy radioaktiv ifloslanish, kimyoviy zaharlanish, biologik yuqumli kasalliklarning birgalikda uchrashi hozirgi davrda yoppasiga qiruvchi qurollar qo'llanilgan o'choq uchun xos bo'lган muhit, ammo tabiiy ofatlar, yer qimirlashi, suv toshqini, hatto katta avariya-katastrofalarda ham jarohatlovchi omillar birgalikda ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun jarohat olgan odamlarda bir necha shikastlanishlar birgalikda uchrashi kuzatiladi. Masalan: yer qimirlashida sinish, chiqish, qon ketishlar bilan shu odamda yana kuyish, har xil darajali zaharlanish kuzatilib, bunday o'choqda epidemiologik xavfli vaziyat ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, jarohatlar darajasini og'irlashtirib, ularga tibbiy yordam ko'rsatishni murakkablashtiradi, davolash, evakuatsiyalash ishlarini qiyinlashtiradi. Jarohatlanishlar yig'indisi qidiruv-qutqaruv va tibbiy yordam berish bilan ularni davolash masalalarini ham qiyinlashtirishi kuzatiladi.

Shuning uchun odamlarning turli darajadagi shikastlanishlari oqibatida favqulodda vaziyatlar o'chog'ida jabrlanganlar sonini

ko'paytiradi, o'limlar ko'rsatkichi ham jarohatlovchi omillar kombinatsiyasiga bog'liq.

Jarohatlanganlarni izlab topish, ularning hayotini saqlab qolish ishlarini favqulodda vaziyatlar o'chog'ida jarohatlovchi omillarning birgalikda ta'sirini nazarda tutib, shoshilinch tibbiy yordam berish, qidiruv ishlarini hamjihatlikda o'tkazish talab etiladi. Masalan: jarohatlangan o'choqqa tibbiy yordam, qutqaruvchilar, o't o'chiruvchilar xizmati xodimlari, mutaxassislarini safarbar etmoq kerak.

### **Tinchlik va harbiy holatlardagi favqulodda vaziyatlarda aholini himoyalash**

Favqulodda vaziyatlar tarixida misli ko'rilmagan fojialar yo'qotishlarning sabablari ko'pincha hodisalarining kutilmaga ganda qo'qqisidan sodir bo'lishi, aholining himoyalanish chora-tadbirlariga tayyor emasligi, ularni o'z vaqtida tez, shoshilinch o'goh eta olinmaslik, joylarda himoyalanish, muhofaza etishga o'rgatilmasligi va avariya-katastrofalarni o'z vaqtida oldi olinmasligi sabab bo'lgan.

Chernobil atom elektr stansiyasidagi avariya yoki Armanistondagi yer qimirlashi oqibatida ko'plab yo'qotishlarni misol keltirish mumkin. Chernobil atom elektr stansiyasida 1987-yili 4 reaktorning buzilishi natijasida portlash sodir bo'lib, 30 km lik radiusdagi aholi yer maydoni, hayvonot dunyosi radioaktiv zararlanishga duchor bo'ldi, keyinchalik ko'plab qo'shni – Belorussiya, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Germaniya kabi davlatlarda radioaktiv kuzatildi. Ushbu holatlar temir yo'l transporti magistralida kuchli zaharlar tashishda zaharli chiqindilar oqibatida aholining zaharlanishi, Ashgabat yaqinida xlor kislotasidan 180 ga yaqin odamlarning o'pka shishiga sabab bo'ldi. Bir qancha kimyoviy zavodlarda sodir bo'lgan, masalan, 2004-yil dekabr oyida bir qator Osiyo mamlakatlari, Hind okeani qirg'og'i bo'ylab sodir bo'lgan yer qimirlashi va sunami, 1985-yil 18-sentabrda Mexiko shahrida 81 ball yer qimirlab, 5526 kishi halok bo'lgan, 40 ming kishi jarohatlangan, 1995-yil 18-yanvarda Yaponiyaning Kobe,

Kioto, Osako, Nara, Okayama, Xonsyu shaharlarida 7,5 ball yer qimirlab, sunami suv toshqinini keltirib, suv bosishi natijasida 3160 odam halok bo'lib, 800 kishi bedarak yo'qolgan. Hindiston harbiy zavodining portlashi, Armanistonda kuchli yer qimirlashi, Tojikistonda tog' ko'chishi kabilarni misol keltirish mumkin. Bularning barchasi tinchlik davrida ham favqulodda hodisalarga aholini doimo tayyor bo'lishi, ishlab chiqarish tizimlarining uzlusiz ishlashini ta'min etish, mamlakatni har qanday xavf-xatardan himoyaga tayyorligini ta'min etishga da'vat etadi. Fuqarolar himoyasi tizimiga yuklatilgan vazifalar favqulodda vaziyatlarda uning oqibatlarini yo'qotish masalalarini tinchlik davrida tayyor turishini, mamlakat aholisi, barcha idoralar, korxonalar tinchlik davrida ham, harbiy holatlarda ham tayyorligini oldindan ta'min etishdan iborat.

### **Favqulodda holatlar va ular dan himoyalanish.**

Tabiiy ofatlar bilan bog'liq bo'lган favqulodda hodisalarga yer qimirlashlari, xavfli suv toshqinlari, kuchli shamol (uragan), qor ko'chishi, xavfli yomg'ir yog'ishi, yer, tog', loyqa botqoqlarning siljishlari, kuchli yong'inlar, sunami, xavfli epidemik holatlar va boshqa kutilmagan xavflar kiradi.

Tashqi muhitga o'ta xavfli, zararli chiqindilarning chiqishi bilan bog'liq bo'lган xavfli holatlar – AESning avariysi, yadroviy fizik markazlardagi avariya holatlari bilan bog'liq bo'lган tashqi muhitga radioaktiv chiqindilarning tarqalishi, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi bakteriologik xavfli chiqindilar korxonalarining shikastlanishi, tashqi muhitga o'ta xavfli biologik manbalarning tarqalishidir.

Kutilmagan kuchli yong'inlar, portlashlar oqibatida sodir bo'lувчи ofatlar – imoratlarning vayronagarchiligi, texnologik inshootlarning portlashi, aholi turarjoyidagi kuchli yong'inlar, gaz-neft magistrallarining portlashlari, transport kommunikatsiyasidagi avariya va hokazolar.

O'zaro kelishmovchiliklar oqibatida sodir bo'lувчи favqulodda vaziyatlari – harbiy agressiyalar, ekstremistik kuchlarning mamlakat boshqaruv tizimiga, harbiy obyektlarga

yoki aholiga nisbatan qo'poruvchilarning chiqishlari, yoppasiga qiruvchi qurollarning harbiy holatda qo'llanishlari kabilardir. Ushbu holatlar faqat shu turlar bilan cheklanmay, ularning turlari nihoyatda xilma-xil va ayni bir favqulodda hodisa bir yoki bir necha xavfli holatlarning birgalikda kombinatsiyasiga ham sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni yer qimirlashi oqibatida kuchli yong'inlar, gaz, neft o'tkazgich tizimining uzilishi, tashqi muhitga gaz-neft va hokazolarning chiqishi va shu bilan bog'liq ko'plab xavfli holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Favqulodda sodir bo'lishi ehtimolli holatlar oqibatini oqilona yo'qotish ishlarini, tabiiy yoki sun'iy harbiy to'qnashuvlar vaziyatlarini o'rGANISH, har bir xavfli o'choqlar xususiyatlarini bilish orqali aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin. Bu vazifalar fuqarolar muhofazasi tizimiga yuklatilgan asosiy vazifalardir.

### **Tabiiy ofatlar, avariya (katastrofalar) dan aholini himoyalash**

Tabiiy ofatlarga: yer, tog' siljishlari, jala toshqinlari, kuchli shamol to'znlari, siklonlar, tayfunlar yong'inlar, vulqonlarning otilishi va boshqa hodisalar kiradi. Bu holatlar favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaradi, ya'ni kundalik ritmik hayot faoliyatini tizimidan chiqarishi, ko'plab insoniy qurbonlar, vayronagarchiliklar hamda moddiy boyliklarning qirilishi sabab bo'ladi. Tabiiy ofatlar ko'pincha bir-biridan holi bo'lib, ayni paytda boshqa tur xavflarni chiqarishi mumkin, ayrim holatlar ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, yer ishlovlari, tog' metallurgiya qazilma ishlar, suv dambalarini qurish, shaxta qurilish ishlar, gaz-neft qazib olish ishlar yer siljishlari, tog' og'ishlari, qor va yaxlarning ag'anashiga sabab bo'lishi mumkin.

Tabiiy ofatlar qaysi faoliyat natijasi yoki turiga qaramasdan ular keng doirali, ko'p qirrali har xil muddatda davomiyligi, qisqa muddat mobaynida butun bir shaharlarni yo'q qilishi va bir necha kun, hattoki yil davomida cho'zilishi mumkin. 1966-yilgi Toshkent yer qimirlashi 1967-yilgacha davom etgan, Armanistondagi 1987-yilgi yer qimirlash esa 5-10 minut mobaynida butun o'lka, shahar va qishloqlarni harobaga

aylantirgan, yer ko'chishi yoki suv toshqinlari esa bir necha kun yoki oylab davom etishi mumkin.

Yer qimirlashi: Bu yer qobig'ining kuchli tebranishi bo'lib, tektonik yoki vulqon otilishi natijasida bo'lishi mumkin. Bu holat kuchli vayronagarchiliklar, yong'inlarga sabab bo'lishi, ko'plab kishilarni qurban qilishi mumkin. Yer qimirlashida asosiy kuch bu tektonik energiyaning chuqurligi, magnitud energiyaning kuchi yer qobig'i yuzasiga chiqishi bilan bog'liq.

Tektonik magnituda odatda 10-30 km chuqurlikda va ayrim holatlarda bundan ham chuqurroqda joylashgan bo'lishi mumkin. Magnituda yer qimirlashining jami energiyasini bildiradi. U yer (m) bilan Rixter o'lchamida ifoda etiladi. Bu o'lcham 0 dan 9 ballgacha (eng kuchlisi) o'lchanadi. Bu o'lchamda har bir ball oldingi kattalikka nisbatan o'n karra kuchli amplitudada yer siljishiga olib keladi. Ayni paytda yer qimirlashi energiyasini 30 karra orttiradi. Masalan: yerning ustki qatlaming siljishi, yer qimirlashida SM-7M-5dan 100 karra ko'p, ayni paytda yer qimirlatuvchi energiya 900 karra ortadi.

Yer qimirlashi kuchining quvvati energiya manbayining joylashish chuqurligiga, magnituda qimirlatuv epidmarkazi orasidagi masofaga, yer qatlaming geologik tuzilishiga va boshqa omillarga bog'liq.

O'zbekistonda yer qimirlashi quvvatining o'lcham birligi qilib 12 ballik Rixter kattaligi qabul qilingan. Ushbu o'lchamda asosiy kuch bu magnituda quvvati hisoblanadi.

Yer qimirlashlar kutilmagan talafotlarga olib keladi, minglab odamlarni qurban qiladi. Faqtgina Eron mamlakatining shimolidagi Gilyan viloyatida 1990-yilning iyun oyida Rixter shkalasida 8 ballik yer qimirlashida 50 mingdan ortiq aholi halok bo'lgan, 1 million aholi uy-joysiz qolib, o'nlab qishloqlar tub-tubidan tekislanib ketgan. Armanistondagi yer qimirlashida 12 shahar to'la vayronagarchilikda qolib, 3 ta shahar butunlay tekislanib ketgan. Yer qimirlashi ko'pincha boshqa talafotlar – qum bosishi, sel kelishi, kuchli to'sonlar, suv toshqinlari, suv dambalarining ko'tarilishi, kuchli yong'inlar, zaharli moddalarni atmosferaga tarqatib, zavod, fabrika, AESda portlashlarga sabab bo'lib, qurbanlar chegarasini kengaytiradi.

Hozirgi zamonda yer qimirlashini oldindan aniqlash uslublari noma'lum, ammo ayrim ma'lumotlarga tayanib uni farq qilish mumkin. Bular – kuchsiz tebranishlarning tez-tez takrorlanishi (forshaklar), yer qobig'ining defernatsiyalanishi, kosmik nazorat orqali aniqlanadigan uzunlik va ko'ndalang to'lqinlarning yer kurrasida namoyon bo'lishlarini yer qimirlashi arafasida kuzatish mumkin. Lazer nurlari yordamida tog' jinslarining elektr qarshilik kuchi o'zgarishlarini yer qimirlashi arafasida kuzatish mumkin.

Tekshirishlar natijasida aniqlanishicha, yer qimirlashi oldidan suv havzalarining sathi ko'tarilishi, unda suvda radon moddasinng ko'payishi kuzatiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yer qimirlashi oldidan uy hayvonlari, jonivorlar, qushlar bezovtalanadilar. Mushuklar o'zları turadigan joylarni tark etib, bolalarini uylardan uzoqroq dashtga ko'chiradilar. 10–15 daqiqa oldin uy parrandalari bezovtalanib, qichqirib, teztez har tomonga ucha boshlaydilar. Uy hayvonlari bezovtalanib, vahimali harakat qiladilar. Ushbu holatni qimirlash oldidan elektromagnit to'lqinlarining anomal holatga kelishidan deb tushuntiriladi. Yer qimirlashidan himoyalanish chora-tadbirlari uchun mamlakat chegarasidagi tumanlar, viloyatlar aholisini 7–8 ballik seysmik vohalarga rayonlashtiriladi. Ushbu yerdarda imoratlar inshootlarlar qurilishida seysmik talablar bajarilishini qattiq nazorat ostiga olinadi.

**FAVQULODDA VAZIYAT O'CHOG'IDA TIBBIY  
YORDAM TIZIMINING DAVOLASH –  
EVAKUATSIYALASH ISHLARINI JAROHATLANGAN  
AHOLIGA TASHKIL ETISH**

**Davolash – evakuatsiyalash tushunchasi**

Davolash-evakuatsiyalash xizmatining tashkil topishi tarixiy asoslarga tayangan holda, zamon talablariga moslashtirilib qabul qilingan hujjatlar bilan shakllantirilgan. Davolash-evakuatsiyalash ma'nosini bir maqsadni ko'zlagan holda falokat yuz bergan o'choqdagi sanitar yo'qotishlarni kamaytirishga, jarohatlanganlarning hayotini saqlab qolishga, og'ir asoratlarni yoqotishga qaratilgan.

Ushbu tizim oddiy kundalik davolash-profilaktika ishlaridan tubdan farq qiladi, chunki favqulodda vaziyatlarda qisqa muddatda yuzlab, hattoki minglab odamlarning qurban bo'lishi, ko'plab aholi turli ko'rinishda shikastlanishlari mumkin. Bunday sharoitda tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining o'z vazifalarini aniq, chaqqon, malakali bajarishlari og'ir asoratlarni oldini olish, ularning hayotini saqlab qolishga erishish mumkin.

Davolash-evakuatsiyalash tartibi, avvalambor, hozirgi zamonga xos tabiiy ofatlar, ishlab chiqarishda sodir bo'lishi mumkin bo'lган avariya-katastrofalarning shakllanishi, to'g'ri masshtabi hamda qo'qqisdan paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Bu tartib ishlab chiqilgan hamda tinchlik davrida amaliy mashqlarda sinalib, tan olingan. Ushbu davolash-evakuatsiyalashni ta'min etish tizimi yuqorida qo'yilgan talablarni to'lato'kis bajarishi uchun, avvalambor, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining mutaxassislariga, ularni zamon talabiga yarasha tibbiy texnik ta'minlanishiga bog'liq. Ya'ni davolash-evakuatsiyalash tajribalari o'rganilganda ma'lum bo'ldiki,

ushbu tizim har bir davlatning sotsial iqtisodiy holati bilan uzviy bog'lanib kelgan, u doimo o'zgartirib kelingan, rivojlantirilgan. Davolash-evakuatsiyalash ta'minotining turlari, darajalari insoniyat rivojlanishi bilan yangi shakllarda o'zgarib kelgan. Ayniqsa, XX asrda yuzaga kelgan yoppasiga qирг'in qуollari davolash-evakuatsiyalash, ta'minlash tartibida o'z aksini ko'rsatib, bu tizimga birmuncha o'zgartirishlar kiritdi.

Ikkinci jahon urushi yillarda tinch aholi o'rtasida harbiy havo hujumlari oqibatida minglab jarohatlanishlar sodir bo'ldi, bunda tibbiy yordam sodir bo'lган yong'inlar, vayronagarchilik o'choqlarida ko'rsatilib, ularni davolash ishlari shahardan tashqarida tashkil qilingan, davolash-profilaktika bo'limlarida to tuzalguniga qadar davolanganlar. Bunda imkonni boricha kasalxonalarini evakuatsiyalash yo'nalishi bo'yicha o'choqqa yaqinroq masofaga joylashtirishga harakat qilingan. Natijada tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlarining joylashishi va harakatlanishi, jarohat olish joyidagi oraliq masofa qisqartirilib, birinchi tibbiy yordamni 0,5–1 soat mobaynida, birinchi vrachlik yordami, ya'ni o'rta tibbiy mutaxassislik yordami 1–1,5 soat orasida, birinchi vrachlik yordamini 5 soatdan kechiktirmagan holatda, malakali tibbiy yordam 8 soatgacha hamda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam 12–24 soat mobaynida olish imkonni yaratilgan. Ushbu tizimning samarasi shunday bo'ldiki, II-Jahon urushida sobiq ittifoq armiyasining barcha jarohat olgan yaradorlarining 72,3 % to'la davolanib, o'z qismlariga, jangovarlik qobiliyati tiklanib qaytarilgan. Barcha kasallar to'la davolanib, 93% o'z qismlariga qaytarilgan. Shuni ham qayd qilish kerakki, tarix sohasida, urushlar tarixida hanuzgacha bunday yutuqqa erishilganicha yo'q. Shu sababli ham fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish tizimida eng samarali natijalarga erishilgan harbiylarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimining tartibi qabul qilingan. Ushbu tartibning asosiy maqsadi va yo'nalishi asosida yarador va bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish yagona bosqichlar yo'nalishi bo'yicha jarohatlanishlarning tizimiga qarab davolash va evakuatsiya etish tartibi yotadi. Favqulodda vaziyatlar o'chog'ida ham sanitar yo'qotishlarda birinchi tibbiy, birinchi vrachlik yordami

ko'rsatib, o'choqdan tashqarida evakuatsiyalanish yo'nalishi bosqichlarida malakali hamda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning maqsadli yo'nalishi orqali ta'min etishni ko'zda tutgan tizim qabul qilingan. Har bir vayronaga uchragan shaharda ham, aholi yashaydigan turarjoylarda ham ushbu tartibning qo'llanilishini favqulodda vaziyatlarda qutqarish, tibbiy yordam ko'rsatish hamda qayta tiklash ishlarini aniq ishlab chiqilgan reja asosida o'tkazish tartibi qabul qilingan.

Aholini davolash-evakuatsiyalash ta'minotining tub ma'nosini har qanday vaziyatda ham aholiga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish uchun yetarli darajadagi xizmatlar ko'laming majmuasini o'z ichiga oluvchi, tibbiy yordam ko'rsatishda, evakuatsiyalash jarayonida hamda tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlarida yagona maqsadni ko'zlovchi ya'ni jarohatlanganlarni, bemorlarni tezroq davolash, og'ir asoratlarini oldini olishni maqsad qilib qo'yuvchi tizim tartibini – «Davolash-evakuatsiyalash ta'minoti» deb tushunish kerak. Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining eng asosiy muhim vazifalaridan biri – favqulodda vaziyatlarda aholiga tibbiy yordamni o'z vaqtida, yetarli darajada, to'la-to'kis ko'rsatishga qaratilgan.

Fuqarolar muhofazasining oldiga qo'yiladigan asosiy qattiq talab:

- zarar ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish va ularni davolash;
- jarohatlanganlar va bemorlarni o'choqdan evakuatsiyalanish bosqichlariga ko'chirish-evakuatsiyalash.

Hozirgi zamonda ishlab chiqilgan tibbiy ta'minlash, davolash tizimlari shu maqsadga moslashtirib tuzilgan bo'lib, bunda favqulodda hodisalar oqibatida jarohat olganlarni bocqichma-bosqich (1-bocqich o'choqda, 2-bocqich o'choqdan tashqarida) davolash rejalashtirilgan. Bu tizim uzlusiz olib borilishini ta'min etishni yagona tartib deb qabul qilinishi zarur. Chunki tibbiy yordam ko'rsatishda albatta jarohatlanganlarni, evakuatsiya etilgan jarohatlanganlarni davolash yagona maqsadni ko'zlaydi. Jarohatlanganlarni o'choqdan kasalxonaning bazasiga evakuatsiya etish, har qaysi jarohat yoki xastalikning

turini nazarga olgan holda shu xastalik yoki jarohatlarni davolashga mo'ljallangan ixtisoslashmagan kasalxonalarga evakuatsiyalash deb tushuniladi.

Bosqichma-bosqich davolash, tibbiy yordam to'plami, me'yorida davolash, evakuatsiyalash tartibining asosiy ma'nosi shundan iboratki, har bir bosqichda davom ettirilishi, favqulodda vaziyat oqibatida olingan jarohat turiga qarab bajarilishini ko'zda tutadi. Chunki bosqichlar bir-birining bajargan ishini, tibbiy yordam ko'rsatishni uzluksiz davom ettirishlari shart, shundagina davolash evakuatsiyalash jarayoni bir maqsadni ko'zlab, jarohatlar yoki patalogiya holatlarini tezroq, maqsadli yo'nalish bosqichlarida evakuatsiya etish imkonini beradi.

Davolash-evakuatsiyalash tizimining bosqichlari jarohatlanish o'choqlaridan to bosh kasalxonalar kollektorlari hamda kasalxonalar bazalarigacha bosqichma-bosqich o'tkazilishi shart bo'lган hajmda bajarilishi kerak. Faqat shu tartibdagina jarohatlanishlar va bemorlarni to'g'ri, tez va maqsadli davolashga erishish mumkin.

Favqulodda vaziyat holatlarida tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy ko'rsatkichi bo'lган ushbu tartibni o'z vaqtida ko'rsatiladigan hamda bir bosqichning ishlarini ikkinchi bosqich davom ettirishi va to'ldirilishini bosqichma-bosqich maqsadli hamda o'z vaqtida ko'rsatiladigan tibbiy yordam tizimi deb qabul qilingan.

### **Favqulodda vaziyat oqibatida jarohatlangan aholiga tibbiy yordam va davolash-profilaktika ishlari tashkil qilish**

Favqulodda vaziyat holatida jarohatlangan va xastalikka uchragan aholiga tibbiy yordamni to'g'ri tashkil qilish maqsadida hozirgi paytda tibbiy yordam bosqichlarini fuqarolar muhofazasi tizimida bir necha bosqichlarda joylashtirish (etalonlashtirish) ko'zda tutiladi. Ya'ni davolash ishlari bir necha bosqichda bajariladi. Odatda tinchlik davrida davolash ishlari bir tibbiy bosqichda bajarilsa, favqulodda vaziyatlar holatida davolash, qayta tiklash ishlari bir necha bosqichlarda tashkil

qilingan kasalxonalarda bajariladi. Ushbu tartibda jarohatlanganlarga va bemorlarga o'choqdan tashqarida evakuatsiyalash yo'nalishida joylashtirilgan kasalxonalar kollektorlari, kasalxonalar bazalarida ko'rsatilishi nazarda tutiladi. Bunda davolash – profilaktika ishlarining to'plami bosqichma-bosqich bir necha vaqt mobaynida ko'rsatilishi belgilanadi. Ya'ni boshqacha qilib ta'riflanganda, favqulodda vaziyatlar paytda uning oqibatlarini yo'qotish jarayonlarida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish bir necha bosqichlarda, har xil vaqt mobaynida ko'rsatilishi rejalshtiriladi.

Tibbiy yordam va davolash-profilaktika ishlar tizimi tartibida fuqarolar muhofazasining tashkil etilgan bosqichlariga quyidagilar kiradi: BTYO – birinchi tibbiy yordam otryadlari, SEG – saqlash evakuatsiyalash gospitallari, BK – bosh kasalxonalar, KK – kasalxonalar kollektorlari, KB – kasalxonalar bazalari, IK – ixtisoslashtirilgan kasalxonalar. Bu davolash-profilaktika muassasalari evakuatsiya etish yo'nalishidagi yo'l bo'ylab har xil masofalarda tashkil etiladi. Ayni paytda ularni davolash va tibbiy yordam ko'rsatish etaplari yoki evakuatsiyalash bosqichlari deb ham yuritiladi. Evakuatsiyalash bosqichlari deb tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarining kuchi va vositalarini evakuatsiyalash yo'lida joylashishlari tushuniladi. Ularning asosiy vazifalariga: jarohatlanganlarni qabul qilish, tibbiy saralash, jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish va o'zining imkoniyati doirasida davolash hamda kelgusi bosqichda joylashtirilgan tibbiyot muassasalariga evakuatsiya etishga tayyorlash kabilar kiradi. Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining harbiylar tibbiy bo'limlari tizimidan ayrim farqlari ham bor, masalan, harbiy tibbiy yordam tashkilotlari 5 va undan ortiq bosqichlarda – batalon tibbiy qismi, polk tibbiy markazi, deviziya, armiya tibbiy qismida hamda front tibbiyot bazasida, mamlakatning ichki bazalarida joylashtirilgan harbiy gospitallarni va bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat bo'limlari esa ikki tibbiy yordam otryadlari – o'choqda va o'choq yaqinida, ikkinchi bosqich kasalxonalar bazalarida joylashtiriladilar. Ushbu tartib fuqarolar muhofazasining tibbiy

xizmat ko'rsatish tizimining ikki etapda joylashishi hamda jarohatlanganlarga davolash-profilaktika ishlarini mana shu ikki bosqichda ko'rsatilishini ta'minlaydi. Ya'ni tibbiy xizmat ko'rsatishda ko'zlangan barcha vazifalarni, tibbiy muolajalarni to'la-to'kis davolagunga qadar o'z ichiga oladi. Ushbu tartib fuqarolar muhofazasi tizimida ikki etaplik tibbiy xizmat ko'rsatishni ko'zlaydi hamda etaplarda jarohatlanganlar va bemorlarni maqsadli evakuatsiya etishni amalga joriy qiladi.



**5-rasm.** Favqulodda vaziyat o'chog'ida qidiruv va qutqaruv tibbiy yordami

Ushbu tizimda har bir bosqichda ma'lum darajada belgilangan davolash-profilaktika vazifalarini bajarish belgilanadi. Davolash-profilaktika vazifalari har bosqich uchun, har qaysi kasalxona, kasalxona kollektori uchun bosh mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan tibbiy xizmat bosqichining tibbiy yordam ko'rsatish darajasi hisoblanadi. Tibbiy yordam ko'rsatish darajasi, hajmi doimiy bo'lmay, u vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Kengaytirilgan yoki qisqartirilgan variantlarda ko'rsatilishi, favqulodda vaziyat holatiga qarab, tibbiy yordam vazifalar doirasi, chegarasi, hajmi, bosh mutaxassislar hamda fuqarolar muhofazasi tibbiy xizmat ko'rsatish shtabi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bosqichlarida tashkil etilgan kasalxonalarning har qaysisi ma'lum darajada belgilangan

vazifalarni bajaradi. Ularga yuklatilgan vazifalar davolash-profilaktika ishlari hajmi o'sha bosqichda tashkil etilgan kasalxonalarning ixtisoslashtirilgan yo'naliishi, imkoniyatidan kelib chiqishi ko'zda tutilishi kerak. Har bir kasalxona bajarishi shart bo'lган vazifalar vaziyatga qarab o'zgartirilishi mumkin.

Evakuatsiyalanish bosqichlarida tashkil qilingan kasalxonalar tashkiliy jihatdan favqulodda vaziyat o'chog'ida turi, hajmi jarohatlanishlar darajasiga qarab o'zgartirilishi mumkin. Ammo har qanaqa vaziyatlarda ham, har bir bosqichga o'ziga xos bo'lган faoliyatlar yo'naliishida vazifalar berilishi kerak. Ya'ni tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlarida tashkil qilingan har bir davolash- profilaktika muassasalari uchun ma'lum mutaxassislar yo'naliishiga asoslangan holda tibbiy yordam ko'rsatish prinsipi yotadi. Ana shu prinsiplarga asosan tibbiy yordam ko'rsatish bo'limlariga quyidagi vazifalarni bajarish yuklatiladi:

- jarohatlanganlarni qabul qilish;
- ularni tibbiy ro'yxatdan o'tkazish;
- tibbiy saralash;
- sanitar tozalash, degazatsiya, dezaktivatsiya hamda dezinfeksiyalash, jarohatlanganlarga, ularning kiyim-boshlariga himoya vositalari bilan tozalash ishlarini o'tkazish;
- jarohatlanganlar va bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, jarrohlik bog'lagich ishlari, terapevt tibbiy tekshiruv muolajalari va hokazolar;
- jarohatlanishlar va kasallik holatlariga qarab, ularni kerak bo'lsa, yotqizib davolash;
- tibbiy yordam ko'rsatilgandan so'ng keyingi bosqichlarda davolanishga ehtiyoji bo'lganlarni evakuatsiyalashga tayyorlash;
- yuqumli xastaliklarni vaqtinchalik izolatsiyalash.

Ushbu vazifalar tibbiy xizmat ko'rsatish bosqichlarining hammasi uchun belgilangan vazifalardir. Ammo har bir kasalxonalarning ixtisoslashishiga qarab ularga belgilanadigan vazifalarga yuqoridagilar ham qo'shilib belgilanishi kerak. Tibbiy xizmat ko'rsatish bosqichlarining barchasi tashkiliy tuzilishi bilan ko'pincha o'xshashlikka egalar, masalan, tibbiy yordam ko'rsatish bosqichi uchun boshqaruв bo'limi, apteka,

laboratoriya, oshxona, zaxiraxonalar va boshqa yordamchi bo'limlar bo'lishi ko'zda tutilgan. Har bir kasalxonaning ishlashini ta'min etuvchi ushbu bo'limlarning katta-kichikligi o'sha kasalxonaning quvvatiga, yordam ko'rsatish yo'nali shiga bog'liq. Tibbiy xizmat ko'rsatish bosqichlarining davolash-profilaktika ishlarini bajarish darajasi, hajmi shunday belgilanadiki, har qaysi bosqichdan yuqorida turgan davolash bosqichi oldingi bosqichdan to'laroq, malakaliroq tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Hozirgi paytda fuqarolar muhofazasi tizimida tibbiy yordam ko'rsatish, davolash va profilaktika xizmati ko'rsatish tizimida quyidagi tibbiy yordam xizmatlari mavjud:

- birinchi tibbiy yordam asosan talafotlar o'chog'ida o'z-o'ziga, bir-biriga yordam tarzida hamda sanitarlari, sanitardrujinachilar tomonidan ko'rsatiladi;
- birinchi vrachlik yordami asosan BTYOlarda ko'rsatiladi;
- ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam, asosan KK bazasida malakali mutaxassislar tomonidan ko'rsatiladi. Ixtisoslashtirilgan kasalxonalar sanitari yo'qotishlar o'chog'inining tashqarisida, evakuatsiyalash bosqichlarida tashkil qilinadilar.

Shuni qayd qilish kerakki, harakatdagi harbiy tibbiy xizmat tizimida hozirgi paytda besh turdag'i yordam ko'rsatish qabul qilingan. Birinchi tibbiy yordam, vrachgacha bo'lган tibbiy yordam, birinchi vrachlik yordami, malakali tibbiy yordam va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam turlari joriy qilingan, amalda jarohatlanganlarga qancha tez ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish bosqichiga yetkazilsa, shuncha natijalar yaxshi bo'ladi, jarohat olganlar hamda kasallarning tuzalib ketishi shuncha tez amalga oshadi. Ammo hozirgi paytda davolash-evakuatsiyalash bosqichlarida tashkil qilingan kasalxonalarning favqulodda vaziyatlar o'chog'idan ancha olis masofalarga yoyilib ketishi ixtisoslashgan kasalxonalarning o'choq bilan oralarini ancha uzoqlashtirishi mumkin. Shuni nazarga olgan holda jarohatlanganlarga tez shoshilinch hamda o'z vaqtidan kechiktirilmagan muddatda tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida jarohatlanganlar, maxsus ixtisoslashtirilgan kasalxonalarga yetkazilishi muhim hisoblanadi. Buning uchun

evakuatsiyalashga ajratilgan transport vositalarining harakatchanligini oshirish yoki tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari orasidagi masofani joriy etish talab etiladi. Bundan oldingi davrlarda harbiy urushlar, favqulodda tabiiy ofatlarda tibbiy yordam tizimlarining faoliyatlari shuni ko'rsatadiki, jarohatlanganlarni davolashda ularga sarf bo'lган vaqt sog'ayishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekan. Bunda:

- birinchi tibbiy yordamni 0,5 – 1 soatda;
- birinchi vrachgacha yordam 1,5 soatda;
- birinchi vrachlik yordami 5 soatgacha;
- malakali tibbiy yordam 8 soatgacha;

- ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam 12-24 soatdan oshmasligi kerak, aks holda davolanish natijalari og'ir asoratlarga olib keladi. Ushbu holatni to'g'ri tahlil qilish uchun ham tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlarini joylashtirishda vaqt ko'rsatkichini nazarda tutmoq maqsadga muvofiq deb topilgan. Har bir tibbiy yordam ko'rsatish bosqichida davolash-profilaktika ishlari shunday bajarilishini ta'min etish zarurki, ko'rsatilgan tibbiy yordam jarohatlanganlarni keyingi bosqichdagi davolash-profilaktika bosqichigacha evakuatsiyalashni beozor ta'minlay olishi hamda kechiktirilishi mumkin bo'lman tibbiy yordamni albatta ushbu bosqichda joriy etilishini ta'minlay olishi lozim.

Ikkinchi jahon urushida tibbiy yordam ko'rsatishning natijalari shuni ko'rsatdiki, tibbiy yordam ko'rsatishning natijalari birinchi tibbiy yordamni qay darajada o'z vaqtida ko'rsatilishi bilan bog'liq bo'lgan. Jarohatlanganlardan birinchi tibbiy yordam o'z vaqtida ko'rsatilganlarining 80 % tez asoratsiz tuzalib, o'z qismlariga qaytarilganlar. Shuni e'tiborga olgan holda, birinchi tibbiy yordam qay darajada bajarilishi alohida mohiyatga ega.

Yer qimirlashlar, suv toshqinlari, avariya-katastrofalar oqibati shuni ko'rsatdiki, favqulodda vaziyatlarda talafot ko'rgan o'choqda transport yo'llari, kommunikatsiyalar buziladi, bunda tibbiy yordam ko'rsatishga rejalashtirilgan bo'linmalarining o'zлari ham favqulodda hodisa ta'siridan zarar ko'radilar va ularning o'zлari har tomonlama, shu jumladan,

tibbiy yordamga muhtoj bo‘ladilar. Jarohatlangan aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun esa, bunday sharoitda tashqaridan, ya’ni sanitar yo‘qotishlar o‘chog‘idan boshqa shahar, viloyat, tumanlardan tibbiy mutaxassislar, sanitar transportlari, dori-darmonlar safarbar qilishga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida ma‘lum bir vaqtini talab etadi. Natijada to chetdan tibbiy yordam ko‘rsatuvchi mutaxassislar yetib kelguncha birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish kechikadi. Natijada kechikib tibbiy yordam ko‘rsatish oqibatlari asoratsiz tugamaydi. Shu sababli favqulodda vaziyatda sanitar yo‘qotishlar o‘chog‘ida birinchi tibbiy yordamni, shu o‘choqdagi aholi o‘z-o‘ziga va bir-biriga ko‘rsatishi kerak. Buning uchun esa, tinchlik davrida barcha aholini birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishga o‘qitish, o‘rgatish alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

### **Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlari, ularning tashkiliy tuzilishi**

FMTX tashkilotlari mahalliy hokimiyatning qarori bilan shahar, tuman fuqarolar muhofazasi boshlig‘i tomonidan tuman, shahar, aholi punktlari, korxonalar, jamoa xo‘jaliklari, o‘quv yurtlari va boshqa obyektlarda tashkil etiladilar. FMTX bo‘limlariga: SP, SD, SDO, BTYO, ITYO, DHEQO, IEQB, KK, KB, AP, AB lar kiradi:

- SP-sanitar postlari.
- SD-sanitar drujanachilar.
- SDO-sanitar drujinachilar otryadi.
- BTYO-birinchi tibbiy yordam otryadlari.
- ITYO-ixtisoslashgan tibbiy yordam otryadlari.
- DHEQO-dalada harakatchan epidemiyaga qarshi otryad.
- IEQB-ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigada.
- KK-kasalxonalar kollektori.
- KB-kasalxonalar bazasi, bosh kasalxonalar.
- AP-aptekalar.
- AB-apteka bazalari.

Ushbu tashkilotlarga favqulodda vaziyatlarda barcha fuqarolar – erkaklar 60 yoshgacha, ayollar 55 yoshgacha safarbar etilishlari shart. Favqulodda vaziyatda tibbiy xizmat ko‘rsatish

bo‘limlari (obyektlar) va maxsus bo‘limlar shaklida bo‘ladilar. Obyektlar bo‘linmalariga sanitar drujinachilar (SD) va sanitar postlar (SP) va sanitar drujinachilar otryadlari (SDO) kiramadilar. Bu bo‘limlar ayni paytda yoppasiga barcha korxonalar, tashkilotlarda tashkil etilishi shart. Tibbiy xizmatning maxsus bo‘limlari davolash-profilaktika muassasalarida, sanitar epidemiologik stansiyalar, ilmiy-tekshirish tibbiyot institutlari hamda sog‘liqni saqlash tizimiga qarashli tashkilotlar tarkibida tuziladilar. Bularga;

BTYO-birinchi tibbiy yordam otryadi;

ITYB-ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam brigadalari;

ITYO-ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam otryadlari;

HEQO- harakatchan epidemiyaga qarshi otryadlar;

MEQO-maxsus epidemiyaga qarshi otryadlar;

AA-apteka avtolavkalar;

AB-apteka bazalari;

QTP-qon tayyorlash punktlari kiramadilar.

Bu bo‘limlarning barchasining tarkibiy, tashkiliy tuzilishlari, shtatlari tartibi favqulodda vaziyatlar shtabi tomonidan ishlab chiqilgan va sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlangan. Bo‘limlarning tibbiy, texnik, sanitar xo‘jalik va boshqa ta’minotlari, jihozlanishi xalq xo‘jaligining qaysi tarmog‘ida tashkil etilsa, o‘sma tashkilot hisobidan bajarilishi kerak. Transport vositalari va palatkalar bilan esa, favqulodda vaziyatlar shtabi tomonidan mobilizatsiyalash tartibida belgilangan guruhlar hisobidan ta’min etiladi.

Favqulodda vaziyat tizimining tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘limilarining har qaysi tuzilmasining vazifalari sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan ishlab chiqilgan maxsus qo‘llanma asosida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyat o‘chog‘ining to‘g‘ri xususiyati, hajmiga qarab fuqarolar muhofazasi shtabi bilan kelishilgan holda belgilanadi. Bu yo‘llanmada tashkil etilish joylari, tibbiy yordam ko‘rsatish hajmi va ishlay tartiblari aniq ko‘rsatiladi.

Favqulodda vaziyatda tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining harakatchan (ko‘chib yuruvchi, har yerda ishlay olish imkoniyatiga ega) bo‘limlari – SD, SDO, BTYO asosan birinchi

tibbiy va vrachlik yordamini o'choq yaqinida ko'rsatish uchun tuziladilar. Bular o'z avtotexnikalariga ega bo'lib, favqulodda vaziyat holatida qachon, qayerda ularga ehtiyoj paydo bo'lsa, o'sha yerda ishlash imkoniga egadirlar va ulardan shu tartibda foydalilaniladi ham. SP-sanitar posti har 200 ishchiga 1 ta shu tashkilot tarkibidagi ishchilar hisobidan tuziladilar. Ular har kungi ish jarayonida o'z kasblari yo'nalishida vazifalarini bajaradilar, lekin ularga sanitarlik ishlari yuklatiladi. Ular asosan birinchi tibbiy yordam paytida olingan shikastlanishlarda, ishchilar bemor bo'lib qolganda yordam ko'rsatib boradilar. Buning uchun ular tibbiy vositalar to'plami bilan ta'min etiladilar. Ular ayni paytda sanitar oqartuv-profilaktik tadbirlarga ham qatnashadilar. Favqulodda vaziyat sodir bo'lganda ular fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining umumiy tuzilmalari hisoblanadilar. Ular birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jarohatlanganlarni izlab topish, ularni qutqarish, jarohatlanganlarni transport vositalariga yuklash yerigacha olib borish, evakuatsiyalash kabi ishlar bilan sanitar-gigiyenik epidemiyaga qarshi oddiy ishlarni ularga ajratilgan o'choq qismida bajarishlari kerak. Har bir SP tarkibiga 4 ta sanitar kiradi. Ularning bittasini boshliq qilib tayinlanadi.

Ularning ixtiyorida quyidagi tabel jihozlari bor:

- sanitar xaltasi johozi bilan;
- sanitar narvonchasi 2 ta tashuv tasmalari bilan;
- shaxsiy himoyalanish kiyim va vositalari;
- sanitarlik belgilari (qo'lga bog'laydigan);
- kechqurun qorong'ida ishlash uchun elekrt chirog'i. Bunda ular sanitar zvenovoy deb yuritiladilar. Ularning ish vaqt 5 soatdan belgilanadi. Shu vaqt mobaynida ular 50 ta jarohatlanganlarni 1 km<sup>2</sup> maydonda izlab topishlari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishlari mumkin. Sanitar drujinachilar – SD tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining yoppasiga tuzilishi turlari bo'lib, tibbiy yordam bo'linmalarining asosini tashkil qiladi. Ular xalq xo'jaligining tarmoqlarida, korxonalar, tashkilotlar, mакtabлar, o'rta va oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish tarmoqlarining ishlab chiqarish yo'nalishini e'tiborga olib

tuziladilar. SDning asosiy vazifalari – jarohatlanganlarni izlab topish, kerak bo‘lsa qutqarish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, jarohatlanganlarni olib chiqish, tashish ishlariga qatnashish, transport vositalariga yuklash ishlaridan iborat. SD dan tashqari BYYO, KK, KB sanepidstansiyalar tarkiblarida ham tashkil qilinadilar. Ular o‘choqdan tashqarida tashkil etilgan favqulodda vaziyat xizmati tizimining tibbiy xizmat ko‘rsatish etaplarida xizmat qiladilar. Ular sanitarni-gigiyenik epidemiyaga qarshi ishlarni tibbiy mutaxassislar raxnamoligida bajaradilar. 1ta sanitarni-drujina 24 sanitardan iborat bo‘lib, uning tarkibida 5ta SP zvenosi, boshlig‘, boshliq yordamchisi, aloqachi va shofyor kiradi. Har bir zvenoda 4 ta sanitarni bo‘lib, zvenovoylar sanitarni-drujinachilar 10-12 soat mobaynida ishlashi natijasida 500-700 ta jarohat olganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatib, ularni 1kmgacha, ya’ni transport vositasiga yuklash joyigacha olib chiqishi mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarining ishchi – xizmatchilari sonini hisobga olib, sanitarni-drujinachilar sonini ko‘paytirish mumkin. Bunda bir nechta SD bo‘lgan tashkilotda SDO – sanitarni-drujinachilar otryadi tuziladi. Har 1000-2000 ishchiga 1ta SDO tuzilishi kerak. Bunda har bir SDOga 4-5 SD va boshliq, yordamchi, aloqachi, jami SDOda 120-125 tagacha kishi bo‘ladi, SDO 10-12 soat ish davomida 2500-2700 jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsata oladi.

SD-SDO lar tibbiy va boshqa jihozlar bilan ta’milnadanilar, ta’milnish ro‘yxati odatda tabelda belgilanadi. Ro‘yxatda gazqoplari, o‘ziga va jarohatlanganlar uchun himoya kiyimlari, shahsiy himoya kiyimi – (SHHK) rezina etiklar, himoyalanish qo‘lqoplari va shaxsiy kimyo paketi, shaxsiy aptechka, sanitarni-xalta, sanitarni-narvonchalari, tasmalari, elektron chirog‘i kabilalar bilan ta’milnadanilar.

Sanitarni-xaltasida bog‘lagich matolar, sterilangan bintlar, bog‘lagich paketlari, paxta, qon ketishini to‘xtatish uchun rezina tasmasi (jgut), yod eritmasi, shprits, tyubik aptidodlar bilan qaychi, termometr qalam va yon daftarcha bo‘ladi.

Birinchi tibbiy yordam otryadi – BYYO. FMTX tizimining harakatchan bo‘limlarining asosini tashkil etadi. Sanitar

yo‘qotish o‘choqlarida uning oqibatini yo‘qotish jarayonida jarohatlanganlarga birinchi vrachlik yordamini ko‘rsatish uchun tashkil etiladi. BTYO mahalliy hokimiyatning sog‘liqni saqlash bo‘limining davolash-profilaktika muassasalari hisobidan shahar, qishloqlarda joylashganligidan qat’iy nazar tuziladi. BTYOni tuzish, jihozlash, kadrlar bilan ta’min etish o‘sha kasalxonaning bosh hakimi zimmasiga yuklatiladi. BTYOlар odatda bir yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalari hisobidan to‘ldiriladi. Bu tartib bosh hakimning favqulodda hodisaga tayyorlash jarayonida o‘qitish, mashq ishlarini o‘tkazishni tashkil qilishda, ularni shoshilinch chaqirish, to‘plash, belgilangan rayonga olib chiqish jarayonlarini bajarishida qo‘l keladi.

BTYOning asosiy vazifalari: BTYOga keltirilgan jarohatlanganlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, ularni tibbiy saralashdan o‘tkazish, dozimetrik nazorat olib borish, to‘liq bo‘limgan, lekin vaziyat imkon berganda to‘liq sanitar tozalash ishlarini bajarish, jarohatlanganlarga birinchi vrachlik yordamini ko‘rsatish, shoshilinch jarrohlik, terapevtik yordam ko‘rsatish, shoshilinch jarrohlik, terapevtik yordam ko‘rsatish, transportirovkalash, mumkin bo‘lgan jarohatlanganlarni vaqtinchalik gospitalizatsiyalash yuqumli xastalik va nerv-psixik holatidagilarni vaqtinchalik izolatsiyalash, jarohatlanganlarni shahar tashqarisidagi kasalxonalarga evakuatsiyaga tayyorlash, sanitar drujinachilar ishi ustidan rahbarlik qilish, ularni tibbiy texnik ta’minalash, birlamchi tibbiy hisoblashlar va hisobot berish ishlarini bajarish yuklatilgan. BTYOning tarkibi: boshqaruv, qabul qilish va saralash, jarrohlik va bog‘lagich, gospital, evakuatsiya, tibbiy ta’minot, laboratoriya va xo‘jalik bo‘limlaridan iborat. Otryadda jami 146–194 ta odam bo‘lib, ikki guruh SD, shulardan 8 ta vrach, 4 tasi jarrohlardir.

BTYoda dori-darmonlar, antibiotiklar, profilaktik zardoblar, boylash matolari, tibbiy uskunalar, vrachlik apparatlari, bemorlarga qarash uskunalar, apteka va laboratoriya anjomlari, dezinfeksiyalovchi moddalar apparatlari, shaxsiy himoyalanish kiyimlari, shaxsiy kimyoviy paketlar radiometrik va kislород apparatlari, sanitar xo‘jalik buyumlari,

dala elektr tarmog'i uskunasi hamda ko'chma radiostansiya bo'lishi kerak.

BTYOning har qaysisi berkitilgan transport va palatka fondi bilan ta'minlanishi shart. BTYO 1 ish kunida (10 soat) 1000–1500 kishiga saralashni, 40 ta murakkab jarrohlik operatsiyalarini, 120 ta sanitariyuviishlarni, 200 ta kishini ambulator davolashni, 200 kishini shahar tashqarisiga evakuatsiya qila olish hamda 400 o'rinnik yuqumli xastaliklarni gospitalizatsiya etish quvvatiga ega.

### **Jarohatlangan bemorlarni tibbiy saralash tartiblari**

Sanitar yo'qotishlar o'chog'ida va davolash-evakuatsiyalash bosqichlarida talafot ko'rgan aholiga yetarli darajada tibbiy yordam ko'rsatishni taqsimlash jarayonining muhim yo'nalishi – bu tibbiy saralash hisoblanadi. Tibbiy saralashni ishlab chiqqan va hayotga tatbiq qilgan uning asoschisi N.I. Pirogov hisoblanadi. Ulug' jarroh olim bиринчи bu jarohatlanish epidemiyasini faqat jangovar harbiylar orasidagina emas, balki tinch aholi orasida yuzlab, minglab odamlarning boshiga ofat deb qaragan.

O'tgan urushlarda oddiy qurollar qo'llanilganda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan tibbiy saralash hozirgi zamon ilmiy-texnika rivojlanishi sharoitida yoppasiga qirg'in qurollar ishlab chiqarilishi ularni qo'llanish xavfi tinch aholi orasida misli ko'rilmagan darajada shikastlanishlar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Tabiiy ofatlar, yer qimirlashlari, tog' ko'chkilari, sel va bo'ronlar, suv toshqinlari yoppasiga qirg'in qurollarining oqibatlardan kam emas. Buni Armanistondagi yer qimirlashi, Chernobil atom elektr stansiyasidagi portlash, yer yuzasidagi ko'plab tabiiy ofatlarning isbotida ko'rish mumkin. Yer kurrasining ayrim joyida shahar va qishloqlarda kutilmaganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy yoki hayotiy noxush hodisalar juda qisqa muddatda minglab kishilarning yostig'ini quritishi, qurbanlar keltirishi mumkin.

Tibbiyot xizmati xodimlarining har qanday sharoitda ham zararlangan aholiga o'z vaqtida imkon darajasida yetarli tibbiy

yordam ko'rsatishlari talab etiladi. Fuqarolar muhofazasining tibbiy yordam ko'rsatish tizimining asoslari hisoblangan tibbiy saralashni har bir tibbiy mutaxassis bilishi, uni aniq bajara olishi muhimdir.

Tibbiy saralash deb jarohatlangan bemorlarning jarohatlarini davolash-evakuatsiyalashga muhtojligiga qarab guruhlarga ajratilishiga aytildi. Ya'ni jarohatlanishlar yoki xastaliklar patologik kelib chiqishi, organizmdagi siljishlari hamda ularni kuzatish, tibbiy yordam ko'rsatish davolash-evakuatsiyalashda bir xil dori-darmonlarga, profilaktik vazifalarning bir xil bajarilishi talab etilgan guruhlarni aniqlash tushuniladi. Bunday guruhlarni aniqlab, alohida guruhlarga ajratish avvalambor, tibbiy ko'rsatkichlarga qarab bajariladi. Tibbiy yordam ko'rsatkichlari davolash ishlarining bajarilishiga qarab aniqlanadi. Tibbiy saralash barcha bosqichlarda bajariladi. Tibbiy saralash natijasida tibbiy evakuatsiyalash bosqichida quyidagi guruhlar aniqlanishi kerak:

- atrofdagi odamlarga xavfli jarohatlangan bemorlar (yuqumli kasalliklar);
- radioaktiv moddalar bilan xavfli dozada zararlangan, turgan zaharlar bilan zaharlanganlar, bakteriologik zararlanganlar va atrofdagi kishilar uchun xavfli ruhiy xastaliklar;
- ayni shu bosqichda tibbiy yordam ko'rsatilishiga muhtoj bo'lgan jarohatlanish va kasalliklar;
- ushbu bosqichda tibbiy yordam ko'rsatilmasa ham mumkin bo'lgan jarohatlanganlar va kasalliklar;
- ushbu tibbiy yordam ko'rsatish bosqichida to'la davolanib, tuzalgunga qadar evakuatsiya etilmaydilar;
- transportirovka qilish mumkin bo'limganlar vaqtinchalik yotqizib davolanishi kerak bo'lgan jarohatlanganlar va bemorlar;
- keyingi bosqichga evakuatsiya etilishi kerak bo'lgan jarohatlanganlar va kasallar;
- bu guruh o'z navbatida qayerga, qaysi transport yordamida, qachon jo'natilishi kabi guruhlarga saralashishlari zarur.

Tibbiy saralashning ikki turi qo'llaniladi:

- a) ushbu bosqich punkt ichidagi saraflash; b) evakotransport saraflashlari.

Tibbiy saralash o'tkazilganda asosan saralash belgilari qo'yilgan moslamalardan foydalaniladi. Bu moslamalar odatda rangli yoki har xil shaklda tayyorlanadi.

Tibbiy saralash asosan tibbiy yordam ko'rsatish uchun tashkil qilingan bosqichning qabul qilish va saralash bo'limlarda yoki vaqtinchalik tashkil qilingan tibbiy taqsimlash punktlarida bajariladi. Tibbiy saralash uchun saralash brigadaları – vrach, 2 ta hamshira va 3-4 ta sanitär drujinachilar tarkibida joriy etiladi.

Tibbiy saralashning ushbu ikki turining har qaysisi o'zining maqsadi, vazifalari bilan muhim ahamiyatga ega. Masalan, har bir bosqichda keltirilgan jarohatlanganlarga yoki bemorlarga, avvalo, davolash-profilaktika muassasasining kirish yerida qabul qilish va saralash bo'limida sanitär drujinachi dozimetrist tomonidan saralanadi. Transport vositasini, jarohatlanganlarni dozimetrik asbob – DP-5 A, DP-5 V, DP-5 B, hamda kimyoiy tekshiruv asbobi PXRMV, VPXRlar yordamida radioaktiv moddalar yoki zaharli moddalar bilan ifloslik darajasi o'lchanadi, natijada barcha kelgan jarohatlanganlar va kasallar ikki guruhga ajratiladi:

1. Atrofdagilar uchun xavflilari, ular maxsus tozalash joylariga jo'natiladilar va ularga sanitär tozalash degazatsiya, dezaktivatsiya hamda dezinfeksiyalash o'tkazilgandan so'ng saralash xonalariga yoki maydonlariga tibbiy saralash uchun yuboriladilar:

2. Bu guruh atrofdagilar uchun xavfli bo'lmagan jarohatlanganlar va bemorlar, ular to'g'ridan-to'g'ri saralash joylariga jo'natiladilar.

Birinchi guruh tarkibida yuqumli xastalik belgilari bo'lganlar ham maxsus izolatorlarga yuboriladilar, ularni shu joyning o'zida maxsus tozalash, tibbiy yordam ko'rsatish ishlari bajarilib, yuqumli kasalliklar kasalxonasiga evakuatsiya etishga tayyorlaydilar. Saralash maydoni yoki xonalarida odatda 2 ta saralash brigadaları ishlaydi. Ammo ko'plab jarohatlangan kelganda tibbiy saralashni tezroq o'tkazish hamda jarohatlanganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida saralash brigadalar sonini ko'paytirish mumkin. Tibbiy saralash joylari odatda 3 bo'limga bo'linishi maqsadga muvofiq deb topilgan:

1. Yengil jarohatlanganlar yoki o'zлari yura oluvchi, o'zлariga-o'zлari yordam ko'rsatish qobiliyatiga ega jarohatlanganlar uchun.

2. O'rta og'irlikdagi jarohatlanganlar uchun bu yerda sanitар narvonchalar, tibbiy dori-darmonlar, hattoki bog'lagich matolar bo'lishi ta'minlanadi.

3. Og'ir jarohatlanganlar uchun ajratilgan joy. Bu yerda shoshilinch saralash o'tkazilishi, kerak bo'lsa, hayotini saqlab qolish uchun tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan tibbiy ta'minot bo'lishi kerak.

Saralash maydonida barcha jarohatlanganlar ikki guruhga saralanadilar, ya'ni ayni shu bosqichda tibbiy yordam ko'rsatilishi shart bo'lган jarohatlanganlar guruhi va keyingi bosqichga evakuatsiya etilishi zarur bo'lган jarohatlanganlar guruhi.

Ayrim vaziyatlarda 3-chi, ya'ni sog'lomlar guruhi, ular tibbiy yordamlar olib, keyin davolash ishlariga muhtoj bo'lмаган guruhlar, bular favqulodda vaziyat shtabi ko'rsatmasiga asosan qutqarish ishlariga, favqulodda vaziyat o'chog'i oqibatlarini yo'qotish ishlariga jalb qilinishlari mumkin.

Tibbiy saralashda ayni bosqichda qoldirilganlarni punkt ichi saralashidan o'tkaziladilar, bunda kimni qaysi bo'limga, qaysi navbatda, qay holatda jo'natilishi aniqlanadi hamda saralash belgilari yordamida belgilangan talablar bajariladi. Xuddi shu tarzda evakuatsiyalash yo'naliшiga jo'natiladigan jarohatlanganlar evakuatsiya bo'limiga vaqtinchalik transport vositalarini kutish uchun yoki evakuatsiya navbati kelguncha joylashtiriladilar. Shuni ham qayd qilish kerakki, evakuatsiya uchun ajratilgan guruhlar orasida ham navbatlar aniqlanishi shart: bunda kimni qachon, qaysi navbatda, qaysi kasalxonaga, qanaqa transportda jo'natilishi evakuatsiyalash xaritasida ko'rsatilishi zarur.

Ushbu tartibdagи tibbiy saralash BTY Oda, SEG, BK, BB da o'tkaziladi. Ixtisoslashtirilgan kasalxonalarda esa, faqat punkt ichida tibbiy saralash o'tkaziladi, chunki bu yerda jarohatlanganlar va bemorlar tamoman tuzalib ketguniga qadar davolanadilar va boshqa kasalxonalarga ko'chirilmaydilar.

## **Tibbiy evakuatsiyalashning tashkiliy masalalari, vazifalari, turlari**

Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish tiziminining muhim bo'lgan vazifalari orasida tibbiy evakuatsiyalash alohida muhim ahamiyatga ega.

Tibbiy evakuatsiyalash deb sanitar yo'qotishlar o'chog'idan birinchi **tibbiy yordam** otryadlarigacha va kasalxonalar bazalarining davolash-profilaktika muassasalarigacha yetkazilishi tushuniladi.

Tibbiy evakuatsiyalashning maqsadi: jarohatlanganlar va kasallarni imkoniyati boricha tezroq davolash-profilaktika bosqichlariga yetkazish, chunki tez davolash bosqichiga yetkazilsa, shuncha davolash natijalari yuqori bo'ladi. Evakuatsiyalash jarayoni davolash profilaktika ishlari bilan barobar olib borilishi shart, chunki tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy tarkibi bo'lmish davolash va evakuatsiyalash bir maqsad yo'nalishida jarohatlanganlarni tezroq sog'lomlashtirishga qaratilgan. **V.A.Oppel** – dunyoda tanilgan harbiy jarroh, y etapli davolashni shunday ta'riflaydi:

«Davolash va evakuatsiya bir-birini to'ldirib boruvchi yotqizish – davolash, ko'chirish davomida davolashni davom ettirish, umumiyl davolash ishlarining bosqichlari bir-biridan ajralmas davri deb qabul qilinishi kerak».

Tibbiy evakuatsiyalash umumiy davolash jarayoni bo'lib, u o'zida jarohatlanganlar va kasallarni transportirovkalash, tibbiy davolash, profilaktika bosqichlarida hamda davolash-evakuatsiyalash yo'lida tashkil etilgan tibbiyot muassasalarida ko'rsatiladigan davolash ishlarini, tibbiy saralashni mujassamlashtiradi. Tibbiy evakuatsiyalash favqulodda vaziyatlarda noiloj majbur bo'lgan hol, chunki davolash ishlarini uzoq masofa bosmasdan o'tkazilsa, uning oqibati ijobjiy bo'ladi, ammo tabiiy ofatlarda vayron bo'lgan shaharning davolash-profilaktika muassasalari ham shikastlanadi. Masalan: Xirosima va Nagasaki shaharlarida (Yaponiya) atom portlashi oqibatida tibbiy yordam ko'rsatish imkonini saqlagan atigi 20% kasalxonalar butun qolgan xolos. Shuning uchun favqulodda vaziyatlar holatlarida mavjud bo'lgan kasalxonalarga tayanib,

ularni davolash-profilaktika ishlarini to'la bajaradi deb bo'lmaydi. Tibbiy evakuatsiyalashni albatta bajarilishi shart bo'lgan qutqarish, davolash jarayoni deb tushunishimiz kerak. Jarohatlanganlarni olib chiqish, tibbiy saralash, transport vositalarida ularni keyingi tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlarigacha olib borish, bosib o'tilgan yo'lni tibbiy evakuatsiya yo'li deb yuritiladi. Bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan evakuatsiyalash yo'llarining yig'indisini hamda sanitar transport vositalarining bunda bosib o'tgan yoki o'tishi zarur bo'lgan masofalar yig'indisini evakuatsiyalash yo'nalishi deb yuritiladi.

Sanitar yo'qotishlar o'chog'ida jarohatlangan, zaharlangan va kasallarga nisbatan tibbiy evakuatsiya o'z ichida quyidagi vazifalarni mujassamlashtiradi:

- tibbiy saralash;
- jarohatlanganlarni evakuatsiyaga tayyorlash;
- jarohatlanganlarni transport vositalariga yuklash tartibini joriy qilish va tashkil qilish;
- evakuatsiyalovchi hujjatlarni rasmiylashtirish;
- jarohatlanganlarga evakuatsiyalash jarayonida tibbiy ta'minotni joriy qilish;
- maqsadli evakuatsiyani barcha bosqichlari ustida nazorat olib borish:

Hozirgi paytda jarohatlanganlar va bemorlarni evakuatsiya qilish uchun bir qancha transportlar turidan foydalaniladi. Evakuatsiyalash, ayniqsa, sanitar yo'qotishlar o'chog'idan olib chiqish jarayoni birmuncha og'ir va murakkab hisoblanadi. Chunki vayronagarchiliklarda eng avval jarohatlanganlarni izlab topish, ularni qutqarish jarayoni murakkab texnik vositalarni, izlagichlarni talab qiladi. Hozirgacha sodir bo'lgan tabiiy ofatlar bunga misol bo'la oladi. Masalan: Armanistonning yer qimirlashida jarohatlanganlarni izlab topish, ularni uylar ostidan olib chiqish bir necha kunlar davomida cho'zilgan. Bunda eng zamонави iskagich va qutqaruv texnik vositalari ham ojizlik qildi. Dushanbeda tog' siljishi va loyqa qum ostida qolgan butun qishloqni qutqarishning iloji bo'lmasdi, chunki 50 metr qalinlikdagi loyqa massa butun bir qishloqni bosgan edi. Bunda aholining birortasi ham tirik

qolgan emas. Shu sababli tabiiy ofat o'chog'ini butunligicha mozorisiton deb ataldi.

Sanitar yo'qotishlar o'chog'ida jarohatlanganlarni tom bosgan joydan, yong'inlardan, botib qolish holatlardan izlab topish, qutqarish, kerak bo'lsa shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini sanitar zvenolar, qutqaruvchilar guruhi, shoshilinch tashkil qilingan qutqaruvchi brigadalar bajaradilar. Bular bilan bir vaqtning o'zida sanitar drujinachilar otryadlari ham birinchi tibbiy yordam ko'rsatadilar. Jarohatlanganlarni 200 metrgacha yakka yoki guruh tarkibida olib chiqiladi. 200 metrdan ochiqroq masofada esa estafeta uslubi qo'llanishi kerak. Buning mazmuni shundaki, har 200 metr masofada sanitar tashuvchi zvenolar tashkil qilinishi talab etiladi.

Shunday qilib, jarohatlanganlarni evakuatsiya etuvchi transportlarga yuklash joylari hamda jarohatlangan yer orasidagi masofaning har 200 metri bosqichma-bosqich sanitar tashuvchilar bilan ta'minlanishi kerak. Bunda har bir sanitar tashuvchi zveno jarohatlanganlarni kelgusi bosqichdagi sanitar zvenogacha olib borib, ularga topshirib, bo'sh sanitar narvonchani olib, o'z tashish doirasiga qaytishi kerak. Jarohatlanganlarni tashishda sanitar narvonchadan boshqasiga o'tqazilmaydi, o'sha sanitar narvonchadan to davolash yotqizish bosqichigacha olib boriladi, narvonchalar esa, bosqichma – bosqich boshqa bo'shi bilan almashinib boraveradi. Xuddi shu tartibda BTY Ogacha olib borish, ularga topshirib, bo'sh sanitar narvonchani olib, o'z tashish doirasiga qaytishi kerak. BTYO va butun qolgan shahardagi kasalxonalarda birinchi vrachlik yordami ko'rsatilgandan so'ng, jarohatlanganlarni keyingi bosqich shahardan tashqarida tashkil etilgan KK-kasalxona kollektorigacha evakuatsiyalashda fuqarolar muhofazasi shtabining kuchi va vositalardan foydalilanildi. Buning uchun transportirovka ehtiyoji belgilanib, shtab boshlig'iiga talabnomalar beriladi. Ayrim hollarda evakuatsiyalash temir yo'li, SUV transporti yoki samolyotlarda uzoq masofalarga ham ko'chirishga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday hollarda temir yo'l vokzalida, aeroportda yoki SUV portlari yaqinida evakopriyomniklar – EP tashkil qilinishi kerak. EPlar ham evakuatsiyalash

bosqichi hisoblanib, ular jarohatlanishlar hajm masshtabiga qarab 1000–5000 o‘ringacha mo‘jallanib tashkil qilinadilar. Evakopriyomniklar kasalxonalar hisobidan kasalxona kollektori yoki saralash, evakuatsiyalash kasalxonalar tartibida tashkil etiladilar, ularning tarkibida qabul qilish va saralash bo‘limi, jarrohlik va bog‘lagich, 1- va 2- jarrohlik-terapevtik bo‘limlari hamda evakuatsiyalash bo‘limlari tashkil etilishi kerak.

Evakopriyomniklarning vazifalari jarohatlanganlar va kasallarni BTYOlardan qabul qilish, tibbiy ro‘yxatga olish, tibbiy saralash, zarur bo‘lganda malakali tibbiy yordam ko‘rsatish, vaqtinchalik evakuatsiyaga tayyorlash uchun yotqizish, davolash hamda evakuatsiyaga tayyorlash. Ular evakuatsiya etiluvchi transport vositalari – avtobuslar, vagonlar, sanitar aviatsiya samolyotlari va hokazolarga yuklash, joylashtirish, evakuatsiya jarayonida davolash ishlarini davom ettiradilar. Jarohatlanganlarni uncha uzoq bo‘lmagan masofalarda joylashgan kasalxona kollektoriga esa aksariyat avtotransport yordamida evakuatsiya etiladi.

Favqulodda hodisa paytida ko‘plab jarohatlanganlarning bo‘lishi hamda evakuatsiyalash joylarida yuzlab, hatto minglab kishilarning kelishini uzoq muddatda kutib qolmasliklarini nazarga olib, fuqarolar muhofazasining shtabi tomonidan transport vositalarini evakuatsiyalashga jalb qilish, ayrim holatlarda avtobuslar, yuk tashuvchi transportlarni moslashtirib, barcha turdagи avtotransportlarni jalb qilish kerak. Sanitar transportlarini esa asosan jarohatlanish o‘chog‘ida va kasalxonalar orasiga ko‘chirish, tashish ishlariga rejalshtirishlari lozim. Jarohatlanganlarni BTYOdan shahar tashqarisiga KK – kasalxonalar kollektori, kasalxonalar bazalariga ko‘chirishga jalb qilingan avtotransportlar, avtosaflar otryadlariga taqsimlanib ishlatiladilar. Har bir aftosaflar otryadi bir yo‘la (reys) 600–1000 jarohatlangarlarni tashish quvvatiga ega bo‘lishi kerak va jarohatlanish o‘chog‘idan to ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish bosqichlarigacha ajratiladi. Birinchi bosqich BTYO va VTT (vaqtinchalik tibbiy taqsimlash) guruhlarigacha, ikkinchi bosqich BTYOdan SEG (saralash evakuatsiyalash gospitali) kasalxonasi gacha va uchinchi bosqich KB va KK

(kasalxona bazasi va kasalxona kollektori)gacha, chunki birinchi, ikkinchi bosqichda barcha jarohatlanganlar bir yo'nalishda evako transport orqali evakuatsiyalanish yo'nalishi bo'yicha borsa, uchinchchi bosqichda maqsadli evakuatsiya etiladi. Evakuatsiyalanish yo'nalishi bo'yicha maqsadli evakuatsiyada evakuatsiyalash bo'limi, santransportiga ortish joylari, SD BTYOgacha evakuatsiyalash sanitar avtotransporti, BTYO-BYO – birinchi tibbiy yordam otryadi, evakuatsiya yo'nalishi, saralash evakuatsiyalash, KK-kasalxona kollektorlari tarmoqlari, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar, TT – toksik terapevtik, AG-akusher ginekologik, TG-terapevtik gospitallar, PN-psixonevrologik kasalxona, YKG-yuqumli kasalliklar gospitali, OXYK – o'ta xavfli yuqumli kasalliklar gospitali. TTG – tibbiy taqsimot guruhi, evakuatsiyalanish tashkil etilishi BTYODan boshlab avtomobil transportida, sanitar narvonchalarda jarohatlanishlarning turiga qarab evakuatsiya etilishini joriy qilish, keyingi bosqichda ularni qabul qilish, tibbiy yordam ko'rsatish ishlari bajarilishini yengillatadi. Ayniqsa, maqsadli evakuatsiyalash jarayonida qulaylik yaratadi. Maqsadli evakuatsiyalashda sanitar transporti yoki shu ishga jalb etilgan transport haydovchilariga yo'nalish marshruti xaritasi beriladi, ular tibbiy taqsimlash postlarida kasalxona kollektorining ixtisoslashtirilgan kasalxonalariga yo'llaydilar. TTG – tibbiy taqsimlash guruhlari birinchi va ikkinchi bosqichlar oralig'ida qo'yilishi shart, chunki yoppasiga jarohatlanish yuzlab transport vositalarini qaysi yo'nalishda yuborish murakkablashadi. Bunda kasalxona kollektori tarkibidagi ixtisoslashgan kasalxonalarini jarohatlanganlar bilan to'ldirish darajasi, ko'rsatkichi haqidagi ma'lumotlar bosh mutaxassisiga hamda tibbiy taqsimlash guruhiga uzliksiz yetkazib turilishi shart.

TTG – tibbiy taqsimot guruhining vazifalari:

- evakuatsiya etiluvchi yo'nalishdagi transportlarni jarohatlanganlar bilan kasalxona kollektorining ixtisoslashgan kasalxonalariga to'g'ri taqsimlab yo'naltirish;
- evakuatsiyalash jarayonida yo'lda og'irlashib qolgan va shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj bo'lganlarni SEG – saralash evakuatsiya gospitaliga yoki bosh kasalxonalarga yuborish;

- ayrim kasalxonalarda tartibsiz ko‘plab jarohatlanganlar yig‘ilib qolishini oldini olish;

- kasalxona kollektorini jarohatlanganlar bilan to‘ldirish darajasi haqidagi ma’lumot bilan bosh mutaxassislarni hamda SEG va BB larni ogohlantirib turish kabilar kiradi.

Tibbiy taqsimlash guruhi evakuatsiyalanish yo‘lida maqsadli taqsimlashni o‘tkazadi.

Evakuatsiyalash to‘g‘ridan – to‘g‘ri evakuatsiya varag‘iga yoziladi. SEG va KB larda evakuatsiyalash yo‘nalishini, kasalxonalarini kasallar bilan to‘ldirishni e’tiborga olib, evakuatsiya yo‘nalishini o‘zgartirilishi mumkin. Buning uchun TTGning boshlig‘i transport haydovchilarining yo‘l varag‘iga belgilab berishi zarur. Bunda kasalxonalar manzili, masofa va yo‘nalishi aniq ko‘rsatilishi kerak.

TTG – tibbiy taqsimlash guruhidan o‘tgan sanitар transportlari hisobidan evakyatsiya olib borilishi kerak. Har bir kasalxonani jarohatlanganlar bilan to‘ldirilishi haqidagi ma’lumot bilan kasalxona bazasi boshliqlarini doimiy ta’minlab borish shart.

TTGning bergen ma’lumotlariga asosan kasalxona bazasining boshlig‘i jarohatlanganlarni evakuatsiyalash, kasalxonalarga yotqizish, davolash, tez tibbiy yordamni maqsadli ixtisoslashtirishni boshqarib boradi. Boshqacha qilib aytganda TTG – operativ ma’lumot markazi hisoblanadi.

## **VI BOB**

### **FUQAROLAR MUHOFAZASI TIBBIY XIZMATI BO'LIMLARINING BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISHNI JAROHATLANISH O'CHOG'IDA TASHKIL ETISH TARTIBI**

Jarohatlanish o'choqlarida tibbiy yordamni o'z vaqtida va to'g'ri tashkil etish uchun avvalambor, tibbiy holatini tahlil etmoq zarur. Tibbiy holatni baholashda sanitar yo'qotishlarning turi, soni, jarohat olganlarning qayerdaligi, qaysi yo'l bilan ularni evakuatsiya etishni, buning uchun qancha kuch va vositalar talab qilinishi aniqlanadi. Sanitar yo'qotishlarning turi, soni aniqlangandan so'ng fuqarolar muxofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limining boshlig'i qutqaruvchilar guruhida yuborilishi kerak bo'lgan tibbiy bo'limlar – SD, SDOning soni, transport vositalari hamda birinchi tibbiy yordam otryadlarining sonlarini aniqlashi shart. Bunda har bir bo'limlarning tibbiy yordam ko'rsata olish imkoniyatlaridan kelib chiqib, favqulodda vaziyat o'choqlariga yetarlicha tibbiy bo'limlar, ularga tibbiy asbob-anjomlar, dori-darmonlar, sanitar xo'jalik anjomlari va maxsus transportlar ajratilishi zarur.

Barcha tashkiliy hisoblashlar jarojatlanish o'chog'ining turiga, sanitar yo'qotishlarning tartibiga qarab davolash-evakuatsiyalash jarayonlarini to'liq bajarish maqsadida qilinadi. Jarohatlanish o'choqlarida tibbiy yordam ko'rsatish tartiblari va birinchi vrachlik ko'rsatish turlari aniqlanadi.

Favqulodda hodisada birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun ajratilgan bo'linmalar ko'pincha qutqaruvchilar otryadlari tartibida ishlaydilar. Aholining tibbiy himoyasiga qaratilgan, jarohatlanishlarni oldini olish, salomatligini himoya etish, jarohatlanganlarni sog'aytirib, ularning mehnat qobiliyatini tiklash kabi vazifalar mazmunini tibbiy ta'minlanish deb hisoblanadi. Ushbu vazifalar qo'qqisdan

YQQ – yoppasiga qiruvchi qurollar qo'llanganda yoki tibbiy ofatlar natijasida sodir bo'lgan favqulodda hodisalarda tibbiy ta'minot ishlari bajariladi.

Tibbiy yordam ko'rsatish tizimida birinchi tibbiy yordam alohida ahamiyatga ega, chunki tibbiy yordamni tibbiyot mutaxassislarigina emas, balki hamma bir-biriga, o'z-o'ziga ko'rsata olishi shart. Birinchi tibbiy yordamni qanchalik tez va aniq bajarilishi jarohatlanganlar hayotini saqlab, jarohatlar oqibatini belgilaydi.

Birinchi tibbiy yordamning asosiy vazifalari:

- jarohatlanganlar hayotini saqlab qolish;
- jarohatlar asoratlarini oldini olish;
- jarohatlanganlarni tezroq tuzalishini ta'minlash.

Birinchi tibbiy yordamning samaradorligi avvalambor, tibbiy yordam ko'rsatishning muddatiga va tibbiy yordam ko'rsatuvchining bajarish qobiliyatiga bog'liq. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida maxsus tibbiy anjomlardan foydalaniladi. Ularning soni, miqdori, turlari sodir bo'lgan o'choqning turiga bog'liq bo'ladi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun maxsus tibbiy asboblar, dori-darmonlar, boylama matolar, qon ketishini to'xtatuvchi elastik tasma (jgut), suyaklar singanda yumshoq to'qimalar, lat yeganda ularni qimirlamaydigan qilib qo'yish uchun shinalar jarohatlanganlarga qarash uchun zarur anjomlar, tibbiy, texnik vositalar, o'z-o'ziga yordam jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha vositalar tibbiy-texnik zavod va fabrikalarda chiqarilishi mumkin bo'lganlarga tabelli tibbiy anjomlar deb yuritiladi.

Qo'lga duch kelishi mumkin bo'lgan anjomlarga bir necha dori-darmonlar, kiyimlar, bog'lagich matolari, tasmalar, ro'mollar, har xil taxtalar bo'laklari va hokazolarni tabeldan tashqari qo'l ostidagi anjomlar deb yuritiladi.

Qutqaruv ishlari barcha xizmatlarning hamjihatligida o'tkaziladi, bunda jarohatlanganlar hayotini saqlab qolish eng asosiy vazifa hisoblanadi, ko'rsatiladigan yordam qancha tez, qisqa vaqtda o'tkazilishi ko'pincha jarohatlanganlarning hayotini saqlab qolishi mumkin.

Yadroviy o'choqqa yoki yer qimirlash o'chog'iga sanitarni drujinachilar qutqaruvchi guruhlar bilan bir paytda birgalikda

kiritiladilar. Sanitar yo'qotishlar o'chog'ida har bir SDlarga alohida-alohida vazifalar yuklatiladi. SDning har bir a'zosiga sodir bo'lgan vaziyat aniq va to'liq tushuntirilishi kerak, ayniqsa, vayrona bo'lgan obyektning holati, yong'inlarning joylashish, sabablari. Radioaktiv zararlangan yer darajasi kabi ma'lumotlarni sanitar drujinachilari bilishlari shart. Bundan tashqari sanitarlar jarohatlanganlarni qayerga toplash, transport vositalariga ortish joylarini aniq bilishlari zarur. Jarohatlar o'chog'ida, eng avvalo, yong'in joyi, suv bosgan joylar, yiqilgan imoratlarda tibbiy yordam, izlash, qutqarish ishlari boshlanishi kerak. Keyinchalik butun qolgan imoratlar, qo'riqxonalar, pistirmalarda qolgan aholiga qutqaruvchilar bilan hamjihatlikda tibbiy yordam ko'rsatiladi.

O'quv mashqlarida o'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, bir guruh SD bir soatda 50–60ta jarohatlanganlarga bиринчи тиббиy yordam ko'rsata oladi. Ular sanitар xaltalar bilan ta'min etiladilar. Sanitar xaltalarda 15-20 ta jarohat olган kishilarga bиринчи тиббиy xizmat ko'rsatishga yarasha dori-darmonlar tibbiyot anjomlari bor. Bir SD tarkibida 24 dona sanitар sumkasi mavjud, shundan kelib chiqib  $24 \times 20 = 840$ -1000, ya'ni 800-1000 jarohatlanganlarga bitta SD guruhi bиринчи тиббиy yordam ko'rsatishi mumkin.

Sanitar postlari, sanitar drujinachilari va sanitar drujinachilar otryadlari SP, SD, SDO – birinchi tibbiy yordam ko‘rsatib, ayni paytda jarohatlanganlarni olib chiqish, ularni transport vositalariga yuklash va evakuatsiyalash ishlarini ham bajaradilar. Birinchi tibbiy yordam jarayonida yengil jarohatlanganlar transport vositasiga chiqish joylariga o‘zлari borishlari mumkin. O‘rta va og‘ir jarohatlanganlar sanitar narvonchalarida sanitar yoki qutqaruvchilar guruhidan tuzilgan sanitar zvenolar yordamida transportga chiqarish yerigacha olib boriladilar. Ularning mashqlarida aniqlangan holatlar shuni ko‘rsatadiki, bir sanitar narvoncha zvenosi ikki kishidan iborat bo‘lib 1 soat mobaynida ikkita shikastlangan yoki jarohatlangan kishini 200-300 metr masofaga olib chiqishi mumkin. Shuning uchun sanitar zvenolar soni hisoblanganda ushbu ko‘rsatkich asos qilib olingan. Agar vaziyat jarohatlanganlarni uzoqroq yerga olib

chiqilishini taqozo qilsa, unda estafeta poygasi uslubi qo'llaniladi, ya'ni bir zveno 150–200 metr masofagacha olib chiqib, keyingi zvenoga topshiradi. Yadroviy o'choqda sanitar drujinachilar ning ishlash tartibi shaxsiy himoyalanishga qaratilishi zarur. Ayniqsa, birinchi tibbiy yordam ko'rsatilgandan so'ng shaxsiy himoya vositalari kiyimini qattiq nazoratga olmoq kerak.

SDning rahbari (qo'mondoni) tibbiy yordam ko'rsatish va evakuatsiyalash jarayonida doimo qancha kishiga tibbiy yordam ko'rsatilganligi, shulardan qanchasi BTYOga qadar evakuatsiya qilinganligini, yana qancha jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatilishi ehtiyojini, evakuatsiyalash zarur bo'lgan miqdorini aniq ma'lumotlar asosida bilishi shart. Bu ma'lumotlarni SD qo'mondoni sanzvenolar boshlig'idan oladi va zarurat tug'ilganda SPlar SDlarning ishlash joylarini o'zgartira oladi. Har bir sanitar zvenoga 2-3 sanitar narvonchalarni tashuvchi zvenolar biriktiriladi. Sanitar zvenolarning qutqaruvchilar guruhi bilan hamjihatlikda ishslashlari sanitar yo'qotish o'choqlarida qutqarish ishlari samaradorligini oshiradi.

Shuning uchun ham favqulodda vaziyatlarda fuqarolar muhofazasining barcha tuzilmalari yagona rahbarlikda, yagona reja asosida faoliyat yuritishi tavsiya etiladi.

Sanitar drujinachilar, SD qo'mondonlari bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan tibbiy yordamning hajmi, jarohatlanganlarning yutingan radioaktiv dozalarini evakuatsiyalanish jarayonlarida fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'iga yetkazib turishi shart. SD guruhining almashtirilishi sanitar drujinachilarning qo'mondoni tomonidan amalga oshiriladi. Sanitar drujinachilar qutqarish, tibbiy yordam va evakuatsiyalash ishlarini tugatgandan so'ng, vaziyatga qarab to'liq yoki qisman sanitar yuvishlarga o'tishlari zarur. Ularning ustki kiyim-boshlari, oyoq kiyimlari dezaktivatsiyalanishi shart. Sanitarlar tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida birlamchi nurlanish darajasi ruxsat etish mumkin bo'lgan ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, ular keyinchalik nurlanish maydoni bo'Imagan joylarda ishlatiladi.

SD – sanitar drujinachilarning kimyoviy o‘choqda ishlash tartiblari yuqoridagidan birmuncha farq qiladi. U asosan qo‘llanilgan zaharli moddalarning turiga qarab belgilanadi. Kimyoviy o‘choqqa kirishdan oldin SDchilarga qanday zaharli moddalar qo‘llanilganligi, qanaqa o‘tkir zaharlovchi o‘choq hosil bo‘lganligi, uning maydoni, chegarasi, zaharga qarshi qanaqa ziddi-zaharni qo‘llash zarurligi hamda zaharlanganlarni qayerga olib chiqish, evakuatsiyalash tartiblari sanitar drujinachilarga ma’lum qilinmog‘i shart. Sanitarlar kimyoviy o‘choqda shaxsiy himoyalish vositalari, ya’ni teri himoya vositasi, nafas olish yo‘llari himoya vositalari, zaharlanganlarga shaxsiy aptechkalardan ziddi-zaharlar qo‘llaniladi. Kimyoga qarshi individual paketlar (ipp) yordamida (ipp-8, ipp-9, ipp-10) terining ochiq joylariga tushgan zaharlovchi moddalarni degazatsiya qilish va terining ochiq joyiga tegib turadigan (bo‘yin, yuz, qo‘llar) kiyim-kechak yengi, yoqasi hamda himoya vositalar, gazqoplarining yuz qismini degazatsiya qilish shart. Sanitar drujinachilar himoya o‘chog‘ida shaxsiy himoya kiyimlari va gazqoplarida ishlaydilar. Zaharlangan, jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatishda ziddi-zaharlarni o‘zлari qabul qiladilar va zaharlanganlarga ham qo‘llaydilar. Tibbiy yordam ko‘rsatib, ularni o‘choqdan tez shoshilinch olib chiqish uchun barcha tezkor chora-tadbirlarni qo‘llaydilar.

### **Jarohatlanish o‘choqlarida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi**

Jarohatlanish o‘choqlarida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartiblari quyidagicha:

- yadroviy o‘choqda birinchi tibbiy yordam majmuasi;
- tashqi ochiq qon ketishlarni to‘xtatish;
- aseptik boylamlarni bajarish;
- ochiq pnevmatorans holatida oklyuzion bog‘lagichni qo‘yish;
- singan, lat yegan qo‘l-oyoqlarga immobilizatsiyalovchi shinalarni bog‘lash, ularni harakatsizlantirish;
- shokka qarshi oddiy muhim chora-tadbirlarni qo‘llash. Shokka sabab bo‘lgan omillarni bartaraf etish yo‘li bilan yordamlashish;



**6-rasm.** Okklyuzion bog'lam  
qo'yish  
gazqopini kiydirish yoki yirtilgan, buzilgan gazqopini  
almashtirish;

- sun'iy nafas berishni bajarish;
- yurakni ko'krak qafasi ustidan yopiq massaj qilish;
- radiatsion zararlanishni oldini olish.

Kimyoviy zaharli moddalar bilan zararlangan aholiga birinchi tibbiy yordam tarkibi quyidagicha;

- zararlangan kishiga



**7-rasm.** Tokka qarshi davolash.  
Kislorod berish



**8-rasm.** Ximiyaviy kuyish

- ziddi-zaharni shoshilinch qo'llash;
- shaxsiy kimyoga qarshi idishdagи suyuqlik yordamida qisman sanitar yuvishlarni degazatsiyalash ishlarini qo'llash;
- o'pka-nafas himoya vositalarini yechmasdan sun'iy nafas berish;
- zararlanganlarni o'choqdan shoshilinch ravishda evakuatsiya qilish.



**9-rasm.**  
Sun'iy nafas berish

Biologik o'choqda tibbiy yordam ko'rsatish tartibi:

- aholi orasida shohilinch termometriya o'tkazish;

- aholi yashash joyida doimiy epidemiologik so‘rovlar, sog‘lig‘i haqida ma’lumotlar olib borish;
- har bir xonadon a’zolarining harorat ko‘rsatkichlarini uyning eshidiga nazorat uchun ilib qo‘yish;
- yashovchilarnig barchasi tomonidan shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish;
- shoshilinch profilaktik antibiotiklarni qabul qilish va uni barcha yashovchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;
- uchastka vrachiga aniqlangan bemorlar haqida ma’lumot berish;
- karantin va abservatsiya qoidalariga qat’iy rioya qilishni joriy etish.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda barcha tibbiy ko‘rgazmalarни qabul qilish tartibiga rioya etish, qisqa muddat mobaynida bajarilishi shart bo‘lgan vazifalarni aniq bajarilishi muhim o‘rinni egallaydi.



**10-rasm.** Nafas yo‘llarini ochish

*Favqulodda hodisalar o‘chog‘ida birinchi vrachlik yordamining tashkiliy tuzilishi.* Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan sanitar yo‘qotishlar o‘chog‘ida birinchi vrachlik yordamini tashkil qilish maqsadida shahar, viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limlari tomonidan birinchi tibbiy yordam berish otryadlari yuboriladilar. Buning uchun sog‘liqni saqlash tizimi ixtiyoridagi davolash-profilaktika muassasalari tarkibida tashkil etilgan birinchi tibbiy yordam ko‘rsatuvchi otryadlar jangovar holatga bosh hakim tomonidan keltiriladi. Bosh hakim (shahar, yoki

kasalxona bosh hakimi) birinchi tibbiy yordam otryadi (BTYO) boshlig‘iga aniq vazifalar qo‘yadi. Tayyorgarlik vaqt, tabel anjomlari bilan ta’milnanish avtotransport, chiqish vaqt, harakat yo‘nalishi hamda fuqaro muhofazasi favqulodda vaziyat shtabi tarkibidagi o‘rni kabi amaliy savollarni aniqlab beradi.

Bu jarayonda BTYO tarkibi mutaxassislar bilan to‘ldiriladi. Tibbiy sanitar xo‘jalik anjomlari bo‘limlarga tarqatiladi. BTYO tarkibiga kiruvchi barcha xodimlarni yoppasiga qiruvchi qurollardan himoyalanish tartiblari bilan tanishtirib, mashq va darslar o‘tkaziladi. Barcha tayyorgarlik ishlari belgilangan vaqt mobaynida to‘la bajarilishini nazorat qilish BTYO boshlig‘i vazifasiga kiradi. Shu tariqa shahar, viloyat sog‘liqni saqlash tizimlari ixtiyorida barcha BTYOlар jangovarlik holatiga keltiriladilar, BTYOlarning favqulodda vaziyatlarda o‘choqda yoki o‘choqdan tashqaridagi ishlari, o‘rni, vaqt, tartibi, fuqarolar muhofazasining shtabi tomonidan belgilanadi. Fuqarolar muhofazasi shtabi ko‘rsatmasiga asosan belgilangan vaqtida BTYO shahardan tashqaridagi joyga chaqiriladi.

Bu yerda BTYOning barcha bo‘limlari xodimlari bilan maxsus tayyorgarlik ishlari yakuniga yetkaziladi. O‘quv mashq ishlari, shaxsiy tartib bilan davom ettirilaveradi. Har bir mutaxassis o‘z vazifasini aniq bajarishi uchun vazifalar aniqlanadi. Ushbu shaylik jarayonida BTYO rahbari maxsus izlovchi guruuhini tuzadi. Izlovchilar tarkibiga 1 ta vrach, 1 ta feldsher, razvedkachi–dozimetrist va shofyor kirishi kerak. BTYO boshlig‘i ushbu razvedka guruuhining vazifasini belgilaydi. Ularning vazifasi tibbiy razvedka o‘tkazish hisoblanadi. Ular favqulodda sodir bo‘lgan yoki bo‘lishi mumkin o‘choqni tibbiy taktik baholashadi.

Bunda o‘choqning turi, doirasi, geografik o‘rni, transport yo‘llari, BTYOning joylashishi, yerning himoyaliligi, suv manbalari va boshqa hayotiy majmualarni aniqlashlari, qisqasi, BTYOni sanitar yo‘qotishlar o‘chog‘ida ishlashishini ta’milovchi omillarni aniqlab, BTYO boshlig‘iga ma’lumot tayyorlashlari talab qilinadi. Favqulodda vaziyatlar turlariga qarab BTYOning ishlash tartibi ham ma’lum farqlar bilan bir-

biridan o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Ma'alan, yadro o'chog'i yoki yer qimirlashi, suv toshqini, yer ko'chishi, avariya va katastrofalar sodir bo'lgan o'choqda fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat bo'limining boshlig'i BTYOning boshlig'iga bajarishi kerak bo'lgan vazifasini belgilaydi. Bunda BTYOning harakat yo'nalishi qachon, qaysi tartibda qayerga jo'nashi aniq ko'rsatiladi. BTYOning o'choqdagi o'rnining to'liq ishlash vaqtin, qaysi yerdan jarohatlanganlarni qabul qilishi va birinchi vrachlik yordami ko'rsatish tartibi, har bir bo'limning o'z yo'nalishi bo'yicha bajaradigan vazifalar majmuasi aniqlanishi kerak.

Fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish tuman, shahar bo'limi boshlig'i BTYOga yaradorlar, jarohatlanganlarni qaysi kasalxonalar kollektori yoki bazasiga evakuatsiya etilishini aniqlab berishlari kerak. BTYOni sanitar yo'qotishlar o'chog'iga berish yo'llari, BTYO bo'limlariga ajratilgan joy, tibbiy yordam tartibi o'choqdagi konkret vaziyatga bog'liq. Ushbu vaziyatni BTYO boshlig'i aniqlashi zarur. Bunda fuqaro muhofazasi shtabining ko'rgazmasiga rioya etmoqlik talab etiladi. BTYOning o'choq tomon ko'chish yo'nalishi (marshruti) da yo'llarning sozligi, sodir bo'lgan vayronagarchilik holatiga qarab, yo'lning atrofi radioaktiv ifoslanganligi, favqulodda vaziyat oqibatida jarohatlangan aholining soni, turi, uning vazminlik darajasi ko'rsatkichlari hamda BTYOni amaliy ishlashi uchun sharoitlarning mavjudligi e'tiborga olinishi kerak.

Har qaysi BTYOning ishslash tartibi fuqaro muhofazasining tuman, shahar bo'limi boshlig'i tomonidan berilgan ko'rsatma asosida konkret vaziyatdan kelib chiqib bajarilishi namunaviy nizom asosida olib borilishi shart.

BTYO ishslash yeriga (o'choqqa) yetib kelishi bilan, eng avvalo, saraflash, evakuatsiyalash bo'limi, sanitar tozalash bo'limi birinchi navbatda ishga tayyorlanishi, jarohatlanganlarni qabul qilishlari kerak, buning uchun ularga 40–60 daqiqa to'la tayyorgarlik vaqtin beriladi.

Ushbu vaqtida jarrohlik, gospital, yordamchi xizmatlar, rentgen, apteka, laboratoriya hamda yordamchi xo'jalik bo'limlari ham o'zlariga belgilangan vazifalardan kelib chiqib,

barcha asbob-uskunalarni, texnik vositalarni ishga shay qilib borishlari kerak. BTYOni sanitar yo'qotish o'chog'idagi yerga (obyektlarga), qismlarga berkitilishi, qutqaruv ishlari, tibbiy yordam ko'rsatib, jarohatlanganlarni izlab topish, olib chiqish BTYOgacha evakuatsiyalash, jarohatlanganlarni vayron bo'lgan joylardan evakuatsiyalashni tashkiliy ravishda o'tkazilishini ta'min etish, BTYOning barcha bo'limlariga imkon doirasida jarohatlanganlarni joylashtirish orqali tibbiy yordamning yuqori mas'ulligini ta'min etadi.

BTYOning ishslash yeri tanlanganda asosan butun qolgan imoratlar, radioaktiv, zaharli moddalar bilan ifloslanmagan yoki imkonli boricha kamroq ifloslangan joy tanlanadi, barcha bo'limlarning ishslashini ta'minlash talablari asos qilib olinishi kerak.

BTYOni boshlig'i vazifani aniqlab olgandan keyin yuqorida keltirilgan talablarni asos qilib, barcha tarkib, bo'limlarni sanitar yo'qotish o'chog'iga ko'chirishga kirishadi. Viloyat sog'lijni saqlash bo'limi boshlig'i, shahar, tumanlar bo'lim boshliqlari shu tariqa davolash-profilaktika muassasalari hisobidan bir necha BTYOlarni tuzib, ularni vayronagarchilik o'chog'iga, obyektlarga berkitadilar. Bu berkitishdan asosiy maqsad favqulodda sodir bo'lgan o'choqdan jarohatlanganlarni guruhma-guruh olib chiqib, evakuatsiyalash yo'nalishida joylashtirishdir. BTYOlarni imkonli boricha teng darajada bemorlar, jarohatlanganlar bilan to'ldirish, ulardagagi ahvolning nazorati viloyat, shahar, tumanlar bosh hakimi va fuqaro muhofazasi shtablari tomonidan va ularning bevosita rahbarligi ostida olib boriladi. Ko'pincha jarohatlanish o'chog'ida sog' qolgan binolar, kasalxona, bog'chalar, mакtablar binolari BTYO bo'limlari uchun qulayroq bo'lib, ularga transport vositalarining kelib ketishi, jarohatlanganlarni qabul qilish, sanitar yuvishlar o'tkazish va vaqtinchalik davolash ishlari uchun qulayligi sababli joy tanlashda e'tiborga olinishi kerak. BTYOni o'choqda ishslashini ta'minlash uchun uni zaxiradagi joydan o'choqqa jo'nashidan boshlanadi. Bunda BTYOning boshlig'i topshiriqni olgandan so'ng maxsus qidiruv izlovchi (razvedka) tarkibida ishslash uchun tibbiy razvedka bo'lin-

malarini yuboradi. Bu guruh tibbiy razvedka ishlarini bajarishi kerak. Eng avvalo, tibbiy razvedka BTYOning joylashadigan yerni, jarohat-langanlarni BTYOgacha evakuatsiyalash yo'llarini tekshiruvdan o'tkazadi.

BTYO o'choqqa kelishi bilan razvedkachilar aniqlagan va olgan ma'lumotlarini BTYOning boshlig'iga yetkazadi. Ushbu ma'lumotlar BTYOrning ishlashini ta'min etish, jarohat-langanlarga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish, evakuatsiyalash, tibbiy saralash ishlarida asqotadi.

BTYOning to'liq tarkibi bilan uning boshlig'i birgalikda talafotlar o'chog'iga kelishi, joy tanlashi va bo'limlar uchun taqsimlashi kerak. Imoratning tuzilishi, unda joylashtiriladigan bo'limlarga joy tanlash ishlarida BTYOni joylashish sxemasiga asoslangan holda amal qilinishi talab etiladi.

Bunda asosan yadroviy o'choqda joylashish sxemasi ko'proq maqsadli deb topilgan, joy taqsimoti guruhi tarkibida BTYOning boshlig'i o'zi bilan bo'lim bo'shliqlarini ham qo'shishi shart. Saralash, evakuatsiyalash, jarrohlik va bog'lagich bo'limi, gospital bo'limi, xo'jalik bo'limi va yoppasiga tashkiliy ishlar bo'yicha yordamchini bular o'z bo'limlari uchun ajratilgan yer, imorat joylarni ko'rib, bo'limni jihozlash va xonalarni to'g'ri moslashtirib joylashtirishga imkon beradi.

BTYOning joylashish tartibi ko'pincha ajratilgan imoratlarning turiga bog'liq, ammo har qanaqa sharoitda ham yengil jarohatlanganlar (o'zi harakatda yuruvchilar) va og'ir jarohatlanganlar (sanitar narvonchalarda ko'chirishga ehtiyojli)lar uchun imorat yoki xonalar ajratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari yuqumli xastaliklar uchun alohida yo'lakli, ikki xil yuqumli xastaliklar uchun xonalar (izolatorlar)ga joy tanlash kerak. BTYO uchun imoratning 1-qavatida ko'pincha saralash va evakuatsiyalash bo'limi uchun yetarli darajada joy ajratilishi talab etiladi. Bu jarohatlanganlarni ortiqcha har yerga ko'chirishlaridan, ortiqcha ozor chekishlaridan asraydi. Imoratning ikkinchi qavatida gospital bo'limi, apteka, muolaja xonalari uchun joy ajratilishi maqsadga muvofiq. Jarrohlik bo'limi uchun qulay yer birinchi qavatda, juda bo'lmasa, ikkinchi qavatdan yuqori bo'lmasligi kerak.

BTYO boshlig‘i joy taqsimlash jarayonida vaziyatni ham baholaydi. Vaziyatni baholash tushunchasi, ehtimol qilish mumkin bo‘lgan sanitар yo‘qotishlar soni, ularning BTYОga kelib ketish vaqtি, jarohatlanganlarni obyeklardan BTYОgacha evakuatsiyalash yo‘llari va masofasi, vayronagarchilik hajmlarini aniq tasavvurlash, jarohatlanganlarni BTYОdan kasalxonalar bazasigacha evakuatsiyalash imkoniyatlari tushuniladi. BTYO uchun tanlangan imoratlarning tartibiy tuzilishini o‘rganish, uning funksional bo‘limlarining ratsional ishlashini ta’minalash, bo‘limlararo bog‘liqliklarni inobatga olish, jarohatlanganlarni qabul qilish, tibbiy yordam ko‘rsatish va evakuatsiyaga tayyorlash ishlarini **nazarda tutmoqlik** lozim. BTYO boshlig‘i barcha ma‘lumotlarni o‘rganib, vaziyatni aniqlab, bo‘lim boshliqlari oldiga aniq topshiriqlarni qo‘yadi. Bunda, avvalo, jarohatlanganlarni qabul qilish, tibbiy saralashni malakali o‘tkazish va ularni kasalxonalar bazasiga evakuatsiyalashga tayyorlash masalalari bo‘yicha ko‘rsatma beradi. Vazifalar aniqlashda sodir bo‘lgan vaziyatni tushuntirib, funksional bo‘limlarni tayyorlash vaqtি ko‘rsatiladi. Jarohatlanganlarni evakuatsiyalash tartibi uchun ajratiladigan transport vositalari, yaradorlarni yo‘naltiruvchi guruhlar, tibbiy taqsimlash guruhining saralash maydonchalaridagi ish tartibi aniqlanadi. BTYОga keluvchi jarohatlanganlarni dozimetrik nazoratdan o‘tkazish to‘la bo‘lmagan ya’ni qisman sanitар tozalash degazatsiya, dezaktivatsiya etishni, shuningdek, bo‘limlarni tibbiy sanitар-xo‘jalik buyumlari, dori-darmonlar bilan ta‘manlanish tartibini belgilaydi. Shuningdek, BTYОning boshlig‘i shaxsiy tarkib uchun shoshilinch signallar tartibini ham yetkazadi. Har bir bo‘lim boshlig‘i topshiriqni olgandan keyin o‘z bo‘limlarini ish holatiga keltirishga rahbarlik qiladi. BTYO boshlig‘ining umumiy tartib yordamchisi barcha bo‘limlar shaxsiy tarkibi orasida siyosiy, tarbiyaviy hamda bemorlar, jarohatlanganlarga g‘amxo‘rlik, mehr-oqibat ko‘rsatish, ularni qo‘rquv, vahima, shoshqaloqlik vaziyatlaridan asrash chora-tadbirlarini ko‘radi.

BTYO boshlig‘ining umumiy tashkiliy bo‘limi bo‘yicha yordamchisi BTYO va sanitariya drujinachilari o‘rtasida aloqa

tizimini tuzadi. SD-SDOlarga BTYOning joylashish joyi, evakuatsiyalanish yo‘nalishlarini aniqlaydi jarohatlanganlarni o‘choqdan BTYOgacha evakuatsiyalanish yo‘llarini belgilaydi. Shaxsan jarohatlanganlarni o‘choqdan BTYOgacha evakuatsiyalanishini boshqaradi. SDning ta’mnotinini ham doimo tashkil qilib borishi kerak. Xo‘jalik ishlari bo‘yicha yordamchi xo‘jalik bo‘limini sanitar-xo‘jalik inventar anjomlari bilan ta’min etilishini tashkil etadi. BTYOning yorug‘lik manbayi, isitish, suv, oziq-ovqat mahsuloti, kiyim-kechaklar ta’mnotiniga javob beradi, yuqori tashkilot bilan ta’mnotin sohasida uzviy aloqa o‘rnatadi. Xo‘jalik ta’mnoti boshlig‘i BTYOda o‘liklarni saqlash, dafn etish ishlarini ham tashkil etishi kerak. Uning vazifasiga BTYOga kelib-ketish yo‘llarini izlash, kerak bo‘lganda, BTYO boshlig‘ining topshirig‘iga asosan BTYOni boshqa yerga ko‘chirish ishlarini, tashkiliy ishlarini bajarishi kerak. Xo‘jalik ishlarining barcha yo‘nalishlari jarohatlanganlarni ovqatlantirish, BTYOda ishlovchilarga dam olish, ovqatlanish masalalarini tashkil etish, texnik vositalarni ta’mirlash, yoqilg‘i-moy mahsulotlari ta’mnoti, maxsus himoya vositalari ta’mnoti hamda BTYOni yoppasiga qiruvchi qurollardan himoya etish uning vazifasiga kiradi.

BTYOni ishga shay qilish, avvalambor, uning qabul qilish, saralash, evakuatsiyalash bo‘limining ishini yo‘lga qo‘yishdan boshlanadi. Chunki yoppasiga keluvchi jarohatlanganlarni qabul qilish, tibbiy saralash o‘tkazish, birinchi vrachlik yordamini ko‘rsatish, jarohatlanganlarni BTYOning bo‘limlariiga taqsimlash, lozim topganda ularni ikkinchi bosqich bo‘limi – kasalxonalar kollektorlariga jo‘natish birinchi navbatdagi vazifalar hisoblanadi.

Birlamchi bosqich, ya’ni qabul qilish, saralash ishlari yakunidan so‘ng ikkinchi bosqichni, ya’ni jarrohlik bo‘limi, bog‘lagichlar, shokka qarshi kurashish bo‘limlari ishlarini shoshilinch bajarilishiga tushuniladi. Shuningdek, gospital bo‘limining ham rentgen, laboratoriya ishlari uzlusiz ishlashini tashkil etish uchun BTYOning boshlig‘i vrachlar, hamshiralarning smenali ish tartibini joriy qiladi. Bunda vrachlar brigadasi hamshiralar brigadasining 12–16 soatlik ish grafigi 3–4 soatlik dam olish vaqtini belgilaydi.

Saralash, evakuatsiyalash bo‘limining ishini tashkil etishda sanitar transportlarning, jarohatlanganlarning yig‘ilib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ayniqsa, tibbiy taqsimlash va saralash maydonchalarida bu ishni tez muqobil bajarilishini ta’min etish zarur, bunda BTYOga keltirilgan va kelganlarni shoshilinch ravishda qabul qilish va saralash xonalariga joylashtirish zarur. Shu munosabat bilan bo‘limda yetarlicha maydonchalar, xonalar, palatkalar bo‘limi ko‘zda tutilmog‘i lozim. Buning uchun og‘ir jarohat olganlarga 250–300, yengil jarohatlanganlar uchun 80–100ta joy tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Saralash maydonchasida ko‘pincha o‘rta tibbiy xodim (feldsher) yoki hamshira ajratiladi. Ularga 1–2 ta dozimetrist, 1–2 ta sanitar posti ajratiladi. Bu yerda BTYOga keltirilgan jarohatlanganlar dozimetrik, kimyoviy, toksikologik, bakteriologik nazoratdan o‘tkazilib, o‘xhash yo‘nalishlarga taqsimlanadilar. Bu postga BTYOni tez ogohlantirish, chaqirish vazifasi ham yuklatiladi. Ob-havo qulay paytida qabul qilish, saralash maydonchasi ajratilib u yer qisqa muddatga ko‘plab jarohatlanganlarni saralash va BTYOning boshqa bo‘limlariga yuborish uchun sharoit yaratiladi. Saralash maydonchasi yaqinida sanitar tozalash maydonchasi tashkil qilinadi. Bu yerda sanitar transportlarini, kiyim-bosh, himoya vositalarini sanitar tozalash, degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfeksiyalash maydonchasi hamda yaradorlar, bemorlarni sanitar yuvish uchun alohida maydonchalar jihozlanadi. Bu maydoncha yoz kunlari ochiq havoda, qish paytida esa himoyalangan joyda, ayvonda yoki palatkalarda jihozlanishi kerak.

Sanitar tozalash maydonchasi dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiyalovchi apparatlardan DK-4–avtomaks, DDA–avtomashinasi, DDP-pritsepi hamda kimyo yuvish komplektlari bilan jihozlanishi kerak. Sanitar yuvish, tozalash maydonchasida barcha ishlarni feldsher yoki sanitar instruktor boshqaradi, unga amaliy ishslash uchun sanitar drujina brigadasidan sanitarlar ajratiladi va maxsus ta’mot bilan jihozlanadilar. Bular:

1. Zararlangan degan belgilar.
2. DK-4 to‘plami.
3. Maxsus ishlov eritmalari.
4. Lattalar uchun yashik.
5. Avtomobil.
6. Quduq.
7. Zararlanmagan zambillar.
8. Ishlov berilgan zambil

va gazqoplar. 9. Gazqoplarga ishlov o'tkazish joyi. 10. Cho'tkalar va supurgilar, boshqa jihozlar. 11. Ishlatilgan lattalar uchun idish. 12. Avtomaks. 13. Degazatsiya vositalari uchun stol. 14. Suv uchun idish. 15. Yuz - qo'l yuvgich. 16. Ishlov o'tkazilgan idish uchun stol. 17. Zararlangan kiyim uchun qoplar. 18. Kiyimlarni osish harisi. 19. Etiklarni qo'yish tagligi. 20. Ishlov o'tkazilgan kiyimlar uchun qoplar. 21. Zambillarni qo'yish uchun taglik. 22. Qurollarni qo'yish uchun taglik. 23. Zararlangan kiyimlarni ro'yxatga olish. 24. Kursilar. 25. Toza suv uchun chelak. 26. Dush. 27. Teshik zambillar. 28. Dush setkasi. 29. Tibbiyot vositalari stoli. 30. Kiyimlarni almashuv fondi. 31. DDA-66. 32. Suv saqlash rezervlari. 33. Avtosisterna. 34. Gazqop yashigi. 35. Individual himoyalar. 36. Zapas zambillar.

Saralash maydonchasida zambilda tashiluvchilar joyi jarrohlik, bog'lagich va shokka qarshi xonalarga ko'chirishga oson bo'lgan yo'nalishda joylashtiriladilar. Bu yerda joylashtirilishi shart bo'lgan buyumlar:

- jarohatlanganlarni ro'yxatga olish;
- dori-darmon saqlanadigan stol;
- xo'jalik buyumlari burchagi.

Yengil, o'zлari yuradigan jarohatlanganlarga ajratilgan maydonchada qo'yidagi jihozlar qo'yiladi:

- zararlanganlarga o'tirishi uchun o'tirgichlar;
- bog'lagich va muolaja qilish uchun joy;
- xo'jalik buyumlari va muolaja qilish uchun joy;
- xo'jalik buyumlari burchagi.

Saralash-evakuatsiyalash bo'limida asosan punkt ichi va transportlash saralashlari o'tkaziladi. Bunda saralash natijasiga qarab quyidagi guruhlar bo'yicha jarohatlar ajratiladilar;

- birinchi vrachlik yordami ko'rsatiladigan, shoshilinch jarrohlik yordami ko'rsatiladigan, transportlash mumkin bo'limganlar;

- ushbu etapda tibbiy yordamga muhtojlar va maxsus tibbiy yordamga muhtojlar;

- yuqumli va ruhiy xastaligi borlar.

Shu tariqa saralash natijalariga ko'ra jarohatlanganlarning har bir guruhi og'ir-yengilligiga qarab, navbat bilan tibbiy yordam

ko'rsatish uchun belgilangan bo'limlarga yuboriladilar. Ushbu ishni bajarish asosan saralash brigadaari zimmasiga yuklatiladi. Saralash brigadalarini ixtiyoriga birlamchi tibbiy kartalar, saralash markalari, tibbiy shoshilinch dori-darmonlarni ro'yxatga olish daftarlari beriladi. Saralovchi brigada vrach, jarroh, hamshira, terapevt, hamshira va ularga ajratilgan sanitarni tashuvchilar guruhi bilan saralash maydonlarida barcha kelgan jarohatlanganlarni ehtiyojiga qarab yo'naliishlarga jo'natiladilar.

*Jarrohlik va bog'lagich bo'limi.* Bo'limda bog'lagich oldi va bog'lagich xonasi, jarrohlik oldi va jarrohlik xonasi, shokka qarshi xonalar mavjud. Ular ikkita alohida xonalardan iborat **bo'lib**, birinchi shokka qarshi xona **travmatik** shokka qarshi, ikkinchi xona kuyish oqibatida **sodir** bo'lgan shokka qarshi mo'ljallanadi. Shuningdek, bu bo'lim tarkibida, sterilizatsiya xonalari hamda qon preparatlarini **saqlash** xonalari bo'lishi kerak. Bog'lagich xonasi ko'pincha 4–6 bog'lagich stollariga moslashtiriladi. Jarrohlik xonasi esa kamida ikkita jarrohlik stoliga moslab tayyorlanadi.

**Bo'limda** ishni tashkiliy va amaliy yo'naliishini muvofiq-lashtirish uchun jarrohlik va shokka qarshi brigadalar tuziladi. Bularni ishlash jarayonida quyidagi variantlarda amalga oshirish mumkin: jarrohlik xonasi, bitta jarrohlik vrachi brigadasi, bitta hamshiralalar brigadasi.

Shokka qarshi xonada bitta vrachlik, 2 ta hamshiralalar brigadasi bo'ladi. Bog'lagich xonasi esa 2 ta vrach va 4 ta **hamshiralalar** brigadasiga mo'ljallanishi mumkin.

Ushbu bo'limda favqulodda vaziyatlar sharoitida maxsus tibbiy yordam ko'rsatish uchun ham sharoit yaratilishi zarur. Chunki ayrim holatlarda, ayniqsa, jarohatlarning og'ir-yengil darajasida jarohatlanganlarni transportirovka qilishda, hayotiy va terminal holatlarda maxsus tibbiy yordam zarur, ya'ni ko'z quloq, burun, tomoq mutaxassislari, neyroksirurglar va hokazolar. Shu bo'limda tegishli yordam olishlariga ehtiyoj tug'ilishi mumkin, yoki ayrim vaziyatlarda jarohatlarning aksariyati bir turdag'i yaranishlarni olishi mumkin. Bu holatlarda fuqaro muhofazasi tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bo'limi – ITYB asbob-uskunalar bilan ta'min etiladilar.

Transport vositalarida ularni harakatchan holatda qayerga yuborilsa, o'sha davolash-profilaktika tizimida o'z mutaxassisliklari yo'nalishida maxsus tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatini beradi. Ammo ushbu bo'limda ko'rsatiladigan tibbiy yordamning asosini birinchi vrachlik yordami tashkil qilishi kerak.

*Gospital bo'limi.* Bu bo'lim vaqtinchalik transportirovka qilish mumkin bo'lmagan jarohatlanganlarga birinchi vrachlik yordami ko'rsatib, ularni evakuatsiyaga tayyorlashga yetkazadilar.

Bo'limda vaqtinchalik evakuatsiyalanmaydiganlar uchun:

- tuqqan ayollar va tug'ish arafasidagilar uchun tug'ruqxona;
- yosh bolalarni yetkazish uchun;
- agoniya holatidagi jarohatlanganlar uchun;
- yuqumli va ruhiy xastaliklarni vaqtinchalik izolatsiya qilish uchun xonalarni jihozlash ko'zda tutiladi. Bo'limda har 50 ta jarohatlanganlarga bitta hamshiralik posti tayinlanadi.

*Evakuatsiyalash bo'limi.* BTY Odan kasalxona bazalariga evakuatsiyalash uchun, vaqtinchalik kutib turuvchilar uchun va ularga sharoit yaratish kerak bo'lganda tibbiy yordam berishni davom ettirish maqsadida hamda jarohatlanganlarni evakuatsiyaga tayyorlash ishlariga sharoit yaratiladi, yengil jarohatlanganlar saralash maydonidan to'g'ridan-to'g'ri kasalxona bazalariga jo'natilishi mumkin.

*Laboratoriya bo'limi* BTYO bo'limidagi bemorlar, jarohatlanganlarni oddiy klinik va qon, siyidik tekshirishlarini bajaradilar. Bu bo'limda dozimetristlar hamda tibbiy taqsimlovchi guruuhlar posti, sanitар-tozalash bo'limiga ajratiladilar, chunki dozimetrik nazorat va sanitар saralash bemorlarning radioaktiv zararlanishlarini o'lchab, dozaviy ko'rsatkichlariga qarab alohida-alohida joylashtirilishi talab qilinadi.

*Dorixona.* BTYOni, drujinachilar otryadlarini zarus tibbiy sanitар buyumlar, dori-darmonlar, bog'lagich matolar bilan ta'min etadi. Aptekalar asosan tayyor holatdagi dori-darmonlar, bog'lagich matolar va preparatlar bilan ta'minlanadilar.

*Xo'jalik bo'limi.* Bo'lim kiyim-kechaklar, xo'jalik buyumlari, oziq-ovqat, texnik va boshqa hayotiy, zaruriy anjomlar

ta'minotini bajarishi kerak. BTYOning bo'limlari ishlashi uchun tayyorlanish jarayonida BTYO boshliqlaridan vaqt bilan kerakli ma'lumotlarni olib, xulosa chiqarish mumkin.

Bunda asosan:

- BTYOga kelib tushgan jarohatlarning soni;
- birinchi vrachlik yordamiga muhtojlar soni;
- shok holatiga tushganlar ahvoli;
- BTYOga vaqtinchalik gospitalizatsiyalashga ehtiyoji borlar soni;

- kasalxona bazasida evakuatsiya etilishi zarur bo'lganlar soni, yuqumli xastaliklarni aniqlash va ularni izolatsiyalanishi, evakuatsiyalanishi;

- jarrohatlanish oqibatida halok bo'lganlar soni.

Bu barcha ma'lumotlar BTYO boshlig'i tashkiliy ishlarni to'g'ri uyuştirishi uchun, o'z vaqtida chora-tadbirlarni qo'llashi hamda fuqarolar muhofazasining tibbiy yordam ko'rsatish shtabiga ma'lumot berishi uchun tartibli yo'lga qo'yilishi talab qilinadi. Jarohatlanganlarni o'z vaqtida evakuatsiyalanishini ta'min etish maqsadida BTYO boshlig'i tuman, shahar FMTX shtabiga transport vositasi uchun talabnomalar berishi kerak.

BTYO boshlig'i jarohatlanganlarni vaqtida, yetarli darajada, evakuatsiya qilishini, ularni buning uchun tayyorlash, transport vositalariga yuklash hamda yaqinroq joylashgan kasalxona kollektoriga evakuatsiya qilishni ta'minlashi kerak.

BTYO jarohatlanganlarni to'g'ridan-to'g'ri o'choqdan birmuncha uzoq masofada joylash, davolash tarmoqlariga evakuatsiya etishni ham bajarishi mumkin. Bunda temir yo'l transporti, suv transportlaridan foydalanishga to'g'ri kelishi mumkin. Jarohatlanganlar BTYOdan evako qabul xonalariga, ya'ni aeroport, temir yo'l vokzali, portlarda tashkil etilgan evakopriyomniklarga jo'natiladilar. Barcha holatlarda BTYOdan evakuatsiyalashtirish tartibini shahar yoki tuman fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish shtabi belgilaydi. BTYOning boshlig'i evakuatsiyalanish jarayonida yuzaga kelgan barcha vaziyatlar haqida FMTX shtabi boshlig'iga ma'lumot berishi shart. Shuningdek, jarohatlanganlarni evako qabul

punktiga jo‘natilish vaqtı, soni va buning uchun kerakli avtotransport vositalarining soni haqida ma’lumotnomaga ham fuqarolar muhofazasi tibbiy xizmati shtabiga yetkazib turilishi talab qilinadi.

### Birinchi vrachlik yordami ko‘rsatish tartiblari

Birinchi vrachlik yordami ko‘rsatilishi favqulodda hodisa o‘chog‘ining turiga bog‘liq. Yer qimirlashlari, suv toshqinlari, avariya va katastrofalar, yong‘inlar hamda yer ko‘chishlari, sel, to‘fonlar, yadro o‘chog‘idagi vaziyatni takrorlashi **mumkin bo‘lgan yong‘inlar**, kimyoviy zaharli moddalar **tashishdagি** avariya holatlari kimyoviy o‘choqdagi vaziyatni **keltirib chiqarishi mumkin**, shu sababli birinchi vrachlik yordamining tashkiliy tuzilishi tartibi bir oz bo‘lsa-da, ma’lum bir farqlarga ega bo‘lishi mumkin. Yadroviy o‘choqda **birinchi vrachlik yordami jarohatlangan** aholiga bir sutkadan oshirilgan vaqt orasida tashkil etilishi talab etiladi. Birinchi vrachlik yordami chegarasi har xil vaziyatlarga qarab belgilanishi kerak. Bunda avvalo BTYoga keltirilgan jarohatlanishlarning soni, turi, og‘ir-yengilligi, BTYOdagi mutaxassislarning yetarli yoki **etarli emasligi**, jarrohlarning malaka darajasi kabi ko‘rsatkichlarga e’tibor berilishi kerak.

Birinchi vrachlik yordamiga quyidagilvar kiradi:

- qon ketishlarni vaqtinchalik to‘xtatish, imkoniyati bo‘lganda esa uni doimiy to‘xtatish, jarrohlik usullarini qo‘llash;
- yurak-qon tomiri yetishmovchiligi holatlarida ularning faoliyatini yaxshilash, tiklash;
- shokka qarshi tibbiy harakatlar, davolash, shoshilinch chora-tadbirlarini qo‘llash;
- siydk chiqarish buzilishida uni qayta tiklash, ayniqsa shoshilinch urologik muolajalar;
- qon **va** qon o‘mini bosuvchi preparatlar quyish, gemorogen shok bilan kurashish. Gipovolemiya holatini shoshilinch tiklash, hayotiy ko‘rgazmalar, shok holatlari, o‘lim bilan kurashish vaziyatlarida, terminal holatlarda shoshilinch **jarrohlik yordamini ko‘rsatish**.

Jarohatlanishlarda ikkilamchi yiringlashlarni oldini olish, davolash, vaziyat talab qilsa, jarohatlanganlarni qayta bog'lash, immobilizatsiya qilish, transport vositalarida ularni kasalxona bazasigacha evakuatsiyalanishni ta'minlovchi barcha ishlarni bajarish kabilardir.

Tashqi va ichki qon ketishlarni doimiy to'xtatish bog'lagich yoki jarrohlik xonasida bajarilishi mumkin. Yo'g'on arterial tomirlarning uzilishi yoki ochiq fontansimon qon ketishlarida, qon tomiri jarohatlangan yerda bog'lanadi. Ya'ni tomir izlab topilib, uzil-kesil bog'lanadi. Qon ketishlar to'xtatilgandan so'ng, stolbnyak anatoknsini o'tkazilib, transport immobilizasiyalash bog'lagichlari qo'yilib, kasalxona bazasiga jo'natalidi. Nafas olishining izmidan chiqishi nihoyatda og'ir holat hisoblanadi. Bunda tilni tanglayda yopishib qolishi, pastki jag' suyagi shikastlanishi, nafas olish yo'llari jarohatlanishi, pnevmotorakslar va hokazolar yuz berishi mumkin. Bunday holatlarda jarohatlanganlarning tili til ushlagich bilan ushlab, og'zidan tortib chiqarilishi va pastki jag' to'qimalaridan tiyilishi va uni fiksatsiyalanishi talab qilinadi. Yuqori nafas yo'llarining mexanik tiqilib qolish holatlarida og'iz bo'shlig'i imkonii boricha to'laroq tozaolangandan keyin sun'iy nafas berish elementlari shoshilinch bajarilishi kerak.

Zaruriyat tug'ilganda og'izdan-og'izga nafas berish, kislorod berish ishlari bajariladi. Ko'krak qafasi siqilishi, nafas yo'llari va ko'krak qafasi mushaklarining lat yeishi, ko'krak qafasining jarohatlanishi, ochiq va yopiq pnevmotorakslarda nafas olish ritmi, tizimi buziladi. Bu holatlarda nafas olishni qayta tiklash uchun okklyuziv bog'lovlar yaxshi natijalar beradi. Yuz, bo'yinlarning og'ir jarohatlanishi o'tkir mexanik akfiksiyaga olib kelishi mumkin. Bu holatlarda shoshilinch traxeotomiyanı bajarish zarur. Ayrim terminal holatlar, jarohatlanganlarni bosh miya shikastlanishi yoki hushdan ketish holatlarida o'tkir nafas yetishmovchiligi sodir bo'ladi. Bunda nafas olishni qayta tiklash reanimatsiyasi o'tkazilishi talab etiladi. Bu holatlarda hech ikkilanmasdan shoshilinch traxeostoma qo'yish traxeostomiya orqali doimiy aspiratsion moslamani o'rnatish va u orqali bronxlar va traxeyadan qon

kotishmalar, balg'am, suyuqliklarni surib olish hamda kislorod berishni jarohatlanganlarni hushiga kelishiga qadar hamda mustaqil ravishda o'zi nafas olish imkoniyatiga ega bo'lguncha davom ettirish tavsya etiladi. Jarohatlanganlarni sun'iy nafas olishga o'tkazish, ko'krak qafasi, qovurg'alarning bir nechtasining sinishi, shok holatlari, ko'krak qafasining majaqlanishi kabi holatlarda hech ikkilanmay o'tkazilishi zarur.

*Shokka qarshi kurashish tartibi.* Travmatik shokda eng avvalo shoshilinch ishlar bajarilish kerak. Eng avvalo og'riq manbasi, ya'ni shikastlangan, kesilgan, yaralangan, kuygan yuzalarni og'riqsizlantirish, immobilizatsiyalash, novokain blokadasini qo'llash, jarohat yuzalarini anesteziyalashni bajarish ayniqsa, plevropulmonal shokda vagosimpatik blokadani bajarish tavsya etiladi. Shuningdek, ko'krak, qafasi, qorin bo'shlig'i jarohatlanishlarida paranefral blokada etish, morfin, omnopon, pantapon, promedol kabi og'riqsizlantiruvchi analgetiklarni qo'llash, shokka qarshi suyuqliklarni vena tomiri yoki arterial tomirlarga yuborish tadbirlarini bajarish BTYO tomonidan hayotiy ehtiyoj tug'ilgandagina bajarilishi kerak, evakuatsiyaga tayyorlash maqsadida. Chunki BTYODa jarohatlanganlar imkon boricha qisqa muddat saqlanishi kerak, jarohatlanganlar qancha tez kasalxona kollektoriga yoki kasalxona bazasiga yetib kelsa, shuncha tez maxsus tibbiy yordam oladilar.

*Siydik chiqarish holati to'xtaganda.* Siydik chiqishining to'xtashi siydik chiqarish yo'llarini, siydik qovug'inining jarohatlanishida sodir bo'lувchi holat. Odatta bu holatlarda, avvalo, siydik pufagi katetir yordamida bo'shatiladi, ammo siydik chiqarish yo'li jarohatlanishida siydik pufagi chanoq tepasidan maxsus nina yordamida punksiya etilishi kerak.

*Qon va qonni almashiruvchi suyuqliklarni quyish tartibi.* Qon va qon mahsulotlari suyuqliklari hamda shokka qarshi dori-darmonlar BTYODa ma'lum holatlardagina bajariladi. Shok, o'tkir qon yo'qotishlar, uzoq infeksiya, nur xastaligi, radiatsion jarohatlanishlarning kombinatsiya holatlari qon va qon mahsulotlari suyuqliklari qo'llanishiga ko'rsatma bo'lishi kerak.

Favqulodda vaziyatlarda ushbu davolash dori-darmonlariga ehtiyoj keskin o'sishi boshqa BTYOlarda, kasalxona bazalarida ham qon va qon preparatlariga ehtiyoj, zaruriyat oshishini

e'tiborga olib, ayni holatlarda shokka qarshi suyuqliklarni kengroq qo'llash tavsiya etiladi. Hayotiy zarurat ko'rgazmalarida shoshilinch jarrohlik ishlari, asosan to'xtatilmagan va davom etayotgan qon ketishlar, nafas olishning og'ir jarohatlanishi va uzun suyaklarning ochiq sinishi holatlarda shoshilinch jarrohlik ishlarini bajarish zarur:

- iapaporotomiya qorin bo'shlig'ida davomli qon ketish va sababi noaniq travmalar, qorin bo'shligining jarohatlanishi;

- torakotomiya, plevra bo'shlig'ida qon ketishlarni profuz davom etish holatlarda klapanli pnevmatoraksda;

- anaerob yuqumli xastaligi infeksiyasiga, qo'l - oyoqlarning jarohatlanishi oqibatida, faqat teri loskutidagina osilib qolganda uni amputatsiya etish shartligi.

- bosh miyaning dekompressiyalash operatsiyalari.

Bu holatlar shoshilinch vrachlik yordamiga kirsa-da, har qanday vaziyatda ham imkonni boricha BTYoga kelgan aksariyat jarohatlanganlarga yordam berilishini nazarda tutilmog'i lozim.

*Kimyoviy o'choqda zaharlanganlarga birinchi vrachlik yordami ko'rsatish tartibi.* BTYO kimyoviy o'choqning tashqi doirasi chizig'idan shamol gulini nazarga olgan holda 1,5-2 km. masofada zaharlanmagan yerda tashkil etiladi. BTYOning boshlig'i yuqori tashkilot boshlig'idan vazifani aniqlaganidan keyin BTYO bo'limi boshliqlari oldiga bajariladigan vazifalarni aniq qo'yadi. Bunda asosan qanaqa zahar qo'llanilganligi, qayerda, qachon BTYOni tayyorlash kerakligi aniqlab olinadi.

Zaharlanganlarni evakuatsiyalash vositalari turli, zaharlanganlarni to'liq sanitarni tozalash tartiblari BTYoda ishlovchi vrachlar, hamshiralar, sanitarlarning zaharli muddalardan himoyalanish tartiblari kabi masalalar aniqlanishi shart.

Kimyoviy zaharli muddalar qo'llanilganda yoki favqulodda avariya va katastrofa holatlari zaharli muddalar bilan bog'liq bo'lgan taqdirda BTYO fuqaro muhofazasi kuchining birinchi etalonni o'choqqa jo'natiladi.

Zaharlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatilishida zaharlanish belgilari namoyon bo'lishi vaqtida alohida e'tibor qaratish lozim, chunki tez ta'sir etuvchi zaharlar qisqa muddatda BTYoga ko'plab zaharlanganlarning kelishi ularning to'planib

qolishiga sabab bo'ladi. Zaharlanganlarning aksariyati transporlash mumkin bo'lmaydigan darajada aynan BTYO etapida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishi talab qilinadi. Shu sababli BTYO ekstremal holatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishga doimo tayyor bo'lishi va uning uchun kerak bo'lgan barcha ziddi-zaharlarga ega bo'lishi kerak. BTYO – kimyoviy o'choqda quyidagi tarkibda tuziladi:

- qabul qilish va saralash bo'limi;
- sanitar tozalash, kiyim-kechak va transportlarni degazatsiyalash bo'limi;
- jarrohlik va bog'lagich bo'limi;
- psixonevrologik bo'lim;
- yuqumli xastaliklar bo'limi va izolator;
- apteka, xo'jalik bo'limi va laboratoriya.
- BTYOning jarrohlik, gospital, shokka qarshi bo'limlari qisqartirilgan variantlarda faoliyat ko'rsatadi. Ularning mutaxassislari saralash, evakuatsiyalash, izolator, sanitar-tozalash bo'limlariga yordamga yuboriladilar. Chunki bu bo'limlarda tibbiy yordamga muhtojlar soni birmuncha yuqori bo'ladi.

*Kimyoviy o'choqda birinchi yordam ko'rsatish tartibi.* Tibbiy taqsimlash bo'limi mutaxassislari gazqopi, himoya kiyimi, rezina etiklar, qo'lqoplarda ishlaydilar. Taqsimlash postida zaharlanganlar ikki yo'nalish bo'yicha taqsimlanadilar.

1. Og'ir zaharlanganlar, intoksikatsiya belgilari aniq namoyon bo'lganlar.

2. Yengil zaharlarganlar, o'zi yura oluvchilar.

Sanitar tozalash bo'limi alohida tashkil etiladi, bo'limda kiyim-boshlar, oyoq kiyimlari, transport vositalarini degazatsiyalash, dezinfeksiyalash va sanitar tozalash joyi yoki xonasida to'la yuvish ishlari bajariladi. Bunda yengil zaharlanganlar og'ir zaharlanganlardan alohida-alohida tozalanadilar. Bo'limda alohida jihozlangan kutish uchun, yuvinadigan va qiyinadigan maydonchalar yoki palatkalaridan joy tayyorlanadi. Bo'limda ishlovchi sanitar, hamshiralalar himoya kiyimida ishlaydilar. Kutish maydonida hamshira, sanitar ishlashi kerak bo'lsa, bu yerga vrach ham chaqirilishi mumkin. Toza kiyim va ishlatilgan kiyimlar uchun alohida joy

jihozlangan bo‘ladi. Bu yerda zaharlanganlardan ustki kiyimlari, himoya vositalari, oyoq kiyimlari to ichki kiyimgacha yechintirilib, alohida qoplarga solinib, degazatsiyalashga yuboriladi. Zaharlanganlar esa sanitar narvonchalarida yuvinish xonasiga kiritiladi. Yuvinish xonasi degazatsiya etiluvchi eritmalar yordamida teri qoplami IPP – 10-15% monoxloramin, 10-15% ammiak eritmasi yordamida degazatsiya etilib, keyin suv vasovun bilan yuviladi. Og‘ir jarohatlanganlarni yuvinish xonasidan sanitar narvonchalarida kiyinish xonasiga ko‘chirilib, u yerda kiyim-boshlari tozalangan holda kiyintiriladilar. Keyin esa saralash maydoniga yoki xonasiga tibbiy saralash o‘tkazish uchun yuboriladilar. Yengil, o‘zlari yuradiganlar ham shu tariqa sanitar yuvilishdan so‘ng saralash maydoniga kelib, bu yerda ularni jarohatlanish darajasida tibbiy saralash o‘tkazadilar.

*Qabul qilish va saralash bo‘limi.* BTYoga keltirilgan bemorga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tibbiy saralash o‘tkaziladi. Bu xil saralashni punkt ichidagi saraflash deyiladi, ya’ni BTYO bo‘limlariga taqsimlanadi. Bunda ko‘pchilik zaharlanganlar gospital bo‘limiga yuboriladilar. Bir qism zaharlanganlarda zaharlanish bilan bir paytda jarohatlanish kombinatsiyasi bo‘lishi mumkin. Ular asosan jarrohlik va bog‘lagich bo‘limiga yuboriladilar. Ushbu bo‘limlarda shoshilinch terapevtik jarrohlik yordami ko‘rsatiladi. Bo‘lim shoshilinch jarrohlik ko‘rsatishga mo‘ljallangan bo‘lib, odatda 2-3 bog‘lagich stollari ishlashi uchun jihozlanadi.

*Gospital bo‘limi.* Asosan barcha og‘irlikdagi zaharlanganlar gospital bo‘limiga yuboriladi. Bu yer birinchi vrachlik yordami ko‘rsatish uchun palatalar, muolaja xonasi hamshiralar postlari, dori - darmonlar, ziddi - zaharlar shkafi kabilar bilan jihozlanadi.

Bo‘limda reanimatsiyalash xonalari ham jihozlanadi, chunki bir qism zaharlanganlar reanimatsion yordamga muhtojlik sezadilar, ularga avtonom boshqaruv, sun‘iy nafas apparatlari ishlatiladi. Bir qism jarohatlanganlar bo‘limda 3-5 sutka qolishlari va davolanishlari mumkin, evakuatsiyaga tayyorlanish uchun sharoit yaratilishi zarur. Jarohatlanganlar soni ko‘p bo‘lganligi sababli BTYOning boshqa bo‘limlaridan gospital bo‘limiga yordamga tibbiy mutaxassislar, sanitarlari, hamshiralar yuboriladilar.

*Evakuatsiyalash bo'limi.* Asosan o'zi yuradiganlar va sanitар narvonchalar yordamida yuradiganlar uchun xonalar jihozlanadi. Bu yerda zaharlanganlarning umumiy ahvoli doimo nazoratda bo'ladi. Ularni kiyintirish, hujjatlarini rasmiylashtirish, evakuatsiyaga tayyorlash kabi ishlar bajariladi.

*Psixonevrologik izolator.* Bo'lim asosan ruhiy holatlari atrofidagilar va ularning o'zлari uchun ham xavfli kishilarni vaqtinchalik izolatsiyalash va shu jarayonda уlarga vrachlik yordamini ko'rsatish, evakuatsiyaga tayyorlash uchun jihozlanadi. Bu yerda asosan psixonometrik yoki fosfororganik birikmalar bilan zaharlanganlar yotqiziladilar.

*Yuqumli xastaliklar izolatori.* Asosan zaharlanganlar va jarohatlanganlar orasida yuqumli xastaliklarni vaqtinchalik kasalxona bazasi tarkibiga, yuqumli xastaliklar kasalxonasiga ko'chirishgacha izolatsiyalab, vrachlik yordami ko'rsatish, evakuatsiyaga tayyorlash kabi ishlar bajarilishi uchun tashkil etiladi.

*Laboratoriya bo'limi.* BTYO tarkibida laboratoriya tashkil etiladi. Bo'lim mutaxassislari yordamida BTYO joylashgan manzilgoh havosini doimiy nazorat qilib turadilar. Bo'limda gemoglobin ko'rsatkichi xoliesteraza aktivligi qonda aniqlanadi. Shunday qilib kimyoviy o'choq yer qimirlashlardagi o'choqdan birmuncha farqlar bilan ajralib turadi. Zaharlanganda jarohatlar og'ir kechadi va ularni davolash uchun maxsus tadbirlar **talab** etiladi.

Tibbiy xodim himoya vositasini kiyishi va zaharlanganlarga kiygizib, tibbiy yordam ko'rsatishi kerak. Barcha jarohatlanganlar atrofdagilar uchun xavfli bo'lishi mumkin. Shu sababli ularni sanitар yuvishdan o'tkazish talab etiladi. Tibbiy yordam ko'rsatishda malakali saralash o'tkazish, o'z vaqtida ziddi-aharlardan to'g'ri foydalanish ularning hayotini saqlab qolishi mumkin. BTYOda birinchi vrachlik yordami ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish uchun, avvalo, har qaysi zaharovchi moddalarga qarshi shoshilinch qo'llaniladigan ziddi-zaharlar yetarlicha bo'lishini ta'min etishga erishilishi zarur, dori-darmonlar asosan tez ta'sir etuvchi, qisqa muddatga zaharlanganlarni terminal holatidan chiqara oladigan tartibini ishlab chiqish va qo'llash talab etiladi.

**Kimyoviy o'choqda birinchi vrachlik yordamining asosiy tarkibi:**

Zaharning turi	Tibbiy yordam
Farfor organik moddalar (FOM)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- 0,1% <math>\text{Na}_2\text{CO}_3</math> (ishqor)</li> <li>- xolinesteraza reaktivatori</li> <li>- diperoksim, izonitrozin</li> <li>- 8,4% natriy gidrokarbonati vena orqali yuboriladi</li> <li>- 0,5% stofantin sekinlik bilan venaga quyiladi</li> <li>- doimiy oksigenatsiya</li> <li>- 12% eufillin vena orqali quyiladi</li> </ul>
IPRIT	<ul style="list-style-type: none"> <li>- antibiotiklar</li> <li>- barbamil geksenal</li> <li>- 30% natriy giposulfidi 30-50,0 vena ichiga yuboriladi</li> <li>- 40% glukoza 20-40,0 vena ichiga yuboriladi</li> <li>- 10% kalsiy xloridi vena ichiga yuboriladi</li> <li>- 2% natriy gidrokarbonati 500,0 vena ichiga yuboriladi</li> <li>- yurak-qon tomir faoliyatini tetiklovchilar</li> <li>- oksigenatsiyalash</li> <li>- shokka qarshi kurashish</li> <li>- <u>mahalliy jarohatlarni davolash</u></li> </ul>
SINIL KISLOTASI	<ul style="list-style-type: none"> <li>- 40-50 ml xromosimon eritmasi vena ichiga yuboriladi</li> <li>- amilnitrit sindirib burunga hidlatish</li> <li>- natriy giposulfidi</li> <li>- EDTA – etilendiamin - terauksus kislotasi</li> <li>- 500 ml 1% glukoza eritmasi bilan asta-sekin vena ichiga yuboriladi</li> <li>- vitamin <math>\text{V}_{12}</math> mushak ichiga yuboriladi</li> <li>- oksigenatsiyalash</li> </ul>

Vaqtinchalik zaharlovchi moddalar bilan zaharlanganlar ko'pincha BTYoga keltirilmaydilar, agar keltirilgan taqdirda ham, ular tibbiy yordam ko'rsatishning ikkinchi etapiga, ya'ni kasalxonalar kollektorlariga jo'natilishlari kerak.

Yuqorida keltirilgan birinchi vrachlik yordami ko'rsatish tartibi sxematik har xil variantlarda bo'lishi mumkin. Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining barcha etaplarini tibbiy yordam ko'rsatishda bir maqsadni ko'zlab ishni tashkil qilishlari, ya'ni jarohatlanganlar hayotini saqlash, qisqa muddatda ularni davolash, o'z holiga qaytarib, favqulodda hodisalar oqibatini tezroq bartaraf etishga qaratilmog'i qo'qqisdan paydo bo'ladigan vaziyatlar talab etiladi.

Barcha ko'rsatilgan muammolarni tinchlik, osoyishtalik davrida vaqtı-vaqtı bilan fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi bilan mashqlar o'tkazish orqali aholini va tibbiyot mutaxassislarini doimo shay holatda saqlash mumkin.

### **Favqulodda vaziyatlarda fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatishda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tartibi va tashkiliy tuzilishi**

FMTX sog'liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalari tarkibidan tashkil etiladi. Bunda yuqoridan pastki tizimlarning barchasi yakka yo'nalish bo'yicha, ya'ni sog'liqni saqlash vaziri O'zbekiston davlati fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatining boshlig'i hisoblanadi. Har bir viloyatda sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i FMTXning boshlig'i hisoblanadi. Ayni paytda o'sha viloyat FMTXning boshlig'i bo'lib, viloyat tarkibiga kiruvchi tumanlar shaharlarning sog'liqni saqlash boshliqlari o'z tumani, shahrining FMTX bo'limining boshlig'i uning markaziy shtab boshlig'i hisoblanadilar. Korxonalar ixtiyoridagi tibbiy maskanlar bosh hakimlari shu korxonaning FMTX bo'limining boshlig'i va shahar fuqaro muhofazasining ixtiyorida bo'ladi.

Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi ikki taraflama idora etiladi, fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati

boshlig‘i tibbiy masalalar bo‘yicha tuman, shahar, viloyat va nihoyat sog‘liqni saqlash vazirining qaramog‘i hisoblanadilar va ayni paytda o‘zi yashab turgan tuman, viloyat fuqaro muhofazasi shtabi tarkibiga kiradi. Ya’ni kasbiy masalalarni Sog‘liqni saqlash vazirligi orqali, maxsus masalalarni esa, fuqarolar muhofazasining mahalliy shtabi orqali hal qiladi. FMTX tashkilotlarining viloyat, tumanlarda va ishlab chiqarish korxonalarida (obyektlarda) tibbiy xizmat boshliqlari rahbarlari hisoblanadilar, ular o‘z ixtiyorlarida bo‘lgan viloyat, tuman yoki korxonada FMTXni tashkil etadilar. Ular favqulodda vaziyatni e‘tiborga olgan holda dori-darmon, sanitар xo‘jalik va boshqa anjom va mahsulotlar, texnik vositalar bilan ta’milishni talab etadi. Ular korxona FMning shtabi boshlig‘idirlar. FMTX shtabining tarkibiga sog‘liqni saqlash tizimi boshliqlari, bosh mutaxassislar, Qizil yarim oy jamiyati vakillari, transport yo‘nalishlari bosh hakimlari (temir yo‘l, aeroport, portlar va hokazo) kiradi.

Umumiy tayyorlanish tinchlik davrida FMTX shtabi kadrlar bilan doimo jangovar tayyor bo‘lish uchun harbiy mashqlar o‘tqazib, ularni favqulodda vaziyatlarda bajarilishi zarur bo‘lgan ishlarga o‘rgatib boradi. Jangovarlik, tayyorgarlik favqulodda tabiiy ofatlar, avariya va katastrofalar sharoitida fuqarolar muhofazasining shoshilinch chaqiruv signallarida qanday harakat qilishlikni, qutqarish, qayta tiklash ishlarini o‘choqda rejaga asosan bajarishlikni har kimni o‘ziga belgilangan mebilizatsiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘rgatadi. Fuqarolar muhofazasi shtabining tibbiy xizmati bo‘limi boshlig‘ining bajaradigan vazifalari:

- bo‘lim mutaxassisliklarini maxsus tayyorlash;
- har doim vaziyatlarni o‘rganish, tayyor turish;
- o‘z ixtiyorida bo‘lgan tibbiy xizmat bo‘limlariga vaziyatni yetkazish, vazifalarini aniqlash;
- muhim aloqa o‘rnatish, shoshilinch-chaqiruv tizimi signallarini ta’min etish;
- o‘z ixtiyorida bo‘lgan xodimlarga amaliy, moddiy yordam berish;

- SD, SDO, BTYO. ITYBlarni ishlash rejalarini tuzish va ularni tegishli mutaxassislariga o‘z vaqtida yetkazish, vaziyatni aniqlash kabi vazifalar.

Favqulodda hodisa xavfi tug‘ilganda fuqaro muhofazasi barcha xizmatlarni, shu jumladan, tibbiy xizmat bo‘limlarini jangovar shay holatga keltiradi:

- har bir hudud FMTX boshlig‘i o‘z hududida uning ixtiyorida bo‘lgan tibbiy sanitar muassasalarining faoliyatini o‘z hududi bo‘yicha shoshilinch chaqiradi;

- aholini evakuatsiyalash jarayonida o‘choqda evakuatsiyalash yo‘lida va evakuatsiyalangan yerda tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etadi;

- tibbiy xizmat bo‘limlarini kadrlar bilan, tibbiy anjomlar, dori-darmonlar bilan, shtat birliklari darajasida to‘ldirib boradi;

- shoshilinch chaqiruv orqali yetib kelgan mutaxassislar bilan jangovar hozirlik chora-tadbirlariga tayyorlikni o‘rgatib boradi;

- tibbiy saralash, qabul qilish, tibbiy yordam ko‘rsatish, shahardan tashqariga evakuatsiyalash ishlariga boshchilik qiladi;

- davolash-diagnostik bo‘limlar ishini nazorat qiladi;

- FMTX bo‘limlarini ko‘chirish, ish bilan to‘g‘ri taqsimotini ta’min etadi;

- yuqori tashkilot tibbiy xizmati shtabiga zarur ma’lumotlarni o‘z vaqtida yetkazib turadi;

- o‘z himoyasida bo‘lgan bo‘limlarga har tomonlama yordam ko‘rsatadi;

- yon qo‘shti tibbiy xizmat bo‘limlari bilan uzviy aloqa o‘rnatib, hamkorlik ishlarini birgalikda bajarilishini ta’min etadi;

- viloyat sog‘lijni saqlash bo‘limi mudiri shu viloyat fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati bo‘limining boshlig‘i hisoblanadi. Uning ixtiyorida viloyat fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko‘rsatish shtabi bo‘lib, shtabning tarkibiga shtab boshlig‘ining:

- davolash-profilaktika ishi bo‘yicha yordamchi;

- sanitar epidemiologik xizmat bo‘yicha yordamchi;

- evakuatsiyalash bo‘yicha yordamchi;

- tibbiy ta’midot bo‘yicha yordamchi;

- yoppasiga bo‘limlarni tashkil qilish bo‘yicha yordamchi;

- qon tayyorlash, tashish, quyish xizmati bo'yicha yordamchi;
- shtab tarkibiga bosh mutaxassislar – jarroh, terapevt, radiolog, epidemiolog va boshqa mutaxassisliklar kiradi.

Bosh mutaxassislar interaktiv-metodik ko'rgazmalar, qo'llanmalarni tahlil qilish, davolash – profilaktik choralarini favqulodda holatlar sharoitida qo'llash, ko'rgazmalarni ishlab chiqadi, ularning bajarilishini nazorat qiladi. Bosh mutaxassislar davolash-profilaktika evakuatsiyalashning barcha bosqichlarida tibbiy yordam ko'rsatishni sifatini nazorat qiladi. Ushbu tartib tuman, shahar, qishloqda bir xil tartibda joriy etiladi, ya'ni tuman sog'liqni saqlash bo'limi mudiri ixtiyorida tuman fuqaro muhofazasi tibbiy xizmat bo'limlari **bo'lib**, ularning ishini viloyat sog'liqni saqlash bo'limi mudiri **singari** o'z tumani chegarasida tashkil qiladi.

Tuman FMTX boshlig'i umumiy savollar bo'yicha tuman fuqarolar muhofazasi boshlig'iga, tuman hokimiga, maxsus masalalar bo'yicha esa, viloyat sog'liqni saqlash boshlig'iga bo'ysunadi. Shu tarzda shahar sog'liqni saqlash boshlig'i tuman sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'iga, qishloqlarda qishloq hakimlik markazi boshlig'i tuman tibbiy xizmat bo'limi boshlig'iga bo'ysunadi. Ishlash tartiblari ham bir-biridan farq qilmaydi. Qishloq FMTX boshlig'i ixtiyorida shtab bo'lib, uning tarkibiga:

- shtab boshlig'i, shtab boshlig'ining davolash-profilaktika bo'yicha yordamchisi;
- sanitар-epidemiologik xizmat bo'yicha yordamchisi;
- tibbiy ta'minot bo'yicha shtab boshlig'i yordamchisi;
- yoppasiga tibbiy tuzilmalar bo'yicha yordamchisi;
- qishloq, tuman tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limining bosh vazifalaridan biri qishloqqa evakuatsiya qilinadigan aholini tibbiy xizmat bilan ta'min etish kiradi.


Odatda har bir tumanda bitta kasalxona kollektorini tashkil qilish rejalashtiriladi. Bunda markaziy tuman kasalxonasi bosh kasalxonaga, qishloq markaziy kasalxonalari, ixtisoslashgan kasalxonaga mo'ljallab tashkil qilinishi mumkin. Tumandagi harakatlanish qobiliyatiga ega bo'lgan **davolash-profilaktika** tashkilotlari KK yoki KBlari tarkibiga kirmagan, rezerv kuchlar

hisoblanadilar. Favqulodda vaziyatlarda ular o'choqning oqibatini yo'qotish ishlariga jalg qilinishlari mumkin. Bundan tashqari, fuqarolar muhofazasining tashkilotlarida, obyektlarida bo'limlar ham tashkil etiladi. Ularning tarkibiga tibbiy xizmat bo'limlari ham kiradi.

Bunda zavod, fabrika yoki korxonaning tibbiy markazi boshlig'i, shu obyektda tashkil etilgan FMTXning shtab boshlig'i hisoblanadi. U umumiy savollar bo'yicha obyekt fuqarolar muhofazasi shtabi boshlig'iga bo'ysunadi. Tibbiy ta'minot bo'yicha tuman yoki shahar sog'liqni saqlash bo'limining fuqaro muhofazasi tibbiy xizmat ko'rsatish shtabiga qaraydi.

*Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish otryadi* – ITYO. Otryad tibbiyot institutlari, malaka oshirish tibbiyot institutlari va yirik davolash-profilaktika muassasalarining hisobidan tashkil etiladi. Ularning tarkibi 8-17 ta maxsus ixtisoslashtirilgan brigadalardan iborat bo'ladi. Brigadalarda tibbiyotning barcha yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirish ko'zda tutiladi. Har bir brigadaning 5 tagacha a'zosi bo'lishi mo'ljallanadi. Ularning 2 tasi vrach mutaxassis, 2 tasi hamshira, 2 ta shofyor. Bu brigadalar asosan quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha tashkil etiladilar:

1. Neyroquirurgik (N.J)
2. Torakoabdinal (T.A)
3. Yuz-jag' shikastligi (O.B)
4. Oftalmologik (O.B)
5. Travmotolog (T.R)
6. Kuyganlarga yordam (K.B)
7. Umumjarrohlik (U.J)
8. Akusher-ginekologik (A.G)
9. Yuqumli xastaliklar (Yu.X)
10. Psixonevrologik (P.N)
11. Radiologik (R.B)
12. Toksiko-terapevtik (T.T)
13. Rentgenologik (R.R)
14. Urologik (U.R.B)
15. Anesteziologik (A.R)
16. Gemotologik (G.B)
17. Bolalar hakimligi (P.B)



**11-rasm. Maxsus yordam**

Ushbu brigadalarning ishlashlarini tartibga solib borish, boshqarishni yo'lga qo'yish maqsadida umumiy boshqarma, ya'ni ITYO tuziladi. ITYB va ITYO larning vazifalari – jarohatlanish o'chog'idan tashqarida tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlarini mutaxassislik yordami bilan kuchaytirish uchun mo'ljallangan bo'lib, har qaysi brigada o'z mutaxassislik yo'nalishiga mos tibbiy yordam ko'rsatadi. Ular kasalxonalarga, asosan, BTYOlarga yoki KKlarga bosh mutaxassislar ko'rgazmasiga asosan yuboriladilar va ular harakatchan bo'lganlari sababli xohlagan yo'nalishda, aytilgan yerga borib, malakali tibbiy yordam bera oladilar. Ushbu brigadalar mutaxassislari BTYO yoki KK larga ixtisoslashtirilgan maslahat berish uchun ham yuborilishlari mumkin.

Brigadalarning ta'minotiga tabelga binoan maxsus asbob-anjomlar, o'z mutaxassisliklari uchun kerakli dori-darmonlar, vrachlik anjomlari, bir yerdan boshqa joyga, ya'ni kasalxonalardan boshqa kasalxonalarga ko'chib borish uchun sanitarni transport vositasi bilan ta'minlanadilar. Favqulodda vaziyat holatida shu brigadalar singari harakatchan epidemiyaga qarshi brigadalar ham tashkil etiladi.

Bu tuzilmalar shahar, viloyat yoki respublika epidemiologiya stansiyalari hisobidan tuziladilar. Shuningdek, epidemiologik ilmiy-tekshirish institutlari tarkibida ham tashkil etilishlari rejalashtiriladi. Ushbu brigadalar zimmasiga favqulodda hodisa sodir bo‘lgan o‘choqda yoki evakuatsiyalangan manzillarda epidemiologik holatni ushlash va sanitariya-gigiyenik epidemiyaga qarshi ishlarni yuqumli xastaliklar qo‘zg‘ashi xavfi tug‘ilganda bajarishlari zarur bo‘lgan vazifalar yuklatiladi. Ularning ta’midotida antibiotiklar, bakterial preparatlar, laboratoriya-tekshirish tashxislari uchun anjomlar, test-zardoblari hamda DDA – dezinfeksiyalash dushlari avtomashinalari, avtolaboratoriylar, avtopritseplar, yuk tashuvchi va yengil avtomobillar, shaxsiy va ommaviy himoya kiyim va moslamalari bilan ta’milanadilar. MEQB otryadlarida boshqarma – sanitariya-epidemiologik laboratoriya, dezinfeksiyalash bo‘limidan iborat. Laboratoriya bo‘limi o‘z o‘rnida bakteriologik, sanitariya-gigiyenik va radiologik laboratoriylar bo‘limlaridan iborat bo‘ladi. Bulardan tashqari favqulodda vaziyat o‘chog‘ida o‘ta xavfli holat yuz berishi mumkin. Masalan: o‘lat, vabo kabilar, shuni nazarda tutib fuqarolar muhofazasi tibbiy xizmat bo‘limlari tarkibida maxsus epidemiyaga qarshi brigadalar – MEQB o‘latga qarshi stansiyalar hisobidan tuziladilar. Bular o‘ta xavfli yuqumli xastaliklar o‘chog‘idan o‘latga qarshi institut hisobidan 31 kishilik shtat bilan va o‘latga qarshi viloyat stansiyasi hisobidan 21 kishilik shtat bilan tuziladilar.

MEQB ixtiyorida o‘ta xavfli yuqumli xastaliklar o‘chog‘ida ishslash uchun maxsus anjomlar va moslamalar texnik vositalar bilan ta’min etiladilar.

### **FMTXning statsionarlari**

Favqulodda vaziyat holatida jarohatlanganlarga o‘choqda tibbiy yordam ko‘rsatib, ularni ikkinchi bosqich, ya’ni o‘choqdan tashqarida evakuatsiyalanish yo‘nalishida yotqizib, to tuzalguncha davolash uchun statsionarlar tashkil etiladi. Bu tashkilotlar markaziy tuman, shahar, viloyat kasalxonalari

tarkibida tashkil qilinib, evakuatsiya etish yo'lida har xil masofalarda 25–50, 50–100 kmgacha joylashtiriladi. FMning tibbiy xizmati statsionarlariga KB – kasalxonalar bazalari, KK – kasalxonalar kollektorlari, ixtisoslik yo'nalishitdagi turli xil kasalxonalar, bosh kasalxonalar – BK, saralash evakuatsiyalash kasalxonalari – SEK, evako-qabul qilish punktlari – EP, yengil jarohatlanganlarni qabul qilish punktlari, yengil va nihoyat alohida ta'minot guruhlari, tibbiy ta'minot zaxiralari kiradi. Favqulodda vaziyat sharoitida statsionar davolanish asosan KB-kasalxonalar bazasida bajariladi, ular o'choqdan tashqarida fuqarolar muhofazasining rejasiga asosan mahalliy hokimiyatning qarori bilan viloyat sog'liqni saqlash bo'limi boshchiligi va qaramog'ida davolash-profilaktika muassasalari tarkibi bilan tashkil etilib, jihozlari, ta'minotlari bilan evakuatsiyalish yo'nalishitida, statsionar davolash ishlarini bajaradilar.

*KB-kasalxonalar bazasi.* Kasalxona bazasi bu bir necha davolash-profilaktika tuzilmalari yig'indisining yagona rahbarlikka bo'ysundirilgan kompleksidir. U davolash qutqarish jarayonining 2-bosqichi bo'lib, fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatishdagi asosiy tashkilotlari hisoblanadi. Ayni paytda bular oxirgi yakunlovchi etap – bosqich hisoblanadilar. Ushbu tashkilotlar maqsadli yo'nalishit tartibida tuziladilar. KBni tashkil etish uchun doimiy ishlab turgan kasalxonalarni favqulodda vaziyatlarda rejalshtirilgan yo'naliish bo'yicha tuzilmalar, shahardan tashqarida 25–50 km masofada joylashgan statsionarlar, mакtablar, yirik korxonalar idoralarining imoratlariga ko'chirib joylashtiriladilar. Jarohatlanish o'chog'idan to 100 km gacha masofada bir necha o'nlab kasalxonalarning joylashtirilishi bir necha tumanlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu kasalxonalar yagona tartibda faoliyat ko'rsatishining tashkiliy nazoratini joriy etish uchun operativ boshqarma tuziladi. Bu boshqarma barcha kasalxonalarni, jarohatlanganlarni qabul qilish o'rinnlar to'ldirish tartibi, ta'minoti va umumiy masalalar bo'yicha asosiy koordinatsion markaz bo'lib, yagona rahbariyatga itoat qildirib tuziladi.

KBning asosiy vazifasi: **jarohatlanish o'chog'idan evakuatsiya etilganlarni qabul qilish, tibbiy saralashdan**

o'tkazish, jarohatlanganlarni va bemorlarni joylashtirish, ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish, ularni to oxirgi natijalargacha, ya'ni to'la davolash olib borish, davolash jarayonidagi barcha davolash-profilaktika natijalarini, asoratlarini, o'limlar sabablarini statistik muhokama etib o'rganish, ularni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish, tibbiy statistika ishlarini bajarish kabilar kiradi.

KBda koykalar jarohatlanish o'chog'idagi ishchilar soniga hamda yashaydigan aholi soniga qarab belgilanadi. Statsionarlar sonini, ularning quvvatini rejashtirishda barcha aholining 60% gacha ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga ehtiyoji bo'lishi nazarda tutiladi. Masalan: 60000 aholisi bo'lgan shahar uchun 30 000 o'rinali kasalxonalar bazasi tashkil qilinishi kerak. Bu o'rtacha 60 ta kasalxona bo'ladi. Shuning uchun KB yirik kompleks tarzida qabul qilinishi kerak.

Shuncha keng tarmoqli kasalxonalar faoliyatining ta'minoti ish yo'nalishlarini koordinatsiyalash uchun albatta ratsionlashtirilgan bo'limlar bo'lishi kerak. Buning uchun kasalxonalar kollektorlarining 6-8 guruhi bitta kasalxona bazasi tarkibiga kiritilib, umumiy boshqarmaga bo'ysunadilar.

Demak, KK – kasalxona kollektorlari KBning tarkibi va asosi hisoblanadilar. KK sodir bo'lgan o'choqning turiga qarab sanitар yo'qotishlar tartibiga moslashtiriladilar. Bu holat doimiy bo'lmay, vaziyatga qarab o'zgartirilishi mumkin. Favqulodda vaziyatning tibbiy taktik baholanishi mahalliy sharoitlarni e'tiborga olgan holda belgilanadi. KK tarkibida bir necha yo'nalishda faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangan kasalxonalar bo'lib, ular fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish tizimiga kiradi. Bunda har qanaqa jarohatlanishlarga maxsus ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatini yaratish nazarda tutilishi lozim.

KK tarkibida quyidagi mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirilgan kasalxonalar tuziladi:

- neyroquirurgik (NX)
- torako-abdominal (TA)
- travmatologik (TR)
- uzun suyaklar va katta bo'g'inlar jarohatlari (VJ)



### 12-rasm.

1-kuyishda yordam; 2-shokka  
qarshi davolash; 3- aseptik  
tozalash

- san, kasalxonalar boshqarmasi hisoblanadi.  
Bu kasalxonalar ya’ni SEK-KB asosan;
- jarohatlanganlarni qabul qilish;
  - tibbiy saralashdan o’tkazish;
  - jarohatlanganlarni bo’limlarga, KKning kasalxonalariga taqsimlash;
  - transportlashga qodir bo’lmaganlarni vaqtinchalik yotqizish;

- kuyganlar uchun kasalxona (IB)
- psixonevrologik (PN)
- yengil jarohatlanganlar uchun (GLR)

Ixtisoslashtirilgan kasalxonalarining turi, qobiliyati, soni kasalxona kollektori tarkibida doimiy emas, u vaziyatga qarab o’zgarishi mumkin. Bunda sodir bo’lgan o’choqning turiga, kollektor uchun ajratilgan imoratlarning hajmiga, kollektorning o’choqqa nisbatan joylashganligiga qarab belgilash mumkin.

Kasalxonalarning ixtisoslashishlari esa, sanitar yo’qotishlarning soni, turiga, kasalxonani moslash-tirish uchun shart-sharoitlarga, yo’llarning qulayligi, bemorlarni bo’limlar orasida ko’chirish shoxobchalariga qarab tuziladi. KK-kasalxona kollektorining boshida har doim saralash-evakuatsiyalash kasalxonasi (SEK) turadi. Ayrim holatlarda esa, saralash evakuatsiyalash kasalxonasi bilan bosh evakuatsiyalash kasalxonasi ham tashkil etiladi.

Bosh kasalxona markaziy tuman kasalxonasi hisobidan tuzilib, aso-

- yotqizilgan jarohatlanganlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish;

- ixtisoslashtirilgan va malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun tayinlangan.

KK tarkibidagi kasalxonalar ustidan nazorat olib borish:

- tibbiy statistik hujjatlarni targ'ib qilish;

- davolash jarayonida sodir bo'lган asoratlarni muhokama qilish;

- og'ir asoratlar, o'limlar oldini olish, muhokamalar o'tkazish va boshqa vazifalarni bajaradi.

Saralash va evakuatsiyalash kasalxonasi bilan bosh kasalxonaning tarkibiy tuzilishi bir xil, bir-biridan farq qilmaydi. Lekin saralash evakuatsiyalash kasalxonaning shtatlari, KB dan ko'п hamda qabul qilish, saralash, yotqizish imkoniyati ham kattaligi bilan farq qiladi. SEK tarkibiga tibbiy taqsimlash guruhi – TTG, UTYB-ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam brigadalari va evako qabul punktlari EP kiradi. KB tarkibida esa bu bo'limlar bo'lmaydi.

Saralash evakuatsiyalash kasalxonasining quvvati 500-1000 o'ringa mo'ljallangan bo'lsa, KBning quvvati 300-500 o'ringacha mo'ljallanadi. Har bir SEK va KB da quyidagi bo'limlar tuzilishi mo'ljallanishi kerak:

- boshqaruv bo'limi;

- qabul qilish va saralash bo'limi;

- jarrohlik va bog'lagich bo'limi;

- reanimatsiya shoshilinch yordam bo'limi;

- shokka qarshi kurashish bo'limi;

- anaerob bo'limi;

- tug'ruqxona bo'limi;

- psixoizolator;

- qo'shimcha tibbiy tashxislar bo'limlari;

- xo'jalik ta'minoti bo'limlari.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam kasalxonalarini kasalxona kollektorining tarkibiga kiradi. Ular jarohatlanganlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishda ma'lum darajada oxirigacha davolash bosqichi hisoblanadilar.

Ixtisoslashtirilgan kasalxonalarining asosiy vazifalari:

- qabul qilish va tibbiy saralash;
- maxsus ixtisoslar bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatish;
- jarohatlanganlarni statsionar yotqizib davolash;
- dozimetrik nazorat o'tkazish;
- jarohatlanganlarni sanitarni tozalash;
- **degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfeksiyadan kiyimboshchlarni, himoya vositalarini hamda transport vositalarini o'tkazish;**
- ruhiy xastaliklar va yuqumli xastalikka shubha tug'ilganda ularni izolatsiyalash;
- tibbiy hisoblashlar va hisobotlar olib borish.

Ixtisoslashtirilgan kasalxonalarning joylashishi uchun, odatda, tuman markaziy kasalxonalarini, qishloq uchastka kasalxonalarini, shu yerda joylashgan sanatoriylar, dam olish uylari, maktab binolari, yotoqxonalar, bolalar dam olish joylari, sayyoqlar dam olish uylari kabi muassasalarda tashkil etiladi. Ixtisoslashtirilgan kasalxonalarning quvvati 200 dan 1000 o'ringacha bo'lishi mumkin.

Kasalxonalar yo'nalishiga qarab jihozlanadilar, maxsus texnik vositalar, tibbiyt mutaxassisligi bo'yicha asboblar va dordinarmonlar bilan ta'minlanadilar. Favqulodda vaziyatda yer qimirlashi, suv toshqini, yong'inlar, avariya va katastrofalarda ayniqsa, yadroviy qurol o'chog'ida ixtisoslashtirilgan jarrohlik yo'nalishi bo'yicha, kimyoviy zaharlanish o'chog'ida, yuqumli xastaliklar paytida esa, ko'pincha terapevtik yo'nalishda ixtisoslashtiriladi. Har ikkala holatda ham kasalxonalar kollektori tarkibida terapevtik, yuqumli kasalliklar, ruhiy xastaliklar kasalxonalari tashkil etilishi ko'zda tutilmog'i maqsadga muvofiq deb topilgan. Har bir ixtisos yo'nalishidagi kasalxona uchun boshqaruv, tibbiy amaliyot va yordamchi xo'jalik bo'limlari tashkil etilishi shart. Boshqarma bo'limi barcha ixtisoslashgan kasalxonalar uchun bir xil turda, ya'ni kasalxonaning bosh hakimi va uning tibbiy davolash bo'yicha yordamchisi, umumiy tartibni himoyalash bo'yicha yordamchisi, xo'jalik ishlari bo'yicha yordamchisi, administrativ, iqtisodiy masalalar bo'yicha yordamchilari, ularning xizmat yuritish bo'limlari kiradilar.

Tibbiy amaliyot bo‘limida esa, qabul qilish bo‘limi, jarrohlik va bog‘lagich hamda gospital bo‘limlaridan, yordamchi tashxislar – rentgen, laboratoriyalardan iborat bo‘ladi. Har qisi ixtisoslashtirilgan kasalxonalar yo‘nalishiga qarab ichki tizimlari bilan bir-biridan farq qiladilar.

*Neyroxiturgik kasalxona* – bosh miya, bo‘yin, umurtqa pog‘onasi, ko‘z, qulqoq, burun, yuz-jag‘ hamda periferik nervlar jarohatlanishida ixtisoslashtirilgan, mala-kali tibbiy yordam ko‘rsatishga mos-lashtiriladi.



13-rasm.

Qoringa suqilgan  
jismni  
bog‘lash

*Torako-abdominal kasalxona* – ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘i organlari jarohatlanishida, buyrak, kichik toz organlarining jarohatlanishi uchun ixtisoslashadi.

*Travmatologik kasalxona* – son va katta bo‘g‘inlar jarohatlanishiga moslashtiriladi, ayrim vaziyatlarda ular travmatologiyaning barcha patalogiyalarini davolash uchun ham moslashtiriladilar. Kuyish va kuyganlar uchun ixtisoslashtirilgan kasalxonalar termik kuyishlarning barcha turlarini davolash uchun, shokka qarshi kurashish uchun va boshqa shikastalarni ham davolashga moslashtirilishlari kerak, chunki kuyish holatlari ko‘pincha aralash tur jarohatlanishlar bilan birgalikda uchrashi mumkin.

*Terapevtik kasalxonalar* – asosan nur xastaligi bilan, har xil zaharlardan zaharlanish holatlari hamda umumsomatik kasalliklari bo‘lgan yurak-qon tomir xastaligi va o‘pka nafas yo‘llari patologiyasi holatlarini davolashga mo‘ljallananadilar. Bu kasalxonalarda, shuningdek, oshqozon-ichak patologiyasi hamda boshqa terapevtik kasalliklarni yotqizish, tashxis qo‘yish, davolash ishlariga moslashtiriladilar.

*Yuqumli kasalliklar kasalxonalari* – asosan barcha yuqumli kasalga chalinganlarni qabul qilish, yotqizish, izolatsiyalash va davolashga moslashgan tartibda tashkil etiladilar. Ularning quvvati asosan yuqumli o‘choq turiga bog‘liq bo‘lib, quvvati 700-800 odamga ixtisoslashtirilgan yordamni 1 sutkada ko‘rsata olish qobiliyati bilan tuziladilar.

*Yengil jarohatlanganlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish kasalxonasi* – asosan statsionar yotib davolanishga moslashtiriladi. Ular tarkibida ambulatoriya-poliklinika bo'limlari evako qabul punktlari (EP) kabilar tashkil qilinadi. EPlar temir yo'l, avtomobil, aeroportlarda tashkil qilinadilar. Ular jarohatlanganlarni transport vositalariga yuklash, evakuatsiyalash uchun qulay yerda tuziladilar. EPlarning assosiy vazifalari – evakuatsiyalash uchun keltirilgan jarohatlanganlarni qabul qilish, vaqtinchalik joylashtirish, ularni transport vositalariga yuklash, evakuatsiyalanish jarayonida ahvoli og'irlashganlarga shoshilinch yoki ko'rgazmali tibbiy yordam ko'rsatish kabilar kiradi. Tashkiliy yo'nalish bo'yicha EPlar SEK – saralash va evakuatsiyalash kasalxonalari tarkibiga kiradilar. Ularning shtatlari doimiy vaziyatga, jarohatlanishlar soni darajasiga qarab o'zgarishi mumkin.

## **SANITAR-GIGIYENIK VA EPIDEMIYAGA QARSHI ISHLAR**

Favqulodda vaziyatlarda sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil qilish, favqulodda vaziyatlarda aholi orasida xavfli epidemiologik holatlarni oldini olish fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Tibbiy yoki texnogen xususiyatli holatlarda aholi turarjoylarida suv va oziq-ovqat ta'minoti bilan communal yashash sharoitlari tubdan qiyinlashadi. Natijada tibbiy ofatlar o'chog'ida epidemiologik holat yuzaga kelib, favqulodda vaziyatdan ko'ra ko'proq zarar yetkazishi mumkin. Epidemiyaga qarshi o'tkazilishi shart bo'lgan tadbirlar favqulodda vaziyatda sodir bo'lgan sanitar yo'qotishlar o'chog'ida, uning oqibatlarini bartaraf etish jarayonlarida hamda davolash-profilaktika muassasalarida aholini evakuatsiya etish jarayonida va evakuatsiya etilgan vaqtinchalik yashash joylarida olib borilishi shart. FMTXning sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi ishlarini sanepidstansiyalar mutaxassislari, sanitariya va epidemiyaga qarshi stansiya xodimlari bajaradilar. Sanitariya va epidemiyaga qarshi tuzilmalar tashkil etiladi va bu tuzilmalarga dalada harakatchan epidemiyaga qarshi otryadlar – DHEQO, ixtisoslashtirilgan epidemiyaga qarshi brigadalar – IEQB, gigiyenik bakteriologik va virusologik laboratoriylar shular jumlasiga kiradi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan holatlarda sanitargigiyenik va epidemiyaga qarshi ishlar quyidagi yo'nalishlar asosida tashkil etiladi:

- sanitar yo'qotishlar o'chog'ida yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish, epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish;
- jarohatlanish o'chog'i va jarohatlanganlarni davolash bosqichlarida epidemiologik turg'unlikni ta'minlash;
- davolash evakuatsiyalash bosqichlarida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish;

- kasalxonalarda kasalxona ichi yuqumli kasalliklarining oldini olish;
- tibbiyot xodimlari orasida yuqumli xastaliklar tarqalishining oldini olish;
- jarohatlanish o'chog'ida halok bo'lgan odamlarni, halok bo'lgan jonivorlarni dafn etish;
- jarohatlanish o'chog'ida dezinfeksiya, degazatsiya va dezaktivatsiya – DDD o'tkazish;
- epidemiologik ko'rsatkichlarga asoslanib, maqsadli va shoshilinch emlashlar o'tkazish;
- epidko'rsatkichlarga asoslanib, karantin va observatsiya ishlarini yo'lga qo'yish;
- o'choqda va tibbiy evakuatsiya bosqichlarida himoya vositalarida ishlashni tashkil etish;
- jarohatlanganlarni tibbiy saralash, unda yuqumli xastaliklar belgilariga alohida e'tibor berib, kasallik aniqlanganda izolatsiya etib, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri va qisman muloqotlarni to'xtatish;
- yuqumli xastaliklar aniqlanganda ularni boshqa jarohatlanganlardan ajratib, tibbiy yordamni boshqa-boshqa ko'rsatish;
- jarohatlanish o'chog'ida va tibbiy evakuatsiya bosqichlarida **maxsus ishlov** o'tkazish;
- yuqumli kasallanganlarni evakuatsiya etishni alohida bajarish, buning uchun maxsus transport vositalarini ajratish hamda transport vositalarini dezinfeksiyalash;
- jarohatlanish o'chog'ida yuqumli kasalliklar aniqlansa yoki epidemiologik vaziyat sodir bo'lsa, o'choqdan evakuatsiya yo'naliishi bo'yicha chiquvchi barcha transport vositalari, odamlar, tibbiyot xodimlarini maxsus ishlovdan o'tkazish;
- epidemiologik holat sodir bo'lganda jarohatlanganlarni faqat kasalxona kollektorigacha evakuatsiya etish mumkin va kasalxona kollektorida karantin belgilanib, to'la davolanish ishlarini shu bosqichda o'tkaziladi;
- bakteriologik o'choq aniqlangandan so'ng sanitargigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlar yuqumli xastalik turiga qarab belgilanadi;

- sanitар yo'qotishlar o'chog'ida o'ta xavfli yuqumli kasalliklar aniqlansa, unda o'choqda to'la karantin e'lon qilinadi.

Favqulodda vaziyatda sodir bo'lgan o'choqda sanitар-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlar avvalambor, sodir bo'lgan o'choqdagi holatdan kelib chiqib rejalashtiriladi. O'choqda va o'choqdan tashqarida olib boriladigan davolash va evakuatsiyalash jarayonlarining barcha bosqichlarini, sanitар-gigiyenik va epidemiyaga qarshi hamda maxsus chegaraviy tadbirlarni fuqaro muhofazasi tartibiga kiritilgan sanitар-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tuzilmalar tomonidan epidemiologik holatni turg'un saqlash maqsadida bajarish kerak. Sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi ishlarning hajmi va yo'nalishi sodir bo'lgan o'choqning tibbiy taktik xususiyatiga bog'liq. Favqulodda vaziyatlarda sanitар yo'qotishlar o'choqda, aholini evakuatsiya etilgan joylarda hamda jarohat olganlarni tibbiy davolash bosqichlarida epidemiologik holat baholanib, sodir bo'lgan holatga asoslanib, epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishi rejalashtiriladi. Bevosita bajariladigan ishlar ularning ketma-ketliklari epidemiologik holatdan kelib chiqib belgilanadi.

Sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi ishlarni o'choqda va o'choqdan tashqarida tibbiy evakuatsiya yo'nalishida sanitariya va epidemiologiya xizmati tomonidan bajariladi. Aholi orasida va jarohatlanganlar orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olishga qaratilgan barcha tadbirlar epidemiologik ko'rsatkichlar aniqlanishi bilan tez va shoshilinch yo'lga qo'yilishi, bu xizmatga jalb qilinishi, zudlik bilan choratadbirlar o'tkazilishi zarur. Epidemiologik holatga asoslanib o'choqda epidemiyaga qarshi ishlarni o'tkazish uchun fuqarolar muhofazasi tuzilmalari, dalada harakatchan epidemiyaga qarshi otryadlar, epidemiyaga qarshi maxsus brigadalar, birinchi tibbiy yordam otryadlari, sanitар drujinachilar, sanepidstansiylar hamda zarurat tug'ilsa harbiy tibbiy xizmat qismlari ham jalb qilinadilar. Fuqarolar muhofazasi tuzilmalari tarkibida epidemiyaga qarshi ishlarni va yuqumli xastaliklarni bartaraf etishga safarbar etilishi zarur bo'lgan asosiy tuzilmalar sanitariya

va epidemiologiya stansiyalari tomonidan bajarilishi kerak. SES tarkibida sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi ishlar, vazifalar ishlab chiqiladi va SES mutaxassislari tomonidan laborator nazorat sanepidekspertiza xizmati yo'lgan qo'yiladi. Eng avvalo, ichimlik suvi, oziq-ovqat mahsulotlari bakteriologik tekshiruvdan o'tkazish uchun indikatsiya qilinadi. Epidemiyaga qarshi ishlar atrof-muhit, yashash joylarida, vayronaga uchragan imoratlarda, halokatga uchrab halok bo'lgan odamlarni, hayvonlarni izlab topish va ularni dafn etish uchun tuzilgan maxsus brigadalar tomonidan tez va shoshilinch bajarilishi talab etiladi, aks holda jarohatlanish o'chog'ida xavfli epidemiologik holat sodir bo'lishi mumkin. Shuni nazarda tutgan holda favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimida sanepidxizmati, uning laboratoriyalari favqulodda vaziyat o'chog'ida doimiy epidemiologik nazorat o'rnatishi, doimiy monitoring o'tkazib, suv, oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirib, ekspert xulosalar berib borishi kerak. Favqulodda vaziyat o'chog'ida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tuzilma dalada harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad hisoblanadi.

*DHEQO – dalada harakatchan epidemiyaga qarshi otryad.* DHEQO – fuqarolar muhofazasining epidemiyaga qarshi tuzilmasi hisoblanadi. Otryad sanitariya epidemiologiya stansiyalari tarkibida tuziladi. Favqulodda vaziyatda otryad sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi muammolarni tez hal qilish orqali aholini FVda epidemiologik himoyalanishini ta'min etadi. Harakatchan epidemiyaga qarshi otryadning tashkil etilishi, ta'minoti va uning ishlashini viloyat, shahar, respublika sanepidstansiyalari tomonidan boshqarib boriladi.

HEQOning asosiy vazifalari quyidagilar:

- favqulodda vaziyat obyektlarida bakteriologik razvedka-qidiruv olib borib, tashqi muhitdan havo, suv, oziq-ovqat mahsulotlaridan laborator tekshiruv uchun namunalar olib, sanepidstansiyalarning laboratoriyasiga tekshirish va ekspert xulosa chiqarish uchun yuborish;

- o'choqda epidemiologik tekshiruv o'tkazish va uning natijalariga ko'ra vaziyatni baholash, epidemiologik xulosalar berish va epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish;

- o'choqda va o'choqdan tashqarida favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalg etilgan fuqarolar muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkibini epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazishga o'rgatish, o'qitish;

- ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlarini yuqumli va o'ta xavfli yuqumli xastaliklar qo'zg'atuvchi infektion zararlanganlik darajasini aniqlab, ekspert xulosa berish, oziq-ovqat va ichimlik suvini tozalash, iste'mol qilish tartibi yoki yo'qotish to'g'risida ekspert xulosa berish;

- ayrim holatlarda kimyoviy o'choqda jarohatlanganlarni sanitar tozalashdan o'tkazish, ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlari, texnik vositalarni degazatsiya, dezinfeksiyadan o'tkazish.

*EQIB – epidemiyaga qarshi maxsus ixtisoslashtirilgan brigadalar.* EQIB – fuqaro muhofazasi xizmatining maxsus tuzilmasi hisoblanib, FMTXning harakatchan tuzilmasi sanaladi va odatda ularga qarshi stansiyalar tarkibida tuziladilar. Bu brigadalar fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish tuzilmalariga yuqori malakali metodik maslahatlar berish hamda favqulodda vaziyatlarda yoppasiga yuqumli kasalliklar tarqalishi sodir bo'lsa, uning oqibatlarini tugatishga amaliy yordam beradi. Ixtisoslashtirilgan epidemiyaga qarshi brigadalarning asosiy vazifalari:

- bakteriologik qidiruv (razvedka) o'tkazish;

- maxsus indikatsiya orqali bakteriologik identifikatsiya o'tkazish;

- sanepidstansiya mutaxassislariga amaliy metodik yordam berish, bakteriologik maxsus indikatsiya o'tkazish;

- davolash-profilaktika muassasalarida bakteriologik tekshiruvlarda yuqumli xastaliklar diagnostikasida metodik yordam ko'rsatish;

- fuqarolar muhofazasi shtabiga karantin va observatsiya tartibi, xalq xo'jaligi obyektlarida ishlash tartibi, kommunal xo'jaligi, umumiy ovqatlanish obyektlarida, savdo shoxob-chalarida epidemiyaga qarshi tadbirlarni yo'lga qo'yish, karantin tartibini o'rnatish, aholi orasida shoshilinch emlash o'tkazish hamda o'choqda dezinfeksiya tadbirlarini bajarishdan iborat.

Epidemiologik o'choqda fuqaro muhofazasi shtabi xizmati, obyektlar muhofazasi bilan hamkorlikda o'choq va o'choq atrofida epidemiyalari holatlarini bartaraf etish tadbirlariga qatnashish, dezinfeksion tadbirlarni o'tkazish, favqulodda vaziyatlarda sanitardan yo'qotish o'choqlarida sanitargigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni fuqarolar muhofazasining tuzilmalari bilan hamkorlikda o'z vaqtida to'la va ishonchli olib borish, o'choqda va o'choq atrofida aholi orasida yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olishga omil bo'la oladi.

Favqulodda vaziyatlarda sanitardan yo'qotish o'choqlarida epidemiyaga qarshi tadbirlarning asosiy qismlarini birinchi tibbiy yordam otryadlari bajaradi. Sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishda BTYoga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- jarohatlanish o'choqlarida tibbiy (razvedka) qidiruv ishlarini bajarish;
- jarohatlanganlarga birinchi vrachlik yordamini ko'rsatish;
- jarohat olgan aholini tibbiy saralash, izolatsiyalash, vaqtinchalik yotqizish, davolash, vaqtinchalik ovqatlantirish;
- yuqumli xastaliklar va psixik holatlarda vaqtinchalik izolatsiya etish;
- yoppasiga sanitardan yo'qotish o'chog'ida sanitargigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni bajarish;
- jarohatlanganlarga to'la bo'lмаган, qisman sanitartozalash o'tkazish;
- kiyim-bosh, ko'rpa-to'shak, oyoq kiyimlarini dezinfeksiyalash, degazatsiyalash;
- BTYO shaxsiy tarkibini ish smenalaridan keyin to'liq sanitartozalashdan o'tkazish;
- yuqumli kasalga chalinganlarni aniqlash, ularni izolatsiyalash, aholi orasida shoshilinch profilaktik emlash o'tkazish;
- aholi orasida sanitartoqartuv tadbirlarini o'tkazish;
- o'choqda karantin, observatsiya tadbirlarida jamoa tartibini saqlash tuzilmalari bilan hamkorlikda epidemik chegaralashni o'tkazish, epidemiologik chegaralashda o'choqni qo'riqlash, kirish-chiqishni to'xtatish, o'choq ichida odamlarning harakatlarini chegaralash, qattiq nazoratda bo'lishi talab etiladi. O'choq ichida faoliyat yurutuvchi barcha fuqarolar epide-

miologik tartibga qattiq rioya etishlari BTYO tomonidan ham o'tkazilishi shart.

Dalada harakatchan epidemiyaga qarshi otryad – DHEQO-ning tarkibiy tuzilishi va tabel asosida ta'minoti quyidagicha:

- Vrachlar - 9 ta.
  - Feldsherlar, laborantlar - 10 ta.
  - Dezinfektorlar - 6 ta.
  - Sanitarlar - 4 ta.
  - Sanitar drujina – bir guruhda 24 ta odam.
  - Shofyorlar - 9 ta.
  - Boshqa mutaxassis - 1ta.
- Jami: 63 ta kishi bo'lishi kerak.
- Avtotransport - 1ta.
  - DDA – 3 ta.
  - UAZ - (yengil avtomobil) – 1ta.
  - Yuk mashinasi – 4 ta.
  - **Avtpritsep – suv tashish uchun – 3 ta.**

Dalada harakatchan epidemiyaga qarshi otryadning tabel ta'minoti:

- **apparatlar**, uskunalar, tibbiy anjomlar, laboratoriya uskunalar;
- laboratoriya shisha idishlari, boshqa rezina sarf etiluvchi matolar;
- radiometrik va dozimetrik **apparatlar**;
- avtotransport va **avtopritsepgaga o'rnatilgan maxsus uskunalar**;
- dezinfeksiyalash va **dezinseksiyalash** apparatlari va moslamalar;
- dezinfeksiyalash moddalar;
- bakteriologik, diagnostik **preparatlar**;
- bakteriologik ekish **preparatlari**;
- reaktivlar, ximik tozalash **preparatlari**;
- antibiotiklar, antidodlar; dori-darmonlar;
- bog'lagich matolari;
- shaxsiy himoya vositalari;
- shaxsiy tarkib uchun maxsus kiyimlar;
- sanitar xo'jalik anjomlari;
- kanselariya ish yuritish kitoblari.

## Boshqaruv DHEKO boshlig'i

Ma'naviyat-ma'rifat  
yordamchisi – 1

Sanitar drujinachilar – 24

Aloqa zvenosi  
Boshliq – 1  
Radist aloqachi – 1  
Shofyor – 1  
Yengil avtomobil – 1

## Bo'limgilari

Sanepid bo'limgi  
Bo'limgi boshlig'i – 1  
Bo'limgi boshlig'ining  
yordamchisi – 1  
Vrachlar – 4  
Shofyor – 1  
Yuk mashinasi – 1

## Laboratoriya

1. Bak laboratoriya – 7
2. Sanitariya-toksikologik – 4
3. Radiologik – 3

Dezinfeksiya bo'limi  
Bo'lim boshlig'i feldsher – 1  
Instruktor dezinfektor – 3  
Dezinfektor – 3  
Shofyor – 4  
DDA – 3  
Yuk mashinasi – 1  
Avtopritsep suv tashish uchun – 3

## Laboratoriya

Sanitariya toksikologik – 4  
Vrach toksikolog – 1  
Feldsher laborant – 2  
Sanitar – 1

Radiologik – 6  
Vrach radiolog – 1  
Teknik radiometrist – 1  
Laborant dozimetrist – 2  
Sanitar – 1  
Shofyor – 1  
Yuk mashinasi – 1

*Sanitar-epidemiologik bo'lim.* Bu bo'lim asosan favqulodda vaziyat o'chog'ida sanependemiologik qidiruv (razvedka), epidemiologik tekshirish, epidemiologik nazorat, aholi orasida shoshilinch profilaktik emlash o'tkazish, o'choq doirasidagi obyektlardan laborator tekshirish uchun namunalar olib, ularni laboratoriya yagona yetkazish, aholi orasida epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash borasida sanitarno-oqartuv ishlarini bajaradi.

*Laboratoriya bo'limi.* Bo'lim harakatchan avtoboratoriyanidan iborat bo'lib, o'choqda ichimlik suvi, oziq-ovqat mahsulotlarini va boshqa mahsulotlarni radioaktiv zaharli va bakteriologik muddalarga – Rm, 3m. Bm. tekshirish o'tkazadi.

*Dezinfeksiyalash bo'limi.* Favqulodda vaziyatlarda sodir bo'lgan o'choqda sanitarno-tozalash, dezinfeksiyalash, degazatsiyalash ishlarini jarohatlanganlarga qidiruv-qutqaruv guruhlari tibbiy yordam guruhlarini shaxsiy tarkibiga bevosita o'tkazadi. Zarurat tug'ilganida esa, oziq-ovqat, ichimlik suvi va boshqa manbalarni ham dezinfeksiyalash, degazatsiyalash, deratizatsiyalash ishlarini ham bajaradi.

DHEQO har qanday sharoitda ham favqulodda vaziyat holatiga doim yetib borish va o'z vazifasini bajarishga shay turishi talab etiladi, buning uchun viloyat, shahar va tumanlar SES tarkibida tuzilgan sanitarno-epidemiyaga qarshi guruh doimo shay bo'lishini ta'minlash kerak.

Sanitariya va epidemiologiya xizmati bosh hakimi tinchlik va doimiy ish jarayonida harakatchan epidemiyaga qarshi otryadning shaxsiy tarkibini to'plashi, ularni shoshilinch holatlarda o'z vazifalarini epidemiologik noqobil holatlarda bajarishlari uchun ularni tabel asosida ta'minoti bilan, o'qitish mashq qildirishiga mas'uldirilar. DHEQOni favqulodda vaziyatlarda shay holatga keltirish fuqarolar muhofazasi borshqarmasi buyrug'i bilan ijro etiladi, buning asosiy yo'nalishi yoki maqsadi quyidagicha:

- otryadning tashkiliy masalalar bo'yicha imkoniyati;
- o'choqda epidemiyaga qarshi tadbirlarni bajara olish uchun fuqaro muhofazasining tibbiy ta'minotini belgilay olishi, epidemiologik vaziyatni aniqlab, aholi orasida yuqumli

kasalliklarni oldini olish uchun barcha tadbirlarni o'tkaza olish imkoniyatliligi;

- otryadning shaxsiy tarkibini shaxsiy himoya vositalari, dori-darmonlar, sanitar xo'jalik anjomlari tabelga mos holda ta'min etilganligi avtotransport, texnik vositalar bilan har doim doimiy shay holatdaligi;

- otryadning shaxsiy tarkibini ish vaqtida va ishdan keyingi sutkaning har qanday vaqtida ham xabardor etilishi, tez, shoshilinch ogoh etilgandan boshlab belgilangan joyga, o'choqqa borib yetishi kabi masalalar, DHEQO boshlig'i doimiy shaylikni ta'min etishi shart.

DHEQO boshlig'i fuqaro muhofazasi shtabi boshlig'idan shaxsiy tarkibni shay holatga keltirish buyrug'ini olishi bilan otryadning shaxsiy tarkibini yig'ib, shtatga mos holda to'ldirishi, aniq rejaga mos holda otryadlarga belgilangan avtotransport texnikasi, aloqa tizimini shoshilinch axborotnomalar bilan to'la ta'minlashni bajarishi kerak. Otryad shaxsiy tarkibining belgilangan joyga yetib kelishi bilan barcha bo'limlarini amaliy ishlashga shayligiga vaqt belgilab, ularni tayyorlanishlariga rahbarlik qilishi kerak.

Otryadning doimiy tayyor bo'lishiga va o'choqda epidemiyaga qarshi tadbirlarni aniq reja asosida bajarishi, sanepidstansiya bosh vrachiga buyuriladi.

Buning uchun bosh vrach DHEQOning ishlashi uchun bo'limlarni joylarda shayligi, shaxsiy tarkibini shoshilinch ogoh etish, ta'minlanish tartibini aniqlab, rejaga kiritishi kerak. Fuqaro muhofazasining shtabi boshlig'i sanitar yo'qotishlar o'chog'ida epidemiologik vaziyatlar vujudga kelish xavfi tug'ilishi ehtimoli paydo bo'lishi bilan shahar, viloyat, sanepidstansiya bosh hakimiga o'choqda epidemiologik qidiruv (razvedka) guruhini yuborish to'g'risida buyruq beradi. Epidqidiruv guruhi tarkibiga vrach epidemiolog, sanitar razvedkachi va shofyor maxsus epidemiologik izlanish olib borish uchun to'plamni yuborishi kerak. Guruh o'choqda chuqurlashtirilgan bakteriologik va epidemiologik tekshirish o'tkazishi kerak. Tashqi muhit obyektlaridan, havodan, suvdan, oziq-ovqat mahsulotlaridan namunalar olib, laboratoriya tekshhirishga yuborishi kerak. Tekshirilgan o'choq

miqyosida epidemiologik vaziyatni baholab, epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish uchun asos belgilashi, aholi orasida yuqumli kasalliklar tarqalganligini tasdiqlab, ularni izolatsiya etish, sanitartozaflash, davolash ishlariga aniq yo'riqnomalar berishi kerak. Otryadning shaxsiy tarkibi himoya vositalari bilan ta'min etilishi hamda obyekt yuzalaridan, odamlarning qo'lidan, tomog'idan bak namuna, suvdan namuna olish, o'simliklardan, hasharotlar hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan namuna olish uchun maxsus moslamalar bilan ta'minlanishi zarur. Otryad tekshirish joyiga yetib kelishi bilan birinchi navbatda havodan, suv manbalaridan namuna olib, sellofan xaltachalarga joylab, laborator tekshirishga yuborishi, keyin guruh rahbarligida odamlarning tomog'I, qo'lidan namunalar olib, o'ta xavfli yuqumli kasalliklardan ehtiyojkorlik choralar ko'rinishini ta'min etgan holda ishlashi kerak. Namuna olishdan keyin qo'lqoplar, qo'l terisining ochiq joylari 1%li xloramin bilan yuvilishi kerak. Olingan namunalarni maxsus konteynerlarda, termoslarda yoki izotermik qutilarda maxsus indikatsiya uchun yuboriladi. Maxsus indikatsiya bu bakteriologik ifloslanishni laboratoriya tekshiruvi orqali tasdiqlaydi. Har ikkala uslubda agar mikrobi o'smalar o'z tasdig'ini topsa, bakteriologik ifloslanishni tez va aniq tasdiqlab beradi. Epidemiologik holatni tasdiqlash uchun quyidagi holatlar kuzatiladi:

- tekshiruv materialini qabul qilish tartibi;
- birlamchi ishlov berish;
- ekspress tekshirish;
- tezlashtirilgan tekshirish;
- natijalarni tasdiqlash, xulosa berish.

### **Favqulodda vaziyatlarda epidemiologik holatni chegaralash, oqibatini bartaraf etish tartibi**

Epidemiologik o'choqlarda bajariladigan tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- yuqumli xastaliklarni tez va erta aniqlash;
- yuqumli kasalliklarni izolatsiya etish;
- yuqumli kasalga chalinganlarni statsionar davolash;
- aholi orasida shoshilinch emlash o'tkazish;

- aholiga profilaktik antibiotiklarni tarqatish;
- epidemiya tarqalgan joylarni, inshootlarni, transport vositalarini, xonadonlarni va muloqotda bo‘lgan odamlarni sanitar tozalashdan o‘tkazish, yoppasiga himoyalovchi emlash o‘tkazish;
- aholi orasida sanitар-oqartuv va tushuntirish ishlarini olib borish.

Yuqumli kasallikkarga chalinganlarni erta aniqlash, doimiy nazorat olib borish va o‘choqda hammaning haroratini o‘lchab, maxsus so‘rovnomalari o‘tkazish, har kuni ularni yakka ko‘rikdan o‘tkazish, tibbiy nazoratni kuchaytirish, shu jarayonda aniqlangan bemorlarni o‘z vaqtida izolatsiya etib, yuqumli kasalxonalarga yotqizish orqali barcha aholiga shoshilinch maxsus emlashni o‘tkazish, epidemiologik o‘choqda barcha tibbiy xodimlar maxsus himoya kiyimlarida ishlashlari, o‘choqda ishlagandan so‘ng to‘la sanitар-tozalanish ishlovidan, kiyim-bosh, ko‘rpa-to‘saklarini dezinfeksiya, dezinseksiyadan o‘tkazilishi zarur. Bakteriologik ifloslanish o‘z tasdig‘ini topishi bilan barcha aholiga shoshilinch profilaktik antibiotiklarni tarqatish, zarurat tug‘ilganda, maxsus faktlar, zardoblar bilan kasallikni oldini olish mumkin.

Epidemiologik o‘choqni keng miqyosda dezinfeksiyalash uchun fuqaro muhofazasining boshqa tuzilmalari va ular ixtiyorida bo‘lgan transport va texnik vositalar ham jalb qilinadilar. Dezinfeksiyalash, degazatsiyalashda kimyoviy, fizikaviy uslublardan ham keng foydalaniladi. Epidemiologik o‘choqda epidemiyaga qarshi bajariladigan ishlar, o‘choqda yashovchi va ishlovchi barcha aholini sanitар yuvish, dezinfeksiya, degazatsiya, deratizatsiyadan o‘tkazish alohida ahamiyatga ega.

O‘choqda qisman va to‘la sanitар-tozalash o‘tkazishda aholi o‘z-o‘ziga va bir-biriga shaxsiy kimyoviy himoya qop yoki 9 % xloramindan foydalaniladi. To‘liq sanitар-tozalash esa, maxsus ajratilgan dala hammomlarida, yoki maxsus ishlov o‘tkazish punktlarida o‘tkaziladi. O‘choqda ifloslangan kiyim-kechak, poyafzallar kamerli dezinfeksiyadan o‘tkaziladi.

## **VIII BOB**

### **FUQARO MUHOFAZASINING TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH BO'LIMLARINI TIBBIY VA SANITAR-XO'JALIK ANJOMLARI BILAN TA'MIN ETISH TARTIBI**

Fuqarolar muhofazasida tibbiy xizmat ko'rsatishda tibbiy ta'minot nihoyatda murakkab bo'lib, u tibbiy xizmat bo'lmlarining favqulodda vaziyatlarda uzlusiz ta'min etilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi davrda favqulodda holat paytida tibbiy xizmat ko'rsatish bo'lmlarining uzlusiz ishlashi, avvalambor, ularning har tomonlama to'la va tartibli ta'minotiga bog'liq. Bunda dori-darmonlar, qon va uning mahsulotlari, bog'lovchi matolar, immobilizatsiya va evakuatsiyalash vositalari, maxsus asbob va anjomlar muhim vosita hisoblanadi.

#### **Tibbiy ta'minotning vazifalari va tashkil etish prinsiplari**

Tibbiy ta'minot tashkilotining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tibbiy ta'minot bo'lmlarini tashkil etish rejasini tuzish;
- tibbiy vositalarni yetkazuvchi manbalarni o'rganish;
- tibbiy xizmat ko'rsatish bo'lmlaridagi tibbiy va sanitар xo'jalik omillarining asosi va tartibini o'rganish;
- tibbiy vositalar ta'minotini hisoblash.

Tibbiy ta'minotni tashkil etish va aniq hisoblash, avvalambor, davolash, sanitар-gigiyenik hamda epidemiyaga qarshi bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarga qarab aniqlanadi. Bu esa sanitар yo'qotishlarga hamda tibbiyot tuzilmalari va bo'lmlarining soniga, jarohatlanganlarni yotqiza olish imkoniyatlariga, kasalxonalar bazasining katta-kichikligiga qarab aniqlanadi. Davolash muassasalarining asosiy vazifasi fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'lmlarini doimo o'z vaqtida to'liq va uzlusiz ta'min etishdan iborat. Bunda, avvalambor, dori-darmonlar, sanitар xo'jalik anjomlari,

maxsus vositalar bilan barcha bo'limlarini, tibbiyot tashkilotlarini, barcha aholini to'liq ta'min etishi **belgilanadi**.

Tibbiy ta'minot, avvalambor, jarohatlanganlarga tez yordam berish, yoppasiga qiruvchi o'choqdan olib chiqish, yo'l-yo'lakay davolash, ularni kasalxonalar bazalariga joylashtirish hamda sanitarn-gigiyenik epidemiyaga qarshi barcha vazifalarni o'z vaqtida bajarilishiga qaratilmog'i lozim.

*Tibbiyot ta'minoti tashkilotlarining vazifalari:*

1. Harbiy-lashtirilgan fuqaro muhofazasi bo'limlarini va tibbiyot xizmati bo'limlarini kerakli bo'lgan tibbiyot vositalari bilan to'la va o'z vaqtida ta'min etish, ayniqsa, yoppasiga qiruvchi quollar o'chog'ida hamda tibbiy ofatlar markazida tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida.

2. Tibbiy ta'minot vositalarini yoppasiga qiruvchi quollardan himoya etish.

3. Tibbiy vositalarni (to'g'ri ishlatish) maqsadga muvofiq ishlatishni nazorat qilish.

4. Tibbiy ta'minot vositalarini o'z vaqtida ta'minlash, tejab foydalanishni tashkil etish.

Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarini tibbiy vositalar bilan ta'minlashning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

– fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarini urush boshlangan davrda yoki favqulodda hodisalar paytida tibbiy sanitarn-xo'jalik hamda maxsus vositalar bilan tinchlik davrida ta'minlashni tashkilotlarda tashkil etish yo'li bilan bajariladi;

– dorixonalar, tibbiy texnik tashkilotlar shahardan tashqaridagi yo'naliishga qarab joylashtiriladi. Ko'pincha qishloqdagagi dorixonalar joylarga ko'chiriladilar, ayrim tibbiy ta'minot rejasiga asosan viloyat, shahar va tumanlarga vaqtinchalik operativ guruh ixtiyoriga topshiriladilar.

Maqsadga muvofiq tibbiy ta'minotni tashkil etishda asosan quyidagi tartibga rioya etilishi talab qilinadi:

a) barcha dorixonalar o'z ishini tinchlik davrida bajariladigan vazifalarga asoslanib ishlashini tashkil etish;

b) shahardan evakuatsiya etilgan dorixonalar, ko'chirilgan kasalxonalar kollektorlarini barcha dori-darmonlar, tibbiyot vositalari bilan ta'min etish;

d) shahardan ko'chirilgan dorixonalar asosan, fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalariga, davolash-profilaktika bazalari ixtiyoriga beriladi;

e) ayrim dorixonalar evakuatsiya jarayonida zarurat paydo bo'lganda sanitar yo'qotishlar yo'nalishiga xizmat etishlari mumkin.

### **Tibbiy mahsulotlar bilan ta'minlovchi tashkilotlar va ularga ta'rif**

Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmatini tibbiy vositalar bilan ta'minlash tinchlik davrida faoliyat yuritayotgan muassasalar tomonidan tashkil etiladi. Barcha dorixonalar omborlari o'z ish faoliyatini to'xtatmagan holda fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarini dori-darmonlar, bog'lagich vositalar bilan ta'minotni tashkil etmoqlari zarur. Bu tashkilotlar o'zlarini fuqaro muhofazasining bo'limlarini tibbiyot vositalari bilan ta'minlashga doimo shay etib turishlari shart.

Tibbiy ta'minot tashkilotlariga dorixonalar bazalari, dorixonalar, medtexnika do'konlari kiradi. Bu tashkilotlar asosan dori-darmonlarni, tibbiyot asbob-uskunalarini, bog'lagich matolarni qabul qilib turadi.

Tibbiyot hamda maxsus buyurtmalar bilan ta'minotni to'g'ri tashkil etish markaziy ta'minot tashkilotlari, ya'ni Sog'liqni saqlash vazirligi qaramog'idagi bosh ta'minot tashkilotlari tomonidan bosh dorixona tashkiloti, medtexnika birlashmasi, viloyatlar dorixona boshqarmasi hamda markaziy dori-darmonlar bazasi tomonidan tashkil etiladi.

Maxsus ta'minot fuqarolar muhofazasi shtablari tomonidan tashkil etiladi. Tibbiyot anjomlari ta'minotining asosiy manbalariga Sog'liqni saqlash vazirligi ixtiyorida bo'lgan barcha muassasalarining zaxiradagi narsalari, dori-darmonlar, tibbiyot asbob-anjomlari, sanitar xo'jalik mollari hisobiga ta'min etiladi. Tibbiyot ta'minotini tashkil etishda mahalliy manbalarga ham

katta e'tibor beriladi, ayniqsa, bog'lagich matolar, spirt, distirlangan suv, tibbiyot uchun zarur bo'lgan kislorod, gips, qattiq va yumshoq mebellar, dezinfeksiyalovchi moddalar va hokazo.

Hozirgi zamonda favqulodda hodisalar yoki qo'qqisdan bo'lishi mumkin bo'lgan urush oqibatlari nihoyatda ko'p miqdorda bog'lagich matolariga ehtiyojini oshiradi, shuning uchun ham mahalliy tekstil ishlab chiqarish korxonalari ham bu ishga jalb etiladi. Spirt, kasallar uchun mebellar mahalliy savdo tarmoqlari orqali ham ta'min etiladi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan tashkilotlar doimo o'z zaxiralarida ma'lum miqdorda ortiqcha ta'minlash qobiliyatini nazarda tutmoqlari **zarur**.

### Tibbiy ta'minot buyumlarining asosiy ta'rifi

Fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining barcha ta'minoti 3 guruhga bo'linadi.

- 1.Tibbiyot buyumlari.
- 2.Sanitar xo'jalik buyumlari.
- 3.Maxsus buyumlar.

Fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining barcha buyumlari bir necha turlarga qarab maxsus guruhlarga, ya'ni klassifikatsiyasiga qarab aniqlanadi. Bular quyidagilar:



**14-rasm.** Bemorlarni ko'chirish moslamasi



**15-rasm.** Travmatologik o'tirgich


Klasslarining belgisi	Guruhdagi buyumlarning nomlari
Guruhlarga qarab	1. Tibbiy buyumlar 2. Sanitar xo'jalik buyumları 3. Maxsus buyumlar
Hisoblash belgisi bilan	1. Sarflanadigan 2. Sarflanmaydigan
Sifatiga qarab	1. Sarflanadiganlar 2. Yaroqli 3. Laboratoriya orqali sifati aniqlanadi
	a) yaroqsiz b) sarf etilmaydigan d) yaroqli e) ta'mirlanishi zarur f) yaroqsiz g) kompleksga qarab kompleksli, ya'ni to'liq h) kompleksli emas, ya'ni to'liq



16-rasm. Pnevmatik narvoncha



17-rasm. Bemorlarni tashish moslamasi



18-rasm. Bemorni  
ko'chirish qayig'i



19-rasm. Bel taxtasi —  
narvoncha

Barcha bo'limlarning ta'minoti ularning ehtiyojiga qarab tabel asosida qoniqtiriladi. Ta'bel deganda, avvalo, buyum-larning miqdori va soni har bir buyumga alohida ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Fuqaro muhofazasining barcha bo'limlari Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'belga ega bo'lishi kerak. Bu tabel asosida ta'minlanib hamda vaqt-vaqt bilan to'ldirib borilishi kerak. Bunda ayniqsa, fan va texnika rivoji natijasida kiritiladigan, ya'ni tibbiy texnik vositalar ham uzuksiz to'ldirib borilmog'i lozim.

Tabel orqali ta'min etilganda har bir bo'limlar fuqaro muhofazasining ma'lum davr mobaynida o'ziga tegishli jarohatlanganlarni to'la-to'kis ta'minlash imkoniyatini beradi.

Tibbiy ta'minot bo'limlari shaxsan tibbiy yordam ko'rsatish uchun jarohatlanganlarga, bemorlarga yoppasiga qiruvchi qurollar o'choqlari hamda evakuatsiya yo'nalishidagi davolash-profilaktika muassasalari, kasalxonalar kollektorlari, kasalxonalar bazalarini ta'min etish uchun va sanitar-gigiyenik epidemiyaga qarshi ishlarni bajarish uchun belgilanadi. Barcha buyumlar turkumiga quyidagilar kiradi:

1. Tibbiy buyumlarga: dori-darmonlar, konservantlar, qon va qon mahsulotlari, bog'lagich matolar, tibbiyot asbob-uskunalarini va dori-darmonlari, laboratoriya anjomlari, reaktivlari, tibbiyot hisoboti kitoblari, daftarlari va hokazolar kiradi. Barcha buyumlar 30 dan ortiq nomga ega bo'lib, har qaysi nom o'z guruh va tartiblariga bo'linadi.

2. Sanitar-xo'jalik buyumlariga: ust-bosh kiyimlari, ko'rpa-to'shaklar, tibbiyot xodimlarining kiyimlari, kasalxona mebellari, ovqatlanish uchun barcha uskuna va anjomlar, xo'jalik ishlari uchun kerakli anjomlar va hokazolar kiradi.

3. Maxsus buyumlarga: shaxsiy himoyalovchi vositalar, radiometrik va dozimetrik asboblar, kimyoiy tekshirish razvedka asboblari, aloqa va ekektr ta'minoti apparatlari va anjomlari kiradi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan tibbiy bo'limlarining soni va turlari nihoyatda keng. Anjomlarga qarab dori-darmonlar guruhlarga bo'linadi. Bular hisoblash qoidasiga ko'ra, kundalik sarf etiluvchi va uzoq vaqt hisobda turuvchi guruhlardir.

Bu buyumlar bilan ta'min etish maxsus jadval asosida har bir davolash muassasalarining ehtiyoji va qobiliyatini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda, avvalambor, davolash-profilaktika muassasalarining vazifasi doirasida ta'minlanadilar. Jadvalga kiritilgan tibbiyot anjomlari esa shu korxonaning ishlash xususiyati va talabiga asosan maxsus talabnomalar qorxonaning hisobidan ham to'ldiriladi va tasdiqlangan jadvalga asosan dori-darmon omborlaridan ta'minlanishlari kerak.

#### **Fuqarolar muhofazasining tibbiy buyumlar bilan ta'min etilishining asosiy ro'yxatu**

<b>Hisobda turuvchi tibbiy buyumlar</b>	<b>Kundalik sarf etiladiganlar</b>
1. Dori-darmonlar va reaktivlar a-ro'yxati bo'yicha	1. Apparatlar, asboblar, jarrohlik asboblari: -anatomik va jarrohlik moslamasi. - qon va qon mahsulotlari, dori-darmonlar quyish, surish, sepish uchun moslamalar. -to'qimalarni birlashtiruvchi matolar.
2. Umumiyl dori-darmonlar	2. Tibbiy xizmat ko'rsatish uchun komplektlar.

3. Antibiotiklar	3. Tibbiyotning turli sohasida ishlovchi vrachlar asboblari: <ul style="list-style-type: none"> <li>- neyroxiurgiya</li> <li>- oftalmologik</li> <li>- otolaringologik</li> <li>- akusher-ginekologik</li> <li>- urologik</li> <li>- stomatolog</li> <li>- anesteziya va reanimatsiyalovchi,</li> <li>- sun'iy kislorod apparatlari.</li> <li>- travmatologik</li> <li>- fizioterapiya asbob apparatlari</li> <li>- diagnostik apparatlar va asboblar rentgen, diagnostik va davolovchi apparatlar laboratoriya asbob-anjomlari</li> </ul>
4. Vitaminlar.	4. Dorixona uchun apparatlar va dastgohlar
5. Organo-terapeutik va garmon	5. Sterilizatsiyalash apparatlari
6. Qon va qon almashtirish preparatlari	6. Konservantlar, qon olish moslamalari
7. Bakteriyalar, profilaktika mahsulotlari	7. Dezinfeksiyalash asboblari
8. Bog'lagich va tikuvchi matolar	8. Qon tayyorlash uchun zarur bo'lgan asboblar
9. Dezinfeksiya, degazatsiyalovchi moddalar.	9. Tibbiy sanitar texnikalar
10. Reaktiv bo'yqolar, laboratoriyaga oid vositalar.	
11. Tishni davolash uchun zarur dori-darmonlar va vositalar	
12. Dorixona va laboratoriya buyumlari.	
13. Tibbiy hisob-kitoblar uchun formalar.	
14. Qisqa vaqt yoki bir karra ishlatalidigan jarrohlik, terapeutik va hokazo buyumlar.	

Yuqorida keltirilgan ro'yxatdagi buyumlar zaxirada doim bo'lishi shart, ular vaqt bilan tozalanib, almashtirib turilishi zarur.

### **Sanitar xo'jalik va kundalik muhim bo'lgan narsalar**

<b>Sanitar xo'jalik buyumlari</b>	<b>Maxsus buyumlar</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ust-bosh kiyimlari</li> <li>2. Shaxsiy tartib kiyimlari</li> <li>3. Ko'rpa-to'shaklar</li> <li>4. Kasalxona kiyimlari</li>   <li>5. Tibbiyot xodimlari uchun sanitar kiyimlar</li> <li>6. Oshxona uchun anjomlar</li> <li>7. Ovqat pishirish, tarqatish</li> <li>8. Kasalxona uchun va xo'jalik ishlari uchun qattiq va yumshoq mebellar</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shaxsiy himoya vositalari</li> <li>2. Radiometrik apparatlar</li> <li>3. Dozimetrik apparatlar</li> <li>4. Dozimetrik va radiometrik apparatlarning energiya manbalari</li> <li>5. Aloqa vositalari</li>   <li>6. Injener texnik vositalari</li> <li>7. Yong'inga qarshi anjomlar</li> </ol>

### **Tibbiy vositalar bilan ta'minlash tartibi va ularni himoyalash choralarini**

Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarining tibbiy ta'minotining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

- hozirgi zamonda harbiy texnik o'zgarishlar qisqa muddatda yangi, hali ma'lum bo'lмаган antidodlar va dori-darmonlarni talab etishi mumkin;

- tibbiy ta'minot normalari bir qancha miqdorda o'zgarishi mumkin, chunki yangi yoppasiga qiruvchi qurollar hayotga kirib kelishi bilan bu ko'rsatkich yangi talab bilan bajarilishi mumkin;

- tibbiy vositalar zaxirada doimo yangilanib, safarbarlik holatiga shay turishi lozim;

- yoppasiga qiruvchi qurollardan doimo himoyalash, zaxiralarni imkoniyati bor holatida bir-biridan узоqроq joylashtirish, ta'minot jarayonida ehtiyojlarini qondirish, dezinfeksiyalash, qayta qo'llash choralarini ko'rish;

- zaxiralarni shahardan chetga chiqishi natijasida ta'minot ishlarining murakkablashishi kabilar.

Tibbiy vositalar bilan ta'minlash asosan davolash shoxobchalarining evakuatsiya yo'nalishi asosida bajariladi. Bunda SP, SO, SDO, BTYOning dorixonasi va transporti bilan ta'minlovchi vositalarni ularga yetkazib beriladi.


Ayniqsa, sodir bo'lgan o'choqlarda avtoaptekalarni ko'plab ajratish lozim. Bunda dori-darmonlar, anjomlarning barcha ro'yxati komplekt sifatida tayyorlanib, alohida-alohida saqlanmog'i lozim. Chunki har bir komplekt ma'lum miqdordagi jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Barcha talablar bo'yicha dorixona komplektlari belgilangan kishilarga bиринчи vrachlik va dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lmog'i lozim.

### **Tibbiy ta'minot ro'yxatidagi vositalarni himoyalash, zararsizlantirish choralarini bajarish**

Dushman tomonidan yoppasiga qiruvchi quroq ishlatilganda atrof-muhit, zaxiralardagi tibbiy ta'minot anjomlari zaharli moddalar, reaktiv zarrachalari va bakteriyalar bilan zararlanishi mumkin. Shu sababli zararsizlantirish, himoyalash ishlarini barcha bosqichlarda uzlusiz bajarish lozim. Barcha zaxira xonalari imkoniyati bor darajada evakuatsiyalash bosqichlari yo'nalishida bir-biridan uzoqroq bo'lishi zarur. Bunda yoppasiga qiruvchi qurollar qo'llanmaydigan atrof tanlanadi. Barcha dori-darmonlarni germetik berkitilishi, ko'chirish jarayonini brezent himoyasida amalga oshirish hamda zaharli, radioaktiv va bakterial moddalar bilan tozaligini uzlusiz nazorat qilib turish shart. Ochiq qolgan hamda zararlangan dori-darmonlarni qo'llashdan oldin ularni ma'lum tartibda zararsizlantirish, undan so'ng qo'llash zarur.

Barcha tibbiy vositalarni qo'llaganda tibbiyot xodimlari ehtiyyotkorlik tadbirlarini ko'rib, ularni qayta qo'llash choralariga amal qilmoqlari, kerak bo'lsa, ularni tozalab, ishga yaroqli etib turishlari zarur.


## Birinchи tibbiy yordam otryadining tuzilish tartibi




JAMI	SONI
Shaxsiy tarkibi	150
Vrachilar	8
Hamshiralar	38
Yengil avtomashina	1
Yuk tashuvchi avtomashina	14
Elektrotranssiya	1
Yoritgich elektr uskunasi	1

O'rtacha 10 soat 500 ta  
jarohatlanganiarga birinchi  
vrachlik yordami bera oladi


## Avtosanitar safining tashkiliy tuzilishi




## Sanitar yuvish punktining tashkiliy tuzilishi



## Sanitar drujinachilarning tashkiliy tuzilishi



## Harakatchan epidemiyaga qarshi otryadning tuzllish tartibi



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari».
2. O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni. 1999-yil 20-avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining VII-1378 raqamli «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarda harakat qilish to'g'risida»gi farmoyishi. — T.: 1996-yil 4-mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil qilish to'g'risidagi №134 qarori.— T.: 1996-yil 11-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasida favqulodda holatlarning oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tuzilmalari to'g'risidagi qaror. — T.: 1998-yil 23-dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Favqulodda vaziyatlarning turlari, texnogen, tabiiy hamda ekologik xususiyatga ega bo'lgan holatlarning ta'riflari to'g'risida»gi farmoyishi. — T.: 1998-yil 27-oktabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan himoyalanishga tayyorlash to'g'risida»gi № 427 qarori. — T.: 1998-yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Favqulodda vaziyatlarni oldini olish davlat tizimi to'g'risida»gi № 558 qarori. — T.: 1997-yil.
9. I.I. Mamatov. Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza. — T.: 1997-yil.
10. Р.Г. Имангулов. Медицинская служба и защита от оружия массового поражения в подразделениях. — М.: 1988.
11. Методика оценки радиационной и химической обстановки по данным разведки гражданской обороны. — М.: 1980.

12. Ruscha-uzbekcha harbiy terminlar lug‘ati. — Т.: 1989-yil.
13. Положения о формировании гражданской защиты и нормы оснащения (табелизации) их материально-техническими средствами. — Т.: 2001.
14. Гражданская оборона.
15. **Н.А. Агалаков, В.М. Гореков.** Аптечка индивидуальная. — Л.: 1980.
16. **В.Н. Александров.** Емеляков-отравляющие вещества. — М.: Воениздат.
17. **М.М. Бобојонов, L.V. Lidskiy.** Grajdan muhofazasining tibbiy xizmat asoslari. — Т.: Meditsina, 1973.
18. **Ю.Ю. Бонитенко, Е.С. Коросов** «Первая медицинская помощь при острых отравлениях». — Л.: 1979.
19. Военно-полевая терапия под редакцией Н.С Молчанова и Е.В Гамбитского. — Л.: Медицина. 1973.
20. Военно-медицинская подготовка. Учебник для студентов медицинских институтов под редакцией Ф.И Комарова. Медицина. 1988.
21. Военная токсикология, радиология и медицинская защита под редакцией Н.В Салатаева. — Л.: Медицина. 1987.
22. **Голиков С.Н.** Профилактика и лечения отравлений фосфороорганическими инсектицидами. — М.: Медицина. 1968.
23. Руководство по токсикологии. **С.И. Лактионов, Ю.Н. Стройка.** — М.: Медицина. 1972.
24. **N.M. Demidenko, N.M. Smetanin.** «Kimyoviy zaharli moddalar, defoliant va gerbitsidlarni zaharlanishdan saqlash choralar». — Т.: 1964.
25. **А.П. Дуриков.** Оценка радиационной обстановки на объектах народного хозяйства. Медицина. Воениздат. 1987.
26. **В. В. Мясникова.** Защита от оружия массового поражения. — М.: 1989.
27. Инструкция по этапному лечению пораженных с боевой терапевтической патологией. Медицина. Воениздат. 1983.
28. **Н.И. Каракчиев.** Военная токсикология и защита от ядерного и химического оружия. — М.: Медицина. 1988.
29. **А.А. Караблев.** Ядерное оружие и его поражающие действия. — М.: Медицина. 1968.
30. **V.A. Leshkivet.** Atom energiyasi. — Т.: 1995.

31. М.Н. Линочев. А.Р. Надирянтс. Первая помощь при поражениях отравляющими веществами. — Л.: 1973.
32. Й.А. Лужников. Клиническая токсикология. — М.: Медицина. 1987.
33. Р. Люрвич, К. Лоос. «Острые отравления под редакцией Е.В Гембицкого». — М.: Медицина. 1983.
34. Ф.П. Манец. Защита от оружия массового поражения. — М.: Воениздат. 1967.
35. М.Д. Машковский. Лекарственные средства 1-2 том. — М.: Медицина. 1986.
36. L.M. Monastirskiy. Atom quroli, kimyoviy va boshqa bakteriolorik quollardan shikastalangan kishilarga yordam berish. — Т.: 1958.
37. Наставление по пользованию индивидуальной защиты. 1978.
38. Неотложная помощь при остром отравлении под редакцией С.Н. Голикова. — М.: Медицина. 1977.
39. Г.И. Оксенгледер. Яды и противоядие. Наука. 1982.
40. Sh. T. Otabekov, A.Л. Shomahmudov. Pastitsidlar gigiyenasi va toksikologiyasi. — Т.: 1979.
41. Д. Ротшилд. Оружие завтрашнего дня перевод с английского языка. — М.: Воениздат. 1966.
42. В.Н. Розенберг. Об антидотных свойствах в оксиметиллитиламинах при отравлениях цианидами. «Фармакология и токсикология». 1967.
43. Руководство по лечению комбинированных поражений на этапах медицинской эвакуации под редакцией Е.А Жербина. — М.: Медицина. 1982.
44. Руководство по медицинским вопросам противо радиационной защиты. Под редакцией А.И Бурназяна. — М.: Медицина. 1975.
45. Руководство по медицинской службе Гражданской обороны. Под редакцией А.И Бурназяна. — М.: Медицина. 1983.
46. Н.В. Саватеев и др. Влияние кислорода при нормальном и повышенном давлении в течении отравлений цианидами. «Фармакология и токсикология». 1969.
47. Е.И. Сафренов. Лучевая болезнь. — Л.: 1962.
48. Соринсон С.Н. Применение кислорода при поражениях отравляющими веществами. Медгиз. 1958.

49. Ю.Н. Стройков. Медицинская помощь пораженным отравляющими веществами. — М.: Медицина.1970.
50. Ю.А.Сахаров. Учебное пособие по патологии и поражений радиоактивными и отравляющими веществами. — М.: Медицина.1972.
51. Учебник для санинструкторов. — М.: Воениздат. 1964.
52. Ю.Г. Улитин, А.И. Бекетов. Гигиена труда при работе с ядовитыми техническими жидкостями. — Л.: 1979.
53. С. Херш. Химическое и биологическое оружие: Тайный арсенал Америки. Перевод с английского. — М.: 1970. Воениздат.
54. Х. Алаутдинов. «Планирование» организации эвакомероприятия. «Fuqaro muhofazasi». «Гражданской защиты». O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining ijtimoiy-ommaviy va ilmiy-amaliy jurnalni, 2001, №2, 5-bet.
55. К. Турсунов, Л Канаев. «Сели, Лавина, Землетрясения – как их предсказать». «Fuqaro muhofazasi». «Гражданской защиты». O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining ijtimoiy-ommaviy va ilmiy amaliy jurnalni, 2001, №2, 17-bet.
56. Т.Негматов. «Предупреждения чрезвычайных ситуаций природного характера».
57. Z. Soatov. «Ahолining zilzila ro'y bergandagi harakatlari». «Палатка населения о действиях при землетрясениях», 2001, №2, 36-bet.
58. У.Усманов. «От стихии можно защититься», 2001, №3, 18-bet.
59. И. Хабибуллаев. З. Соатов. «Учить защите с Молоду».
60. «Рекомендации по структуре и содержанию плана действий по предупреждению и ликвидации ЧС в мирное время». «Fuqaro muhofazasi» журнали, 2001, №3, 42-44-betlar.
61. А. Хаджибаев, К Худайкулов, Б Шукuros, Г.Сулайманова, И.Рахмон. Защита и экстренная помощь». «Fuqaro muhofazasi» журнали, 2001-yil, №4, 38-39-betlar.
62. Zahro Fotih qizi. «Tosh oqimlari». «Fuqaro muhofazasi» журнали, 2001, №4, 44-45-betlar.
63. M. Ikromov, G. Stargin, E Semekov. «Qor ko'chkisidan muhofaza». «Muhofaza» журнали, 2004, №1, 24-25-betlar.
64. Z. Ilyosov. "Suv balosidan muhofaza". «Muhofaza» журнали, 2004, № 1, 125-126-betlar.
65. M. Yunusov, R.Kenjayev, S Xusanova. «Muhofaza» журнали, 2004, №1, 26-27-betlar.

66. **T. Rashidov.** «Zilziladan harakat». «Muhofaza” jurnalı, 2004, №1, 32-33-betlar.
67. **A. Norxo‘jayev, S. Hikmatullayev.** «Yer ko‘chkisi». «Muhofaza» jurnalı, 2004, № 2, 10-11-betlar.
68. **A.Norxo‘jayev, S. Hikmatullayev.** «Suvga cho‘kishdan saqlaning». «Muhofaza» jurnalı, 2004, №2, 12-13-betlar.
69. **A.Suvonov, K.A.Abdullabekov.** «Zilzilani oldini olish mumkinmi?». «Muhofaza» jurnalı, 2004, №2, 14-16-betlar.
70. **Zahro Ilyosova.** «Dunyoni suv bosganmi?». «Muhofaza» jurnalı, 2004, №2, 38-39-betlar.
71. **M.Sariqulov, Y.Omonov.** «Muhofaza – tayyorgarlik, zarurat». «Muhofaza» jurnalı, 2004, № 2, 27-bet.

## MUNDARIJA

So‘zboshi .....	3
Kirish .....	4

### I BOB

Fuqarolar muhofazasining hozirgi davrdagi o‘rni va mohiyati .....	6
Fuqaro muhofazasi haqida tushuncha .....	9
Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy omillari .....	11
Favqulodda tabiiy hodisalar paytida fuqaro muhofazasining vazifalari .....	12
Fuqarolar muhofazasining kuchi, vositalari va tuzilmalari .....	14
Fuqarolar muhofazasining umumiy bo‘limlari .....	15
Fuqarolar muhofazasining korxonalar va obyektlardagi tashkiliy tuzilmalari .....	22
Fuqaro muhofazasining o‘quv yurtlaridagi tashkiliy tuzilishi .....	23
Fuqarolar muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkiblarini fuqaro muhofazasi xizmatiga jalb qilish .....	27

### II BOB

Tinchlik va harbiy holatlardagi favqulodda vaziyatlarni taktik baholash .....	29
Favqulodda holatlar turlari .....	30
Tabiiy ofatlar, avariya (katastrofalar) tafsiloti va ularning oqibatlari .....	31
Zilzila sodir bo‘lgunga qadar nima qilmoq kerak? .....	37
Zilzila yuz berganda harakatimiz qanday bo‘ladi? .....	38
Zilziladan so‘ng nimalarga e’tibor berish lozim? .....	39
Suv toshqini o‘chog‘i .....	39
Bo‘ronlar va toshqinlar .....	46

Yong'inlar .....	48
Avariya va katastrofalar .....	49
Radioaktiv zaharlanishlar .....	51
Harbiy holat o'choqlariga taktik baho berish .....	54

### III BOB

Aholi va hududlarni favqulodda holatlardan himoyalanishning huquqiy asoslari .....	58
Favqulodda vaziyatlarda faoliyat yurituvchi davlat tizimi .....	63

### IV BOB

Favqulodda vaziyatlar holatida aholini himoyalash .....	75
Aholini favqulodda holatlarda himoyalash tartibi .....	76
Dozimetrik nazorat tartibi .....	80
Favqulodda holat o'chog'idan aholini evakuatsiyalash tartibi .....	82
Ishlab chiqarish korxonalarida favqulodda vaziyatlarda ritmik ishlarni tashkil etish .....	90
Mexanik sexni yorug'lik nuriga chidamliligi .....	93
Favqulodda vaziyatlarda qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarni bajarishni tashkil etish .....	95
Qidiruv-qutqaruv va boshqa shoshilinch bajariladigan ishlarni jarohatlanish o'chog'ida bajarish tartibi .....	98
Radioaktiv va kimyoviy o'choqlar .....	101
Kimyoviy jarohatlar o'chog'ida aholini himoyalash .....	103
Bakteriologik (biologik) o'choqda aholini himoyalash .....	105
Ko'p jarohatlanishlar yig'indisi o'chog'ida aholini himoyalash (kombinatsiya) .....	107
Tinchlik va harbiy holatlardagi favqulodda vaziyatlarda aholini himoyalash .....	108
Favqulodda holatlar va ulardan himoyalanish .....	109
Tabiiy ofatlar, avariya (katastrofalar) dan aholini himoyalash .....	110

### V BOB

Favqulodda vaziyat o'chog'ida tibbiy yordam tizimining davolash evakuatsiyalash ishlarni jarohatlangan aholiga tashkil etish .....	113
Davolash-evakuatsiyalash tushunchasi .....	113

Favqulodda vaziyat oqibatida jarohatlangan aholiga tibbiy yordam va davolash-profilaktika ishlarini tashkil qilish .....	116
Fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlari, ularning tashkiliy tuzilishi .....	122
Jarohatlangan bemorlarni tibbiy saralash tartiblari .....	127
Tibbiy evakuatsiyalashning tashkiliy masalalari, vazifalari, turlari .....	131

## VI BOB

Fuqarolar muhofazasi tibbiy xizmati bo'limlarining birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni jarohatlanish o'chog'ida tashkil etish tartibi .....	137
Jarohatlanish o'choqlarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi .....	141
Birinchi vrachlik yordami ko'rsatish tartiblari .....	155
Favqulodda vaziyatlarda fuqarolar muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatishda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tartibi va tashkiliy tuzilishi .....	163
FMTXning statsionarlari .....	169

## VII BOB

Sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi ishlar .....	177
Favqulodda vaziyatlarda epidemiologik holatni chegaralash oqibatini bartaraft etish tartibi .....	187

## VIII BOB

Fuqaro muhofazasining tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limlarini tibbiy va sanitar-xo'jalik anjomlari bilan ta'min etish tartibi .....	189
Tibbiy ta'minotning vazifalari va tashkil etish prinsiplari .....	189
Tibbiy mahsulotlar bilan ta'minlovchi tashkilotlar va ularga ta'rif .....	191
Tibbiy ta'minot buyumlarining asosiy ta'rifi .....	192
Tibbiy vositalalar bilan ta'minlash tartibi va ularni himoyalash choralar .....	197
Tibbiy ta'minot ro'yxatidagi vositalarni himoyalash, zararsiz-lantirish choralarini bajarish .....	198
Foydalaniqan adabiyotlar .....	204

*O'quv-uslubiy nashr*

O'.HASANOV

**FAVQULODDA VAZIYATLARDA TIBBIY XIZMAT  
KO'RSATISH TARTIBI**  
*(O'quv qo'llanma)*

Muharrir  
L. IGAMOVA

Badiiy muharrir  
B.BOZOROV

Texnik muharrir  
YE.DEMCHENKO

Musahhih  
N.MINAHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi  
F.BOTIROVA

Bosishga 02.11.2006-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.  
Bosma tobog'i 6,625. Shartli bosma tobog'i 11,13.  
Adadi 1940 nusxa. Buyurtma № 244.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlod» nashriyot matbaa markazida tayyorlandi.  
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.  
700113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.



**O'tkir HASANOV**, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

1940-yilda Buxoro viloyati Peshku tumanida tug'ilgan.

Toshkent Davlat tibbiyot institutining davolash fakultetini bitirib, 1966-yildan 1991-yilgacha harbiy tibbiy xizmatda bo'lgan, podpolkovnik.

Hozirda Buxoro Davlat tibbiyot institutida «Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam» kursi mudiri vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda.



978-9943-08-001-0